


KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL

2023, №3



KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal
2023-yil, 3-son

Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim
boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV

Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

Tahrir hay'ati:

M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO'RAYEV,

A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV

J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,

A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,

K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani

Universitet ko'chasi, 2-uy

Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru,
ksbjurnal@inbox.uz.

Nashr uchun mas'ul

H.Sirojiddinov

Shahifalovchi:

I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to'g'ri
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi"
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 31.03.2023-yil.

Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.

Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxonada manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,
Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

МУНДАРИЖА

Sodiqova G.G'. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning lisoniy zaruriyati va asoslari	3
Mirzayev A.X. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi	7
Xoldarova I.V. Divergent fikrlash: xususiyatlari, rivojlanish yo'llari ...	13
Mustapaqulov S.U. Texnika oliy ta'lim muassasalarida "texnik mexanika" fanini o'qitish usullari.....	19
To'xtanazarova Z.U. Alohida ehtiyoji bor bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning roli	24
Ashurova C.IU. Современные подходы модернизации системы профессионального образования в узбекистане	28
Ikromov M.X. "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish.....	33
Jamshid B.E. Таълимда компетентли ёндашув асосида бўлажак информатика ўқитувчиларининг касбий кўникмаларини шакллантириш воситалари.....	37
Qosimov Sh.U. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda pedagogik amaliyotni tashkil etish.....	43
Kodirov M.M. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qishga o'rgatish omillari	46
Xushnazarova M.N. Pedagog-tarbiyachini innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik- psixologik muammolari.....	51
Саггаркулов К. Академик лицейларда "квант физика" Бўлимни ўқитишда ўқувчиларнинг илмий дунёкарашини шакллантиришда дидактик тамойилларидан фойдаланиш.....	57
Тошпулатов Р.И. Таълим самарадорлигини оширишда оммавий очик онлайн курсларнинг ўрни	62
Султанов Б.Ф. Формирование безопасности жизнедеятельности будущего специалиста в системе профессионального образования.....	66
Raxmonov I.Y. Xalilayev B.T. Ofitserlar kasbiy faoliyatida kompetentlik va uning ahamiyati	70
Isayev N.F. Imitatsion modellashtirishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari.	74
Ганиева А.З. Архитектоника управленческих компетенций руководителя доо	79
Xurramov A.J. Raqamli texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarning kompetentsiyalarini shakllantirish vositasi sifatida	84
Талипов Н.Х., Султонова Д., Хўжаева С. Талабаларни касбга йўналтиришда портрет композициясини ишлашнинг айрим хусусиятлари	89
Azimov D.G'. Talabalarni qo'shimcha mashg'ulotlar orqali individual ta'limga yo'naltirishning nazariy asoslari	94
G'ofurov A.U. Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga oid bilimlarini rivojlantirishning tashkiliy va ijtimoiy-pedagogik asoslari.....	98
Umarova M. M. Ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasi doirasida oilaviy qadriyatlarini o'rganish muammolari.....	105
Isaxanova M.E. Oilaviy ta'limning kichik yoshdagi o'quvchining o'zini o'zi qadrlashiga ta'siri	109
Менгликулов А.Х. Мактаб ёшидаги болаларни сузишга ўргатишдаги босқичининг ташкилий-методик хусусиятлари	114
Abduraxmanov Z.B. Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorlashda virtual modellashtirish didaktik vosita sifatida.....	120
Imankulov N. Ta'lim tizimida steam texnologiyasidan foydalanish asoslari	127
Mardonkulov J.A. Bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorlashda pedagogik innovatsion jarayon mohiyati	131
Bo'ronov Sh.Sh. Ekologik kompetentlik: keng dunyoqarash va toza hayot sari yo'l	136
Xo'jamqulova N.R. Boshlang'ich sinflarda xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarda savodxonlik darajasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	141

Usmonov A.A. Talabalarda tadqiqot bilan bog'liq ko'nikmalarni rivojlantirishning zarurati.....	151
Muratov X.X., Isometova G.D. Oliy ta'limda talabalar darslarini ta'limiy dasturlar orqali tashkil etishning samaradorligi	156
Xayitov L., Qurbonova M. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitish idroki xususiyatlari	159
Ramonova S.K. Oliy harbiy bilim yurtida elektrotexnika va elektronika asoslarini o'qitishning zamonoviy shakllari va o'qitish metodikasi	164
Позилова Ш.Х. Профессионал таълим ўқитувчилари касбий креативлигини ривожлантиришнинг илмий-методик жиҳатдан таҳлили.....	170
Sultanov R.O. Talabalarining loyihalash faoliyatini tashkil etishda arduino platformasida robototexnik uskunalardan foydalanish	177
Toshpulatov F.U. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida estetik ko'nikmalarni rivojlantirishning ijtimoiy – pedagogik zaruriyati	184
Gulomova N.X. Muhandislik va kompyuter grafikasi darslarida 3d printer yordamida ta'lim oluvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish	192
Ataqulova M.N., Rasulova M.G', Tog'ayeva Sh.T. Biologiya ta'limi jarayonida talabalarni kreativligini oshirishni o'rni.....	197
Tilakova M.A. Umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish bo'yicha pedagogik jarayonni tashkil etish yo'llari.....	201
Xoliqov U.Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga shaxmatni o'rgatish orqali shaxsiy sifatlar va mantiqiy fikrlash darajasini baholash metodikasi.....	207
Baymetov B.B., Umataliyev M.A. Talabalarnga rangtasvirdan o'quv mashq - vazifalarinitashkil etishning nazariy asoslari.....	215
Эшнаев Н.Ж. Отмда замонавий мобил мутахассис тайёрлашнинг ижтимоий педагогик-психологик омиллари	221
Muratov X.X. Tasviriy san'at fanlaridan mustaqil ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish orqali ta'lim samaradorligiga erishish	225
Muminova G.Z. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda akmeologik texnologiyalarning o'rni.....	232
Abduvaliyeva N.Sh. Yuqori malakali yengil atletikachi sprinterlarni musobaqalardagi natijalari tahlili.....	237
Adizova N.B. Divergent fikrlashga oid ilmiy-nazariy tadqiqotlar masalasiga doir.....	241
Samadova S.J. Oliy harbiy ta'lim kursantlariga til o'rgatishda duch kelinadigan qiyinchiliklar.....	247
Sharipova S.F. Geometriya kursida ba'zi yasashga doir masalalarni yechish usullari.....	253

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA KO'P MA'NOLI SO'ZLARNI O'RGATISHNING LISONIY ZARURIYATI VA ASOSLARI

SODIQOVA GULBAHOR G'OFURJON QIZI

FarDU boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası o'qituvchisi

Annatsiya. Ushbu maqolada so'z, so'zning lug'aviy ma'nosi, ko'p ma'noli so'zning bosh va ko'chma ma'nosi haqida fikrlar keltirilgan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'p ma'noli so'zlarni tushunib, farqlash va ularni nutqda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish an'anaviy va interfaol metodlar uyg'unligini ta'minlagan holda olib borish kerakligi haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'z. So'z, leksik ma'no, semantik tarkib, bosh ma'no

Аннотация. В данной статье представлены представления о слове, словарном значении слова, основном и переносном значении многозначного слова, традиционных и интерактивных методах формирования умений понимания и различения многозначных слов и употребления их в речи у учащихся начальных классов. выделены мнения о необходимости ее проведения при обеспечении гармонии.

Ключевые слова. Слово, лексическое значение, смысловое наполнение, основное значение

Annotation. This article presents ideas about the word, the dictionary meaning of the word, the main and figurative meaning of a polysemantic word, traditional and interactive methods of developing the skills of understanding and distinguishing polysemantic words and using them in speech among primary school students. opinions on the need for its implementation while ensuring harmony are highlighted.

Keyword word, Lexical meaning, semantic content, main meaning

So'z – tilning eng muhim birliklaridan biri hisoblanadi. Ulardan muloqot qilish jarayonida odamlar kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi ma'lumoti, e'tiqodidan qat'iy nazar, barcha insonlar doimiy ravishda foydalanadilar. So'zning asosiy xususiyati uning leksik ma'nosidir. So'zning lug'aviy ma'nosi - kishilar ongida so'z aks ettirgan ob'ekt, xususiyat, jarayon va hodisa haqidagi g'oyani mustahkamlovchi mazmunidir. So'z ifodalagan lug'aviy ma'no shaxs aqliy faoliyatining mahsuli hamdir. So'z shunday qudratga egaki, u vayron qiluvchi yoki yaratuvchi bo'lishi mumkin. Ona tili lug'at boyligini o'rganishni boshlagan kichik yoshdagi o'quvchi tafakkuri ko'p ma'noli so'zlar ma'nosini rivojlanishi yordamida yuksaltirish mumkin.

Boshqa ko'plab tillardagi kabi o'zbek tilida ham o'zining semantik tarkibida bir

necha leksik ma'noga (ikki yoki undan ortiq) ega bo'lgan so'zlar mavjud. Bu ko'p ma'noli so'zlar bo'lib, ular odatda tilda va nutqda bir necha ma'noda qo'llaniladi. Polisemiya atamasi ilmiy adabiyotlar va lug'atlardagi tahliliga ko'ra, yunoncha poly - "ko'p" yadro sema - belgi "ishora yoki ma'noga" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, til birliklarining birdan ortiq ma'noga ega bo'lishini anglatadi. [Hojiev A. 69-b.].

Tilda bir ma'noni anglatish hodisasi monosememiya bo'lib, bunday xususiyatli til birligi monosemantik birlik deyiladi. Tilshunoslikda so'zlarning bir ma'noliligiga ko'p ma'nolilikning pastki chegarasi sifatida qaraladi. Turli fanlarga tegishli terminlar odatda, monosemantik, ya'ni bir ma'noli bo'ladi.

U.Tursunov, J.Muxtorov,
Sh.Raxmatullaev hammuallifligida chop

etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida lug‘aviy va leksik polisemiya haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, darslikda monosemantik leksemalar qatoriga shartli ravishda atoqli otlar ham kiritiladi. Eng tor kontekstli leksema ham monosemantik bo‘ladi: Eng tor kontekstli leksema ham monosemantik bo‘ladi: bunday leksema faqat bir ma‘no yunalishidagi leksemalar bilan (ba‘zan yakka leksema bilan) bog‘lanib keladi; shunday bog‘lanishdan tashqarida mustaqil ishlatilmasligi ham mumkin. Masalan, tanqid, o‘taka kabi leksemalar juda tor kontekstli va bir ma‘noli. Har bir leksema yaratilishiga ko‘ra monosemantik bo‘ladi: biror predmet, belgi, munosabatning nomi sifatida yuzaga keladi. Keyinchalik u boshqa hodisalarga ham nom bo‘lib xizmat qiladi, shu yo‘l bilan o‘z ma‘nosini o‘zgartiradi, taraqqiy ettiradi. Natijada leksema ma‘nosida turli-tuman siljishlar yuz beradi, monosemantik leksema polisemantik leksemaga aylanadi. [1992. 80-b.] Bu kabi so‘zlarning ma‘nosi bitta turg‘un ma‘noning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Barcha tillarda til birliklari monosemantik (bir ma‘noli) va polisemantik (ko‘p ma‘noli) birlik deb guruhlanadi.

Ko‘p ma‘noli so‘zning bosh va hosila (bog‘li) ma‘nolarining tiplari tahlilida tilni amaliy egallash uchun, avvalo, so‘zning asosiy, bosh ma‘nolarini bilib olish kerak bo‘ladi. So‘zning bog‘li yoki hosila ma‘nosi so‘z semantikasi haqida to‘liq tasavvur uyg‘otmaydi va so‘zni nutqda to‘g‘ri talqin qilish, muvofiq qo‘llash imkonini bermaydi. Olimlarning aytishicha, biror bir tilda har bir ob‘ekt, belgi harakat alohida so‘zlar bilan nomlanadigan tilni borligini tasavvur qilishning o‘zi qiyin. Bunday tilni egallash va undan foydalanish katta qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun tilda tillarda ko‘p ma‘noli so‘zlar paydo bo‘lgan. Tildan foydalanuvchi til egalari atrofda narsalar o‘rtasida o‘xshashlik topishga harakat qiladilar va

mavjud so‘zlar bilan yangi ob‘ektlarni, narsa, hodisalarni nomlaydilar.

Polisemantik, ya‘ni ko‘p ma‘noli so‘zlar tillarda turli sabablarga ko‘ra paydo bo‘ladi. Ko‘p ma‘noli so‘zlarga semasiologik yondashuv (“bu so‘z nimani anglatadi?”) asosiy hisoblanadi. Bunday yondashuv avvalo lisoniy yondashuv sifatida ko‘p ma‘nolilikning tabiatini, so‘zning semantik tarkibga ma‘nolarni birlashtirish usullarini ochib beradi. Polisemiya hodisasini o‘rganishning onomosiologik jihati (qaysi umumiy belgi bilan ma‘noni ifodalash mumkin?) Odatda assotsiativ ravishda bog‘langan bunday ma‘nolar bir-biridan ancha uzoqdir ular odatda yagona kontseptsiyani ifodlamasligi mumkin. Ko‘p ma‘nolilik –tilda tabiiy va keng tarqalgan hodisa, uning eng muhim semantik qoliplaridan biri hisoblanadi. Tilda ko‘p ma‘nolilik hodisasi paydo bo‘lishining ikki asosiy sababi bor.

Ulardan birinchisi tejamkorlik tamoyili bilan izohlanadi va tajribamizning cheksizligi va tilning cheklangan birliklari o‘rtasidagi ma‘lum qarama-qarshiliklarda ko‘rinadi. Biz insonlar atrofimizdagi voqelikni anglab, biz bir xil so‘zni u yoki bu tarzda o‘zaro umumiylikka ega va bog‘lanishi bor bo‘lgan turli xil ob‘ektlar sinfiga murojaat qilish uchun ishlatishga majbur bo‘lamiz. Shu jarayonda bir ob‘ekt yoki narsa nomini boshqalariga o‘tkazamiz. Shunday qilib insonlar tildan foydalanishni boshlagan davrlardan boshlab, ular atrofda narsalar o‘rtasida o‘xshashlikni topishga harakat qildilar va mavjud so‘zlar bilan yangi ob‘ektlarni nomlashni boshladilar. Tilshunos olim V.V.Vinogradovning fikriga ko‘ra, til g‘oyalarning rivojlanishi bilan boyib boradi va so‘zning xuddi shu tashqi qobig‘i yangi ma‘no va ma‘nolarning kurtaklari bilan qoplangan. [V.V.Vinogradov].

Ko‘p ma‘noli so‘zlarning lisoniy mohiyati belgi va ma‘noning assimetriyasi bilan izohlanadi. Bu eng muhim semantik

qonuniyatga rus tilshunosligida birinchi bo'lib, S.O.Kartsevskiy e'tibor qaratdi. Biroq odatda belgi va ma'no bir-birini to'liq qamrab olmaydi: bir xil belgi "o'z vazifalarga boshqa vazifalarga ega bo'lishga intiladi. Ular assimetrikdir". [V. A. Zvegintsev S. 85–93.] Olim leksema va sememaning belgi va ma'no sifatida turgan beqaror muvozanati til birliklarining ham turg'un, ham kommunikativ vazifani bajarishdagi harakatchanlik hamda o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega ekanligini ham ta'kidlaydi. Ko'p ma'noli so'zlar qisman mazmunan kengayadi, lekin shaklan bir xil birliklar bo'lib qolaveradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zbek tili leksikologiyasini o'rgatish jarayonida so'zning grammatik hamda lug'aviy, o'z va ko'chma ma'nolari, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar haqida nazariy tushunchalar berilmaydi. Shunday bo'lishiga qaramay, boshlang'ich sinf o'quvchilari darsliklarda, asosan "Ona tili va o'qish savodxonligi" kitobidagi matnlarda birinchi marta ko'p ma'noli so'zlarga duch keladi, ammo ular har doim ham bunday so'zlarning bir necha ma'noda qo'llanilayotganligini bilmaydi. Ko'p ma'noli so'zlar tushunchasiga ular matnlar va og'zaki nutq orqali ega bo'lishni boshlaydilar. Biroq, birinchi navbatda, bir so'zda bir nechta ma'noning mavjudligi o'quvchilarning hayratiga sabab bo'ladi. O'zbek tilining izohli lug'atida "Bosh" so'zi va uning ko'chma ma'nolari to'g'risida quyidagi ta'riflar keltiriladi:

Bosh – so'zi 1.Tananing bo'yindan yuqorigi oldingi (odamda, hayvonlarda) qismi; kalla. Bosh kosasi (anat.). Bosh miya. Bosh kiyimlar magazini. Do'st boshga boqar, Dushman oyoqqa. Maqol...

1.Ko'chma. Aql-hush, miya. Bosh bilan ish qilmoq. Tog'ning ko'rki tosh bilan, odamning ko'rki bosh bilan. Maqol... Bosh og'ritmoq (yoki qotirmoq). 1) qattiq o'ylamoq, fikr yuritmoq; tashvish qilmoq.

[O'TIL. 2006.333-b].

Bu so'zning birinchi ma'nosi, ya'ni o'z ma'nosi. O'zbek tilining izohli lug'atida "Bosh" so'zning yigirmaga yaqin ma'nolari berilgan bo'lib, ularning aksariyati ko'chma ma'noda ekanligi ko'rsatilgan. Ana shunday ko'chma ma'nolaridan biri boshlang'ich sinf 4-sinf darsligida korib chiqamiz.

Bosh-biror bir ishga bosh bolmoq, asosiy, yetakchi.

Yaqinlashganda tanidim, ot mingani jamoa xo'jaligining mol doktori – Qo'chqor aka, eshakdagisi –bosh cho'pon Iso bobo ekan. (Kokyoil.N.Fozilov 4-sinf 148-bet)

Bosh-voqea, hodisaning yoki faslning, asarning boshlanish joyi.

Ibn Sino boshida chelaklab suv tashib o't o'chirayotganlarga qarashib turdi. (Kitobga ixlos.Mirkarim Osim 4-sinf 91-bet)

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'p ma'noli so'zlarni tushunib, farqlash va ularni nutqda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish an'anaviy va interfaol metodlar uyg'unligini ta'minlagan holda olib borish, maxsus mashq hamda topshiriqlarni bajarish, matnlarni tahlil qilish yo'li bilan erishishni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilar tilimizdagi so'zlarining ma'no va mohiyatini o'rganishlari zarur. Ularda til va so'zni his etish ko'nikmalarini shakllantirish esa ulardan nutqda to'g'ri foydalanish imkonini beradi. Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolarini o'zlashtirish va ulardan nutqda o'rinli qo'llash malakasining hosil qilinishi alohida ahamiyatga ega. Bu kabi malakalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan egallanishi uchun ona tili va savod o'qitish darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilar bilan birgalikda ko'p ma'noli so'zlar ishtirok etgan matnlar va topshiriqlardan foydalangan holda ularning asosiy va ko'chma ma'nolari ustida ishlash ona tili va o'qish savodxonligi darslaridagi

oddiy mashg'ulot emas. Mazkur jarayonda:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarning aqliy va nutqiy jihatdan rivojlanishi ko'zda tutiladi;

- dasturda belgilangan ilmiy-nazariy hamda metodik vazifalar bajariladi;

- o'quvchilar tafakkurida tasviriy vositalar va taqqolash usuli haqida tushuncha shakllanadi;

- o'quvchilarda so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash ko'nikmasi paydo bo'ladi.

So'z ma'nolari ustidagi ish murakkab va qiyindir. Bolalarda yangi, ayniqsa, ma'nosi xiraroq so'zlarga alohida va jidtsiy e'tibor qaratish hissini tarbiyalashga erishish oson kechmaydi. Ammo muntazam va barqaror mashqlar tizimi bu vazifani bajarishni

osonlashtiradi. Shunga ko'ra har doim matn ustida ishlaganda yangi so'zlarga va so'zlarning yangi ma'nolarda qo'llanganiga e'tiborni tortish, o'quvchilarning bu sohadagi ko'nikma va malakalarining shakllanishi va takomillashishiga imkon beradi. [To'xliiev B, Shamsieva M, Ziyadova T. 2006. 86-b].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy tilshunoslik so'z ma'nosini tilning eng muhim qismi deb hisoblaydi, chunki ma'noni ifodalash va idrok etish tilning asosiy maqsadi bo'lib, bu esa uning turli vazifalarini, xususan, kommunikativ vazifalarini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilining barcha imkoniyatlaridani foydalanishni o'rgatish boshlang'ich ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Hojiev A. 69-b..
2. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Raxmatullaev. "Hozirgi o'zbek adabiy tili"
- 3.V. A. Zvegintsev S. 85–93.
4. To'xliiev B, Shamsieva M, Ziyadova T. 2006. 86-b.
5. O'QISH KITOBI .Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik.Toshkent 2017.
6. К.Қосимова, С.Матчонов, Х. Фуломова, Ш.Йўлдошева, Ш.Сариев. 2009.
7. Машарипова. У. 13-14
- 8.5. Г.Стерн, с.167, А.И.Смирницк с.89
9. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI .O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi nashrga tavsiya etgan Yangi nashr Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik 2-QISM. Toshkent – 2021
10. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI .O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi nashrga tavsiya etgan Yangi nashr. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. 1-QISM.Toshkent – 2021

CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

MIRZAYEV AVAZBEK XUSHVAQT O'G'LI

JDPU xorijiy tillar o'qitish metodikasi kafedrası stajyor o'qituvchisi

Annatsiya: Mazkur maqolada chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanaish va uning samaradorligi, imkoniyatlari va tarixi haqida ko'plab ma'lumotlar berib o'tilgan. Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, passiv o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi, sinfda o'quvchilar o'rtasida raqobat va jamoatdoshlik muhitini hosil qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning ustozlariga bo'lgan hurmatini oshiradi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, grammatika, til, nutq, innovatsiya, texnologiya, rivojlanish masalasi, so'z turkumlari, sifat, ot, metod, o'qitish, texnologiya, taraqqiyot.

Аннотация: В данной статье представлено много информации об использовании современных инновационных технологий в обучении иностранному языку и их эффективности, возможностях и истории. Роль обучения через различные игры в обучении английскому языку несравнима. Игра в различные игры во время урока повышает энтузиазм в изучении науки в классе, побуждает пассивных учащихся к более активному участию в уроках и создает атмосферу конкуренции и товарищества среди учащихся в классе. Это также повышает уважение учащихся к своим учителям.

Ключевые слова: английский язык, грамматика, язык, речь, инновация, технология, проблема развития, группы слов, качество, существительное, метод, обучение, технология, развитие.

Abstract: This article provides a lot of information about the use of modern innovative technologies in foreign language teaching and its effectiveness, possibilities and history. The role of teaching through various games in teaching English is incomparable. Playing various games during the lesson increases the enthusiasm for learning science in the classroom, encourages the passive students to participate better in the lessons, and creates an environment of competition and camaraderie among the students in the classroom. It also increases students' respect for their teachers.

Key words: English language, grammar, language, speech, innovation, technology, development issue, word groups, quality, noun, method, teaching, technology, development.

Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish tarixi 1960-1970-yillarda birinchi kompyuter yordamida til o'rganish (CALL) dasturlari ishlab chiqilgan vaqtga to'g'ri keladi. O'shandan beri til o'qitishda texnologiyadan foydalanish rivojlanishda va o'sishda davom etdi. 1980—1990-yillarda til o'rgatishda interaktiv multimedia texnologiyalari, masalan, CD-ROMlar joriy etildi. Bu o'quvchilarga matnlar, audio va video

materiallar bilan o'zaro munosabatda bo'lish, mashqlarni o'z-o'zidan va qiziqarli tarzda bajarish imkonini berdi. 1990 va 2000-yillarda internetning keng qo'llanilishi bilan onlayn til o'rganish platformalari va vositalari paydo bo'ldi. Bular til o'rganish veb-saytlari, onlayn lug'atlar, chat xonalari va muhokama forumlari hamda onlayn kurslar va materiallardan foydalanish imkonini beruvchi elektron o'quv platformalari edi.

So'nggi yillarda smartfon va

planshetlar kabi mobil qurilmalardan foydalanish ham til o'rganishni o'zgartirdi. Mobil ilovalar va o'yinlar til o'rganishning mashhur vositalariga aylandi, chunki ular o'quvchilarga til ko'nikmalarini yo'l-yo'lakay mashq qilishlari uchun qulay va qiziqarli usulni taklif etadi.

Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi ko'plab tadqiqotlar mavzusi bo'ldi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, texnologiya takomillashtirilgan til o'rganish o'quvchilarni yanada qiziqarli va rag'batlantiradi, chunki u yanada dinamik va interaktiv o'rganish tajribasini taklif qiladi. Bundan tashqari, texnologiya o'quvchilarga tilni bilish darajasini oshirishga yordam beradigan haqiqiy materiallar va manbalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish tarixi nisbatan yangi soha bo'lsa-da, u allaqachon til ta'limiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ilgari chet tilini o'qitish, avvalambor, grammatik tarjima va eslab yodlash kabi an'anaviy usullarga asoslangan edi. Biroq, texnologiyaning rivojlanishi bilan til o'rganish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. 1960—1970-yillarda til o'rgatishda audio-lingual va kommunikativ yondashuvlar paydo bo'ldi, ular og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvlar audio va video materiallarni joriy etish bilan qo'llab-quvvatlandi, bu esa o'quvchilarga tabiiyroq kontekstda tinglash va gapirish qobiliyatlarini mashq qilish imkonini berdi. 1980-1990-yillarda kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishi kompyuter yordamida til o'rganish (CALL) ning joriy etilishiga olib keldi. Til o'rganishning ushbu yangi yondashuvi o'quvchilarni mazmunli til amaliyotiga jalb qilish uchun mo'ljallangan interaktiv mashqlar, simulyatsiya va o'yinlarni taqdim etish uchun kompyuterlardan

foydalangan.

Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn lug'atlar, til almashish platformalari va mobil ilovalar til o'rganuvchilar uchun asl til mazmuniga kirish va maqsadli tilda so'zlashuvchilar bilan bog'lanish uchun mashhur vositalarga aylandi. Bugungi kunda til o'rgatishda texnologiyadan foydalanish rivojlanishda davom etmoqda, Virtual reallik va sun'iy intellekt kabi yangi vositalar paydo bo'lmoqda. Virtual haqiqat o'quvchilarga real til muhitiga kirishga imkon beradi, chatbotlar va nutqni aniqlash dasturlari kabi sun'iy intellektga asoslangan vositalar esa o'quvchilarga shaxsiy fikr-mulohaza va yordam beradi.

Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi keng o'rganildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, texnologiya o'quvchilarga haqiqiy til kiritishni ta'minlash, o'quvchilarning avtonomiyasini rag'batlantirish va hamkorlikda o'rganish imkoniyatlarini taklif qilish orqali til o'rganishni yaxshilashi mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, texnologiya an'anaviy o'qitish usullari yoki yuzma-yuz muloqot o'rniga emas, balki til o'rganishni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ishlatilishi kerak. Biroq, til o'rgatishda texnologiyaning samaradorligi material va resurslarning sifatiga hamda qo'llaniladigan pedagogik yondashuvga bog'liq. Til o'rgatishda texnologiyadan samarali foydalanish o'quvchilarning ehtiyojlari va o'rganish uslublarini sinchkovlik bilan hisobga olishni, shuningdek, texnologiyani puxta ishlab chiqilgan va izchil o'quv dasturiga kiritishni talab qiladi.

Umuman olganda, xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish tarixi uzluksiz evolyutsiya va o'sish bilan ajralib turadi, til o'rgatish va o'rganish samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalar va yondashuvlar ishlab chiqilib, qabul qilinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligiga oid adabiyotlar ko'p bo'lib, bu borada salmoqli tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu adabiyotning tahlili texnologiyaning til o'rganish natijalariga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Til o'rgatishda texnologiyaning eng muhim afzalliklaridan biri bu o'quvchilarga haqiqiy til ma'lumotlarini taqdim etish qobiliyatidir. Videolar, podkastlar va yangiliklar maqolalari kabi haqiqiy materiallarga internet orqali osongina kirish mumkin va o'quvchilar tinglash va o'qish qobiliyatlarini yaxshilash uchun ushbu materiallardan foydalanishlari mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, haqiqiy materiallardan foydalanish tilni o'rganish natijalarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin (Breen & Littlejohn, 2000).

Texnologiyaning yana bir afzalligi shundaki, u o'quvchilarga til ko'nikmalarini yanada interaktiv va qiziqarli tarzda mashq qilish imkonini beradi. Kompyuter yordamida til o'rganish (CALL) dasturlari va mobil ilovalar, masalan, o'quvchilarga o'z tillarini ishlab chiqarish bo'yicha darhol fikr-mulohazalarini taqdim etishi mumkin, bu esa ularning aniqligi va ravonligini oshirishga yordam beradi (Chapelle va Hegelheimer, 2004).

Texnologiya, shuningdek, til o'rganish muvaffaqiyatining muhim omili bo'lgan o'quvchilarning mustaqilligini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Masalan, onlayn lug'atlar va grammatika bo'yicha ma'lumotnomalar o'quvchilarga o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin, bu ularga o'z tezligida ishlash va shaxsiy ehtiyojlariga e'tibor qaratish imkonini beradi (Warschauer va Kern, 2000).

Birgalikda o'rganish - bu texnologiya til o'rganuvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan yana bir soha. Ijtimoiy media platformalari va til almashish veb-

saytlari o'quvchilarga maqsadli tilda so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish va ularning til ko'nikmalarini yanada haqiqiy va mazmunli tarzda mashq qilish imkoniyatini berishi mumkin (Kessler, 2018). Biroq, ba'zi tadqiqotlar, shuningdek, til o'rgatishda texnologiyaning mumkin bo'lgan kamchiliklarini ta'kidlaydi, masalan, texnologiyaga haddan tashqari ishonish va yuzma-yuz muloqotning yo'qligi (Levy & Stockwell, 2006).

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, texnologiya chet tilini o'rgatishda samarali vosita bo'lishi mumkin, biroq uning samaradorligi undan qanday foydalanish va til o'rganish jarayoniga integratsiyalashuviga bog'liq.

Chet tillarini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tadqiqot metodologiyasi odatda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Tadqiqot muammosini aniqlash: Birinchi qadam tadqiqot muammosini yoki tadqiqot hal qilishni maqsad qilgan savolni aniq belgilashdir. Bu an'anaviy til o'rgatish usullarining mavjud muammolari va cheklovlarini hamda til o'rgatishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni kiritishning mumkin bo'lgan afzalliklarini aniqlashni o'z ichiga olishi mumkin.

Adabiyotlarni ko'rib chiqish: Til o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq mavjud tadqiqot va nazariyalarni o'rganish maqsadida keng qamrovli adabiyotlar tahlilini o'tkazish. Bu avvalgi tadqiqotlar, maqolalar, kitoblar va boshqa tegishli manbalarni ko'rib chiqishni o'z ichiga olishi mumkin.

Gipotezalar va tadqiqot savollarini shakllantirish: Tadqiqot muammosi va adabiyotlarni ko'rib chiqish asosida tadqiqot jarayoniga rahbarlik qilish va tadqiqot yo'nalishini aniqlash uchun gipotezalar va tadqiqot savollari tuziladi.

Tadqiqot ishtirokchilarini tanlash:

Tadqiqot hajmi va tabiatiga qarab, tegishli tadqiqot ishtirokchilari tanlanadi, masalan, til o'qituvchilari, talabalar yoki ikkalasi.

Ma'lumotlarni yig'ish: so'rovlar, suhbatlar, kuzatishlar va testlar kabi ma'lumotlarni to'plash uchun turli usullardan foydalanish mumkin. Ma'lumotlar to'plash tadqiqot savollariga javob berish va oldingi bosqichlarda tuzilgan gipotezalarni tekshirish uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Ma'lumotlarni tahlil qilish: Ma'lumotlar to'planganidan so'ng, ular naqsh va tendentsiyalarni aniqlash, xulosalar chiqarish va tadqiqot savollariga javob berish uchun tahlil qilinishi kerak. Statistik tahlil ma'lumotlarni sharhlash va gipotezalarni tekshirish uchun ishlatilishi mumkin. Natijalarni sharhlash va xulosalar chiqarish: Ma'lumotlar tahlili natijalari xulosalar chiqarish va til o'rgatish amaliyoti va kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar berish uchun sharhlanadi. Natijalar haqida hisobot berish va tarqatish: Yakuniy bosqich xulosalar haqida hisobot berish va ularni nashrlar, taqdimotlar va boshqa vositalar orqali tarqatish va til o'rgatish va o'rganish sohasiga hissa qo'shishdir. Umuman olganda, chet tillarini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tadqiqot metodologiyasi til o'rgatish va o'rganishda yangi texnologiyalarni joriy etishning mumkin bo'lgan afzalliklari va muammolarini o'rganishga tizimli yondashuvni o'z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish tahlili va natijalari qo'llanilayotgan o'ziga xos texnologiyalar, o'qitish mazmuni va qo'llaniladigan tadqiqot metodologiyasiga bog'liq. Biroq, avvalgi tadqiqotlarga asoslangan ba'zi umumiy kuzatishlar va topilmalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Kengaytirilgan faollik va motivatsiya: Onlayn til o'rganish platformalari, mobil

ilovalar va interfaol doska kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talabalarning chet tilini o'rganishga bo'lgan faolligini va motivatsiyasini oshirishi mumkin. Bu texnologiyalar o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirilishi mumkin bo'lgan ko'proq interaktiv va shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini taqdim etadi.

Til malakasini oshirish: Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tilni, xususan, talaffuz, so'z boyligi va tinglab tushunish kabi sohalarda malakasini oshirishi mumkin. Masalan, talaffuz bo'yicha tezkor fikr bildiruvchi mobil ilovalar o'quvchilarning nutq malakalarini oshirishga yordam beradi.

Moslashuvchanlik va qulaylik kengaytirildi: Onlayn til o'rganish platformalari va mobil ilovalar talabalarga joylashuvidan qat'i nazar, o'z tezligi va vaqtida o'rganish uchun moslashuvchanlik va foydalanish imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, ish yoki boshqa majburiyatlari tufayli an'anaviy til darslariga qatnasha olmaydigan talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Qiyinchiliklar va cheklovlar: Zamonaviy texnologiyalar ko'plab potentsial imtiyozlarni taqdim etsa-da, ular shuningdek, ishonchli internet ulanishiga bo'lgan ehtiyoj, texnologiyaning narxi, chalg'itish potentsiali va yuzma-yuz muloqotning etishmasligi kabi qiyinchiliklar va cheklovlarni ham taqdim etadi.

Umuman olganda, xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish tahlili va natijalari shuni ko'rsatadiki, ular til o'rganishni kuchaytiradi va o'qituvchi va talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ushbu texnologiyalarning kontekstini, amalga oshirilishini va mumkin bo'lgan cheklovlarini diqqat bilan ko'rib chiqish ularning til o'rgatish amaliyotiga samarali integratsiya qilinishini ta'minlash uchun

zarurdir.

Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish tahlili va natijalari ancha istiqbolli bo'ldi, chunki ular til o'rganishdagi ko'plab an'anaviy muammolarni bartaraf etishga yordam berdi. Mana bir nechta asosiy topilmalar:

Ishtirok etish va motivatsiyani oshirish: Til o'rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning faolligi va motivatsiyasini oshirishi ko'rsatilgan. Til o'rganish o'yinlari, videolar va mobil ilovalar kabi interfaol multimedia vositalari til o'rganishni o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va qulayroq qildi.

Kengaytirilgan til bilimi: Talabalarga gapirish, tinglash, o'qish va yozish ko'nikmalarini mashq qilish uchun ko'proq imkoniyatlar taqdim etish orqali innovatsion texnologiyalar tilni bilish darajasini oshirishi aniqlandi. Til o'rganish dasturlari, virtual reallik simulyatsiyalari va ijtimoiy media platformalari o'quvchilarga til o'rganish tajribasini yanada chinakam va immersiv taqdim etishda samarali bo'ldi.

Yaxshilangan qulaylik va moslashuvchanlik: Innovatsion texnologiyalar til o'rganishni yanada qulay va moslashuvchan qildi. Talabalar istalgan joydan va istalgan vaqtda til o'rganish materiallari va resurslaridan foydalanishlari mumkin, bu esa til o'rganishni yanada qulay va moslashuvchan qildi.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Innovatsion texnologiyalar til o'rganishni o'quvchilarning individual ehtiyojlari va afzalliklariga moslashtirish imkonini berdi. Intellektual repetitorlik tizimlari, moslashtirilgan ta'lim dasturlari va boshqa shaxsiylashtirilgan ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlari va yutuqlaridan kelib chiqqan holda maqsadli fikr-mulohaza va yordamni taqdim etishi mumkin.

Tilni tejamkor o'rganish: Innovatsion texnologiyalar ham til o'rganishni tejamkor

qildi. Onlayn til kurslari, til o'rganish ilovalari va boshqa raqamli resurslar odatda an'anaviy til kurslari, darsliklar va boshqa materiallarga qaraganda ancha arzon.

Umuman olganda, xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish tahlili va natijalari ushbu texnologiyalar til o'rganish natijalarini yaxshilashda yuqori samara berishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarning to'liq imkoniyatlarini o'rganish va ularni til o'rgatish va o'rganish amaliyotiga integratsiya qilishning eng samarali usullarini aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish til o'rganishni o'zgartirish va uni yanada qiziqarli, samarali va qulayroq qilish imkoniyatiga ega. Turli tadqiqotlar tahlili va natijalari shuni ko'rsatdiki, multimedia vositalari, virtual reallikni simulyatsiya qilish va shaxsiylashtirilgan ta'lim texnologiyalari kabi innovatsion texnologiyalar tilni bilish darajasini oshirishi, o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshirishi hamda til o'rganish tajribasini shaxsiylashtirilgan va tejamkor bo'lishini ta'minlashi mumkin.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, texnologiya sehrli yechim emas va uning samaradorligi tilni o'qitish va o'rganish amaliyotiga qanday integratsiyalashganiga bog'liq. Shuning uchun o'qituvchilarni ushbu texnologiyalardan unumli foydalanishga o'rgatish va ulardan pedagogik jihatdan asosli foydalanishni ta'minlash kerak. Qolaversa, texnologiyadan foydalanish til o'rganishning muhim tarkibiy qismi bo'lgan odamlarning o'zaro ta'siri va muloqotini almashtirmasligini ta'minlash zarur. Aksincha, texnologiya an'anaviy o'qitish usullarini takomillashtirish va to'ldirish, talabalarga til ko'nikmalarini mashq

qilish va qo'llash uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish uchun ishlatilishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish til o'rganish natijalarini oshirishda yuqori samara berishi mumkin, ammo undan oqilona va an'anaviy o'qitish usullari bilan uyg'unlashgan holda foydalanish, o'quvchilarga har tomonlama til o'rganish tajribasini taqdim etish zarur.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish til o'rganishdagi ko'plab an'anaviy muammolarni yengib o'tishda katta imkoniyatlarni ko'rsatdi. Ushbu texnologiyalar talabalarga ko'proq qiziqarli, interaktiv va shaxsiylashtirilgan til o'rganish tajribasini taqdim etdi, bu ularning malakasi va motivatsiyasini oshiradi. Til o'rganish uchun materiallar va resurslarning qulayligi va moslashuvchanligi, shuningdek, onlayn til kurslari va raqamli resurslarning

tejamkorligi til o'rganishni yanada qulay va arzon qildi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, til o'rgatishda innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash ularning ta'lim natijalariga erishishda samarali bo'lishini ta'minlash uchun puxta rejalashtirish, amalga oshirish va baholashni talab qiladi. O'qituvchilar va o'qituvchilar ushbu texnologiyalardan foydalanishga to'g'ri tayyorgarlik ko'rishlari kerak va talabalar ularni o'rganishlarini optimallashtiradigan tarzda foydalanishga yo'naltirilishi kerak.

Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu texnologiyalarni til o'rgatish va o'rganish amaliyotiga integratsiya qilishning eng samarali usullarini o'rganishga, shuningdek, til o'rganish natijalarini yaxshilashda ularning uzoq muddatli samaradorligini baholashga qaratilishi kerak. Tadqiqot va ishlanmalar davom etar ekan, zamonaviy innovatsion texnologiyalar chet tillarini o'qitish sohasini o'zgartirish va til o'rganishni yanada qulay, qiziqarli va samarali qilish imkoniyatiga ega.



Фойдаланилган адабиётлар:



1. N. Rasulova "Lectures from Mother Tongue", Tashkent, "Nurafshan Ziya Yogdusi", 2017
2. M. Gapporov, R. Kasimova "English Grammar", Tashkent, "Turonlqbal". 2010
3. Q. Sapayev "Current Uzbek language" Tashkent, 2009

DIVERGENT FIKRLASH: XUSUSIYATLARI, RIVOJLANISH YO'LLARI

XOLDAROVA IRODAXON VALIJONOVNA

Filologiya fanlari bo'yicha Phd, FarDU Umarqulova Muhayyoxon A'zamjon qizi
2-kurs magistranti FarDU

Annotatsiya. Mazkur maqolada tafakkur turlaridan bo'lgan divergent tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari, divergent fikrlashni rivojlantirish haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Divergent tafakkurni rivojlantirish bolaning umumiy intellektual rivojlanishiga yordam berishi, ayniqsa kichik maktab yoshidagi bolalarning umumiy intellektual qobiliyatlari rivojlanishi uchun asos ekanligi berilgan. Shuningdek, divergent fikrlashni qanday rivojlantirish mumkinligi borasidagi tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, boshlang'ich ta'lim, divergent tafakkur, ijodiy fikrlash.

Kirish. Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi, xususan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim beruvchi o'qituvchilarning psixologik-pedagogik tayyorgarligini nazariy-didaktik, metodik tayyorgarligini takomillashtirish, boshlang'ich ta'limni izchillik, uzviylik va tizimlilik prinsiplari asosida tashkil etishning meyoriy-huquqiy fundamenti yaratilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari divergent tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari ularni maktab ta'limi jarayonida psixologik qo'llab quvvatlash zarurati bilan bog'liq. Mamlakatimizda so'nggi paytlarda umumiy o'rta ta'limdagi nazariy fanlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga yuqori talablarni qo'yimoqda. Divergent tafakkurni rivojlantirish bolaning umumiy intellektual rivojlanishiga yordam beradi, ayniqsa kichik maktab yoshidagi bolalarning umumiy intellektual qobiliyatlari rivojlanishi uchun asos bo'ladi.

Asosiy qism. Insonning hayot yo'lida paydo bo'ladigan muammolar bilan samarali kurashishi uchun fikrlashning ba'zi muhim xususiyatlarini rivojlantirishga e'tibor berish kerak. XX asrning 60-yillarida amerikalik psixolog Joy Guilford tafakkur va intellekt masalalarini o'rganib, kreativlik nazariyasini ishlab chiqdi. Unga ko'ra inson tafakkuri aniq algoritm (konvergent tafakkur) bo'yicha

muammoni bir tomonlama hal qilishga yo'naltirilishi mumkin. Shuningdek, bitta muammoni hal qilishda keng o'zgaruvchanlikni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan (divergent tafakkur) fikrlash jarayoni mavjud. Divergent fikrlashning ahamiyati va har qanday muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi.

Fikrlashning xususiyatlari

Eng tog'ri bo'lgan optimal yechimlarni izlashda, shu jumladan g'oyalarni yaratishda asosiy rol tafakkurga tegishli bo'ladi. Tafakkurning mohiyati javob izlashda va voqelikni anglash istagidadir. Inson o'ylaganda aqliy faoliyatning ko'plab jarayonlarini faollashtiradi: diqqat va kuzatish, qiziquvchanlik va eslash, baholash va izohlash, tasavvur va fantaziya, xotira va bilish.

Shunday holatlar ham bo'ladiki, odam yaxshi o'qigan holda ko'p narsani bilsada hayotiy va kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qila olmaydi. Insonda katta hajmdagi bilimlarning mavjudligi unga ushbu bilimdan tez va samarali foydalanishiga kafolat bermaydi. Qiyin vaziyatlarga duch kelganda, hatto bilimdon odam ham adashib qolishi natijada esa taklif qilingan yechimning tezligi va sifati past bo'lishi mumkin. Bunday holda sifatli, ijobiy fikr yurita olish muhimdir. Tez fikrlashni o'rganish, muammoni hal qilishning

bir nechta variantlarini taklif qilish, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Uning turlaridan biri divergent fikrlashdir.

Divergent fikrlashning xususiyatlari

Gilford birinchi bo'lib intellektni turli tomonlardan ko'rib chiqib boshladi. U intellektning 120 xil qobiliyatini va ularni belgilovchi 15 omilni tavsiflab bergan. Divergent fikrlash axborotni qayta ishlash jarayonida ongning eng muhim operatsiyalaridan biridir.

Divergent (lotincha *divergere* "ajralish, chetga chiqish") fikrlash – insonning bir xil ma'lumotlarga asoslangan ko'p sonli qarorlar chiqarish qobiliyati.

Konvergent (lotincha *convergere* - "bir markazga yaqinlashish") fikrlash – insonning o'z e'tiborini bitta asosiy yechimga qaratishi. Divergent fikrlash - muammoning yechimini turli yo'nalishlarda izlash qobiliyati. Bu qanday mexanizmlar bilan sodir bo'ladi? Gilford divergentsiyani ijodkorlikning asosi deb hisoblagan, uning asosiy ko'rsatkichlari ravonlik, moslashuvchanlik, mahsuldorlik va murakkablik (rivojlanish). Ushbu ko'rsatkichlarning mumkin bo'lgan hissasini hisobga olgan holda, divergent aql innovatsion usullar va nostandart g'oyalarni qidiradi. Shunday qilib, divergent fikrlash egasining qadr-qimmatini shundaki, u tez va samarali g'oyalar uchun bir nechta variantni taklif qila oladi, ulardan biri eng yaxshi yechim bo'ladi.

Divergent fikrlashni qanday rivojlantirish mumkin?

Tezkorlik bilan ko'plab g'oyalarni yarata oladigan va o'ziga xos, takrorlanmas, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida shakllanish uchun quyidagi usullar va mashqlardan foydalanishingiz mumkin:

- Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi. Divergent fikrlashni rivojlantirish usullaridan biri aynan shunday topshiriqlarga yechim izlash hisoblanadi. Ixtirochilik masalalarini juftlikda o'rganish va Internetdan masala yechimini izlamaslik yaxshi natija

beradi. Aynan shunday topshiriqlardan biri "Chiroq" muammosini hal qilish. Lampochka kuyganini tasavvur qiling. Xonani yoritish uchun uni nima bilan almashtirasiz? Bu maqsad uchun haqiqatan ham mos keladigan 10 ga yaqin variantni o'ylab toping. Har qanday vaziyat uchun ko'plab yechimlar mavjudligini ko'rasiz. To'ldirish vaqti - 5 daqiqa.

- "t" harfi bilan tugaydigan so'zlar (otlar) ro'yxatini yozing. Treningning navbatdagi lahzasi "l" harfi bilan boshlanadigan so'zlar ro'yxatini yaratish bo'lishi mumkin. Uchinchi harfi "a" bo'lgan so'zlar ro'yxatini tuzishga harakat qiling. Harflarni o'zgartiring va mashqni ma'lum vaqt davomida, masalan, 3 yoki 5 daqiqa davomida bajarang. Shunday qilib, siz fikrlashning rivojlanish dinamikasini ko'rasiz.

- Har qanday so'zni oling (masalan, SAYOHAT yoki GULLAR). Vazifa - ushbu harflardan boshlanuvchi so'zlar orqali to'liq jumla tuzish. Vazifani bajarish uchun ketgan vaqtni o'lchang: Shu tarzda siz fikrlashning ravonligini kuzatib borasiz.

- Tezlik uchun 2, 4, 6, 8, 10 va hokazo raqamlar qatorini davom ettiring.

- Nostandart fikrlashni rivojlantirish maqsadida "odatiy narsalardan noodatiy foydalanish" nomli tafakkur mashqini bajarang. Bu mashq ham juftlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Divergent fikrlash jarayonida sherigingiz bilan umumiy foydalanish mumkin bo'lgan narsalarning nomini ayting (masalan, QOG'UZ va QOZON). 3 daqiqada siz ushbu predmetlarni tavsiflashingiz hamda ishlatishning iloji boricha ko'proq g'ayrioddiy usullarini o'ylab topishingiz kerak. Kim ko'proq topa oladi?

Ushbu oddiy usullar va mashqlar yordamida siz fikrlash samaradorligini sezilarli darajada oshirishingiz va muammolarga g'ayrioddiy tarzda yondashish qobiliyatiga ega bo'lishingiz mumkin.

Divergent fikrlashni faollashtirish ko'nikmalarini juftlikda mashq qilish

tavsiya qilinadi. O'zaro ta'lim olish aqlni tarbiyalashning eng samarali usullaridan biridir.

Ijodkor odamlar nafaqat san'at asarlarini yaratishga, balki yechimi yo'qdek ko'rinadigan vaziyatlardan chiqish yo'lini ham topishga qodir. Ularning murakkab nazariy yoki amaliy muammolariga yechimlari o'ziga xos va ko'pincha ajoyibdir.

Yuzlab yillar davomida olimlar va faylasuflar ijodkorlikning asosi nima ekanligini, odamga atrofdagi dunyoni o'zgartirish, yangi, mutlaqo noyob narsalarni yaratish imkoniyatini beradigan narsalarni aniqlashga harakat qilmoqdalar. XX asrga kelib psixologiyaning rivojlanishi bilan ijodkor kishilar tafakkurning o'ziga xos turi bilan ajralib turishi ma'lum bo'ldi. Ijodkorlik psixologiyasi bo'yicha taniqli tadqiqotchi Joy Gilford uni turli yo'nalishlarga yo'naltirilgan tafakkur ya'ni divergent tafakkur deb atadi.

Fikrlashning ikki asosiy turi va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Fikrlash jarayonining eng yuqori shakli qanday fikrlash ekanligini haqida so'z yuritilganda, ko'pchilik hech ikkilanmasdan mantiqiy degan xulosaga kelinadi. Darhaqiqat, aniq, izchil, qat'iy qonunlarga bo'ysunadigan bu tafakkurga fikrlash jarayonining eng yuqori shakli sifatida antik davridayoq qarala boshlangan. Uzoq vaqt davomida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga alohida yondashilgan. Bolalarda mantiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Hozir hattoki maktablarda ham bunga e'tibor qaratmoqda.

Ammo XX asrning o'rtalariga kelib, mantiq orqali ba'zan murakkab, noaniq ijodiy muammolarni hal qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi ko'rindi. Buning sababi sifatida esa mantiqiy fikrlash bir yo'nalishga va algoritmlarning aniq ketma-ketligiga egaliga ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun J.Gilford mantiqiy tafakkurning ikkala turi - deduksiya va induksiyaning konvergent

(bir yo'nalishga yo'naltirilgan) tafakkur deb ta'riflagan. Ammo ayrim qiyin vazifa va topshiriqlarni oddiy mantiqiy vazifalarni bajara olmagan odamlar osongina hal qilishdi. Natijada ilm olamida buning sababini izlash, bu jarayonga qiziqish uyg'ondi.

XX asrning birinchi yarmida AQSHda ijod psixologiyasi bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borildi. 60-yillarga kelib, ko'plab materiallar to'plandi, bu ijodiy odamlarning o'ziga xos tafakkur turiga ega degan xulosaga kelishga imkon berdi. Bu tafakkur turi mantiqiy fikrlashga aloqasi bo'lmay, so'zdan ko'ra ko'proq tasvirga tayangani aniqlandi. Aynan shu tafakkurni J.Gilford divergent – ko'p yo'nalishli deb atagan.

Konvergent yoki mantiqiy fikrlash bitta to'g'ri yoki optimal yechimni topishga qaratilgan. U ko'plab faktlar, dalillardan foydalanishi mumkin, ammo natijada har doim faqat bittagina javob bo'ladi. Agar bitta to'g'ri yechim bo'lmasa mantiqiy fikrlash jarayonida muammoni hal qilib bo'lmasligi ta'kidlanadi.

turlicha bo'lib, bunday turfalik har bir bolaning bosh miyasidagi bo'limlarning rivojlanish davrlari va xususiyatiga bog'liqligidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra bolarning ruhiy jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishi har xil yoshida turli darajada bo'lishi kuzatiladi. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishidagi o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish: kar va sog'lom bola ruhiy rivojlanishidagi umumiy va xususiy tomonlarini aniqlash; kar bolalar bilish jarayonining alohida shakllarining rivojlanishidagi o'ziga xosligini o'rganish va aniqlash – sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq hamda uning shaxs sifatida shakllanish qonuniyatlarini o'rganish; rivojlanishi nuqsonli bo'lgan bola shaxsining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadigan metodlar va yo'llarni psixologik jihatdan asoslab berish kabi eshitishda muammolari bo'lgan bolalar ta'limi orqali ularni barkamol tarbiyasini amalga oshirishga qaratilgan ishlar rejalashtiriladi.

Eshitish sezgisi va idroki ayniqsa nutqni egallashda muhim rol o'ynaydi. Nutqning aktiv va passiv shakllari aynan eshitish sezgisi va idroki asosida amalga oshadi. Atrofdagilar nutqini eshitib, unga taqlid qilish orqali dastlabki so'zlarni ayta boshlaydi. Nutqni eshitib, u orqali asosiy ma'lumotlarni oladi, kattalar bilim va tajribalarini egallaydi. Chunki kattalarning bilimi, tajribalari bolalarga og'zaki yoki yozma nutq orqali kattalar tomonidan yetkaziladi. Atrofdagilar nutqini idrok qilish imkoniyatining buzilishi faol nutqning shakllanish imkoniyatini yuqotadi. Eshitishi buzilgan bola hech qachon o'zi mustaqil ravishda nutqni egallay olmaydi. Agar bunday bola maxsus sharoitda maxsus yondoshish va maxsus uslublar bilan o'qitilmasa soqov bo'lib qoladi. Eshitmaydigan bola butun axborotni eshitish apparati analizatorining ishtirokisiz oladi, u hamma narsalarni predmetlar, voqea va

hodisalarni ko'rgani holda ular haqida hech qanday axborot olish imkoniyati yo'q. Bu esa o'z navbatida ikkilamchi nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Me'yorda, bola kattalar va atrofdagilar nutqini takror-takror eshitib, ularga taqlid qilib, uni egallaydi. Eshitmaydigan bola ko'rgan narsalarining nomlarini va hodisalarni so'z orqali ifodalay olmaydi, munosabat bildiray olmaydi. Bunday holat bolani ruhiy jihatdan to'g'ri rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Karlik tufayli bolada ikkilamchi nuqsonlar vujudga keladi: soqovlik, ruhiy rivojlanishining orqada qolishi va hokazo. Chunki bu ikkilamchi nuqsonlar eshitmaslik tufayli vujudga keladi, barcha psixik jarayon, tafakkur, xotira, idrok, diqqat va butun bilish jarayoniga ta'sir qiladi. Eshitishni korreksiyalash qanchalik erta tashkil qilinsa, nutqdagi kamchiliklar shunchalik erta to'g'rilanadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning asab tizimining faoliyatini egiluvchanligi tufayli ularda kompensatorlik imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Bunday bolalar atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishda qiyinaladi, shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi, o'zligini anglagan sog'lom bolalardan farqlanadi. Eshitishdagi buzilishning har qanday holatida ham axborotni qabul qilish, uni tahlil qilish va munosabat bildirish, uni saqlash imkoniyati mexanizmi qiyinlashgan yoki buzilgan bo'ladi. Barcha imkoniyati cheklangan bolalarda tushunchalarning shakllanish jarayoni sekinlashgan holda korreksiyalanadi, eshitmaydigan bolalarda bu jarayon vaqtinchalik sekinlashgan bo'ladi va o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega bo'ladi. Eshitmaydigan bolaning rivojlanishida ikkita o'zaro bir-biriga bog'liq muhim holat kuzatiladi. Eshitmaydigan bolaga ta'sir etuvchi tashqi omil nihoyatda tor, tashqi muhit bilan muloqoti cheklangan, atrofdagilar bilan muomalada bo'lish imkoniyati chegaralangan

bo'ladi. Buning natijasida bunday bolalarning ruhiy jarayonlarining rivojlanishi nihoyatda oddiy tusda bo'lib, tashqi ta'sirlarga reaksiyasi sodda, doimiy bir xillik kuzatiladi. Shu sababli eshitmaydigan bolalarning analizatorlar faoliyatida o'zaro bog'lanishlar sog'lom bolalardan farqlanadi va ularning o'z fikrini bayon qilish formalari farqli kechadi. Masalan ko'rgazmali – obrazli, so'z mantiqiy tafakkuri; yozma nutqning ikkala shakli impressiv(o'qish) va ekspressiv(yozma) shakllari og'zaki nutqdan ilgariroq rivojlanadi va ustunlik qiladi, katta rol o'ynaydi; nutqning impressiv shakli ekspressiv nutqdan ilgari rivojlanadi. Ta'lim jarayonida aynan mana shu holatning inobatga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi bilan me'yordagi bolani ruhiy rivojlanishidagi farq asosan uning jadalligi va sifatida namoyon bo'ladi. Har qanday bolaning ruhiy rivojlanishi uning analizatorlarining sog'lomligi, umumiy salomatligi, o'sayotgan muhitiga bog'liq. Sog'lom va eshitmaydigan bolaning antogenezdagi rivojlanishida kam farqlanadi, farqlanish rivojlanishning keyingi bosqichlarida ortib boradi. Bolaga ilk yoshidan surdopedagogik yordam tashkil qilinib uning kompensatorlik imkoniyati rivojlantirilib borilsa bu farq katta bo'lmasligi mumkin. Bolaning imkoniyatini rivojlantiruvchi ta'sir va muhit qanchalik o'z vaqtida va izchillik bilan amalga oshirilsa farq shunchalik sezilmaydi. Aynan mana shu shart-sharoitlar eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limining mazmuni, davomiyligi va zaruriy tashkiliy formalari belgilashda hisobga olinadi. Bu bolalarning umumiy kachiligining tarkibiy tuzilishi haqidagi tasavvurdan kelib chiqqan holda uni tahlil qilishda birinchi o'rinda ularning nutqini rivojlanish xususiyatida boshlash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Eshitishida muammosi bo'lgan

PEDAGOG-TARBIYACHINI INNOVASION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

XUSHNAZAROVA MA'MURA NODIROVNA -- Qo'qon davlat pyedagogika instituti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dosent

Annotasiya: Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida pedagog-tarbiyachilarni yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va innovasion metodlar bilan qurollantirish orqali kasbiy-ijodiy faolligini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, kasbiy sifat, innovasion metod, konsepsiya, ta'limning interfaol usullari, innovasion metod, kasbiy-ijodiy faollik, tashkilotchilik, boshqaruvchilik, intuisiya.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы повышения профессиональной и творческой активности педагогов-воспитателей высших учебных заведений путем вооружения их новыми педагогическими и информационными технологиями, интерактивными методами обучения и инновационными методами.

Ключевые слова: технология, профессиональное качество, инновационный метод, концепция, интерактивные методы обучения, инновационный метод, профессионально-творческая деятельность, организация, управление, интуиция.

Annotation: This article discusses the issues of increasing the professional and creative activity of teachers-educators of higher educational institutions by equipping them with new pedagogical and information technologies, interactive teaching methods and innovative methods.

Key words: technology, professional quality, innovative method, concept, interactive teaching methods, innovative method, professional and creative activity, organization, management, intuition.

Kirish. Bugungi kunda respublikamizda maktabgacha ta'lim sohasida me'yoriy-huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga integrasiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovasion-pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan konseptual islohotlar amalga oshirilmogda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini

ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv shakllarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb yo'nalishlardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama rivojlantirishga oid tadqiqotlar o'zbekistonlik pedagog, psixolog va faylasuflar: Z.Azizova, M.Asqarova, M.Asqarxo'jayeva, M.Yu. Ayupova, N.X.Begmatova, D.G.Boboyeva, U.Bo'tayeva, K.Oqilova, F.B.Valixo'jayeva, F.R. va boshq. tomonidan olib borilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirishga

yo'naltirilgan tadqiqotlar Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlaridan Ye.A.Avilova, A.Arushanova, M.Bakina, E.Bern, N.A.Vasilyeva, L.M.Volobuyeva, Yu.V.Gippenreyter, A.A.Goldovskaya, N.N.Jirnova va boshq. tomonidan amalga oshirilgan.

Bolalarning ijtimoiy hayotga moslashish imkoniyatlarini kengaytirish asosida ularni har tomonlama rivojlantirish masalalari xorijlik olimlar – turli soha vakillari: J.Dyui, A.Kirsten, Keyt Berk Uolsh, M.Montessori, Jan Piaje, A.Hachfeld, A.Yvonne; S.Kuger, K.H.Xristiane, von Steinbuyeche, H.Gibbons, R.Kramer va boshq. tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Innovasion faoliyat - uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Pedagog-tarbiyachi innovasion faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovasion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin :

- ijodiy faoliyatga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishi;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Pedagog-tarbiyachilarni innovasion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish jamiyatda innovasion jarayonlar dinamikasining o'sib borayotganligini

tushunish natijasida vujudga keldi. Uning taxlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydanishni o'z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi.

Innovasion faoliyat davrida yangiliklar, innovasiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovasiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni taxlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Innovasion faoliyatga tayyorlashdan maqsad, pedagog-tarbiyachining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, ularni mashg'ulotlar davomida samarali qo'llay olish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Sharq mutafakkirlaridan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos-Xojib, Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabilarning asarlarida yangi g'oyalar, yangiliklar, yangicha yondashuvlarni ta'limga joriy qilish bo'yicha ko'plab ishlarini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Oliy ta'lim tizimida Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'quv jarayonida ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda talabalarda kelgusi faoliyatlarida innovasion ta'lim

texnologiyalaridan ,interfaol usullardan samarali foydalanishlari uchun ularda zarur bo'lgan kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish zarur.

Oliy ta'lim o'qituvchisining faoliyati shaxsni tarbiyalash jarayonida ta'lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish, uning extiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini ochish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Pedagogikaning muhim muammolaridan biri o'qituvchining mutaxassisligi va faoliyatining asosini tashkil etish shart bo'lgan pedagogik jarayon nazariyasini ishlab chiqishdir. Yosh pedagoglar mutaxassislik bo'yicha mavjud bilimlaridan tashqari o'quv jaryoniga qadam qo'yar ekanlar, pedagogik va psixologik bilimlar, texnologiya va o'qitish metodikalariga doir zarur pedagogik bilimlarni egallagan bo'lishlari kerak.

Tajriba va natijalar. Respublikamizning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan yosh istiqbolli pedagog kadrlarga zamonaviy innovasion texnologiyalarni o'rgatish, pedagogika va psixologiya fanlariga oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan bilimlarini o'quv - tarbiya jarayoniga qo'llay olishga o'rgatish, shuningdek, ularga pedagogik mahorat sirlarini o'rgatish zarur. Oliy ta'lim tizimi o'qituvchilari o'zlari o'qitayotgan talabalarining ruhiyatlariga mos ravishda muloqotda bo'la olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o'quv-tarbiya jarayonida qo'llay olishi kerak. Talabalarda innovasion pedagogik texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni, ulardan foydalanish, shuningdek, «Aqliy xujum», «Tarmoqlar» (Klaster) usullari, «Bumerang», «Skarabey», «Charxpalak», «Rezyume» va shu kabi texnologiyalar haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari va ularni o'quv-tarbiya jarayoniga qo'llay olishlari lozim.

O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida talabalarining qobiliyatlarini

rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Pedagogika yo'nalishida tatbiq qilinishi lozim bo'lgan muhim masala borki, u ham bo'lsa tarbiyachilarning pedagogik jarayonni zamonaviy innovasion usullar asosida maqsadli, tizimli va natijalarni bashorat qila olish orqali metodik jixatdan to'g'ri tashkil etishlarini ta'minlashdir. Interfaol usullar hozirgi kunda ta'lim islohotlaridagi ustuvor jihati va pedagogik muammolarni hal etishdagi roli, ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan ekanligini e'tirof etish joizdir. Tarbiyachilarni innovasion ta'lim metodlaridan oqilona, maqsad va sharoitga muvofiq tarzda didaktik tamoyillarga asoslangan holda foyda-lanishga o'rgatish bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari o'z faoliyatlariga zamonaviy usullarni maktabgacha ta'limga oid ilmiy maqolalar, risolalar, mahalliy ilg'ortajribalarni o'rganish orqali tatbiq etib kelmoqdalar. Ba'zan, innovasion ta'lim texnologiyalarining mohiyati va maqsadini to'liq anglamagan holda qo'llamoqdalar. Shuning uchun har bir ta'lim tashkilotida innvasion ta'lim muhiti yaratilib, tarbiyachilar uning bevosita ishti-

rokchisiga aylansalar, ya'ni har bir innovasion ta'lim usulini bevosita o'zlaridan o'tkazib o'zlashtirsalar, ushbu usullarni maktabgacha ta'limga moslashtirib, amaliyotga tatbiq etishlari shunchalik oson va qulay kechadi.

Zamonaviy maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarning sifati va samaradorligini ta'minlashga intilish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarning samaradorligini ta'minlashda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mahorati, boshqaruvchilik salohiyati alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarga g'oyaviy-siyosiy bilimlarni taqdim etish jarayonida kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga erishish talab qilinmoqda. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq talab va ehtiyojlar asosida mahoratli pedagog-tarbiyachilarni tayyorlash ularda kasbiy qiziqish, ehtiyoj va layoqatlarni shakllantirish orqali amalga oshadi.

Bo'lajak tarbiyachi o'z kasbini chuqur o'zlashtirishi, pedagogik jarayonlarni samarali boshqarish san'atini egallashi lozim. Buning uchun u bolalarda yangi bilimlar va ko'nikmalar hosil qilishi, ularning rang-barang faoliyatlari, bilish jarayonlarini samarali boshqarish mahoratini egallashi kerak. U, birinchi navbatda, tarbiyalanuvchilar orasida jamoani shakllantirishi, ularni mashg'ulotlarga jalb qila bilishi, kasbiy ko'nikmalaridan o'z o'rnida foydalana olishi talab qilinadi.

Tarbiyachining muhim sifatlaridan biri bolalarni sevishdir. Bolalarni sevish tarbiyachilarga ularda muayyan ko'nikmalarni osongina shakllantirish imkonini beradi. Bola qalbiga yo'l topish, u bilan samimiy muloqotga kirishish, uni har tomonlama rivojlantirish ta'lim jarayoniga tayyorlashda tarbiyachilarga qulaylik tug'diradi.

Innovasion jarayonni, yangilikni yuqoridan emas, pastdan, o'zini- o'zi

rivojlantirish tamoyilidan kelib chiqib, innovasion g'oyani ma'lum gurux pedagog tarbiyachilar tashabbus ko'rsatib ishlay boshlaydilar. Innovasion g'oyani amalga oshirish ishlarini boshqa hamkasblarni qo'llab-quvvatlab, ular ham shu yo'sinda ish tuta boshlaydilar. Bunday holatlarda bir gurux pedagog tarbiyachilar ham yangicha ishlash ishtiyoqi bilan tajriba-sinov ishlarini amalga oshiradilar. Shu asosda ta'lim jarayoniga yangilikni kiritish ishlari boshlanib ketishiga sabab bo'ladi. Albatta bu holatda ham yangilikni tatbiq etishda qarama-qarshiliklar bo'lishi mumkin. Bunday holatda ko'pchilikning fikrlari to'g'ri chiqadi. Shu asosda yangilikni zarurligi, o'z vaqtida amalga oshirish ta'lim sifatiga erishish garovi ekanligiga ishonch hosil qilinadi.

Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari yangiliklarni pedagogik faoliyatga kiritishni rejalashtirishda: yangilikni maqsad va vazifalarini, uni o'quv jarayoniga kiritishning real imkoniyatlari, pedagogik jamoa uchun ijodiy muhit yaratish, ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yangicha ishlash modelini, maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy-texnik imkoniyatini, tajriba-sinovni olib borish texnologiyasini boshidan oxirigacha mantiqiy ketma-ketligini pedagogik jamoaning o'zi bilan hamkorlikda ishlab chiqishi kerak. Kelgusida maktabgacha ta'lim tashkilotining rivojlanuvchi rejimida ishlashi, sifat va samaradorlikni kafolatlashiga ishonch hosil qilishi kerak. Pedagogik jamoa esa, ijodkor pedagog tarbiyachidan ijodkor pedagogik jamoa majmuasiga aylanishiga ishonch hosil qilishi zarur. Avvalo, innovasiyalar novator, bunyodkor, izlanuvchan ijodkor, yil pedagog tarbiyachilari ko'rik-tanlovlarida ishtirok etgan pedagog tarbiyachilar faoliyatida kuzatiladi.

Davlat ta'lim standartlarini to'la o'zlashtirishni kafolatlash bugungi kundagi eng dolzarb, kechiktirib bo'lmas

vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu degani yangi, innovasion sharoitda pedagog tarbiyachilarning o'zlarini yangicha ishlash, ya'ni, innovasion faoliyat yuritishga rag'batlantirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham an'anaviy pedagogika asosida yangi - innovasion pedagogika ta'lim jarayoniga kirib kelmoqda.

Innovasion pedagogikaning asosiy vazifasi ustuvor bo'lgan yaxlit o'quv-tarbiya nazariyasini innovasion asosda qayta tashkil etish, o'zgartirish zarurdir. Innovasion pedagogikada hukmron nazariya, nazariy va amaliy muammolarni yechish asos qilib olingan. Innovatorlarning fikricha, odatdagi pedagogik nazariyalari eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas. Shunday vaziyatda butun o'quv-tarbiya tizimi nazariyasini innovasion asosda qayta tashkil etib, o'zgartirish zaruriyati tug'ilmoqda.

Innovasiyalarning belgilari:

1. Dolzarb muammolarni hal etishga qaratilganligi (pedagogik innovasiya muammolarining mazmunini yangicha yechimini amalga oshirishga qaratiladi).

2. Pedagogik amaliyotda keng qo'llanish imkoniyati ochiladi.

3. Pedagogik innovasiyalar jarayonining o'zgarishi yangilanishga olib keladi. Natijada yangi (stabil) sifatga ega bo'lgan natijalar qo'lga kiritiladi. Innovasiyani tizimning turli predmetlariga ta'siri yangi samaradorlikka olib keladi.

4. Moslashuvi (qanday sharoitda bo'lishidan qat'i nazar).

5. Ishning yakuniga yetishi (innovasiya to'liq potentsialli tadbiriq etish darajasiga yetadi).

Innovasion faoliyat - bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot

yaratish bo'lib, uning pragmatik xususiyati shundaki, u g'oyalari maydonida ham, alohida bir sub'yektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo'ladigan holdagina haqiqiy innovasion hisoblanadi. Innovasion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovasiya sifatida yuzaga kelgan kashfiyotni-ixtiroga, ixtironi-loyihaga, loyihani-texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Innovasion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantig'i bo'yicha tug'ilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikasiyalari qo'llab-quvvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo'ladi.

Pedagog-tarbiyachini innovasion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik-pedagogik to'siqlar mavjud. Bularning birinchisi pedagog-tarbiyachining o'zi ko'nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya'ni pedagog-tarbiyachilarda ijodkorlikning yetarli emasligi bo'lsa, yana bir sabab yangi va noma'lum narsalar har doim odamlarda cho'chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir.

Innovasion metodlarni qo'llaydigan professor-o'qituvchilar darsda qulay pedagogik vaziyat yaratish maqsadida kichik guruhlar tashkil etadilar. Chunonchi:

- auditoriyani ta'lim maqsadlari va mazmuniga mos tarzda jihozlaydilar, ta'lim-tarbiya faoliyati samaradorligini ta'minlash uchun talabalarni kichik-kichik guruhlariga bo'ladilar;

- qulay ta'lim-tarbiya vaziyati va ko'rgazmali vositalar orqali talabalarining ta'lim-tarbiya faoliyatini jadallashtirishga ko'maklashadilar;

- talabalarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qiladilar;
- innovasion metodlar bilan ishlaydigan

АКАДЕМИК ЛИЦЕЙЛАРДА “КВАНТ ФИЗИКА” БЎЛИМИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЛМИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ДИДАКТИК ТАМОЙИЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

К.САТТАРКУЛОВ

Гулистон давлат университети тадқиқотчиси

Аннотация: Мақолада ҳозирги фан ва технологияларнинг кучли ривожланаётган даврида умумий ўрта таълим мактаблари ва академик лицейларнинг “Физика” чуқурлаштириб ўтиладиган гуруҳларида физика фани дастурлари ва дарсликларига квант физикаси элементларини, мавзуларнинг ёритилишини ўқувчиларнинг ўзлаштириш имкониятларига мослаган ҳолда киритишни киритган ҳолда, академик лицейларда квант физикаси бўлимини ўқитиш мазмуни ва методикасини шакллантиришда албатта киритилаётган ўқув материалларнинг илмий мазмуни ва ўқитишда қўлланиладиган педагогик методлар ва технологияларга сингдирилганлигига эътибор қаратилади.

Калит сўзлар: микроолам, макроолам, методология, Релей-Жинс, энергия кванти, энергия, микрообъект, макрообъект, макроҳодисалар, макроҳодисалар, квантлар.

Аннотация: В статье предложены использование дидактические принципы преподавания квантовой физики в академических лицеях, в том числе включение элементов квантовой физики в программы и учебники по физике в углубленных группах общеобразовательных школ и академических лицеев в период развития науки и техника, освещение тем в соответствии со способностями учащихся к освоению и при формировании методики. Обращается внимание на научное содержание учебных материалов и применяемые в обучении педагогических методов и технологий.

Ключевые слова: микромир, макромир, методология, Рэлей-Джинс, квант энергии, энергия, микрообъект, макрообъект, макроявления, макроявления, кванты.

Abstract: The article proposes the use of didactic principles for teaching quantum physics in academic lyceums, including the inclusion of elements of quantum physics in physics programs and textbooks in advanced groups of general education schools and academic lyceums during the development of science and technology, coverage of topics in accordance with the abilities of students to the development and formation of the methodology. Attention is drawn to the scientific content of educational materials and the pedagogical methods and technologies used in teaching.

Key words: microcosm, macrocosm, methodology, Rayleigh-Jeans, energy quantum, energy, microobject, macroobject, macrophenomena, macrophenomena, quanta.

Республикамізда замонавий умумий ўрта таълим, шунингдек академик лицейларда айрим фанларни чуқурлаштириб ўқитилиш асосида бериладиган таълим, биринчидан ўқувчиларга табиий-математик фанлар бўйича (физика-математика, табиий фанлар), иккинчидан ҳар томонлама кенг фикрлаш қобилиятига эга бўлган, ижтимоий-гуманитар фанлар (чет тиллари), замонавий информацион техника ва технологиялар ҳамда иктисодиёт ва бо-

шқарув асосларидан чуқур таълим олган баркамол шахсларни тайёрлашга йўналтирилган.

Таълим муассасаларида кенг маънодаги қўйилган мақсадларни амалга оширишда қўйилган асосий талаблар ўқувчиларда, табиат сирларини босқичма-босқич англаган ҳолда, масалаларни ҳал этишнинг умумий методлари (индукция, дедукция, анализ (тахлил), синтез, моделлаштириш) дан ҳамда компьютерлардан

ва бошқа замонавий ахборот таълим воситаларидан илмий-амалий фойданишга йўналтирилган илмий-техникавий дунёқарашни шакллантиришга хизмат қилади. В.И.Вернадскийнинг таърифига кўра, илмий дунёқараш- бу энг аввало, бизни ўраб турган оламга бўлган муносабатдир.

Инсоннинг ёшлик давридан илмий дунёқараш элементларини шакллантирилиши мактабгача, умумий ўрта таълим муассасаларида таълим олиш давридан бошланади. Умумий ўрта таълим муассасаларида илмий дунёқарашни шакллантиришда табиий фанлар (Физика, кимё, биология) каби фанларнинг роли жуда катта. [7,8]

Россиялик физиклар В.Г.Разумовский ва В.В.Майёрлар бошқа ҳар қандай ўқув фанларига нисбатан, физиканинг замонавий илмий дунёқараш ва оламни англашни кенгроқ шакллантиришда ҳиссалари катталиги таъкидланган. Илмий дунёқарашнинг шаклланишидаги бирламчи элемент-илмий билимлар бўлиб, уларнинг ўзлаштирилиши натижасида ўқувчиларда оламнинг замонавий илмий манзараси ва фанда эришилган ютуқлар тўғрисида мос тасаввурлар ҳосил бўлади ҳамда, оламнинг замонавий илмий манзараси тўғрисида фикрларнинг шаклланиши фаоллашади, бу эса келгусида дунёқарашнинг шаклланишида асосий рол ўйнайди.

1926 йилларда мустақил фан сифатида шаклланган квант механика, дастлаб микроолам заррачаларнинг механик харақатини ўрганувчи физиканинг бир бўлими сифатида қаралган бўлса, ҳозирги кунда микрзаррачаларнинг харақати ва ўзаро таъсирини ўрганадиган бўлимлари яъни, квант электродинамикаси, квант оптикиси, элементар заррачалар физика ва физиканинг бошқа бўлимларининг асосини ифодаладиган тез ривожланаётган фан ҳисобланади. Квант механиканинг

физика фанининг ривожланишидаги фундаментал роли, ҳамда унинг техникавий фанларнинг ривожланишига қўшаётган ҳиссаси таълим тизимининг барча бўғинларида шу жумладан олий таълим тизимида физик-мутахассислар тайёрлашдаги энг муҳим ташкил этувчилар сафининг юқори ўринларни эгаллашига олиб келган. Мактаб дарсликларида квант физика бўлимининг жуда саёз ёзилганлигидан ўқувчиларда квант физикаси бўйича элементар билимлар ҳам шакллантирилмайди. Микроолам ҳодисалари тўғрисида ўқувчиларда билимларнинг етарли эмаслигидан уларнинг онгида оламнинг физикавий манзараси тўғрисида фақатгина классик харақетдаги тасаввурлар шаклланган. Юқоридаги камчиликларнинг оқибати ҳатто, олий таълим муассасаларининг физика, кимё, замонавий техника ва технологиялар соҳаларида таълим олаётган талабаларнинг давларида ҳам сезилади. Бу ҳолатда таълимнинг узлуксизлик концепцияси тамойилларининг аниқ бузилаётганлигига гувоҳ бўламиз.

Ҳозирги фан ва технологияларнинг кучли ривожланаётган даврида умумий ўрта таълим мактаблари ва академик лицейларнинг “Физика” чуқурлаштириб ўтиладиган гуруҳларда физика фани дастурлари ва дарсликларига квант физикаси элементларини, мавзуларнинг ёритилишини ўқувчиларнинг ўзлаштириш имкониятларига мослаган ҳолда киритишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Ўқувчилар академик лицейларда физика чуқурлаштириб ўрганиладиган гуруҳларда физика курсини ўрганаётган даврда уларнинг умумий ўрта таълим мактабларида физика курсининг 6 - 9 синфларида квант физикага алоқадор физикавий тушунчалар, масалан моддаларнинг таркибидаги заррачаларнинг тартибсиз, ҳаотик харақати, молекулаларнинг ўзаро

таъсири натижасида энергия алмашинуви каби физикавий ҳодисаларни, ўрганганлигини эътиборга олган ҳолда, мавзуларнинг мазмуни уларнинг ўзлаштириш қобилиятларига мослаштирилган даражада ёритилади. Физикавий илмий билимларни мазмунини ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражасига мослаштирилганлиги, биринчидан уларнинг мавзулар мазмунини қизиқган ва тушунган ҳолда ўзлаштиришларига ҳамда ўқувчиларда илмий дунёқарашнинг сифатли шаклланишининг асоси ҳисобланади. [2,3]

Табиий фанларни ўқитишни фундаментал асосларга таянган ҳолда амалга оширилишини таъминлаш, ўқув адабиётлари тузилмаси ва мазмунини илмий билиш методологияси асосида шакллантиришни талаб қилади. Юқоридаги талабларга асослансак, академик лицейларда ҳам физика курсини, шу жумладан квант физика бўлимини мазмунини шакллантиришда илмий билиш методологияси принциплари (тамомйиллари) га физика фани мантиқина таяниш талаб этилади. [3]

Даставвал квант механика (квант физика) нинг мазмунини имконият даражасида, мазмуннинг мағизини, илмий ҳақиқатни бузмайдиган даражада сақлаб қолиш, лекин ўқувчиларнинг тушинишларини эътиборга олган ҳолда, соддалаштириш зарурияти ҳосил бўлса, ўқув жараёнида қўлланиладиган педагогик технологиялар имкониятидан фойдаланиш ҳамда, фан ўқитувчисининг педагогик ва методик маҳоратига таяниш керак.

Академик лицейларда квант физикаси бўлимини ўқитиш мазмуни ва методикасини шакллантиришда албатта киритилаётган ўқув материалининг илмий мазмуни ва мағизи ва ўқитишда қўлланиладиган педагогик методлар ва технологияларга сингдирилганлигига эътибор қаратилади, лекин албатта бирламчи манба квант фи-

зикаси бўлимининг физикавий мазмуни ва моҳияти асос бўлади. Ҳозирги кунда академик лицейларнинг физика чуқурлаштириб ўқитиладиган гуруҳлари учун тузилган намунавий ўқув дастурлари мазмуни замонавий квант физикасининг ривожланишига нисбатан орқада қолган, ўқитилаётган мавзулар бу асосан тарихий материаллар, ўқув адабиётларида ёритилиши ҳам жуда саёз эканлигини эътиборга олган ҳолда физиканинг бу бўлимини ўқитиш мазмуни ва моҳиятига мос ҳолда ўқитиш мазмуни ва технологияларини киритишни таклиф этамиз.

Дарсликларда замонавий физиканинг асоси ҳисобланган квант физикаси бўлимини мазмунининг сифатсиз шакллантирилиши асосида ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантириш жуда қийин.

Академик лицейларда чуқурлаштириб ўрганиладиган физика курсининг квант физикаси бўлимини ўрганиш жараёнида замонавий илмий дунёқарашни шакллантиришни микрозаррачаларнинг ҳолат функцияси тўлқин функция тушунчасини киритиш ва унинг эҳтимолий ҳарактерга эғалигини асослаш ҳамда микрозаррачаларнинг динамик ҳаракатини асосий динамик тенглама- Шредингер тенгламаси асосида ўрганиш заруриятини асослаш керак.[3,5]

Академик лицейларнинг физика курси таркибига квантомеханик тасаввурларни киритиш микрозаррачалар ҳаракатини чуқурроқ ўрганишга ҳамда ўқувчиларда эҳтимолий-статистик тасаввурларни чуқурроқ англаш, микроламнинг ўзига ҳос хусусиятлари тўғрисидаги ёрқин тасаввурни шакллантиришга ҳамда уларнинг илмий дунёқарашини кенгайтиришга ката ёрдам беради

XIX-асрнинг охири ва XX-асрнинг бошларида классик физика, термодинамика, классик статистик физика, электроди-

намикаги мавжуд физикавий тасаввурлар асосида, абсолют қора жисм нурланишининг энергетик спектрида, энергия тақсимотининг экспериментал эгри чизигини физикавий моҳиятини тушунтиришга бўлган уринишлар ижобий натижалар бераолмаган.

XX- ва XXI-аср физикаси квант назарияси асосида ривожланиб бормоқда, маълум маънода замонавий физикани тўла асосда, квант физикаси деб қараш ҳам мумкин. Квант физикаси маълум маънода, динамик ва статистик қонуниятларни таҳлил этган ҳолда, табиатдаги асосий ўзаро таъсир қонунияти сифатида фақат статистик қонуниятларни танлаш мумкинлигини кўрсатмоқда.

Юқоридаги фикрлар асосида, квант физикаси материянинг ҳоссаларини микроҳодисалар даражасида тавсифловчи ҳамда микрообъект (микрожисм) ларнинг ҳаракат қонунларини тадқиқ этувчи назария деб, таърифлашимиз мумкин. Квант физикасида молекулалар, атомлар ва элементар заррачалар ўзаро таъсирни амалга оширувчи заррачалар деб қаралади. Шу билан бирга квант физикаси модда ва майдонларнинг ҳоссалари ва тузилмаси тўғрисидаги замонавий илм (билим) нинг назарий асоси ҳисобланади. Квант физикаси классик физика томонидан ҳал этилмаган жуда кўп муаммоларни чуқурроқ ва фундаментал даражада ҳал этиш имкониятига эга бўлган назариядир. [7]

Квант физикаси микрообъектлардан одатдаги макрообъектларга ўтишдаги чегаравий ҳол ҳисобланади, яъни квант физикасининг қонунлари юқоридаги ўтиш жараёнида классик қонунларга ўтади.

Табиатда алоҳида “Макроолам” ва алоҳида “Микроолам” мавжуд эмас, балки, микрообъектлар (Микроҳодисалар), макрообъектлар (Макроҳодисалар) мавжуддир.

Ўқувчиларга янада тушинарли бўлиши учун, макрообъектлар-микрообъектлардан тузилган, ёки макроҳодисалар замирида микроҳодисалар мавжуддир деб қараш маъқулроқ бўлади. Квант физикаси микрообъектларни ўрганишда ўрганишда аслида худди ўша макрообъектларни, лекин етарли даражада мукамалроқ, фундаментал даражада ўрганади.

Квант физика таркибига бир нечта мустақил фан, квант механика, квант электродинамика ва квант хромодинамика фанлари киритилади. Квант механика микрообъектларнинг ҳаракат қонунлари (механиканинг қонунлари) ҳамда атом ва молекулаларнинг тузилишини ўрганади. Квант электродинамика эса электронлар ва фотонларнинг ўзаро таъсирини ўрганади. Квант хромодинамика эса элементар заррачаларнинг кварклар асосидаги тузилиши ҳамда ўзаро таъсирини ўрганади.

Кейинчалик квант механика таркибига кирувчи фанлар-квант кимёси, қаттиқ жисмларнинг квант назарияси, квант электродинамикаси каби замонавий фанлар очилган.

Квант физикаси тўғрисидаги тасаввурлар “Абсолют қора жисмнинг нурланиш қонунлари”ни экспериментал ва назарий ўрганиш натижасида, нурланишнинг моддаларда ютилиш ва нурланиш жараёнидаги энергия алмашиниш дискрет характерга эга деган инқилобий ҳулоса асосида шаклланди. Квант физикасининг “Туғилиш йили” деб 1900 йил қабул қилинган, бунда Планк томонидан жисмлардан иссиқлик нурланиш энергия “Порция” (квантлар) кўринишида чиқарилади деган фикрнинг эълон қилинган йили асос сифатида олинган.

Нурланиш ва ютилиш жараёнида энергия ташувчи заррача яъни, энергия кванти (таъсир кванти) нинг энергияси $E = \hbar\omega$ импульси эса $(P) \rightarrow \hbar k$ тенглиги

ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ОММАВИЙ ОЧИҚ ОНЛАЙН КУРСЛАРНИНГ ЎРНИ

Р.И.ТОШПУЛАТОВ

Қўқон давлар педагогика институти катта ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада таълим самарадорлигини оширишда оммавий очик онлайн курсларнинг ўрни ва аҳамияти, онлайн таълим ривожланиши ҳақида сўз юритилган.

Таянч сўзлар: очик онлайн курс, WWW, интернет, компьютер, сунъий йўлдош алоқаси, кабель телевиденияси, виртуал мухит, онлайн таълим.

Аннотация. В этой статье будет рассмотрен вопрос о проведении онлайн-курсов и о важности онлайн-обучения.

Ключевые слова: открытый онлайн-курс, WWW, интернет, компьютер, спутниковая связь, кабельное телевидение, виртуальный мультиплексор, онлайн-образование.

Annotation. This article will address the issue of conducting online courses and the importance of online learning.

Key words: open online course, WWW, internet, computer, satellite communication, cable television, virtual, online education.

Жаҳоннинг барча олий таълим муассасаларида олий таълим сифати, яъни сифатли кадрлар тайёрлаш ҳамма вақт ҳам долзарб масала бўлиб келган ва шундай бўлиб қолади. Сифат масаласи, айниқса, XX асрнинг охири ва XXI асрнинг бошларида янада катта аҳамият касб этмоқда.

Онлайн таълим - ўқитувчи билан талабанинг маълум бир масофада жойлашган ҳолда таълим бериш ва таълим олиш тизимидир. Бунда дарс жараёнини компьютерлар, сунъий йўлдош алоқаси, кабель телевиденияси каби воситалар асосида ташкил этиш талаб қилинади.

Онлайн таълим тизимида тингловчилар ўзларига қулай тартибларда кутубхоналар ва компьютер синфларида ишлаш, тьютор билан маслаҳатлаша оладиган ўқув марказларнинг кенг тармоғига эга бўлади. Аниқ предмет бўйича фаол мулоқот талаба қатнашадиган семинарларда амалга оширилади.

Онлайн таълим, ўқитишнинг очик

шакли бўлиб, бир қатор афзалликларга эгадир:

Биринчидан, онлайн таълимнинг асосий тамойилларидан бири - 24*7 (бир кеча-кундузда 24 соат ва ҳафтада 7 кун) тамойили бўлиб, талабаларнинг ўқув материаллари билан ишлаш вақти учун ҳеч қандай чегараларнинг йўқлиги билан ифодалланади.

Иккинчидан, онлайн таълим турли чегаралардан тўлиқ озод қилинган, чунки у WWW технологияси асосида қурилган виртуал фазода амалга оширилади. Интернет технологияси қўлланилганлиги учун ўқувчилар таълим муҳитига ихтиёрий компьютер орқали киришлари мумкин.

Учинчидан, Интернет сайти тўла ҳажмда очик таълим тизимидаги ўқув марказининг вазифасини бажаради. Талаба учун зарур бўлган барча маълумотлар ушбу сайтда жойлашади. Шу билан бирга, онлайн ўқув курсларининг ўзлари ҳам таълимга зарур ўқув материалларнинг

ўзига хос “кутубхона”сини ташкил этади. Бундан ташқари талабалар Интернет орқали виртуал кутубхонанинг ўқиш учун энг зарур бўлган бўлимларига кириш имкониятига эга бўладилар. Шунини таъкидлаш лозимки, виртуал мухит талабаларга кундузги ўқиш шаклидагига қараганда анча кўпроқ визуал (матнли, иллюстрацияли, видео, аудио) ахборот бериш имкониятига эга. Интернетга уланган компьюттери бўлган ихтиёрий жой (университет, факультет, турар жой, хонадон)дан кириш мумкин бўлган ўзига хос синф хонасидан иборат бўлади.

Очиқ онлайн курс - бир ўқув предмети ўрганиш учун зарур бўлган ўқув материаллари мажмуидир.

Очиқ онлайн курс: талабаларни ўқув вазифаларини бажаришнинг жорий графигини автоматик маълум қилишни; аниқ мавзу бўйича жахон ахборот манбаларига эга бўлган сайтларга мурожаатларни ифодалайди.

Онлайн ўқитишнинг асосий элементларидан бири – талабаларнинг ўқитувчи ва бошқа талабалар билан фаол мулоқот қилишидир. Бу жараён электрон почта, мунозарали форумлар, чат-тизимлари, телеанжуманлар, онлайн семинар ва мунозаралар орқали амалга оширилади.

Онлайн таълимдаги мулоқот шакллариининг хусусияти ўқитувчининг ўқув жараёнидаги ўрнига таъсир қилади: у талабани бошқа таълим шаклларидагига қараганда, кўпроқ ўқув жараёнида фақат йўналтирувчиси сифатида кўмакчи, ўргатувчи ва раҳбар бўлади, ўқитувчининг монологи асосида бирининг тажрибаси кўпроқ бўлган икки хамкасбнинг мулоқотига айланади. Шунини таъкидлаш керакки, онлайн ўқитишда матн, график, видеолавҳалар, назорат ва шу каби кўринишда келтирилган дастурларга тўғридан-тўғри кириш муҳим аҳамият касб

этади. Ўқитувчи томонидан яратилган он-лайн ўқув курсининг ўқув материаллари ўқитувчининг талабага мурожаат қилиш шаклларида иборат.

Анъанавий таълим шаклидан фарқли ўлароқ, онлайн таълим талабани шахсан назорат ишларини топшириш ва ҳимоя қилиш каби вазифадан озод этади. Масофадаги ўқитувчи билан E-mail, ижтимоий тармоқлар ва текари алоқа воситалари орқали доим алоқа қилиши ва у талабада юзага келган саволларга тезликда жавоб бериши мумкин.

Ҳозирги давр таълим босқичининг янги талабларига эҳтиёж юқорилигини кўрсатмоқда. Бунда онлайн таълим технологияларини таълим жараёнида қўллаш ва уни бошқариш ҳам муҳим ўрин тутди. Бу борада, Республикамизда қатор долзарб ишлар олиб борилмоқда.

Онлайн таълим бу таълим олувчига стандартларга мос келувчи ўқув фанларни эркин танлаш, ўқитувчи билан ўзаро фикр алмашиш имконини берувчи, ўқитишнинг анъанавий, замонавий технологиялар билан бир қаторда янги техник воситалардан фойдаланишга қаратилган шакли ҳисобланади. Бу таълим шакли ўқиш жараёни учун талабанинг яшаш жойи ва таълим олиш вақтини белгиламайди. Шу билан бирга талабани мустақил ишлашга ундайди ва бу орқали талаба таълим муассасаси ўқитувчиларидан олган билимларини мустаҳкамлаб боради.

Янги технологияларга асосланган ўқитиш шаклларида электрон ўқув адабиётлари асосий ўрин тутди. Ахборот технологияларининг ривожланиши машғулотлар ўтказишнинг янги, қулай имкониятларини яратди ва бундай ўқитиш шаклларида бири онлайн таълим бўлиб, унда илғор ўқув восита-электрон ўқув адабиётларидан самарали фойдаланиш амалга оширилмоқда.

Бугунги кунда электрон дарсликлар онлайн таълим шаклида кенг қўлланилмоқда. Онлайн таълим шакли талабага, биринчидан таълим олиш вақти ва жойини ўзи танлаши имконини беради, иккинчидан анъанавий таълим олиш имкониятларидан чекланганлар учун қулайлик яратади, учинчидан таълим жараёнида янги ахборот ва педагогик технологиялардан фойдаланиш имконияти кенгайди, тўртинчидан таълим учун кетадиган харажатларни кескин қисқартиради.

Онлайн таълим барча хоҳловчиларга ўзларининг индивидуал хусусиятларига мувофиқ профессионал даражаларини ошириш имкониятини беради. Ўқитишнинг бундай усулида талаба ўқув-методик материалларни аниқ бир вақтларда мустақил тарзда, интерактив режимда ўзлаштиради, тест синовларидан ўтади, ўқитувчи раҳбарлигида назорат ишларини бажаради ва “виртуал” ўқув гуруҳидаги бошқа тингловчилар билан ўзаро алоқа қилади.

Бугунги кунда мамлакатимизда янги жаҳон ахборот-таълим муҳитига интеграллашишга йўналтирилган таълим тизими барпо этилмоқда. Бу таълим жараёнини ташкил этишда замонавий техник имкониятларга жавоб берадиган сезиларли ўзгаришлар билан кузатилмоқда. Замонавий ахборот технологияларининг таълим соҳасига кириб келиши таълим усуллари ва ўқитиш жараёнини янгича ёндашув асосида ташкил этиш шакллари сифатли равишда қулайлаштириб, ўзгартириш имконини бермоқда. Ахборот-коммуникация технологиялари таълим тизимини модернизациялаштириш жараёнининг энг муҳим қисмидир.

Онлайн таълимнинг афзалликлари:

- онлайн технологиялардан фойдаланган ҳолда ўқитишнинг жуда кўп ижобий томонлари мавжуд;

- ўқитувчи билан мулоқот қилиши ва ўз индивидуал ўқув режасини тузиши мумкин;

- ўзлаштирилаётган маълумотни индивидуал ўзлаштириш тезлигига мослаш онлайн таълимни барча учун қулай қилиб қўймоқда.

Онлайн таълимни қўллашнинг бир қатор устунлик ва қулайлик томонлари мавжуд, жумладан:

- таълим вақти ихтиёрий, талаба истаган вақтида ўқиши, ўрганиши мумкин;

- аудиториядан ташқарида ҳам худди дарс жараёнидаги каби машғулотларни тўлиқ олиши мумкин;

- талабаларга мустақил шуғулланишни ўргатади;

- ўқитувчилардан юқори тайёргарликни талаб қилади.

Шу билан бирга баъзи камчиликлари ҳам мавжуд:

- фойдаланишда зарур компьютер ва техника қурилмаларининг албатта мавжуд бўлиши;

- керакли технологиялардан фойдаланишда етарли кўникмага эга бўлиш;

- техник кўрсаткичларга тобе бўлиши кабилардир.

Бугунги кунда таълим жараёнида фанларни ўқитишда Интернет ресурсларидан фойдаланиш талабаларни илмий дунёқарашининг шаклланишига, фанга оид муаммоларини ечиш кўникмаларини ҳосил бўлишига, ўзини-ўзи ривожлантириш ва англаш ҳамда мотивацияларни вужудга келтириш мумкинлигини ёритиб берган.

Онлайн таълим ривожланиши таълим жараёнига унинг самарали тадбиқ этилиши амалиётини янада кенгайтириб, ҳозирги замон таълим парадигмасининг ривожланишида асосий векторларни белгилаб берувчи замонавий тенденциялар ва мавжуд жаҳон тажрибасига диққат билан назар солишни талаб этмоқда. Бу эса ўз

навбатида оммавий очик онлайн курсларни ривожланишига замин яратмоқда. Оммавий очик онлайн курслар дунёнинг энг замонавий ва нуфузли университетлари томонидан ихтиёрий масофада ва ўқиш истагида бўлган қизиқувчиларга замонавий

технологиялар ёрдамида масофадан туриб профессор-ўқитувчи ва талаба ўртасида мулоқот ташкил қилиш имкониятини яратувчи замонавий таълим шаклига эга курсларни тақдим этади.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Абдуқодиров А.А. Ахборот технологиялари ва масофали ўқитиш. – Т.:Истедод, 2006. 64-б.
2. Абдуқодиров А.А. Академик лицей ва касб-хунар коллежи ўқитувчиларининг малакасини оширишда масофали ўқитиш методикаси. Узлуксиз таълим. №-5. -Т.: 2004. 3-12-б.
3. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Пед. ф. док...дисс. –Т.: 2007. – Б. 305 56-72 б.
4. Багбекова Л.К. Оммавий очик онлайн курслар воситасида компьютер графикасини ўқитиш методикасини такомиллаштириш: Пед. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Т., 2022.
5. 2. Kamalov A.F “Masofaviy o‘qitish orqali informatika fanining o‘qitish metodikasini takomillashtirish” \TDPU ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. Toshkent-2022. №8\ bet 416-420. (13.00.00 №32)
6. 6. Kamalov A.F “Classification of computer training in the distance education process” International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding. Indexed Google scholar, Zenodo. Part 1 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6992044>. Indonesia 2022.

ФОРМИРОВАНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО СПЕЦИАЛИСТА В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

СУЛТАНОВ БАХОДИР ФАЗИЛОВИЧ

Соискатель института педагогических инноваций, переподготовки
и повышения квалификации руководящих и педагогических кадров
профессионального образования

Аннотация. В данной статье раскрыты вопросы формирования безопасности жизнедеятельности будущего специалиста в системе профессионального образования. Отмечена важность подготовки специалистов в области безопасности жизнедеятельности и здорового образа жизни. Исследована уникальность профессионального образования в области безопасности жизнедеятельности состоит в том, что оно по-новому ставит свои цели, сущностью которых являются формирование особых качеств личности безопасного типа поведения.

Ключевые слова: Формирование профессиональной компетентности, система профессионального образования, здоровый образ жизни, учащиеся, педагогические кадры.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasb-hunar ta'limi tizimida bo'lajak mutaxassisning hayoti xavfsizligini shakllantirish masalalari ochib berilgan. Hayot xavfsizligi va sog'lom turmush tarzi sohasida mutaxassislar tayyorlash muhimligi qayd etildi. Hayot xavfsizligi sohasidagi kasb-hunar ta'limining o'ziga xosligi o'rganildi, chunki u o'z maqsadlarini yangi yo'llar bilan belgilaydi, ularning mohiyati xavfsiz xulq-atvor turining shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishdir.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentsiyani shakllantirish, professional ta'lim tizimi, sog'lom turmush tarzi, o'qituvchilar.

Annotation. This article reveals the issues of the formation of the life safety of a future specialist in the system of vocational education. The importance of training specialists in the field of life safety and healthy lifestyle was noted. The uniqueness of professional education in the field of life safety is investigated in that it sets its goals in a new way, the essence of which is the formation of special personality qualities of a safe type of behavior.

Key words: Formation of professional competence, professional education system, healthy lifestyle, students, teaching staff.

В современном индустриальном мире проблема безопасного существования и успешного развития человечества выходит на первый план. При этом практически ежедневно человек находится под гнетом немалого числа опасностей, связанных с решением следующих задач: – обеспечения приемлемого пропитания и жилья; – сохранения жизни и здоровья; получения необходимого образования; – поиска достойной работы и достижения успеха в выбранной сфере деятельности; – поддержания нормальных отношений с окружающими людьми; – защиты интересов собственной семьи и своего народа и др. Состояние высокого уровня психологической нагрузки сопут-

ствует жизнедеятельности подавляющего большинства людей современного типа развития цивилизации. К сожалению, свой значительный вклад в состояние нестабильности современного мира и глобальные проблемы: войны и региональные конфликты, экологические бедствия и природные катастрофы, политические и экономические потрясения, терроризм. Курс «Безопасность жизнедеятельности» направлен на формирование у учащихся не только знаний, умений и навыков, но и на подготовку компетентного специалиста по обеспечению безопасности в повседневной жизни, в экстремальных и чрезвычайных ситуациях; на воспитание сознательного и ответственного отношения

к вопросам личной и государственной безопасности; на получение студентами основополагающих знаний и умений, которые позволяют им не только распознавать и оценить опасные ситуации, факторы риска среды обитания, определять способы защиты от них, но и в первую очередь.

На сегодняшний день безопасность жизнедеятельности каждого специалиста отдельно отмечена в квалификационных требованиях всех специалистов а именно в общих компетенциях, именно по этой причине необходимо особое внимание вопросам созданию методики позволяющая сформировать необходимые знания, умения и навыки в данной области.

Kalit so'zlar: aqlli texnologiyalar; malaka; universal vakolatlar; kasbiy qobiliyatlar; Oliy ma'lumot; reklama va jamoatchilik bilan aloqalar; tilshunoslik; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация. Статья посвящена теоретическому рассмотрению феномена смарт-технологий в современном образовании с позиций развития универсальных и профессиональных компетенций. Процесс обучения студентов в вузе предполагает обращение к инновациям, поскольку применение новых технологий существенно расширяет границы и преподавания, и получения знаний, и применения имеющихся умений и навыков в практической деятельности.

Ключевые слова: smart-технологии; компетенция; универсальные компетенции; профессиональные компетенции; высшее образование; реклама и связи с общественностью; лингвистика; информационно-коммуникационные технологии.

Annotation. The article is devoted to the theoretical consideration of the phenomenon of smart technologies in modern education from the standpoint of the development of universal and professional competencies. The process of teaching students at a university involves turning to innovations, since the use of new technologies significantly expands the boundaries of both teaching and acquiring knowledge, and applying existing skills in practical activities.

Key words: smart technologies; competence; universal competencies; professional competencies; higher education; advertising and public relations; linguistics; information and communication technologies.

Oliy ta'lim yuqori darajadagi dinamiklik bilan ajralib turadi: o'qitish va bilimlarni tekshirishning yangi usullari doimiy ravishda taklif qilinmoqda, talabalarni kelajakdagi kasbining turli tafsilotlari bilan tanishtirish uchun yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Ta'limning bunday doimiy o'zgarish qobiliyati kelajakdagi mutaxassislarini tayyorlash darajasini voqelik, ya'ni mehnat bozori va rivojlangan shaxsni tarbiyalash talablariga moslashtirish zarurati bilan bog'liq. Ijodiy imkoniyatlarni ochish, o'zini o'zi belgilash va o'zini-o'zi anglash jarayonini yakunlash, intellektual va ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini oshirish - universitetning o'quv

jarayonining barcha bu jihatlari Smart texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi.

Aqlli texnologiyalar va malakalar. Keling, avvalo ushbu tushunchalarning qisqacha tavsifini beraylik. “SMART – bu maqsadlarni belgilash va shakllantirish uchun taniqli va samarali texnologiya. SMART qisqartmasi aqlli maqsadni anglatadi va inglizcha so'zlarning bosh harflarini birlashtirib, haqiqiy maqsad nima bo'lishi kerakligini bildiradi: Specific (aniqliqlik) – Measurable (o'lchash mumkinligi) – Attainable (erishish imkoniyati) – Relevant (dolzarbligi) – Time-bounded (vaqtida aniqlik). Aqlli texnologiya kundalik vazifalarni bajarish va ma'lumot

almashish uchun kompyuter tizimlari va mikroprotessorlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. SMART qisqartmasini kiritgan birinchi olimlardan biri 20-asrning iqtisodchi, publitsist, o'qituvchi va taniqli boshqaruv nazariyotchisi Piter Drukerdir. Natijada, Smart texnologiyalarni qo'llashning turli yo'nalishlari bosqichma-bosqich shakllandi: birinchi navbatda, iqtisodiyot va menejment, so'ngra sotsiologiya va kommunikatsiyalar sohasi, shuningdek, bizni qiziqtirgan ta'lim sohasi. Hozirgi vaqtda biz aqlli jamiyatni shakllantirish, ya'ni ma'lumotli odamlar o'z faoliyatida ishni samarali olib borish va biznes, do'stona munosabatlarni saqlash uchun eng yangi texnik vositalardan foydalanadigan yangi turdagi ijtimoiy tashkilot haqida gapirishimiz mumkin. Smart Education iborasi ham tez-tez ishlatiladi - bu universitetlarning (talabalar va o'qituvchilarning) maxsus faoliyat birlashmasi bo'lib, uning maqsadi yangi texnologiyalarni birgalikda qo'llash orqali o'quv jarayonini amalga oshirishdir. Ta'kidlash joizki, Smart-texnologiyalar bugungi kunda turli maqsadlarni, jumladan, ta'lim va kasbiy maqsadlarni amalga oshirish uchun yuqori sifatli uslubiy platformaga aylanib bormoqda.

Zamonaviy ma'noda kompetentsiya tushunchasining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqish kerak. Keng ma'noda kompetentsiya ma'lum ko'nikmalar va xabardorlikning har qanday masalalar doirasiga muvofiqligi sifatida talqin etiladi. Shaxsning faoliyat sohasiga, shaxsiy va hatto biologik sifatlariga qarab kompetentsiyaning har xil turlari mavjud. Ushbu maqola doirasida kasbiy kompetentsiyaga e'tibor berish muhimdir - mavjud nazariy va kognitiv tajribani amalda qo'llash, turli vazifalarni bajarish va biznes masalalarini hal qilishda.

Pedagogikadagi universal

kompetensiyalar o'z-o'zini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqillik, o'zini o'zi boshqarish va o'z taqdirini o'zi belgilashni o'z ichiga oladi. Asos sifatida bilim, shuningdek, undan foydalanish qobiliyati, ya'ni har doim hamkorlikka va oldindan belgilangan maqsadlar va bashorat qilinadigan natijalar bilan ko'p qirrali o'zaro ta'sirga sozlanganligiga alohida e'tibor beriladi. Kompetentsiya tushuncha va hodisa sifatida pedagogik kontekstga ega, shuning uchun u xulq-atvor va axloq normalarini faollashtiradi va shaxsning turli vaziyatlarda o'z mahorati va qobiliyatlarini safarbar qilish qobiliyatini faollashtiradi.

Kompetentsiyaning psixologik tomoni insonning kommunikativligi va o'zboshimchaligini, uning o'zini o'zi aks ettirish va o'zini o'zi bilish qobiliyatini ochib beradi. Shuning uchun kompetentsiya ko'p qirrali bo'lib, motivatsiya, sotsializatsiya, xatti-harakatlarda o'zini o'zi boshqarish va ijodkorlik bilan bog'liq. E.D. Dneprovanning so'zlariga ko'ra, bu kontseptsiya o'quvchilar yoki talabalarning har qanday muammolarni hal qilishda bilim va ko'nikmalarni amaliy qo'llashga tayyorligini ko'rsatadi va E.F. Zeer kompetensiyasi - bu o'qitiladigan fanlar va kasbiy vazifalar o'rtasidagi qarama-qarshilik darajasini kamaytiradigan yangi psixologik-pedagogik ta'lim. Shuning uchun, E.F. Zeer kompetentsiyaning o'z-o'zini tashkil etish, mustaqillik, o'zini o'zi boshqarish, aks ettirish, o'zini o'zi belgilash va o'zini o'zi boshqarish kabi elementlariga ishora qiladi. J.V. Rasskazova E.N. Solovova ta'kidlaganidek, har qanday kompetentsiya bilim va undan foydalanish qobiliyatiga asoslanadi, ammo kompetentsiya ko'nikmalardan turli muammolarni hal qilish jarayonida hamkorlik va o'zaro ta'sirga psixologik tayyorligi, ma'lum axloqiy va axloqiy munosabatlar

mavjudligi bilan ajralib turadi.

Asosiy yoki universal kompetensiyalar quyidagi turlarga kiradi:

axborot kompetensiyasi - axborot bilan ishlashga tayyorlik;

kommunikativ kompetensiya - boshqa odamlar bilan muloqot qilishga tayyorlik, axborot asosida shakllanadi;

kooperativ kompetensiya - boshqa odamlar bilan hamkorlik qilishga tayyorlik, oldingi ikkitasi asosida shakllanadi;

muammolikompetensiya-muammolarni hal qilishga tayyorlik, oldingi uchta asosida shakllanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, universal kompetensiyalarning o'rnini talabalarning kognitiv qiziqishlari konturini kengaytirish, zarur ma'lumotlarni tahliliy umumlashtirish ko'nikmalarini egallash, tanlangan kasbiy soha bo'yicha bilim darajasini oshirish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat, har qanday faoliyat sohasida majburiy asosni tashkil etuvchi. "Vaziyatlar" so'ziga nisbatan qo'llaniladigan "universal" epiteli bizga har bir insonning ushbu shaxsiy fazilatlarini yangilash muhimligini ko'rsatadi - ular kundalik muloqotda ham, jiddiy faoliyatda ham ajralmasdir.

"Tilshunoslik" va "Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar" yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy va universal kompetensiyalarini rivojlantirish nafaqat universitetning o'quv jarayonida, balki Smart texnologiyalardan foydalanishni hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. Ta'limda ancha vaqtdan beri mavjud bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asta-sekin boshqa o'qitish usullari bilan to'ldirilmoqda. Aytishimiz mumkinki, oliy ta'limning axborot maydoni yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish hisobiga mavjud: B.A. Abdrahmonovning

ta'kidlashicha, ta'lim jarayonini AKTdan foydalanish bilan muvofiqlashtirish qiyin va bu qiyinchiliklar hech qanday tarzda bartaraf etilmaydi, balki doimiy ravishda o'sib bormoqda, ba'zan ekzotik shakllarga ega bo'lmoqda, masalan, global kompyuter tarmog'ida mutlaqo norasmiy ta'lim jamoalarini yaratish; "haqiqiy" ta'lim muassasalarini "virtual"larga almashtirish. Natijada, o'quv jarayonida va talabalarning kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida Smart texnologiyalarning kontseptual dizayni faktini ta'kidlash mantiqan to'g'ri keladi.

Masalaning mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, tilshunos talabalar yoki PR mutaxassislarini Smart texnologiyalardan foydalangan holda tayyorlash plazma panel, interfaol doska va jadvallar, Smart displey va ekranlar, istalgan internet tarmog'iga doimiy ulanish kabi yangiliklar tufayli amalga oshirilayotganini ta'kidlaymiz saytlar (yangiliklar, ta'lim). "Tilshunoslik" yo'nalishi bo'yicha o'rganish jarayoni ko'pincha multimedia globusidan foydalanish bilan birga keladi, bu sizga nafaqat Yerning statik tasvirlarini, balki real vaqt rejimida hayotdagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi dinamik taqdimotlarni ham ko'rsatishga imkon beradi. Mamlakatlar va turli qit'alarda - ob-havodan tortib yangi madaniy diqqatga sazovor joylarga. Bugungi kunda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish har bir darsga quyidagi texnologiyalarni majburiy kiritish bilan qurilgan: Smart displey bilan ishlash ko'nikmalari yangilanadi, bu sizga bir vaqtning o'zida turli darajadagi murakkablikdagi ma'lumotlarni yuklab olish va kerakli ma'lumotlarni qidirishga ko'p vaqt sarflamasdan ham guruh, ham individual vazifalarni bajarish imkonini beradi.

Tilshunos-tarjimonlar, gidlar tayyorlash bugungi kunda lingafon laboratoriyalaridan

foydalanish tufayli ancha osonlashmoqda: ushbu tizim grammatika va talaffuzning nozik jihatlarini o'rgatish jarayonini axborotlashtiradi, chunki u har qanday mavzuni vizual tarzda taqdim etadi - masalan, til videoturlari yordamida, ona tilida so'zlashuvchi bilan Skype aloqasini tashkil qilish. Bilimlarni tekshirish interfaol doska yordamida ham amalga oshiriladi - grammatik testdan o'tish yoki leksik bilimlarni tekshirish jarayoni soddalashtirilgan. To'g'ri talaffuzni sozlash audio va video resurslardan foydalanmasdan deyarli mumkin emas: universitetlararo video konferentsiyalar tez-tez tashkil etiladi, bu esa ma'ruzachilar nutqining ravshanligini to'liq saqlab, masofadan turib muloqot qilish imkonini beradi.

"Ta'lim jarayonini bog'laydigan asosiy element - bu faol ta'lim mazmuni bo'lib, uning asosida vaqt va makon chegaralarini olib tashlashga imkon beradigan yagona omborlar yaratiladi." Tilshunoslar yoki reklama va jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha menejerlarni tayyorlash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni har doim ham elektron ta'lim texnologiyalari bilan hal qilib bo'lmaydi va "aqli ta'lim" tushunchasi multimedia texnologiyalarining moslashuvchanligi va darajasiga mos keladigan maksimal miqyos bilan tavsiflanadi. Shu asosda biz bo'lajak tilshunoslarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish haqida gapirish mumkin - ularning chet tilini bilishi, tarjima usullari video seanslar tufayli doimiy ravishda yangilanadi, turli saytlarga tashrif buyurish va interfaol ekran yoki interaktiv ekran yordamida amaliy vazifalarni bajarish imkoniyati va aqli displey. Umumjahon kompetensiyalarga kelsak, Smart texnologiyalar, albatta, tegishli aloqa, axborot kompetensiyasi va muammoli muammolarni hal qilish qobiliyatini

rivojlantiradi, chunki video tizimlar va nusxa ko'chirish taxtalari tufayli kerakli faktlarni olish jarayoni sezilarli darajada tezlashadi.

Shunday qilib, Smart texnologiyadan foydalanish talabalarning uzluksiz o'zini-o'zi rivojlantirish yo'lini ochadi va universitetning ta'lim muhiti asta-sekin Smart muhitga, ya'ni klassik va zamonaviy usullarni o'z ichiga olgan juda moslashuvchan va keng ko'lamli o'quv maydoniga aylanmoqda. Aqli texnologiyalar analitik kompetentsiyani, ya'ni murakkab savollarga javob izlashga mantiqiy yondashish qobiliyatini, shuningdek, innovatsiyalarga ochiqlikni rivojlantiradi - tilshunoslar va reklama va jamoatchilik bilan aloqalar sohasidagi mutaxassislar uchun bu kompetensiya juda muhimdir. Bugungi kunda aqli texnologiyalar asta-sekin har qanday ta'lim innovatsiyalarining asosiga aylanib, o'quv jarayonining turg'unlik holatiga o'tmasligiga imkon beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Smart kontseptsiyasi ta'limda tabiiy ravishda paydo bo'ldi: "professional faoliyat va shaxsiy hayot jarayonini osonlashtiradigan turli gadjetlarni (smartfon, aqli uy, aqli avtomobil - aqli avtomobil, smart doska - interaktiv intellektual elektron) joriy etish orqali. doska, aqli qattiq disk o'z-o'zini diagnostika tizimi kompyuter). Biroq, bu qurilmalarning barchasi Smart kontseptsiyasi ta'sirida o'zlarining qobiliyat darajasini sezilarli darajada oshirdi va ta'lim muhitini kengaytirish jarayoniga ta'sir ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi - bu bilimlar, axborot texnologiyalari va amaliy qo'llanilishining butun maydoniga aylanmoqda.

"Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar" yo'nalishi bo'yicha talabalarni o'qitish har doim Smart hujjat kameralaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, ular har qanday faylni ko'rish imkonini beradi - faqat pochta orqali

olingan, skanerlangan yoki chop etilgan. Kamera har qanday ob'ektning eng kichik shrifti va tafsilotlarini taniy oladi, uni turli miqyosda ko'rsatadi - kichik guruhlar uchun ham, katta auditoriya uchun ham. Natijada o'quvchilarda hamkorlik va muammolarni hal qilish, qaror qabul qilishda mustaqillik va o'z-o'zini nazorat qilish kabi malakalar shakllanadi. PR-menejerlar va tilshunoslarni tayyorlash interfaol jihozlar (Smart Boards interaktiv doskalari, Sympodium interaktiv displeylari) yordamida amalga oshiriladi, bu ma'ruzachiga nutq davomida to'g'ridan-to'g'ri taqdimot qilish, misollar va boshqa qimmatli faktlarga zaruriy urg'u berishga yordam beradi. "Interfaol smart doskalarda siz maxsus marker bilan yozishingiz, o'quv materialini namoyish qilishingiz, ekrandagi tasvir ustida yozma mulohaza yuritishingiz mumkin. Shu bilan birga, "Smart Board" interfaol doskada yozilgan barcha ma'lumotlar o'quvchilarga uzatiladi, magnitli tashuvchilarda saqlanadi, chop etiladi, darsda bo'lmagan o'quvchilarga elektron pochta orqali yuboriladi. "Smart Board" interaktiv doskasida ma'ruza davomida yaratilgan o'quv materialini o'rnatilgan videoregistrator orqali yozib olinadi va uni bir necha marta o'ynatish mumkin". Interfaol doskalarining barcha imkoniyatlaridan foydalanish dasturiy ta'minot (Smart Notebook, Bridgit, SynhronEyes) ta'sirida amalga oshiriladi. Har bir dastur o'z resurslariga va o'ziga xos

funksiyalariga ega: masalan, Smart Notebook matn va ma'lumotlar bilan har qanday ishni tashkil qiladi, Bridgit sharhlarni qabul qilish imkoniyati bilan masofaviy taqdimotlar o'tkazadi, SynhronEyes to'plami talabalarning ishini nazorat qiladi va bilim natijalarini ko'rsatadi, doskada test qiladi yoki umumiy doskadan hamma narsaga material yuboradi.

Xulosa. Umumiy xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, universitetdagi o'quv jarayoni kasbiy va umumbashariy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadlarini belgilab, ijodiy xarakterga ega bo'la boshlaydi, aqlli texnologiyalar bilimga qiziqish va uni egallash motivatsiyasini oshiradi, ijodiy fikrlashni shakllantiradi va bir muammoni hal qilishning turli usullarini taklif qilish qobiliyati. Ta'limdagi yangi texnologiyalar bugungi kunda hatto 10-15 yil oldingiga qaraganda tez sur'atlar bilan paydo bo'lmoqda, bu tajriba, ma'lumot, bilim va biznes ko'nikmalarini almashish qiymatini oqalaydi. Jamiyat tomonidan talab qilinadigan tilshunos yoki PR menejeri kabi mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish jarayoni, albatta, Smart kontseptsiyasiga muvofiq ishning barcha bosqichlaridan o'tadi: bu kasbiy sohalar ham intellektual, ham ijodiy faoliyatni, kommunikativ moslashuvchanlikni va fikrlash mantiqini o'z ichiga oladi. Va bu barcha vakolatlar Smart makonda rivojlanmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Абдрахманова, Б.А. Смарт-технологии в образовании / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.zkoipk.kz/b2/369-conf.html> (дата обращения: 22.04.2018).
2. Smart / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.mental-skills.ru/dict/Smart/> (дата обращения: 22.04.2018).
3. Smart-технологии в высшем образовании / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://library.fa.ru/exhib.asp?id=199> (дата обращения: 21.04.2018).
4. Smart-технологии изменяют систему образования / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.trainings.ru/library/education_experience/?id=14024 (дата обращения: 21.04.2018).

ТАЛАБАЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА ПОРТРЕТ КОМПОЗИЦИЯСИНИ ИШЛАШНИНГ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ

Н.Х. ТАЛИПОВ

Низомий номидаги ТДПУ, “Тасвирий санъат” кафедраси доценти,

Д. СУЛТОНОВА, С. ХЎЖАЕВА

2-курс магистрантлари

Аннотация: Мақолада талабаларни касбга йўналтиришда портрет композициясини ишлашнинг айрим хусусиятларига қаратилган бўлиб, унда қаламтасвир ва рангтасвирда портрет ишлашнинг назарий ва амалий методикаси тўғрисида фикр юритилади.

Аннотация: Статья включает в себе основные теоретические и практические рекомендации по выполнению портрета. Так как работа над портретом требует особого подхода от рисующего, то в статье даются особенности индивидуальных методов по этому вопросу.

Annotation: The article contains the basic theoretical and practical recommendations for the portrait. Since the work on the portrait requires a special approach from the painter, the article gives the features of individual methods on this issue.

Калит сўзлар: автопортрет, жанр, уфқ чизиғи, ҳаво перспективаси, кўриш нуқтаси, композиция, ранг, ахроматик ва хроматик ранглар, мато, тус, гризайль, суртма, ранглавҳа.

Ключевые слова: автопортрет, жанр, линия горизонта, воздушная перспектива, точка зрения, композиция, цвет, ахроматические и хроматические цвета, ткань, оттенок, гризайль, мазок, этюд.

Keywords: self-portrait, genre, horizon line, aerial perspective, point of view, composition, color, achromatic and chromatic colors, fabric, hue, grisaille, a smear, etude.

Тасвирий санъатни барча турларининг асоси қаламтасвир ҳисобланади. XVIII асрдан бошлаб “қаламтасвир” чизиқлар ёрдамида образ яратиш сифатида тасвири белгиловчи термин бўлиб ҳисобланиб, барча санъат турларидаги буюмнинг шакли, ўлчами, тузилиши ва характерини белгилаб берувчи муҳим хусусиятлари билан таништиради.

Тасвирий санъат асосларини пухта эгаллаш талабага табиатдаги барча шакллар тузилиши ҳақидаги қонуниятларини тўғри кўриш ва тушунишга, кўрганни тўғри тасвирлашга ёрдам беради. Аммо келажакда маҳоратли рассом-педагог бўлиш учун булар ҳали етарли эмас. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, талаба натурадан расм чизишнинг асосий қонун-қоидаларини

яхши тушуниб эслаб қолсада, лекин олган назарий ва амалий билимларини амалда қўллай олмаслик ҳоллари учраб туради. Шунинг учун у назарий билимлардан ташқари тасвирий санъатда ижро ва техник маҳоратига ҳам эга бўлиши зарур. У амалий машқ жараёнида техник жиҳатдан қийналмаслиги керак. Техник маҳоратларни эркин ва моҳирлик билан эгаллаш талабанинг ижодга тўла берилишини, ижодий қобилиятларни амалга оширишни ва юқори малакали рассом-педагог бўлиш имконини беради. Тасвирлаш маҳоратини юзаки эгаллаган талаба ўзини амалий иш жараёнида эркин ҳис этмайди ва натижада ўз фикри, ҳиссиётларини тўла ифода этиб бера олмайди. Бу барча санъат турлари, айниқса, тасвирий санъатнинг асоси бўлган

каламтасвир учун тааллуқлидир [1,89].

Қадимги академик таълим мактабларида тасвирлаш техникасига катта эътибор берилган. Шунинг учун, уста рассомлар илгари расм чизиш санъати билан биринчи бор танишишда ўз шогирдларига вазифа сифатида уста рассомлар тасвирлаган намуналардан нусха бажариш кераклигини айтганлар. Асосий эътибор тасвир бажариш техникасига қаратилган [5,114].

Ҳар бир педагогнинг расм чизишга ўргатиш методикаси ва индивидуал тизими ўзига хос бўлади. Талаба тўғри техник тайёргарликка эга бўлса, у ҳар қандай педагог-рассом раҳбарлигида сабоқ олмасин, келгусида тажрибали рассом-педагог бўлиб етишиб чиқади. Педагогнинг маҳорати шунда белгиланадики, у ҳар бир талабага унинг тасвирлаш техникасига мос равишда кўрсатма бериб, таълим тарбия усулларида кенг фойдалана олиши ва талабага тўғри кўрсатма беришидадир. Педагогнинг ўз талабаларини макташи, рағбатлантириши, ҳурмат қилиши ижодий фаолият учун фойдалидир. Талабалар ижодий фаолиятга қизғин киришиб борадилар, лекин айрим ҳолларда ўз ишлари натижаларидан қониқмасликлари натижасида педагогдан аниқ кўрсатмалар кутадилар, бу пайтда раҳбар талабанинг йўл қўйган хатоларини аниқ кўрсатиб, ёрдам бериши талабани янада рухлантириб юборади. Натижада талаба ишни босқичма-босқич давом эттириб ишни яқунлайди. Талабалар турли материаллардан (калам, сангина, соус, кўмир) самарали фойдаланиб қаламчизги, ранглавҳалар чизишлари уларнинг маҳоратларини ошириб боради [4,38].

Юқорида келтирилган фикрлардан ҳулоса қилиб шуни таъкидлаш керакки, талабаларга муваффақиятли таълим тарбия бериш учун, педагог уларнинг ҳар бири учун ўзига хос индивидуал хусусиятлари-

ни ҳисобга олиши керак.

Шу жиҳатдан ҳам, олий таълим тизимида тасвирий санъатни ўқитилишини янгилаш ташкил этиш, унинг мазмуни ва методикасини такомиллаштириш бугунги куннинг долзарб педагогик муаммоларидан бири ҳисобланади. Тасвирий санъатнинг портрет жанри бу ўринда алоҳида аҳамият касб этади. Талабаларда портрет жанрини тасвирлаш билан боғлиқ бўлган жараёнларни англаши, тушуниши ва унинг фаол иштирокчисига айланиши каби муаммолар ўз ечимини топиши зарур. Портрет жанри устида ишлаш жараёнида талабалар унинг оддий қонуниятларини (тўғри жойлаштириш, перспектив қисқариш, қараш нуқтаси, ранг ва тус муносабатлари) ҳам назарий ҳам амалий ўзлаштириб борадилар.

Инсон портретини ишлаш рассомдан кўпдан-кўп билим талаб қилади. Бундай талаблар ўқиш, ўрганиш ҳам назарий, ҳам амалий тажрибалар тўплашни, уларни амалда қўллай билишни тақозо этади. Инсон портрети ва гавдаси рангтасвирини ишлашдан аввал ўқув натюрмортларини пухта ишлашни ўрганиб олинган бўлиши керак. Акс ҳолда ижобий натижаларга эришиш мумкин эмас [2,102].

Инсон портретини ишлашни бир-бири билан узвий боғлиқ ҳолдаги бир неча босқичларга бўлиш мумкин. Улар қуйидагилардир:

- инсон портретини «гризайль» техникасида бажариш;
- инсон портретини кундузги ёруғлик шароити муҳитида тасвирлаш;
- инсон портретини сунъий ёритилган ҳолатида акс эттириш;
- инсон портретини очик ҳавода (плёнэрда) тасвирлаш.

Маълумки тасвир ишлашда чизилаётган нарсанинг туси (тон)ни тўғри акс

эттириш, шунга мувофиқ рангини бериш муҳим аҳамиятга эга. Инсон портретини ишлаш машқларида ҳам бу асосий вазифадир. Бунинг учун аввало тасвири оч-тўқлигини, шакл хусусиятларини топиб тасвирлашни ўрганиб олиш учун қўйилгани гризайль(битта рангда)техникасида бажаришга тўғри келади. Чунки шундай қилинганда қиёфани оч-тўқлик даражаларини тўғри фарқлашга ўрганади, ҳажмдорлигини ҳис этади. Ундан ташқари битта ранг туси билан тасвир ишланганда кўпроқ буюмнинг (натюрмортда), қиёфанинг (портретда) шаклига ва ҳажмини кўрсатишга шунингдек қиёфани соя-ёруғ қисмларини, оч-тўқлик тусларини адашмай топишга катта ёрдам беради. Бу ҳолатда ранг товланишлари, жилвадорлиги иккинчи даражали ҳисобланиб туради. Инсон портретини ўрганиш одатдагидек чизилаётган шахснинг ўзига хос томонларини чуқур таҳлил этишдан бошланади. Шунинг учун аввал қаламчизгилар, бир нечта қисқа-қисқа муддатли ранглавҳалар бажарилади. Битта рангда, кўпинча жигарранг «марс»нинг қора ранги оқ билан қўшиб ишланадиган тасвирда инсон қиёфасининг шакл, тўқ-очлик муносабатлари, фонга нисбатан қандай яхлитликда кўриниши, ундаги асосий қисмларнинг тархи белгилаб олинади. Ана шундай ёрдамчи иш бажарилгач асосий вазифани бошлаб, батафсил тасвири ишлашга ўтиш мақсадга мувофиқдир. Узоқ муддатли тасвирда эса ҳар бир майда унсур ҳам эътиборга олиниб ишланади.

Тасвири бажарганда мўйқаламнинг япалоғидан фойдаланиш ҳар бир сатҳни бўлиб-бўлиб, шаклига мос равишда бўрттириб акс эттириш имконини беради, чунки мўйқалам шакл йўналиши бўйича ишлатилади. Суртмалар ҳар бир бўлакни ифодалайди. Қиёфани тасвирлашда унинг

атроф-муҳитдаги ҳолатига ҳам жиддий эътибор бериш керак. Чунки унинг кўринишига атрофдаги барча нарсалар маълум даражада ўз таъсирини кўрсатади. Тасвири юзага чиқаришда айниқса орқа томон (фон)нинг ўрни каттадир. Чунки чизилаётган инсон қиёфаси унга нисбатан тўқ ёки оч бўлиб «силуэт»да кўринади. Шу сабабли қўйилмага икки ҳил ҳолатда, яъни очик ва тўқ тусли ва фон билан ишлаб машқ қилиш яхши самара беради.

«Гризайль» усулида вазифани ишлаб тажриба орттирилгач, рангда ҳам машқлар бажариш мумкин. Бу ҳолатда барча ранг тусларидан унумли фойдаланилади. Ранг жилваларини мукамал ўрганиш ишида машқ-вазифани ташқарида, очик ҳавода, яъни «пенэр» шароитида бажариш яхши натижа беради. Бундай ишни талаба уй иши сифатида мустақил адо этиб туриши унинг тажрибасини ортишига олиб келади.

Инсон портрети рангтасвирини ишлаш «гризайль» техникасини пухта ўзлаштириб олингандан кейинги муҳим босқичдир. Маълумки тасвир ишлаш хоҳ, у қаламтасвир бўлсин, хоҳ рангтасвир бўлсин, академик усулда шартли босқичларга бўлиб олиб борилади. Бундай бир-бири билан узвий боғлиқ ҳолда, методик кетма-кетликда фаолият юритиш ўқув-машқ вазифасини муваффақиятли бажаришнинг омили бўлиб хизмат қилади.

Портрет рангтасвирини ишлаш албатта бир нечта ёрдамчи қаламлавлар ишлаб кўриш, жой танлаш, унинг ўзига хос шаклий хусусиятларини ўрганишдан бошланади. Улардан унумли фойдаланган ҳолда матога бошнинг қаламтасвири чизилади. Қўйилганинг рангдаги кўриниши қандай эканлигини ҳам бир-нечта кичик ранглавҳалар ишлаб кўриш орқали тушунилади. Бунда унинг

соя-ёруғлик муносабатлари, ранг хусусиятлари, яхлитлиги, катта шаклни белгилаб тусини фонга нисбати қандайлиги аниқлаб олинади. Ана шу тайёрлаб, синчковлик билан машқ қилиб кўрилган қалам ва рангли лавҳалар ёрдамида асосий вазифани муфассал бажарилишига эришилади.

Ўқув вазифаси қуйидаги тартибда бажарилади:

- инсон портретини ва кийим қисмларининг ёруғлик ва соясининг фонга нисбатан яхлитлигини катта шаклини топиш;

- шаклни қисмма-қисм барча бўлақларини ўрганиб, батафсил акс эттириб чиқиш;

- умумлаштириш ва тасвирни тус-ранг ҳамда тузилиш «конструктив» жиҳатларини яхлит кўриниш ҳолатига олиб келиш.

Тасвирий санъатни ўрганишнинг муҳим қисми бўлган портрет ишлаш йўлларини пухта таҳлил этиш орқали ундаги муҳим жиҳатларни ўзлаштириш мумкин. Талабаларга портрет ишлашнинг назарий ва амалий иш йўсинлари яна бир карра тушунтирилади. Шундан сўнг талабалар ишни амалий тарзда бошлайдилар. Талабалар асосан бошнинг барча муҳим ҳисобланувчи қисмларини алоҳида-алоҳида синчиклаб, ҳажми ва шаклини чуқур таҳлил қилган ҳолда ишлаб чиқадиладар. Аммо батафсиллик умумий катта шаклга ва катта ранг умумлашмаларига путур етказмаслиги керак. Бошнинг ҳар-бир кичик унсур ранги ҳамда шакли ишланар экан унинг катта ҳажмга ва умумий ранг гаммасига нисбати эътиборда ушлаб турилиши зарур.

Бош тасвирининг майда қисмларини, айниқса кўз, қош, бурун, оғиз, қулоқ кабиларни акс эттириш жараёни жуда нозик ва кўп меҳнат талаб этиладиган ишдир. Уларни тасвирлашда талаба ниҳоятда ҳушёр ва

кузатувчан ва энг асосийси сабр тоқатли бўлиши муҳимдир. Масалан, баъзи укувсиз талабалар кўз, қош, бурун, оғиз, қулоқ кабиларни чизиклар билан ифодалаб уларнинг ўз шакли, ҳажми мавжуд эканлигига чуқур эътибор бермайдилар. Ваҳоланки, ҳар бир шаклнинг бўртиб соя-ёруғга эга бўлиб, ҳажми ранги ўзгача эканлигини сезиб олиш қийин эмас. Бунинг учун уларни ўзаро фарқларини солиштириб аниқлаш ва ўхшатиб акс эттириш мумкин[3,139].

Портретнинг орқа фонга нисбатан унинг ранги, тўқ ёки очроқ тусга эга эканлигини тўғри топиб тасвирлаш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Унда қиёфанинг ҳар бир қисми батафсил ишланишига қараб умумий кўриниши яхлит қабул қилинишига эришиш тақозо этилади. Шундай ҳоллар ҳам учрайдики, талаба тасвирланаётган бошнинг соя-ёруғликларини тўғри ишламай жуда тўқ ёки оч қилиб кўяди. Шуълаларни ҳам ортиқча бўрттириб, ёрқинлаштириб умумий ранг-тус яхлитлигига путур етказилади. Ваҳоланки акс шуълалар (рефлекслар) соянинг ичида, унинг таркибида бўлиши керак. Уларни ўта бўрттириб юбориш, соя қисмининг майдалашиб кетишига сабаб бўлади.

Инсон портретини умумлаштириш босқичида барча майдалаб, батафсил тасвир этилган қисмлар «катта шакл»га бўйсиндирилишига алоҳида эътибор берилиши талаб қилинади. Умумлаштирилганда таниқли педагог-рассом П.Чистяков таъбири билан айтганда «...кўзни бор аниқлиги билан онгли қилиб тасвирлаш керак, бурун ва оғизни бемалолроқ ишлаш лозим, бошқалари эса умумлашиб кўринса ҳам бўлади».

Инсон портретини ишлаганда унинг қандай кўринишига таъсир этувчи композиция марказига ҳам кўп нарса боғлиқ. Композиция тўғри топилган ва у тўқ, ранг,

TALABALARNI QO‘SHIMCHA MASHG‘ULOTLAR ORQALI INDIVIDUAL TA‘LIMGA YO‘NALTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**AZIMOV DAVRON G‘AYRATOVICH - Chirchiq davlat Pedagogika
universiteti San‘atshunoslik fakulteti Musiqa ta‘limi kafedrası o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Qo‘shimcha ta‘limning maqsadi - yoshlarning bilim va ijodga bo‘lgan motivatsiyasini rivojlantirish, talabalarning o‘zini o‘zi shaxsiy va kasbiy tarbiyalashiga ko‘maklashish, ularni jamiyat hayotiga moslashtirish, sog‘lom turmush tarzi bilan tanishtirishdan iborat. Qo‘shimcha ta‘lim bo‘sh vaqtning ijtimoiy, ko‘ngilochar va dam olish funksiyasini amalga oshirishga yordam beradi, yoshlarga undan maksimal foydalanishga imkon beradi, bo‘sh vaqtni o‘yin-kulgi, bayramlar va ijodkorlik bilan uyg‘unlashtiradi. Qo‘shimcha ta‘limning o‘ziga xos xususiyati - bu qiziqishlar, tabiiy moyillik va qobiliyatlarga mos keladigan tanlov dasturlaridir. Tabiiy muvofiqlik tamoyili bilan o‘zaro bog‘liqlik qo‘shimcha ta‘limning eng muhim xususiyati bo‘lib, uning asosini tashkil etadi. Dastur mazmunining shaxsiy ahamiyati o‘rganilayotgan fanga doimiy qiziqishni saqlab qolish uchun rag‘batdir.

Kalit so‘zlari: qo‘shimcha, ta‘lim, davlat, maqsad, ilmiy, yoshlar, ijtimoiy, madaniy, ma‘naviy, talaba, musiqa, faoliyat.

Аннотация: Целью дополнительного образования является развитие мотивации молодежи к познанию и творчеству, помощь учащимся в их личностном и профессиональном воспитании, адаптация их к жизни в обществе, приобщение к здоровому образу жизни. Дополнительное образование помогает реализовать социальную, развлекательно-игровую функцию свободного времени, позволяет молодежи максимально использовать его, сочетая свободное время с развлечениями, отдыхом и творчеством. Отличительной особенностью дополнительного образования являются факультативные программы, соответствующие интересам, природным задаткам и способностям. Соотношение с принципом естественной сочетаемости является важнейшим признаком дополнительного образования и составляет его основу. Личностная актуальность содержания программы является стимулом для поддержания постоянного интереса к изучаемому предмету.

Ключевые слова: дополнительное, образование, государство, цель, научная, молодежь, социальная, культурный, духовный, студенческий, музыкальный, деятельностный.

Annotation: The purpose of additional education is to develop the motivation of young people for knowledge and creativity, help students in their personal and professional education, adapt them to life in society, and introduce them to a healthy lifestyle. Additional education helps to realize the social, entertaining and playful function of free time, allows young people to make the most of it, combining free time with entertainment, recreation and creativity. A distinctive feature of additional education is optional programs that correspond to interests, natural inclinations and abilities. Correlation with the principle of natural compatibility is the most important feature of additional education and forms its basis. The personal relevance of the content of the program is an incentive to maintain a constant interest in the subject being studied.

Key words: additional, education, state, goal, scientific, youth, social, cultural, spiritual, student, musical, activity.

Talabalarga qo‘shimcha ta‘lim berish ushbu ta‘lim turini tartibga soluvchi, yoshlar siyosati va madaniyati sohasidagi dolzarb me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan. Davlat siyosati va ijtimoiy buyurtmasi talablariga ko‘ra yaxlit pedagogik jarayon tuzilmasining elementlari, komponentlari, omillari va tamoyillari aniqlanadi hamda qo‘shimcha mashg‘ulotlar asosida musiqiy ta‘lim berish maqsadlari, mazmuni,

metodlari, tashkiliy shakllari va natijalarini asoslovchi yondashuvlar aniqlanadi. Olingan ilmiy bilimlar qo‘shimcha umumiy rivojlantiruvchi va kasbgacha bo‘lgan musiqiy ta‘limni tashkil etish shakllarini metodik ta‘minlashning asosini tashkil qiladi (2.1.).

Talabalarga qo‘shimcha ta‘lim berishning hozirgi holatini yoritib berish uchun quyidagi savollarga javob olish zarur: qo‘shimcha ta‘lim deganda nima tuShuniladi? Talabalarining qo‘shimcha ta‘lim olishining me‘yoriy-huquqiy asoslari qanday? Ushbu turdagi ta‘limning maqsadi, mazmuni, tashkil etish metodlari va shakllari, ta‘lim natijalari qanday?

Qo‘yilgan savollarga javob izlash ushbu dissertatsiya tadqiqotining maqsadi - talabalarga qo‘shimcha musiqiy ta‘lim berishning maqsadlari, mazmuni, tashkil etish metodlari va shakllarini, natijalarini asoslash nuqtai nazaridan olib boriladi.

Yoshlarga qo‘shimcha ta‘lim berish - umumiy vakasbiy ta‘lim va tarbiya tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, talabalar tomonidan qo‘shimcha ta‘lim dasturlarini erkin tanlash va o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan.

Qo‘shimcha ta‘limning maqsadi - yoshlarning bilim va ijodga bo‘lgan motivatsiyasini rivojlantirish, talabalarining o‘zini o‘zi shaxsiy va kasbiy tarbiyalashiga ko‘maklashish, ularni jamiyat hayotiga moslashtirish, sog‘lom turmuSh tarzi bilan taniShtiriShdan iborat.

Qo‘shimcha ta‘lim bo‘sh vaqtning ijtimoiy, ko‘ngilochar va dam olish funksiyasini amalga oshirishga yordam beradi, yoshlarga undan maksimal foydalanishga imkon beradi, bo‘sh vaqtni o‘yin-kulgi, bayramlar va ijodkorlik bilan uyg‘unlashtiradi.

Qo‘shimcha ta‘lim ta‘lim-tarbiya jarayoni, sinfdan tashqari ishlar, tarbiyaviy

ishlar bilan bog‘liq. 1990-yillarning boshlarida ta‘lim faoliyatida ushbu sohalarni tabaqalashtirish me‘yoriy ravishda belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasining Ta‘lim to‘g‘risidagi qonunida (2020) “qo‘shimcha ta‘lim” atamasi ilmiy muomalaga kiritildi.

Qo‘shimcha ta‘limning o‘ziga xos xususiyati - bu qiziqishlar, tabiiy moyillik va qobiliyatlarga mos keladigan tanlov dasturlaridir. Tabiiy muvofiqlik tamoyili bilan o‘zaro bog‘liqlik qo‘shimcha ta‘limning eng muhim xususiyati bo‘lib, uning asosini tashkil etadi. Dastur mazmunining shaxsiy ahamiyati o‘rganilayotgan fanga doimiy qiziqishni saqlab qolish uchun rag‘batdir.

Qo‘shimchata‘limning muhim xususiyati - o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi umumiy qiziqish mavzusi bilan belgilanadigan o‘zaro munosabatlar turi, buning natijasida rivojlantiruvchi muhit yaratiladi. Talabani qiziqtiradigan, tashkil etilgan faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan ta‘lim faol mustaqil izlanishga, o‘z-o‘zini tarbiyalashga undaydi, rag‘batlantiradi. Qo‘shimcha ta‘limning o‘ziga xos xususiyati har xil turdagi ta‘limni tashkil etish imkoniyatidir. Shunday qilib, qo‘shimcha ta‘lim - shaxsiy rivojlanishning rag‘batlantiruvchi sohasidir, chunki ijodiy faoliyatdagi muvaffaqiyat o‘ziga baho berishni oshiradi.

Qo‘shimcha ta‘lim – qulay ta‘limdir.

Ta‘lim muassasasida tizimli ravishda olib boriladigan kasbiy ta‘lim bilan taqqoslaganda, qo‘shimcha ta‘lim ijtimoiylaShuv jarayonini individuallashtirish imkoniyatiga ega.

Ta‘lim salohiyati umumiy mavzuda ishtiyoqli odamlar: o‘qituvchi va talabalar bilan muloqotda yuz beradi, bu o‘zaro tushunish, hamkorlik, o‘zaro munosabat, bag‘rikenglikni rivojlantirishga yordam beradi.

Qo‘shimcha ta‘lim shaxsiy

motivatsiyaga asoslanganligi sababli, o'z navbatida, shaxsning individual erkinligini shakllantirishga yordam beradi. Qiziqishlari bo'yicha jamoaviy mashg'ulotlar ijodiy faoliyatga tayyorlik va odatni, izlanish, ixtiro, qaror qabul qilishni talab qiladigan turli xil ishlarda qatnashish istagini shakllantiradi. Qo'shimcha ta'lim dasturlarining fanga yo'naltirilganligi sog'lom turmush tarzi, atrof-muhitning salbiy ta'siriga qarshilik ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Talaba yoshlar ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga, ularning intellektual, axloqiy va jismoniy rivojlaniShiga bo'lgan individual ehtiyojlarini qondirish, sog'lom va xavfsiz hayot tarzi madaniyati, sog'liqni saqlash, shuningdek ularning bo'sh vaqtini tashkil etishga qaratilgan qo'shimcha umumiy rivojlanish dasturlariga va qo'shimcha kasbiy tayyorgarlik dasturlariga jalb qilinadi (3-modda).

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunda belgilangan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablarni belgilaymiz. Barcha turdagi ta'lim dasturlari, shu jumladan qo'shimcha ta'limda amalga oshiriladigan ta'lim dasturlari uchun umumiy qoida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, odamlar, millatlar o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantirish, turli xildagi dunyoqarashni hisobga olish, talabalarining fikr va e'tiqodlarni erkin tanlash huquqini amalga oshirishga ko'maklashish, har bir shaxsning qobiliyatlarini rivojlantirish, jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga muvofiq shaxsning shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash talabidir (5-modda).

Qo'shimcha ta'lim dasturlarini amalga oshirishga zamonaviy yondashuvlar ularni

amalga oshirishning turli shakllaridan, jumladan, tarmoq shakllari, masofaviy ta'lim texnologiyalari, elektron ta'lim texnologiyalari, modulli ta'lim va unga mos keladigan ta'lim texnologiyalaridan iborat.

sifatli qo'shimcha ta'lim - bu talabaning ehtiyojlariga muvofiqlik darajasini va ta'lim dasturining rejalashtirilgan natijalariga erishish darajasini ifodalovchi ta'lim faoliyati va ta'limning umumiy tavsifini o'z ichiga oladi.

Talabalarga qo'shimcha ta'lim berish sohasidagi davlat siyosatini aniqlashtirish va tushuntirish O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'z aksini topgan [38]. Yoshlarga qo'shimcha ta'lim berishning yangi maqsadlari, vazifalari, mazmuni va metodlarini belgilash dasturning umumiy maqsadi - jamiyat oldida javobgar bo'lgan, inson salohiyatini rivojlantiruvchi, O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va kelajakdagi ehtiyojlari ta'minlaydigan moslashtirilgan uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini shakllantirishga asoslanadi [38, 5 b.].

Talaba-yoshlar kasbiy ta'lim tizimining sub'ekti bo'lib, ijobiy ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish orqali kasbiy, asosiy ijtimoiy va madaniy kompetensiyalardan tashqari o'zining insoniy salohiyatini rivojlantiradi. Kasbiy ta'limning shunday ta'lim natijasi Dasturda qayd etilgan.

Xulosa

Talaba yoshlarni keng ijtimoiylashtirish muammosining qo'yilishi O'zbekistondagi qo'shimcha ta'limning muammoli holatidan kelib chiqadi. Qo'shimcha ta'limni ta'lim muassasasida o'quv yoki darsdan tashqari ishlar bilan aniqlash: garchi qo'shimcha ta'lim talabalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish orqali ijodiy qobiliyatlarni

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING SPORT TURIZMIGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY VA IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

**G‘OFUROV AZIZBEK UMARJONOVICH - Farg‘ona davlat
universiteti mustaqil tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)**

Annotasiya: Ushbu maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport turizmiga oid bilimlarini rivojlantirishning tashkiliy va ijtimoiy-pedagogik asoslari, jamiyadagi turli islohotlarni rivojlantirish to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация: В данной статье описаны особенности подготовки будущих учителей физической культуры к спортивному туризму, мнения о развитии различных реформ в обществе.

Annotation: This article describes the peculiarities of training future physical education teachers for sports tourism, opinions on the development of various reforms in society.

Kalit so‘z va iboralar: ijtimoiy-iqtisodiy, mustaqil ta‘lim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta‘lim, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, innovation va raqamli, ta‘lim standartlari, Ta‘lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

Ключевые слова и фразы: социально-экономическое, самостоятельное образование, современное мировоззрение, социальная необходимость, непрерывное образование, учителя физической культуры, инновационные и цифровые, образовательные стандарты, образование и обучение, научно-методические.

Key words and phrases: socio-economic, independent education, modern outlook, social necessity, continuous education, physical education teachers, innovative and digital, educational standards, Education and training, scientific-methodical.

Kirish (Видение/Introduction). Jahonda turizm sohasini rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va ulushini yanada oshirish maqsadida turizm bozorini samarali rivojlantirishga asos yaratadigan zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Innovation iqtisodiyot sharoitida turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalarini ochib berish hamda uni samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish nuqtai nazaridan ushbu masalaning metodologik-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarbligi bilan namoyon bo‘ladi.[1:9]

Turizm turli ijtimoiy-iqtisodiy fanlar tomonidan faoliyat turi va kategoriya sifatida o‘rganiladi. Mazkur tushunchani

ijtimoiy-falsafiy ma‘noda tushunish, uni yaxlit ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu bois, sayyohlikni ijtimoiy hodisa sifatida tushunish, uning har bir tarixiy davrda konkret mazmunga ega bo‘lishi va o‘zgaruvchan xarakterini to‘g‘ri anglash turizm madaniyatini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Umumbashariy turizm taraqqiyoti jarayonida, 2014 yil 27 sentyabrda Meksikaning Gvadalaxara shahrida «Turizm va taraqqiyot» shiori ostida Jahon turizmi kuni nishonlandi. Bu marosim turizmning asl maqsadi va uning jahon miqyosidagi madaniy ta‘siri haqida o‘ylash, bu fikrlarni dunyodagi barcha insonlarga yetkazishdan iborat bo‘ldi. [2] Shuning uchun hozirda turizmni nafaqat iqtisodiy, balki madaniy hodisa sifatida

o'rganishga ehtiyoj ortib bormoqda.

Birlashgan Millatlar Butunjahon Turizm Tashkiloti (BMBTT) tomonidan 2017 yilda ilk marotaba qabul qilingan «Turizm etikasi to'g'risida» konvensiyasida «turizmni rivojlantirishdan maqsad iqtisodiy taraqqiyot, xalqaro hamjihatlik, tinchlikni ta'minlash hamda inson huquqlari va erkinliklarini har qanday cheklovlarsiz hurmat qilishga hissa qo'shish»[3] ekanligi qayd etildi. Ushbu konvensiya mehmon va mezbon davlatlar uchun quyidagi vazifalar belgilab beradi.

–mdiniy, falsafiy va axloqiy e'tiqodlarga nisbatan bag'rikenglik va hurmat munosabati bilan insoniyatga xos bo'lgan axloqiy qadriyatlarni tushunish va targ'ib qilish turizmning asosiy vazifasi etib belgilandi;

–turizm faoliyati mezbon mintaqalar va mamlakatlarning qiziqishlari va urf-odatlarini va ularning qonunlariga muvofiq ravishda olib borilishi kerakligi;

–mezbon mamlakatlar ularga tashrif buyuradigan sayyohlar bilan tanishishlari va ularni hurmat qilishlari, ularning turmush tarzi, didi va kutib olish haqida bilishlari kerakligi;

–turistlar va mehmonlar va ularning buyumlari himoya qilinishi, turizm yoki turizm sohasidagi ishchilarga qilingan har qanday hujumlar, o'g'irliklar yoki tahdidlar, shuningdek, turistik ob'yektlarni yoki madaniy va tabiiy meroslarni qasddan yo'q qilish mezbon mintaqaning milliy qonunchiligiga muvofiq ravishda qattiq jazolanishi kerakligi;

–turizm faoliyatida paytida turistlar va mehmonlar noqonuniy giyohvand moddalar, qurol-yarog' va taqiqlangan narsalarni tashrif buyuruvchi mamlakat xududiga olib o'tmasliklari kerakligi;

–turizm faoliyatida erkaklar va ayollar tengligini hurmat qilinishi bunda mahalliy aholining, ayniqsa, eng zaif qatlamlarning,

xususan bolalar, qariyalar, nogironlar huquqlari ta'minlanishi kerakligi;

–din, sog'liqni saqlash, madaniy, ta'lim va lingvistik almashinuv maqsadida sayohat turlari rag'batlanishga loyiq bo'lgan turizmning turlari hisoblanishi;

–ta'lim dasturlariga sayyohlik almashinuvining qiymati, uning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, shuningdek, ularning siyosiy xatarlari to'g'risida fan kiritishni qo'llab-quvvatlash kerakligi;

–bayramlar va maktab ta'tillari natijasida kelib chiqadigan sayyohlar va tashrif buyuruvchilar oqimining turizm sohasi va mahalliy iqtisodiyotga foydali ta'sirini yanada oshirish kerakligi;

–tabiat turizmi va ekoturizmni tabiiy merosga va mahalliy aholiga hurmat bilan qarash sharti bilan boyitish va mavqegini oshirish kerakligi;

–turizm siyosati va faoliyati badiiy, arxeologik va madaniy meroslarga nisbatan hurmat bilan olib borilishi, sayyohlar tashrifi keng bo'ladigan arxeologik va tarixiy joylarni saqlash va yangilashlanishi, diniy binolardagi faoliyatlar ibodat jarayonlariga xalaqit bermasdan, jamoat huquqini hurmat qilgan holda o'tkazilishi kerakligi;

–sohil bo'yidagi hududlar va orol hududlari, tog'li hududlarning o'ziga xos muammolariga alohida e'tibor berilishi kerak. Chunki aksariyat hollarda turizm ularni rivojlanishini pasaytirishi mumkin;

–turizm sohasi mutaxassislari sayyohlarning madaniy va ma'naviy jihatdan qondirilishiga hissa qo'shishi va sayohat paytida ibodat qilishlari uchun sharoit yaratishlari kerakligi qonun xujjatlari bilan mustahkamlandi.

Turizm madaniyatini nazariy-metodologik tadqiqi uning ikki mustaqil tushuncha, «turizm» hamda «madaniyat»ning o'zaro birikuvidan iborat holda tadqiq

qilishni taqozo etadi. Turizm o'z mohiyatiga ko'ra, (sayohat) piyoda va ulovlarda yurish, diqqatga sazovor joylarda sayr-tomosha qilish, xushmanzara oromgohlarda dam olish, sof havo, quyosh nurlari va zilol suvlarda chiniqish demakdir. Bu esa, uning ijtimoiy-madaniy ahamiyatga molik fenomen ekanligidan dalolat beradi.[4:9]

O'zbekiston Respublikasida sport turizmi madaniyatini hozirgi bosqichda rivojlantirishning asosiy ob'yekti yoshlardir. Yoshlarning sport turizmi etikasi, sport turizmi maqsadlari borasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, ularning sport turizmi borasidagi bilimlarini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish sport turizmi madaniyatini rivojlantirishning muhim omilidir.

Sport turizmining asosiy maqsadi: tabiiy to'siqlarni yengib o'tish uchun bilim, ko'nikma, malakalarni rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek, uning asosiy natijasi nafaqat jismoniy, balki insonning ma'naviy va axloqiy yaxshilanishi deb hisoblanishi kerak. Bundan tashqari, sport turizmi tizimi shaxsning jismoniy faolligi va ma'naviy fazilatlarini rivojlantiribgina qolmay, balki kelayotgan turistlarni joylashtirish uchun mahalliy infratuzilmani yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Sport turizmi turistlarning sarfxarajatlari orqali iqtisodiy o'sishga katta ta'sir ko'rsatadi. Sport sayyohlari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Butun dunyoda davlatlar o'n minglab sport sayyohlarining ehtiyojlarini qondirish, ularga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish va munosib sport infratuzilmasini taklif qilish uchun sport turizmi industriyasini har tomonlama rivojlantirmoqda. Shiddatli raqobat har bir mamlakatning sport va sport turizmi uchun ideal joy sifatida tobora agressiv reklamasini targ'ib qilmoqda. Tabiiyki, bu holat ko'plab mamlakatlarga

sport inshootlari va infratuzilmasini o'zining eng yuqori cho'qqisida saqlashga yordam beradi. Pirovardida, butun turizm tizimining faoliyatini takomillashtirish mintaqa yoki mamlakatda ixtisoslashtirilgan sport turlarining rivojlanish darajasini oshirishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, sport sayyohlarini u yoki bu davlatga yanada faolroq tashrif buyurishga undaydi.

Bugungi kunda sport turizmi davlat ko'magida turli jamiyat va klublar, shuningdek, sayohatlar tashkil etishga yordam beruvchi jismoniy tarbiya jamoalari negizida rivojlanmoqda.

Sport turizmining rivojlanishi sport infratuzilmasi uchun ajratilgan resurslarga bog'liq. Sport turizmi sayohatlari tashrif buyuruvchilarni butun dunyo bo'ylab o'zlarining sevimli sport musobaqalari, ob'yektlari yoki manzillariga olib boradi.

Turizm bugungi kunga kelib dunyo davlatlarining iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi ijtimoiy faoliyat turiga aylanib bormoqda. Ko'plab turistik kompaniyalar vujudga kelmoqda, ular ko'plab mamlakatlarda o'z mehmonxonalarini qurib «mehmonxonalar zanjiri»ni hosil qilishmoqda. Turizm biznesi global rivojlanib borishi uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ekologik, diniy jarayonlarni tartibga solish borasida turizm madaniyatini yuksaltirish mamlakatimiz qonunchiligida aks etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonida mehmonxona xo'jaliklari soni — 661 tadan 900 taga yetkazilib, kelgusida turoperatorlar sonini 860 dan 1 676 tagacha hamda turizm sohasining boshqa sub'yektlari sonini oshirish evaziga xalqaro standartlarga mos turizm infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek joylashtirish vositalari soni 850 dan 3000 tagacha o'sishini ta'minlash muhim

vazifa sifatida belgilanganligi

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Литература и методология /Methods).

YUNESKO tomonidan 1985 yilda «Madaniy turizm – insonlarning, shaxslarning xilma-xillikka bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, individning madaniy saviyasini ko‘tarish, bilimlari va tajribasini oshirish hamda tanishish uchun qilgan barcha harakatlanishlaridir»[5]- deb izohlangan edi. Ushbu yilda Jahon turizm tashkiloti tomonidan «Madaniy turizm – o‘qish, san‘at va madaniy turlar bilan tanishish kabi motivlar bilan harakatlanishlari, festival va boshqa madaniy tadbirlarga sayohat qilish, joylar va yodgorliklarga tashrif buyurish, san‘at, folklor va tabiatni o‘rganish uchun qilingan sayohat hamda ziyoratchilikdir», deb ta’riflangan.[6]

Tadqiqotchilar K.Bonink va G.Richards «Madaniy turizm – shaxsning doimiy istiqomat joyidan merosli joylar, san‘at va madaniyat ko‘rgazmalari, san‘at va drama kabi o‘ziga xos madaniy jozibadorliklarga harakat qilishidir», deb ta’rif bergan bo‘lsalar, S.Medlik «Madaniy turizm tarixiy joylar va yodgorliklarga, muzey va galereyalarga, san‘at namoyishlariga va festivallarga, jamoalarning hayot tarziga tashrif buyurish kabi madaniy qiziqishlar bilan motivlangan maxsus manfaatli ta’tildir»,[7:190] deb ta’rif bergan. Turizm faoliyati bilan bog‘liq jarayon va madaniyatga beriladigan ta’rif turizmning o‘zi singari nihoyatda kengdir. «Madaniy turizm insonlarning o‘zga xalqlar madaniyatlari bilan tanishishga bo‘lgan qiziqishlariga asoslanadi, insonni ma’naviy boyitadi va har bir sayyoh ehtiyojlarini ko‘rsatilgan madaniyat istemoli orqali ta’minlanishini bildiradi. Madaniy turizm asosan insonlar tomonidan o‘zga xalqlar madaniyati va urf-odatlariga bo‘lgan qiziqish asosida amalga oshiriladigan turistik faoliyat

turidir. Madaniy turizm bilan qiziquvchilar turizm manzillari aholisining tarixi obidalari arxeologik yodgorliklari, etnografiyasi, qadriyatlarini, hunarmandchilik san‘ati kabilarga va yashash turmush tarzi bilan qiziqadilar. Mahalliy madaniyatni o‘zida aks ettiruvchi teatr, muzey, bozor, bayram, konsert, festivallarga kirishga harakat qiladilar. Madaniy turizmni yuksaltirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018 yil

1 noyabrdagi «Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida»gi 3991-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 noyabrdagi «Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 960-sonli qaroriga muvofiq 2019 yilning

10 - 15 sentyabr kunlari Qo‘qon shahrida ilk bor Xalqaro hunarmandchilik festivali bo‘lib o‘tganligi va unga minglab turistlar tashrif buyurganligini ta’kidlash joiz.[8:290] Bunday jarayonlar o‘zbek xalqi madaniyatini dunyoga tanitadi, ilm-fan, hunarmandchilikni rivojlantiradi, pirovardida xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, turizm sohasiga katta miqdorda kapitalning kirib kelishi qisqa muddatlarda turistik sanoat uchun mehmonxonalar tarmog‘i va boshqa infratuzilmalarning qurilishi natijasida noyob tabiat majmualarini muvofiqlashtirishni murakkablashtirib, tabiat manzaralari va landshaftiga, noyob o‘simliklarga ziyon yetkazdi, o‘rmonlar kesildi, daryolar, ko‘llar, okeanlar ifloslandi, ko‘pgina noyob hayvonlarning turlari yo‘qoldi, natijada turistik hududga aylangan davlatlarning yovvoyi tabiati xavf ostida qola boshladi.

Turizmning bunday rivojlanishi ko‘plab mamlakatlarda «texnologiya turizm» deb ataldi. Monopoliyaga asoslangan jamiyatning foyda olish maqsadida tabiat boyliklariga

yetkazgan zararini hech qanday vosita bilan to'xtatish imkoni yo'qdek tuyuldi. Lekin aynan ushbu davrlarda turistik makonga aylanib borayotgan davlatlarning olimlari (turizm klassigi I.Krippendorf va R.Yung) «texnogen turizm»ga muqobil sifatida Alp mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini nazarda tutgan «tabiat turizm» konsepsiyasini ishlab chiqib hayotga tatbiq qildilar. Bu borada Yevropaning beshta Alp mamlakatlari «Alp konvensiyasi»ni qabul qilib, mazkur mintaqaning tabiathamdamoddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilishni maqsad qilgan rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishni maqsad qildilar.[9] Shu munosabat bilan G'arbiy Yevropaning tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli turizm madaniyati shakllana boshladi. Hozirgi kungacha turizm madaniyatining tabiatga munosabatni ifodalaydigan ekoturizm madaniyatining buzilmagan tabiatda amalga oshiriluvchi ikkita modeli saqlanib qolgan:

1. AQSH va Kanadada rivojlangan, Avstraliyada to'liq joriy qilingan Avstraliya modeli;

2. Madaniy landshaftda amalga oshiriluvchi g'arbiy Yevropa modeli.

XX asrning 60-yillarida insonning global oqibatlarni anglashi boshlandi, ayniqsa, atrof-muhitga sanoati rivojlangan mamlakatlarda jamoatchilik nazorati kuchaydi, tabiat va sayohatlar to'g'risidagi teleko'rsatuvlar juda keng ommalashdi. Qushlar, fillar, tuyalar, kitlar va hayvonlarning hayot tarzi, ko'payish jarayonlarini tadqiq etish bo'yicha tajribali gidlar yordamida maxsus turlar tashkil qilina boshlandi. Jamoatchilik nazorati bilan hatto bir nechta kitlarni muhofazaga olinishiga erishildi.

Ushbu davr sayohatchilarning butun turizm industriyasni «tabiatga do'stona munosabatda bo'luvchi – ekoturist» deb

ataluvchi yangi turdagi boshqa toifasini yuzaga kelishi bilan izohlanadi. 1980 yilda nemis futurologi Robert Yung fanga «yumshoq turizm», 1983 yilda meksikalik iqtisodchi-ekolog Gektor Syeballos-Laskureyn «ekologik turizm» («ekoturizm») tushunchasini kiritganlar.[9:103]

Bir qator ingliz tilida nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda «ekologik turizm» (ekoturizm) tushunchasidan foydalaniladi. Shuningdek, «yashil turizm» (green tourism), «tabiiy turizm» (ayniqsa, nemis tilida so'zlashuvchi davlatlarda), «soft tourism» va «yumshoq turizm» (odatda «qattiq turizm»ga qarama-qarshi qo'yiladi) atamaları ham ishlatiladi.«Qattiq» turizmning birinchi vazifasi ko'proq daromad olishga qaratilsa, «yumshoq» turizmning bosh maqsadi ko'proq foyda olish bilan bir qatorda ekoturizm amalga oshirilayotgan joylarning madaniy va ekologik barqarorligini ta'minlashni moliyalashtirish muhim o'rin tutadi

1876 yilda Novosibir universiteti (Odessa shahri) talabalari professor I.A.Golovinskiy boshchiligida Qrim tog'larini piyoda kezib tabiat va uni muhofaza qilishga qaratilgan sayohatlari amalga oshiriladi. Bu esa turizm tarixida talabalarning ekologik madaniyatini oshiruvchi, ma'rifiy vazifani bajaruvchi, an'anaviy madaniyatlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'luvchi hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

So'ngi yillarda germaniyalik, avstriyalik va shveysariyalik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida «yumshoq turizm» atamasi o'rniga «ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli turizm» atamasidan foydalanildi.[10] Bu tushuncha uzun va murakkab bo'lsa-da, «yumshoq» turizmning mazmun-mohiyati kengroq izohlanadi.[11:103] Ingliz tilidagi adabiyotlarda «barqarorlik» atamasi keng qo'llanilmoqda va ekoturizmni buzilmagan hamda muhofaza etiladigan tabiiy

landshaftlardan foydalanish bilan o‘zaro bog‘lashga urinish kuzatilmoqda.

Rossiyalik olimlardan Ye.Yu. Ledovskiy, A.V.Drozdov, N.V.Moraleva shunday ta’riflaydi: «turizm – ekologik va ijtimoiy talablarga mos keladi, tabiatga bo‘lgan mas’uliyatni hisobga oladi, uning himoyasiga ko‘maklashadi, ma’rifiy vazifani bajaruvchi, an’anaviy madaniyat va mahalliy hamjamiyatlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘luvchi sayyohlarning ijtimoiy-madaniy faolligini oshiradi». Bunday turistik jarayonlarda ekologik ong umuminsoniylik, an’anaviylik, milliylik va zamonaviylik integrasiyasiga insoniyat sivilizasiyasi kelajagini ekologik ta’minlashmanfaatlarini nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etadi.

Natijalar (Результаты/Results). Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, turizm madaniy hodisa sifatida bugungi kunda - kompleks, fanlararo yo‘nalish bo‘lib, tabiat, jamiyat va madaniyatni muhofaza qilishning o‘zaro aloqasini ta’minlaydi. O‘tkazilgan tadqiqotlar va tahlillarimiz natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, turizm madaniyati – ijtimoiy mas’uliyatli va barqaror rivojlanishni, tabiiy va madaniy merosni saqlashni, muhofaza qilishni ta’minlovchi turistik faoliyat, bioxilma-xillik va mahalliy aholi o‘rtasidagi sinergetik munosabatlarga asoslangan mahalliy, o‘zga tabiat va makonga sayohat qilishni ko‘zda tutuvchi ongning shakllanganlik holatidir.

Turizmga oid tadqiqotlar doirasida madaniy funksiyalarini ijtimoiy-falsafiy tushunishuni yaxlitfenomensifatida o‘rganish, talqin qilish imkonini beradi. Sayyohlik odobini ijtimoiy hodisa sifatida, uning har bir tarixiy davrda konkret mazmunga ega bo‘lishi va o‘zgaruvchan xarakterini to‘g‘ri anglashga asos bo‘ladi. Gnoseologik fenomen

sifatida turizmning muhim xususiyatlari quyidagilar: 1) maqsad (qadriyatlar) bo‘yicha sayohat qilish; 2) estetik-hissiy xususiyati; 3) olam, narsalarning o‘zlashtirilishi hamda kognitivlik.

Muhokama (Обсуждение/Discussion). Tadqiqotchilar K.Bonink va G.Richards «Madaniy turizm – shaxsning doimiy istiqomat joyidan merosli joylar, san’at va madaniyat ko‘rgazmalari, san’at va drama kabi o‘ziga xos madaniy jozibadorliklarga harakat qilishidir», deb ta’rif bergan bo‘lsalar, S.Medlik «Madaniy turizm tarixiy joylar va yodgorliklarga, muzey va galereyalarga, san’at namoyishlariga va festivallarga, jamoalarning hayot tarziga tashrif buyurish kabi madaniy qiziqishlar bilan motivlangan maxsus manfaatli ta’tildir», [12] deb ta’rif bergan. Turizm faoliyati bilan bog‘liq jarayon va madaniyatga beriladigan ta’rif turizmning o‘zi singari nihoyatda kengdir. «Madaniy turizm insonlarning o‘zga xalqlar madaniyatlarini bilan tanishishga bo‘lgan qiziqishlariga asoslanadi, insonni ma’naviy boyitadi va har bir sayyoh ehtiyojlarini ko‘rsatilgan madaniyat istemoli orqali ta’minlanishini bildiradi. Madaniy turizm asosan insonlar tomonidan o‘zga xalqlar madaniyati va urf-odatlariga bo‘lgan qiziqish asosida amalga oshiriladigan turistik faoliyat turidir. Madaniy turizm bilan qiziquvchilar turizm manzillari aholisining tarixi obidalari arxeologik yodgorliklari, etnografiyasi, qadriyatlarini, hunarmandchilik san’ati kabilarga va yashash turmush tarzi bilan qiziqadilar. Mahalliy madaniyatni o‘zida aks ettiruvchi teatr, muzey, bozor, bayram, konsert, festivallarga kirishga harakat qiladilar. Madaniy turizmni yuksaltirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018 yil

1 noyabrda «Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida»gi 3991-sonli

IJTIMOYIY TASAVVURLAR KONSEPSIYASI DOIRASIDA OILAVIY QADRIYATLARNI O'RGANISH MUAMMOLARI

UMAROVA MUQADDAS MUXTAROVNA

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)dosent

Annotasiya: ushbu maqolada ijtimoiy tasavvurlar muammosining o'rganilishini tahlil qilish asosida shaxsning tashqi muhitni tushunishi, turli vaziyatlarda unga moslashish hamda adekvat maqbul xulq – atvor me'yorlarini o'zida egallay olishi, ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasi doirasida oilaviy qadriyatlarni o'rganish muammolari xususida so'z yuritilgan

Kalit so'zlar: oilaviy qadriyatlar, etnopsixologik xususiyatlar, ijtimoiy xulq, ijtimoiy motiv, ijtimoiy tasavvurlar, kognitiv stereotip, verbal reaksiyalar, standartlashtirilmagan suhbat, kontent – analiz, proyektiv metodika

Аннотация: в данной статье на основе анализа изучения проблемы социальных представлений, способности человека понимать внешнюю среду, приспосабливаться к ней в различных ситуациях и усваивать адекватные и приемлемые нормы поведения, поднимаются вопросы о проблемах изучения семейные ценности в рамках концепции социальных представлений z сохраняются

Ключевые слова: семейные ценности, этнопсихологические характеристики, социальное поведение, социальный мотив, социальные представления, когнитивный стереотип, вербальные реакции, нестандартизированная беседа, контент-анализ, проективная методика.

Abstract: in this article, based on the analysis of the study of the problem of social perceptions, a person's ability to understand the external environment, adapt to it in various situations and acquire adequate and acceptable norms of behavior, questions about the problems of studying family values within the concept of social perceptions z is maintained

Key words: family values, ethnopsychological characteristics, social behavior, social motive, social perceptions, cognitive stereotype, verbal reactions, non-standardized conversation, content analysis, projective methodology

Kirish. Shaxs ijtimoiyligi uning kundalik xulq – atvorida, o'ziga o'xshash insonlar bilan muloqotlarida, o'ziga o'zi va o'zgalarga ijtimoiy ta'sir ko'rsata olishida namoyon bo'ladi. Shaxsning eng muhim afzalliklaridan biri – uning tashqi muhitni tushunish, turli vaziyatlarda unga moslashish hamda adekvat maqbul xulq – atvor me'yorlarini o'zida egallay olishidir. Chunki inson jamiyatning ijtimoiy va madaniy yutuqlarini anglashi, qadrlashi, ularni ruhan hamda aqlan his qila olishi kerak. Bu narsa unga o'z zamonasini to'g'ri idrok qilish va tushunish imkoniyatini berib, shaxs tasavvurlari tizimini egiluvchan va sermazmun qiladi.

Shaxsning o'z oilasi, uning qadriyatlarni anglagan holda o'ziga mos xatti – harakat shakllarini namoyon etish jarayonini biz ijtimoiy tasavvurlar tizimi orqali tushuntirish uchun tasavvurlar va ularning shakllanganlik darajasiga oid ilmiy – nazariy manbalar o'rganildi.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy tasavvurlarni o'rganish va tarixiga murojaat qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, bu konsepsiya Fransiya psixologik maktabiga taalluqlidir. Uning asoschisi Emil Dyurkgeym bo'lib, u o'zining sotsiologik qarashlari tizimida ijtimoiy tasavvurlarni "ijtimoiy fakt" eki obrazlar tarzida talkin etgan. Uning keyingi

izdoshlari bo'lgan Franzuz olimlari S. Moskovisi, D. Jadel, Kodol, Arbik, V. Duaz, M-J. Shombar de Lov va boshqa tasavvurlarning ijtimoiy tabiati, ularning hayotdagi o'rni, ahamiyati, tuzilishi va o'zgarishi masalasida qator ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirib, ijtimoiy tasavvurlar haqida o'ziga xos nazariyalar yaratdilar. Ularning asosiy tadqiqot usullariga anketa, kontent-analiz, suhbat metodlari kirib, shu oddiy metodlar yordamida fransuzlarning shaxs haqidagi, freydzizm haqidagi, din haqidagi tasavvurlaridan tortib, katta - ijtimoiy guruhlar ayollar, erkaklar va bolalar haqidagi tasavvurlarini tadqiq qiladilar. Oxirgi yillarda kognitivizm yunalishi doirasida ushbu konsepsiyaning hayotiyliigi isbotlanmoqda va butun dunyo psixologlari bu nazariyani tan olmoqdalar.

Shaxsning borliq, xususan, oila doirasida ro'y beradigan barcha jarayonlar to'g'risidagi bilimlari uning shaxsiy tajribasi bilan bog'liq bo'lib, unda tasavvurlar tizimini vujudga keltiradi. U yoki bu ob'yekt yoxud hodisa haqida bilimning yo'qligi tasavurning ham mavjud emasligidan darak beradi. Shaxsgacha yetib kelayotgan ma'lumotlar va ular asosida shakllanayotgan bilimlar aniq yoki noaniq, to'g'ri yoki noto'g'ri biror narsa vositasida tarkib topgan yoki bevosita mavjudligi uchun ham tasavvurlar ana shunday belgilar asosida turlicha tarzda namoyon bo'ladi.

Oilaviy qadriyatlarga oid ijtimoiy tasavvurlar xususida so'z borar ekan, bu o'rinda professor V.M.Karimovanning umuman "oilaviy ijtimoiy tasavvurlar" kategoriyasi diqqatga molik. Muallifning ta'kidlashicha, oilaviy ijtimoiy tasavvurlar - shaxsning shunday tasavvurlari tizimiki, ular vositasida shaxs "oila" tushunchasi atrofida barcha hodisa va ob'yektlarni tushunadi va ularga nisbatan ma'lum munosabatni shakllantirgan bo'ladi. Ular ijtimoiyligi sababli oilaviy hayotning deyarli

barcha sohalarini - o'zaro munosabatlar, oilaviy rollar, reproduktiv xulq-atvor, oila a'zolarining shaxsiy fazilatlar haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga oladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bu hodisa oxirgi yillarda G'arb va rus sosial psixologlari tomonidan o'rganila boshlangan ilmiy fenomendir. (S.Moscovici, I.Jodelet, A.Donsov, T.Yemelyanova va boshqalar). Biz xorijiy tadqiqotchilarning fikrlarini umumlashtirib, ijtimoiy tasavvurlarga quyidagicha ta'rif berishni ma'qul topdik: ijtimoiy tasavvurlar har bir shaxs tomonidan ijtimoiy borliqni o'ziga xos tarzda qayd etish vositasi bo'lib, sub'yektiv reallikni ob'yektivlik bilan bog'lovchi psixologik mexanizmlardir. Bu ta'rif orqali biz ijtimoiy tasavvurlarning bir necha muhim xususiyatlarini ajratishimiz mumkin. Birinchidan, ijtimoiy tasavvurlar faol ijtimoiy muloqotlar mahsuli; ikkinchidan, ular shaxs uchun muhim bo'lgan ijtimoiy ob'yektlarga nisbatan uning ongli munosabatlarini ta'minlaydi; uchinchidan, ijtimoiy tasavvurlar bilish vositasidir; to'rtinchidan, jamiyatda, jumladan, oilaviy o'zaro munosabatlar doirasida qabul qilingan turli ijtimoiy me'yorlar, xatti - harakatlar shakllari, qadriyatlar va baholarning interiorizatsiyasini ta'minlaydi; va nihoyat, ijtimoiy tasavvurlar shaxs ijtimoiy tajribasining asosidir.

Ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasining G'arbdagi asoschisi hisoblangan Serji Moskovisi unga quyidagicha ta'rif bergan edi: ijtimoiy tasavvurlar bixevioristlar ta'riflagan mexanik obraz ham, tashqi va ichki muhit o'rtasida ziddiyat tug'diradigan narsa ham bo'lmay, bu" faol ravishda ob'yektiv borliqni sosial psixologik tarzda qayta o'zlashtirishning mahsuli hamda jarayonidir".

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom va rol, ijtimoiy xulq atvorning

me'yor va qoidalari haqida ko'p bilimlarni o'zlashtiradi. U shuningdek uning jamiyatga ko'nikishiga yordam beruvchi turli ko'nikma va malakalarni ham o'zlashtiradi. Bu jarayon ayniqsa bolalikda juda jadal amalga oshadi. Ma'lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotiga o'z aksini topuvchi nihoyatda ko'p bilimlarni oladi.

Tadqiqot va natijalar. Fransuz mutaxassislarning yana bir yorqin vakili J.Jodele esa ijtimoiy tasavvurlarga shunday ta'rif beradi: "Ijtimoiy tasavvurlar qanchalik sodda yoki murakkab mazmunga ega bo'lmasin, ular doimo odamning kundalik hayot tarzini anglash va o'ziga xos tarzda bayon etish usuli, ijtimoiy bilimning ma'lum shakli sifatida individlar va guruxlarning faolligini, ularning o'zlariga qarashli, ahamiyatli bo'lgan vaziyatlar, hodisalar, ob'yektlar va xabarlarga nisbatan tutgan mavqeini va munosabatini bildiradi.

Ijtimoiy tasavvurlarning xususiyatidan kelib chiqib, biz ularning qanday usul yordami bilan o'lchanishiga e'tibor qaratamiz. Bu o'rinda yana professor V.M.Karimova va uning shogirdlari fikriga tayanamiz. Ularning ta'kidlashicha, ijtimoiy tasavvurlarning psixologik o'lchovi vazifasini tasavvurlar egasining tasavvurlar ob'yekti haqidagi ma'lumotlari darajasi, shu ob'yektga nisbatan baholari xarakteri hamda xulq – atvorida bevosita namoyon bo'ladigan ijtimoiy ustanovkalari alohida ahamiyat kasb etishi mumkin.

G'arb psixologlari Moskovisi, Donsovlarning ijtimoiy tasavvurlar tizimidagi ma'lumot darajasi deganda, tasavvurlar ob'yekti to'g'risidagi bilimlar yig'indisi nazarda tutiladi. Masalan, biz oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarni o'lchash uchun oilaning turli tomonlariga taalluqli ma'lumotlar sonini ob'yekt haqidagi bilimlar darajasi sifatida qarashimiz mumkin. Bunda biz ma'lumotga egalikning ma'lum darajasini

tasavvurlar shakllanganligining sharti, deb hisoblaymiz. Ijtimoiy tasavvurlar tizimidagi ma'lumotlarning asosiy vazifasi bilish, tushuntirish bo'lib, ular ijtimoiy ob'yektlar haqidagi bilimlarning yig'indisidan iboratdir. Shuning uchun ham alohida shaxsda ular ijtimoiy tasavvurlarning miqdoriy tomonini tashkil etadi. Oxir – oqibat ma'lumotlar darajasi shaxsning ob'yekt xususida bilimdonligini ta'minlaydi. Demak, sub'yektdagi aniq bilimlar, g'oyalar, fikr va tushunchalar ma'lumotlar darajasining sosial psixologik natijasidir.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogika va ommaviy tarbiya tizimiga buyurtmalar kengayadi. Unga asta-sekin yoshlarni tarbiyalash, shuningdek ijtimoiy xulq-atvor normalarini buzuvchi shaxslarni qayta tarbiyalash kirgan. Industriyalashtirish qishloq axolisining shaharga ommaviy migrasiyasini keltirib chiqardi. Buyurtmaning kengayishini keltirib chiqargan holat Yevropa va Amerika mintaqalarining ijtimoiy madaniy jarayonlari bilan ham bog'liq. Qishloq aholisining shaharga ko'chib o'tishlari g'ayriaxloqiy xulq-atvor, jinoyatchilik, daydilikning ko'payishiga olib keldi. Ayniqsa, AQShda holat nihoyatda og'ir edi. Bu davlatga boshqa kam rivojlangan davlatlardan axoli ko'chib kelishi bilan bog'liq. Ayni vaziyatda cherkov rolining susayishi kuzatildi. U shu paytgacha axloqiy normalarning ana'naviy tashuvchisi bo'lib kelgan. Biroq u jamiyatning yangi ehtiyojlari va voqyeliklarini anglay olmadi va ko'pgina odamlar hayotida o'zining avvalgi mavqeini yo'qotdi. Shu bilan birga Yevropada milliy davlatchilikning shakllanishi va Amerikada millatning yuzaga kelishi barcha ijtimoiy qatlamlarda muayyan g'oya va qadriyatlarning madaniylashuvini talab qilardi. Bu esa masalani yechish vositalarini topishni taqazo etardi. XIX asr oxirida mustaqil fanga

aylangan ijtimoiy pedagogika rivojiga aynan shu omil vosita bo'ldi. Bu paytda esa nemis pedagogi Fridrix Disterveg tomonidan faqatgina XX asrda keng qo'llanilgan ijtimoiy pedagogika atamasi fanga kiritildi.

Ijtimoiy tasavvurlarning o'zgarishi, avvalo tashqi omillar ta'siriga bog'liq bo'lib, bu o'zgarish jarayonini bir qancha bosqichlarga ajratish mumkin:

I bosqich. Ma'lumotlar oqimining idrok qilinishi va ulardan shaxsga ma'lum ma'noda ahamiyatlarini ajratib olinishi.

II bosqich. Ajratib olingan ma'lumotlarni oldingilari bilan solishtirilishi va ular orasidagi o'zaro bog'liqlarining qidirilishi.

III bosqich. Kognitiv tizimda yangidan ma'lumotlarning tabaqalanishi va tavsiflanishi.

IV bosqich. Tasavvurlar "yadrosi" ning tashkil topishi va uning xulq-atvor shakllarida mustahkamlanishi. Shunday qilib, tasavvurlar shakllanishi davrida shaxs noma'lum axborotlarni ma'lumlarga o'xshatib, ularni odatdagi tasavvurlar qatoriga qo'shadi (generalizasiya) hamda

sub'yektiv jihatdan ularning o'ziga xos va betakror ekanligini anglashga (individualizasiya) harakat qiladi.

Xulosa. Ijtimoiy tasavvurlar muammosining o'rganilishini tahlil qilish asosida quyidagi metodologik va nazariy xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

1. Shaxsning oilaviy qadriyatlarga oid tasavvurlarining etnopsixologik xususiyatlarini o'rganish, ijtimoiy xulqning ijtimoiy motivlarini qidirish, ilmiy jihatdan tadqiq etishda ijtimoiy tasavvurlar hamda shaxs bilimlari xususiyati va kognitiv stereotiplarni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

2. Ijtimoiy tasavvurlarni tadqiq etish uchun psixologiyaning metodlaridan, jumladan, verbal reaksiyalar, ustanovkalar hamda ijtimoiy munosabatlarni o'rganish metodlari – standartlashtirilmagan suhbat, anketa, kontent – analiz, proyektiv metodikalar va boshqalardan foydalanish mumkin.



Foydalanilgan Adabiyotlar:



1. М.М.Умарова. Оила ва маънавият. Монография. Тошкент." ФАН" нашриёти.2011.
2. М.М.Умарова. Д.М.Мирзажоновна. "Оила аънавлари ва талаба –қизлар". "Оила" илмий-маърифий, ижтимоий-психологик журнал. 2005.№ 3
3. М.М.Умарова. "Оила ва унинг қадриятлари ёшлар тасаввурида" "Оила"илмий-маърифий, ижтимоий-психологик журнал.2005.№ 02
4. М.Н.Хушназарова "Problems of improvine the professional competence of educators in preschool education. Galaxy international interdisciplinary research journal inVolume 10,Issue 12,Dec.,2022
5. М.Н.Хушназарова "Problems of improving the professional competence of teachers of pre-school educational organizations". Galaxy international interdisciplinary research journal in Volume 10,Issue 12,Dec.,2022
6. М.М.Умарова Мафкуравий тарбия ва инновацион таълим. "Халқ таълими". 2001,5-сон.
7. М.М.Умарова Ёшларда соғлом ғоялар ва янги билимларни шакллантиришда оила ва мактаб ҳамкорлигини такомиллаштириш. Замонавий технологияларни амалиётга татбиқ этишнинг назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Қўқон, 2002.
8. М.М.Умарова. Оилавий муносабатлар тизимида соғлом ғоя ва мафкуравий тасаввурларни шакллантирувчи психологик услуб ва омиллар. Педагогика ва психология соҳасидаги илмий ишлар танлови ғолибларининг мақолалари тўплами.Т.:2002.
9. М.М.Умарова.Оилавий аънавлар таъсирида болаларни мафкуравий жиҳатдан тарбиялашда оиланинг роли." Аёллар психологияси : аънавийлик ва ўзгарувчанлик". Республика илмий-амалий анжумани маърузалар тўплами. Т.:2002.

OILAVIY TA'LIMNING KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHINING O'ZINI O'ZI QADRLASHIGA TA'SIRI

ISAXANOVA MOXIDIL ERKINOVNA
Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'z-o'zini hurmat qilish darajasi insonning butun hayotiga katta ta'sir ko'rsatishi, shu sababdan ota-onalar bolaning o'zini o'zi qadrlashi uchun to'g'ri oilaviy tarbiya qanchalik muhimligini tushunishlari kerak ekanligi, bolalarning o'z-o'zini hurmat qilishiga yordam berish uchun ularni qo'llab-quvvatlash, ularga samimiy g'amxo'rlik ko'rsatish va imkon qadar tez-tez ularning harakatlari va ishlariga ijobiy baho berish kerak ekanligi haqida fikrlar keltirib o'tilgan.

Tayanch so'z: O'z o'zini qadrlash, o'z-o'zini hurmat, qadriyatlar, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini o'rganishning, avtoritar, liberal, demokratik tarbiya uslubi, psixologik xususiyatlar.

Аннотация. В данной статье уровень самооценки оказывает большое влияние на всю жизнь человека, поэтому родители должны понимать насколько важно правильное семейное воспитание для самооценки ребенка, чтобы помочь детской самооценке, необходимо как можно чаще поддерживать их, проявлять к ним искреннюю заботу и давать положительную оценку их действиям и работе.

Ключевые слова: Самооценка, самооценка, ценности, самооценка, самообучение, авторитарный, либеральный, демократический стиль воспитания, психологические особенности.

Abstract. In this article, the level of self-esteem has a great impact on the whole life of a person, so parents should understand how important a proper family upbringing is for a child's self-esteem, In order to help children's self-esteem, it is necessary to support them, show them sincere care and give positive evaluation of their actions and work as often as possible.

Key words: Self-esteem, self-esteem, values, self-evaluation, self-learning, authoritarian, liberal, democratic upbringing style, psychological characteristics.

Kirish. Yoshlar bizning kelajagimiz ularni qanday tarbiyalab bersak, yurtimiz kelajagi ham shunday bo'ladi. Bu borada prezidentimizning "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirish lozim mamlakatimizning mard fidoiy kishilari yurtiga mehr-shavqat, muhabbat, barqaror bo'lgan tafakkur va ijod qaynagan muqaddas makonga aylanishiga aminman" degan fikrlari ta'lim-tarbiya sohasini mamlakatning rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Ko'rib turganingizdek, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda qadriyatlar tizimini tarkib topishi ularda o'ziga va o'zgalarga nisbatan munosabatlar tizimini qaror topishi bilan izohlanadi. O'z-o'zini hurmat qilish

hayotning deyarli barcha sohalariga ta'sir qiladi va umuman insonning hayot darajasi va sifatini belgilaydi. Albatta, o'z-o'zini hurmat qilish hayot davomida o'zgarishi mumkin, ammo uning asoslari erta yoshda qo'yiladi. Shuning uchun bolaning o'zini o'zi qadrlashini shakllantirishga uning hayotining birinchi yillaridanoq jiddiy e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, bolaning o'zini o'zi qadrlashiga eng yaqin odamlar eng katta ta'sir ko'rsatadi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Kichik maktab o'quvchilarida qadriyatli o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni rivojlantirishda o'qituvchining ta'sirini aniqlash xamda o'quvchilarda qadriyatli o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash va o'rgani

Odam oilada nimani qo'lga kiritrsa, u keyingi hayoti davomida saqlab qoladi. Oilada shaxsning poydevori qo'yiladi. Bolalarni tarbiyalash murakkab, lekin ayni paytda manfaatli. Ota-onalar farzandining muvaffaqiyatli rivojlanishida ularning roli qanchalik muhimligini tushunishlari kerak.

Yosh o'quvchining o'zini o'zi qadrlashini shakllantirishda, M. Fennelning fikriga ko'ra, oilaviy tarbiya uslubi, oilada qabul qilingan qadriyatlar katta ahamiyatga ega. Bunday holda, o'z-o'zini hurmat qilish darajasi yosh avlodning neyropsixik salomatligi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Oila, birinchi navbatda, bolaga ob'ektiv ravishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni engishga yordam beradi.

Bolalikda o'z-o'zini hurmat qilish - bu ota-onaning bahosini bolaning dastlabki o'zlashtirishi. Keyinchalik, o'z-o'zini hurmat qilish farqlana boshlaydi. Rag'batlantirish, muayyan xatti-harakatni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, o'z-o'zini ijobiy baholashni shakllantirishga harakat qilish, jazolash va e'tibor bermaslik - rag'batlantirilgan variantni topishga harakat qilish va hozirgi paytda o'zini salbiy baholash. Harakatlarga qo'shimcha ravishda, so'zlar ham muhimdir, chunki ota-onalarning bolaga bo'lgan umidlari yoki umidlarini aks ettirgan gaplari ham bolalar xotirasida saqlanadi. O'z-o'zini hurmat qilishning pastligi bolaning qobiliyatlarini to'liq ochishga imkon bermaydi. O'z-o'zidan haddan tashqari yuqori fikrda bo'lish xavfli bo'lishi mumkin: bola o'ziga mavjud bo'lmagan fazilatlarni va haqiqiy bo'lmagan istiqbollarni bog'laydi, keyin esa hayot hamma narsani o'z o'rniga qo'yishni boshlaganda azoblanadi. Maqtov va tanqid ham o'rtacha nisbatga ega bo'lishi kerak: bola qilgan hamma narsani so'zsiz maqtash mumkin emas, lekin ketma-ket hamma narsa uchun ta'na qilishning hojati yo'q. Agar tanqid maqtovdan oshsa, bola ota-onasi bilan muloqot qilishdan qocha boshlaydi. Va bolani tanqid qilganda, siz uni maqtash mumkin bo'lgan narsani topishingiz kerak. Bundan tashqari, suhbat oxirida siz

bolaning tanqidni tushunib, hamma narsani tezda tuzatganiga samimiy umid bildirishingiz kerak.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ota-onalarning yana bir xatosi - bu o'z farzandining o'ziga xosligini tushunmaslik yoki tan olmaslik. Aksariyat ota-onalar farzandlarining his-tuyg'ulari, istaklari va fikrlariga kam e'tibor berishadi. Ba'zi ota-onalar, M. Fennelning so'zlariga ko'ra, pul va moddiy boylikni juda qadrlashadi. Bunday oilada bola bu qadriyatlar bilan o'zini namoyon qiladi va undan doimiy kurash va intrigalarni talab qiladigan yig'ma turmush tarzi kishaniga tushadi. Moddiylik bolaning o'zini qadrlash tuyg'usini yo'q qiladi ekan, u o'zini pastlik tuyg'ularining o'rnini to'ldirib, boylikka intiladi. Haddan tashqari bo'ysunuvchi, g'amxo'r yoki befarq ota-onalar o'z farzandlarini hissiy nogironga aylantiradilar. Hayotiy vaziyatlarga ishonch va qadr-qimmat bilan qarshi turish motivatsiyasidan mahrum bo'lgan bola, ishni kechiktiradi va eng kam qarshilik yo'lini tanlaydi. O'z-o'ziga ishonchning yo'qligi pastlik tuyg'usini keltirib chiqaradi va bu, o'z navbatida, o'zini past baholashga asos bo'ladi.

Ayniqsa, agar ular ikkita yoki undan ko'p bo'lsa, bolalar bilan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishingiz kerak. Shunday ota-onalar borki, o'z farzandlarini ochiqchasiga qiyoslab, birini boshqasiga o'rnak qilib ko'rsatadilar. Shunday qilib, bola o'zini hamma hayratga soladigan bir xil yoshdagi bolalarga qiyoslaydi va uning xayoliy kamchiliklaridan azob chekadi. Bola boshqalarning kuchliroq, o'ziga ishongan va mashhurroq ekanligiga ishonadi, buning natijasida halokatli pastlik hissi paydo bo'ladi. Bu bolaning o'zini o'zi qadrlashida namoyon bo'lib, unga hasad tuyg'usini, ota-ona sevgisiga shubha va doimiy ravishda ulug'lanadiganlarga nisbatan ochiq dushmanlikni keltirib chiqaradi.

Darhaqiqat, o'z-o'zini hurmat qilish - bu haqiqiy "men" va ideal "men" o'rtasidagi farq va bolalar o'zlari uchun ideallarni yaratishni yaxshi ko'radilar. Ba'zan ular kitoblar yoki

filmlar qahramonlari kabi bo'lishni xohlashadi, lekin muammo shundaki, bunga erishib bo'lmaydi. Natijada, ideal va bola o'rtasidagi tafovut shunchalik kattaki, o'z-o'zini hurmat qilish ba'zan nolga tushadi.

Va shunga qaramay, A.N. Ganicheva, ota-onalar bolaning idealga intilishini mamnuniyat bilan qabul qilishlari kerak, aks holda u o'zini qoniqtiradigan va unchalik ma'lumotli bo'lmagan shaxs bo'lib o'sadi. Ammo, birinchi navbatda, siz unga mashaqqatli mehnat orqali faqat asta-sekinlik bilan idealga yaqinlashishingiz mumkinligini tushuntira olishingiz kerak. Bolaga tushuntiring, agar ideallar erishib bo'lmaydigan bo'lib tuyulsa, agar siz o'zingizning haqiqiy shaxsingizni o'zgartira olmasangiz, unda siz o'zingiz haqidagi g'oyalarni o'zgartirishingiz kerak - ideal. Va, eng muhimi, o'zingizni, qanday bo'lsangiz, o'zingizni sevishingiz kerak.

Bolalarning o'z-o'zini hurmat qilishiga yordam berish uchun ularni qo'llab-quvvatlash, ularga samimiy g'amxo'rlik ko'rsatish va imkon qadar tez-tez ularning harakatlari va ishlariga ijobiy baho berish kerak. A.N. Bukin ta'limning uchta asosiy uslubini ajratib ko'rsatadi: avtoritar, liberal, ular orasida u demokratik yoki obro'li tarbiya uslubini eng muvaffaqiyatli deb biladi, chunki u bolaning shaxsiyatiga etarli darajada talabchanlik bilan, bu bolalarga yuqori, ammo oshirib yuborilmagan o'z-o'zini hurmat bilan o'sishiga imkon beradi.

Avtoritar yoki diktator tarbiya uslubida iliqlik yo'q. U qat'iy tartib-intizom bilan ajralib turadi, "ota-ona - bola" rejimidagi muloqot "bola - ota-ona" rejimidagi muloqotdan ustun turadi. Bunday ota-onalarning farzandlariga nisbatan umidlari juda katta. Avtoritar ota-onalar, qoida tariqasida, bolaga ozgina mehr ko'rsatadilar, ko'rsatmalar va buyruqlar beradilar, shu bilan birga bolalarning fikriga e'tibor bermaydilar va murosaga kelish imkoniyatini tan olmaydilar. Bunday oilalarda itoatkorlik, hurmat va urf-odatlariga sodiqlik yuksak qadrlanadi. Ota-onalar har doim to'g'ri ekanligiga ishonishadi va itoatsizlik ba'zan

jismonan jazolanadi. Avtoritar ota-onalar ham o'z farzandlaridan yoshiga nisbatan ko'proq etuklikni kutishadi. Bolalarning faolligi juda past, chunki ta'limga yondashuv ota-onaga va uning ehtiyojlariga qaratilgan. Ushbu ta'lim uslubi, A.N. Bukin, bolaning rivojlanishida bir qator kamchiliklarga olib keladi. Bunday bolalar ko'pincha tengdoshlarining kuchli ta'siri ostida qoladilar. Ko'pincha umidlaridan hafsalasi pir bo'lib, ular o'zlarini ota-onalaridan uzoqlashtiradilar va ko'pincha ularning qadriyatlarini va tamoyillariga qarshi norozilik bildiradilar. O'zini past baholagan bolalar o'zlaridan norozi. Bu oilada sodir bo'ladi, unda ota-onalar doimo bolani ayblashadi yoki unga ortiqcha vazifalar qo'yadilar. Bola ota-onaning talablariga javob bermasligini his qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ruxsat beruvchi yoki liberal uslub ota-ona va bolaning iliqlik munosabatlari, past intizom, ota-ona munosabatlaridan ustun bo'lgan bola va ota-ona muloqoti bilan tavsiflanadi va liberal ota-onalar o'z farzandlaridan katta umidlarga ega emaslar. Liberal ota-onalar g'amxo'r, ehtiyotkor, ular o'z farzandlari bilan juda yaqin munosabatlarga ega. Eng muhimi, ular bolalarga o'zlarini, shaxsiyati va individualligining ijodiy tomonlarini ifoda etish va ularni xursand qilish imkoniyatini berish haqida qayg'uradilar. Ularning fikriga ko'ra, bu ularga to'g'ri va yomonni ajratishga o'rgatadi. Liberal ota-onalar uchun o'z farzandlari uchun maqbul xatti-harakatlar uchun aniq chegaralarni belgilash qiyin. Ular bir-biriga mos kelmaydigan va ko'pincha cheklanmagan xatti-harakatlarni rag'batlantiradilar. Agar oilada ma'lum qoidalar yoki standartlar mavjud bo'lsa, unda bolalar ularga to'liq rioya qilishga majbur emas. Bunday ota-onalar farzandlariga katta umid bog'lamaydilar, oilalaridagi tartib-intizom minimal, farzandlari taqdiri uchun mas'uliyatni sezmaydilar.

Demokratik yoki obro'li tarbiya uslubi ota-onalar va bolalar o'rtasidagi iliqlik munosabatlar, mo'tadil intizom talablari va bolalar kelajagiga umid qilish, shuningdek, tez-tez muloqot qilish

bilan tavsiflanadi. Liberal ota-onalardan farqli o'laroq, ular qat'iy, talablarida izchil va adolatli.

Vakolatli ota-onalar bolalarning ma'lum bir guruh qoidalariga rioya qilishlari kerak bo'lganda mustaqil bo'lishini ta'minlash uchun oqilona va muammoga yo'naltirilgan strategiyalardan foydalangan holda tartib-intizom yaratadilar. Ular bolalardan ma'lum xatti-harakatlar standartlariga rioya qilishni va ularning bajarilishini nazorat qilishni talab qiladilar. Ota-onalar o'z farzandlari bilan tushunishga majburlash uchun emas, balki aql, muhokama va ishontirishdan foydalanadilar. Ular o'z farzandlarini birdek tinglaydilar va ularga o'z talablarini bildiradilar. Bolalarning muqobil varianti bor, ular rag'batlantiriladi, ularga o'z echimlarini taklif qilish va o'z harakatlari uchun javobgarlikni olish imkoniyati beriladi. Natijada, bunday bolalar o'zlariga va o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga ishonishadi. Agar ota-onalar o'z farzandlarining fikrini qadrlashsa va hurmat qilsalar, bu ikkala tomon uchun ham foydalidir.

Vakolatli ota-onalar o'z farzandlari uchun maqbul chegaralar va xatti-harakatlar standartlarini o'rnatadilar. Ular har doim kerak bo'lganda yordam berishlarini aytishadi. Agar ularning talablari qondirilmasa, ular bunga tushunish bilan munosabatda bo'lishadi va bolalarini jazolashdan ko'ra kechirishlari mumkin.

Muvaffaqiyatli o'zaro munosabatlar, g'amxo'rlik va bolalarga qo'yilgan haqiqiy umidlar tufayli ular rivojlanish uchun yaxshi imkoniyatlarga ega bo'lishadi. Bundan tashqari, bunday ota-onalar farzandlarini maktabda muvaffaqiyatga erishishga undaydilar, bu esa ularning maktabdagi natijalariga ijobiy ta'sir qiladi.

Demokratik uslub qo'llaniladigan oilalarda bolalar yuqori, ammo ortiqcha baholanmagan o'z-o'zini hurmat qilish bilan o'sadi, bolaning shaxsiyatiga e'tibor (uning qiziqishlari, didi, do'stlari bilan munosabatlari) etarli talablar bilan uyg'unlashadi. Bu erda ular kamsituvchi jazolarga murojaat qilmaydilar va bola bunga

loyiq bo'lsa, bajonidil maqtashadi. O'zini past baholaydigan bolalar (juda ham past bo'lishi shart emas) uyda ko'proq erkinlikka ega, ammo bu erkinlik, aslida, nazoratning etishmasligi, ota-onalarning bolalarga va bir-biriga befarqligi oqibatidir.

Shunday qilib, maktabdagi ish faoliyati ota-onalar tomonidan bolani shaxs sifatida baholashning muhim mezonidir. Bolada ota-onasi birinchi navbatda g'amxo'rlik qiladigan fazilatlar - obro'-e'tiborni saqlash - birinchi o'ringa chiqadi. Ota-onalar ta'lim bilan emas, balki uning maktab hayotidagi kundalik lahzalar bilan shug'ullansalar yoki ular umuman ahamiyat bermasalar - maktab hayoti muhokama qilinmaydi yoki rasmiy ravishda muhokama qilinmasa, yosh o'quvchining o'z-o'zini anglashidagi e'tibor o'zgaradi. Bu yoshdagi shaxsning yana bir xususiyati tashvish bo'lishi mumkin. Ota-onalar tomonidan o'qishdan doimiy norozilik bilan yuqori tashvish barqaror bo'ladi. Xavotirning kuchayishi va o'z-o'zini hurmat qilishning pastligi tufayli ta'lim yutuqlari pasayadi va muvaffaqiyatsizliklar tuzatiladi. O'z-o'zidan shubhalanish bir qator boshqa xususiyatlarga olib keladi - kattalarning ko'rsatmalariga o'ylamasdan amal qilish istagi, faqat naqsh va naqshlarga muvofiq harakat qilish, tashabbus ko'rsatishdan qo'rqish, bilim va harakat usullarini rasmiy ravishda o'zlashtirish.

Ota-onalar farzandlarining hayotiga eng kattata'sirko'rsatadi. Shuning uchun bolalarning nima haqida o'ylashlari, qanday o'rganishlari va qanday ta'lim olishlari kerakligini tushunishlari o'sib borayotgan bolalarning kelajakdagi xatti-harakatlarini shakllantirishda juda muhimdir. Bolalarni tarbiyalash kattalar shaxsini boyitadi, uning ijtimoiy tajribasini oshiradi. Ular bolaga yangi xulq-atvor namunalarini beradi, ularning yordami bilan u atrofidagi dunyoni o'rganadi, u o'zining barcha harakatlarida ularga taqlid qiladi. Bu tendentsiya bolaning ota-onasi bilan ijobiy hissiy aloqalari va onasi va otasi kabi bo'lish istagi bilan tobora kuchayib bormoqda. Ota-onalar ushbu bolaning shaxsiyati va

МАКТАБ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ СУЗИШГА ЎРГАТИШДАГИ БОСҚИЧНИНГ ТАШКИЛИЙ-МЕТОДИК ХУСУСИЯТЛАРИ

ХАЙРУЛЛА АЛИҚУЛОВИЧ МЕНГЛИҚУЛОВ

Термиз давлат университети спорт бошқаруви кафедраси катта ўқитувчи-
си

Аннотация: Сузиш билан шуғулланмоқчи бўлган мактаб ёшидаги мактаб ўқувчиларида сузиш кўникмаларини эгаллашда сузишнинг дастлабки тайёргарлик босқичи муҳим ўрин тутди. Табиий омиллардан фойдаланиш, қуруқликда ва сувда тўғри танланган машқларни бажариш орқали қисқа вақт ичида болаларнинг сузишга тайёргарлигини оширишда керакли самарага эришиш мумкин. Ўтказилган тадқиқотнинг мақсади болаларни дастлабки тайёргарлик босқичида сузишга ўргатишнинг ташкилий-методик хусусиятларини аниқлаш бўлди. Тадқиқотда илмий-услубий адабиётларни, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни таҳлил қилиш, таққослаш, тизимлаштириш ва умумлаштириш каби тадқиқотнинг назарий даражаси усулларида фойдаланилди.

Калит сўзлар: машғулотларнинг дастлабки босқичи, сузиш техникаси, сузиш машғулотлари, методика, болалар.

Аннотация: Начальный подготовительный этап плавания играет важную роль в приобретении навыков плавания у школьников, желающих плавать. Используя природные факторы, выполняя правильно подобранные упражнения на суше и в воде, можно в короткие сроки добиться желаемого эффекта в повышении плавательной подготовленности детей. Цель исследования - определить организационно-методические особенности обучения детей плаванию на начальном подготовительном этапе. В исследовании использовались методы теоретического уровня исследования, такие как анализ, сравнение, систематизация и обобщение научно-методической литературы, нормативных документов.

Ключевые слова: начальный этап обучения, техника плавания, обучение плаванию, методика, дети.

Annotation: The initial preparatory stage of swimming plays an important role in acquiring swimming skills among schoolchildren who want to swim. Using natural factors, performing correctly selected exercises on land and in water, it is possible to achieve the desired effect in a short time in increasing the swimming readiness of children. The purpose of the study is to determine the organizational and methodological features of teaching children to swim at the initial preparatory stage. The study used methods of the theoretical level of research, such as analysis, comparison, systematization and generalization of scientific and methodological literature, regulatory documents.

Key words: initial stage of training, swimming technique, swimming training, methodology, children.

Долзарблиги. Мактаб ёшидаги болаларнинг сузиш кўникмаларини эгаллашда сузиш машғулотларининг дастлабки тайёргарлик босқичи муҳим ўрин тутди. Кўпгина олимларнинг фикрича [1,2,3] табиий омиллардан фойдаланиш, қуруқликда ва сувда тўғри танланган машқлар орқали қисқа вақт ичида болаларнинг сузишга тайёргарлигини оширишда ке-

ракли самарага эришиш мумкин. Сувнинг қаршилигини енгиш билан боғлиқ тизимлаштирилган ҳаракатлар фаолияти ва ривожлантирувчи йўналишга эга машқлар комплексларини амалга ошириш эса сузиш техникаси элементларини бажаришдаги тезликни рационал тарзда оширишга ва юқори бўлмаган юкламалардан интенсивроқ бўлган юкламалар-

га ўтишга имкон беради. Бирок, бугунги кунда танланган мавзунинг долзарблигини аниқлайдиган бошланғич тайёргарлик босқичида болаларни сузишга ўргатиш алгоритми бўйича сузиш спорти мутахассислари ўртасида ягона фикр йўқдир.

Тадқиқот мақсади. Тадқиқотнинг мақсади болаларни дастлабки тайёргарлик босқичида сузишга ўргатишнинг ташкилий-методик хусусиятларини аниқлашдир.

Тадқиқот усуллари. Тадқиқотда илмий-услубий адабиётларни, меъёрий-ҳукукий ҳужжатларни таҳлил қилиш, таққослаш, тизимлаштириш ва умумлаштириш каби тадқиқотнинг назарий даражаси усуллари билан фойдаланилди.

Тадқиқот вазифалари. Тадқиқот жараёнидаги ўргатишнинг дастлабки босқичидаги асосий вазифалар қуйидагилардан иборат бўлди:

- болаларнинг сузишга бўлган қизиқишини шакллантириш;
- барча жисмоний сифатларни ривожлантириш учун асос яратиш;
- сувдан кўрқиш ҳолатини бартараф этиш ва сувда ўзини йўқотмаслик кўникмасини шакллантириш;
- сузиш техникасини бузмасдан нафас олиш билан тўлиқ мувофиқлаштирилган ҳолда кўкракда ва елкада чалқанча крол сузиш техникасини ўзлаштириш.

Тадқиқот натижалари ва унинг муҳокамаси. В. Ю. Давидов ва В. Зернов [4,6] томонидан олиб борилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, кўпчилик мутахассислар мактаб ёшидаги болалар учун сузишни ўргатишда қуйидаги босқичлар кетма-кетлигини аниқладилар, яъни булар: сув билан танишиш, сувга кўникиш, сувнинг қаршилигини енгиш, бош билан сувга шўнғиш, сувда ўзини ушлаб туриш, сувда кўзини оча олиш, сувда сирпаниш, эшиш зарбаларни бажариш ва сувга сакрашни ўрганишдир.

Сузиш бўйича мутахассислар [5,7] томонидан спорт сузиш усулларини ўзлаштиришнинг маълум бир кетма-кетлиги бўйича машғулотларни бошлаш тавсия этилади: биринчи навбатда болалар кўкракда ва елкада чалқанча кроль усулини, кейин эса брасс усулини ўрганадилар. Бу вазият усулларнинг техникасини бузилишга олиб келмайди ва уларни бажаришда енгиллаштирилган усуллар қўлланилмайди. Бу нафақат сунъий, балки табиий шароитларда ҳам қисқа вақт оралиғида болаларнинг сузишга тайёрлигини сезиларли даражада ошириш имконини беради. Хатоларни бартараф этиш ва ҳаракатларнинг темпи, ритми тузилишини шакллантириш учун турли хиллик вазифалар (аста-секин суръат ва тезликни ошириб тезлашув билан сузиш) усуллари қўлланилади.

Кўпинча энди сузишни ўрганаётган мактаб ёшидаги болалар сувдан кўрқишади, бу эса уларнинг сузишни дастлабки ўрганишига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Мураббий томонидан ушбу муаммони тушуниш ва сувдан кўрқадиган болаларга индивидуал ёндашувни топиш қобилияти машғулотлар самарадорлигини сезиларли даражада оширади. Муаллиф [2,8] мураббийларга болаларда кўрқув ҳиссини камайтириш учун болаларда ўз-ўзини баҳолай олиш кўникмасини оширишга эътибор беришни тавсия қилади. Мураббийга болаларни бир-бири билан солиштириш ва бошланғич гуруҳларда мусобақа усулидан фойдаланиш тавсия этилмайди, шу билан бирга, болаларнинг кўзлари билан кўз орқали алоқа ўрнатиш жуда муҳимдир. Бунинг учун бола томонга энгашиб, у билан унинг кўзлари даражасида гаплашиш тавсия этилади.

Сув муҳитидан кўрқиш ҳиссини енгиш ва кўрқмасдан сувга шўнғишни тарғиб қилиш учун тизимли жисмоний машқлар-

ни сифатли ва мақсадли танлаш ёрдам беради, бу янги сузишни бошловчиларга сузишни ўргатишнинг асосий вазифасидир [2,9]. Шунинг учун машғулотларни бассейнинг чуқур бўлмаган саёз қисмида нафас олиш машқлари билан бошлаш тавсия этилади.

Бундан ташқари, болаларнинг психологик барқарорлигини таъминлаш учун уларнинг бассейн тубига оёқлари билан таяниб туришлари муҳим аҳамиятга эгадир [1,10]. Мактаб ёшидаги болаларда кўникманинг муваффақиятли шаклланиши шarti бу - ихтиёрий бўлмаган сигнал ва шартсиз рефлекс ўртасидаги мустаҳкам боғлиқликни таъминлаш бўлиб, бу болаларнинг ётган ҳолда сувда сирғанишидаги конвергенция ҳолатида мунтазам равишда бирлашиши, кейинчалик мақсадли тизимлаштирилган восита ҳаракатлари ва нафас олиш интеграциялашуви натижа-сида ривожланади.

Ю. А. Бетехтин, В. А. Ермаков [2] сувдан кўркиш белгилари бўлган болаларга сузишни ўргатишнинг табақалаштирилган методологиясини ишлаб чиқишди ва экспериментал асослаб беришди, бунда куруқликда ва сувда дидактик восита вазифаларидан табақалаштирилган ҳолда фойдаланиш, уларни амалга оширишда муваффақият мотивациясини шакллантириш, шунингдек сувда махсус ва тайёргарлик сузиш машқларидан стандарт такрорий ва ўзгарувчан фойдаланиш методлари кўрсатилиб ўтилади.

В. Ю. Давидов [4] сузишни ўргатишда турли ўйинлардан тизимли фойдаланиш болаларда ҳаракатларнинг динамик стереотипини яратишга ёрдам беришини, бу эса сузиш техникасини тез ўзлаштиришга имкон беришини аниқлади. Ўйин давомида болалар учун сувдаги танглик ва кўркувни бартараф этиш учун ижобий хиссий фон яратилади, бундан ташқари

бола сув муҳитининг хусусиятларига ўзи сезмаган ҳолда ўрганиб қолади. Бугунги кунда сузиш кўникмаларини эгаллашга ва болаларнинг жисмоний тайёргарлигини оширишга ёрдам берувчи кўплаб сув ўйинлари мавжуд [11]. Сувдаги ўйинлар болаларнинг ёши ва тайёргарлигига қараб мусобақа элементлари мавжуд ўйинларга, сюжетли ва жамоавий ўйинларга бўлинади.

А. В. Введенский томонидан олиб борилган тадқиқот натижалари шуни ишончли исботлайдики, бассейнда ишлайдиган мутахассисларнинг аксарияти хавфсизликни таъминлаш, болаларни сув фаолиятига психологик мослаштириш, уларни сув билан таништириш, сувда ўзини ушлаб туриш кўникмаларини эгаллаш учун таянч камарларидан фойдаланиш зарурлигини билишади. Шу билан бирга, амалиётчиларнинг назарий тайёргарлигининг йўқлиги ушбу воситаларни бирламчи сузиш машғулотларида стереотипик тарзда қўллашга олиб келади [3].

Сузишни ўрганишда ижобий натижаларга эришиш учун болаларнинг машқлар ва ўйинларга онгли ва фаол муносабати катта аҳамиятга эгадир, чунки бериладиган вазифаларнинг маъносини тушуниш уларнинг қизиқиш ва фаол бажарилишини рағбатлантиради, машқларни босқич-ма-босқич ўзлаштириш ва тушуниб етишга ёрдам беради. Болалар томонидан топшириқларни тўғри тушуниши, шунингдек мураббий томонидан техниканинг асосий қисмлари бўйича аниқ кўрсатмаларига эътибор бериши, оёқлар ёрдамида кучли итарилиш, нафасни ушлаб туриш ёки сувга ўпкадаги хавони тўлиқ чиқаришга эътибор берилиши мураббийнинг муҳим жиҳатлардан бири ҳисобланади. Болаларни сузишга ўргатишдаги муваффақият бир томондан замонавий моддий-техника воситаларининг мавжудлиги

билан боғлиқ бўлса, иккинчи томондан мураббийнинг касбий маҳорати ва болаларнинг машғулотлар материалларини ўзлаштиришдаги индивидуал қобилиятига боғлиқ бўлади [12].

Сузиш бўйича бошланғич тайёргарликнинг педагогик амалиётида ўргатишнинг тўлиқ ва алоҳида услуги ўзининг самардорлигини исботлади, унинг моҳияти ҳаракат фаолиятининг алоҳида комплексларини, биринчи навбатда куруқликда зарур ҳаракат фаолиятини тақлид қилишдан иборат эканлигини кўрсатди. Шундан сўнггина машғулотларни сувда давом эттириш тавсия этилади [12,13].

Сузиш усули ёки унинг элементлари бўйича бошланғич тайёргарлик босқичида мақсадлаштирилган ҳаракатлар ва педагогик тадбирлар мажмуасига қуйидагилар киради:

- сузиш усулини тўлақонли кўрсатиш ёки уни таркибий қисмларга бўлиб намойиш этиш;
- сузиш усули техникаси элементлари ҳақида қисқача маълумотлар бериб бориш;
- режалаштирилган ҳаракатлар вазифаси ва аниқ ифодаланган таклифлар ва жумлалар мажмуаси;
- куруқликда ва сувда ўргатиш жараёнини амалга ошириш.

Ўргатишнинг муҳим элементларидан бири болалар гуруҳининг фаолиятини бошқаришдир. Буйруқлар ва кўрсатмалар ёрдамида мураббий машғулот жараёнини овози ёки ҳуштак сигнали билан бошқаради.

Дастлабки сузиш машғулотларининг анъанавий ёндашуви уч босқичга асосланади [6]. Биринчи босқич куруқликдаги дастлабки машқларни ўз ичига олади. Буларга қўл ҳаракатининг бошни айланттириш ва нафас олиш билан бирга синхрон ишлаши, оёқ билан тана ҳаракатлари, сузиш

ҳаракатларига тақлид қилиш, шунингдек уларнинг мувофиқлаштирилган ҳаракатлари киради. Ушбу ҳаракатлар сузиш учун тўғри техникани ишлаб чиқишга ёрдам беради.

Иккинчи босқич сувда элементар ҳаракатларини ўзлаштиришни ва сувга кетма-кетликда нафас чиқариб сирғаниш, шўнғиш вақтида тананинг тўғри ҳолатини таъминлашни ўз ичига олади.

Учинчи босқич очиқ кўзлар билан кўкракда крол усули билан сузиш вақтида оёқларни ҳаракатлантиришни ўрганишни ўз ичига олади. Дастлабки уч босқичнинг натижаси - қўллар билан резинали айлана ёки пенопласт тахтани ушлаб оёқлар ёрдамида сузишни ўрганиш бўлади.

Х. А. Менглиқуловнинг фикрига кўра, чуқур бассейн ҳавзасида сузиш бўйича дастлабки машғулотлар (саёз бассейнда машқ қилишдан фарқли ўлароқ) ушбу босқичда танани бирон объектга таямаган ҳолда, лекин қўллаб турувчи воситалардан фойдаланиш орқали ўзига хос муайян сузиш кўникмасини шакллантиришга имкон беради. Шунинг учун муаллиф дастлабки сузиш машғулотларини чуқур бассейн ҳавзасида ўтказишни тавсия қилади [14].

Сузиш бўйича дастлабки машғулотларда синхрон сузиш элементларини қўллаш ижобий таъсирини кўрсатади. Боланинг тайёргарлик даражасига мос келадиган сувнинг тегишли чуқурлигида болалар томонидан турли хил машқлар завқ билан бажарилади. Аниқ тушунарлилик тамойилини амалга ошириш учун машғулотлар айланма услубда ўтказилади, бунинг учун бассейн ўйин майдончаларига бўлинган бўлиб, у ерда болалар турли хил машқларни бажаришади. Мураббий эса янги машқни ўзлаштириш ҳудудида бўлиши ва баъзи элементларни бажара олмаётган болаларга индивидуал ёрдам кўр-

сатиши мумкин. Болалар учун бир ўйин майдонидан иккинчисига ўтиш уларнинг хоҳишига қараб амалга оширилади [14].

В. Зернов оёқларнинг иши ва нафас олиш билан ҳаракатларни мувофиқлаштиришни ўргатадиган машқларда кўпроқ ҳаракатлантирувчи ва кўтарувчи кучларни яратиш учун кичик ласталардан фойдаланишни тавсия қилади. Бироқ ёрдамчи воситаларни суистеъмол қилмаслик кераклигини эслатиб ўтади. Қўшимча машқлардан фойдаланиш (тайёргарлик, сувга сакраш машқлари, эшиш ҳаракатларида панжаларнинг тўғри жойлашувини шакллантириш учун машқлар) индивидуал равишда амалга оширилади. Уларни асосий машқлар ўртасидаги фаол дам олиш даврида, шунингдек эмоционал стрессни бартараф этиш учун ишлатиш мақсадга мувофиқдир [6].

Х. А. Менглиқулов машқларнинг машғулотларда мусобақавий ўйин шаклларида фойдаланиш ва уларни оқилона тақсимлашни фаол қўллашни амалга оширди, бу эса мактаб ёшидаги болаларнинг сузишга тайёргарлик жараёнига ва уларнинг сузишга тайёргарлик кўрсаткичларига ижобий таъсир кўрсатди. Муаллифнинг ўрганиш натижаларига кўра, бундай машқларни мунтазам равишда қўллаш, сувда тананинг оёқ сонларига нисбатан тўғри жойлашувини яратишга ёрдам берди. Мактаб ёшидаги болаларни сузишга бошланғич тайёргарлик жараёнида машғулотларга рақобат элементлари билан мусобақа шакллари кириштириш самарали эканлигини аниқлади [9,10].

Дастлабки тайёргарлик гуруҳларида машғулот жараёнининг асосий йўналиши сузиш кўникмаларини спорт услублари билан ўргатиш ва такомиллаштириш, умумий чидамлилиқни (аэроб имкониётини ошириш асосида), ҳаракатнинг мослашувчанлиги ва тезлигини риво-

жлантиришдан иборат. Кичик хавза шароитида синхрон сузиш элементларини киритиш тавсия этилади, чунки улар сузиш элементларининг ҳаракатланиш техникаси тузилишини тўлиқ акс эттиради ва сузиш техникасини тезроқ ва чуқурроқ ўзлаштиришга ёрдам беради. Муаллиф “Гуруҳлашиш”, “Олдинга айланиш”, “Тескари айланиш”, “Горизонтал ҳолатда винтга ўхшаб айланиш” каби машқлардан фойдаланган.

Сув муҳитини ўзлаштириш учун куруқликда умумий ривожлантирувчи ва маҳсул машқларни гуруҳлаш ва сузиш элементларини бажариш орқали ўрганиш тавсия этилади. Сувда бассейн тубига оёқларни таяб қўллар ёрдамида олдинга қараб ҳаракат қилиш ва “ким тезроқ”, “бекинмачоқ”, “саёз жой”, “тўр”, “медуза”, “кулгили делфинлар”, сув остига нафасни ушлаб туриб шўнғиш ва нафасни ушлаб туриш, сув остида кўзларни очиб туриш, гуруҳлашиш, сузиш, қўл ва оёқларни ёзиш, кўкрак ва елкада сув устида ётиш, нафасни сув ичига чиқариш, кўкрак ва елка томон билан сув остида сирғаниш, сувдан сакраб отилиб чиқиш, бассейннинг туб қисмидан предметларни олиш, бир-бирига тўп ёки ўйинчоқни узатиш каби ўйинлар сув муҳитини ва сузишнинг дастлабки элементларини ўзлаштиришга катта ёрдам беради.

Бассейнда биринчи машғулотларни ташкил этиш ва ёш сузувчиларни сузиш машғулотларига қўйиладиган талаблар ва хавфсизлик техникаси билан таништириш алоҳида аҳамиятга эгадир. Мураббий машғулотлар давомида болалар томонидан хавфсизлик қоидаларига, бассейнга ўтишдаги гигиеник қоидаларга риоя қилишини, сузиш иншоотида ўзини тута билишини назорат қилиб туриши шарт. Бассейндаги хавфсизлик талаблари ва ўзини тутиш қоидаларига риоя қилиш жароҳат-

ланишнинг ва бахтсиз ҳодисаларнинг олдини олиш учун асосдир.

Машғулотлар жараёнида индивидуал тайёргарлик машқларини сузиш билан тўлиқ мувофиқлаштирилган ҳолда бирлаштириш, шунингдек ўйинлардан кенг фойдаланиш ва болаларнинг ўзлари танланган усулда мустақил сузишга ҳаракат қилишга ундаш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса. Замонавий илмий-услубий манбаларнинг назарий таҳлили шуни кўрсатдики, ўйинлар сузишнинг дастлабки машғулотларида сувдан кўркиш ҳиссини енгил, сувга шўнғил, сувдан қалқиб чиқиш, сув сатҳида ётиш, сирғаниш, на-

фас олиш хусусиятлари билан танишиш учун муваффақиятли қўлланилади. Сувга мослашиш жараёни чуқур ва саёз сув ҳавзалари шароитида, шу жумладан сув муҳитининг қаршилиги ва хусусиятларини синаб кўриш имконияти шароитидаги тайёргарлик машқларида содир бўлиши мумкин. Бунда мураббий ва ўқувчи болалар ўртасидаги ўзаро муносабатлар шакллари алоҳида аҳамиятга эгадир. Сузиш техникаси элементларини ўзлаштиришда бошланғич машғулотларда қўлланиладиган кўрсатмалар ва тушунтириш воситалари ижобий рол ўйнайди.



Адабиётлар рўйхати :



1. Балашова Н. А. Психологические аспекты обучения плаванию детей младшего школьного возраста. Молодой ученый. 2020. № 27 (317). 348-350 б.
2. Бетехтин Ю. О., Ермаков В. А. Обучение плаванию детей с признаками водобоязни : монография. Тула : Тульский государственный университет 2021. 150 б.
3. Введенский О. В., Кирьянко А. А., Пилипенко М. А. Применение поддерживающих поясов в обучении плаванию. Альманах мировой науки. 2020. № 5 (41). 36-45 б.
4. Давыдов В. Ю., Косьяненко Д. А. Методика начального обучения плаванию девочек 7-10 лет в условиях открытого глубокого плавательного бассейна : метод. рек. Волгоград : ВГАФК, 2002. 28 б.
5. Жданкина Е. Ф. Обучение плаванию детей с использованием элементов синхронного плавания в дошкольном образовательном учреждении. Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. 2013. № 32. С. 218–222.
6. Зернов В. Особенности начального этапа обучения плаванию. Пралеска. 2020. № 2 (342). С. 37–40.
7. Менгликулов, Х. А. “Сузиш назарияси ва методикаси”- Ўқув дарслиги. Терду. Термиз 2021 йил. - 203 бет.
8. Менгликулов, Х. (2022). 14-15 ёшдаги сузувчиларда тезлик-куч сифатларини ривожлантириш услуби-ёти. Общество и инновации, 3(6/S), 81-87.
9. Менгликулов, Х. А. (2022). Ёш сузувчиларни ўргатишнинг бошланғич босқичида танловнинг назарий жиҳатлари. Современное образование (Узбекистан), (8 (117)), 55-59.
10. Менгликулов, Х. А. (2021). Мактабда жисмоний тарбиянинг дарсдан ташқари фаолиятини ташкиллаштириш ва унинг шакллари. Актуальные научные исследования в современном мире, 3(9), 77.
11. Alikulovich, M. K. (2022). Methodology for Carrying out Swimming Training Lessons for Children 9-10 Years Old. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(2), 36-38.
12. Alikulovich, M. K. (2022). Formation of motivations in adolescents in swimming. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(04), 565-568.
13. Alikulovich, M. K. (2022). Method of developing speed-strength qualities in young swimmers 12-14 years. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 179-182.
14. Alikulovich, M. K. (2022). Mobile Games on the Water as a Means of Developing the Physical Qualities of School Children. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 783-786.

BO'LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY TAYYORLASHDA VIRTUAL MODELLASHTIRISH DIDAKTIK VOSITA SIFATIDA

ABDURAXMANOV ZOVIDJON BAXTIYOR O'G'LI

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimida virtual modellashtirishning didaktik vosita sifatidagi o'рни va virtual laboratoriya komplekslarining qisqacha tavsifi berilgan.

Kalit so'zlar: model, modellashtirish, virtual laboratoriya, imitatsiya kompleks.

Yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida mehnat bozori talablari darajasidagi kasbiy tayyorgarlikga ega bo'lgan muhandislarni maqsadli tayyorlash bugungi kunning eng murakkab va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalarning jadal o'sishi va rivojlanishi, ularning fan yutuqlari bilan integratsiyalashuvi, yangi ta'lim strategiyalarining paydo bo'lishiga olib keladigan omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Olib borilgan maqsadli tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, "Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi" fani Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan umumkasbiy va maxsus fanlar blokidagi asosiy mutaxassislik fanlari uchun bazaviy fan hisoblanadi, chunki ushbu fan miqyosida transport vositalarining tuzilishi, ishlash tamoyillari, ishlash qobiliyati, ekspluatatsion xususiyatlarining asosiy ko'rsatkichlari, ularni loyihalash, hisoblash, tanlash, komplektlash asoslari bo'yicha ilk tushuncha bilim ko'nikma va malakalar beriladi.

Talaba ushbu fanni to'laqonli o'zlashtirmasdan va yetarli darajadagi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lmasdan turib boshqa ixtisoslik fanlarini o'zlashtirishda ma'lum qiyinchiliklarga uchraydi. Bunday vaziyatdan chiqish uchun haqiqiy laboratoriya jihozlarida bajariladigan jarayonlarni o'zida

aks ettira oladigan virtual modellashtirishdan foydalanish ko'zlangan samarani beradi deb hisoblaymiz.

Ta'limda modellashtirish asosan ikki tomonlama qo'llaniladi. Birinchidan, o'quv fani o'zining ehtiyojlarida ob'ektlarni ilmiy bilish metodi sifatida, ikkinchidan o'quv jarayonida ta'limning ma'lum masalalarini yechish maqsadida foydalanadi.

Modellar o'qitishning texnik vositalari sifatida ta'limda didaktikaning bir qator tamoyillarini, avvalo ko'rgazmalilik va tushunarlilikni joriy qilish maqsadlarida ta'limning turli bosqichlaridakeng qo'llanilgan va qo'llanilmoqda. Shu bilan bir vaqtda bizning nazarimizda ta'limda didaktikaning tamoyillarini amalga oshiruvchi o'qitish vositalari ahamiyatini nazariy jihatdan qayta ko'rib chiqish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti.

Bizning fikrimizcha birinchi navbatda "model - o'qitish vositasi sifatida" degan tushunchaning o'zini oydinlashtirish, so'ngra esa turli vositalar yordamida bunday modellarni amalga joriy qilish imkoniyatlarini qarab chiqish zarur.

Moddiy modellarga murojaat qilganimizda aslining o'rnini bosishiga yo undan mazmunan farq qilib, shaklan o'xshashlik hisobiga yoki bo'lmasa holati yoxud ishlashiga o'xshatishdan foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Model deganda hayolan tasavvur

qilinadigan, virtual yoki moddiy jihatdan amalga oshiriladigan shunday tizim tushuniladiki u tadqiqot ob'ektini qayta takrorlab yoki aks ettirib uni shunday almashtirish xususiyatiga egaki bunda uni o'rganish bizga ob'ekt haqida yangi axborot beradi.

Ta'limjarayonlaridamodellarniqo'llashni tadqiq qilib "model" tushunchasining ikkita xususiyatini ajratish mumkin: "model-o'rinbosar" va "model-namuna". Model-o'rinbosarga tadqiqot ob'ektlarining o'rnini bosuvchi modellar (o'quv jarayoni modeli, mutaxassisning ixtisosligi modeli va hokazo) kiradi, model-namunalarga esa ta'lim jarayoni natijalarining (bilimlar, ko'nikma, malaka, mahorat va hokazo) etalonlari kiradi.

Demak, modellar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar bu ularning belgilangan vazifalarni yechish maqsadida aslini almashtirish imkoniyatlari hisoblanadi. Model asli emas, shu bilan birga tasodifiy konstruktsiya ham bo'lmasdan, balki ular orasida ma'lum bir o'xshashlik (mutanosiblik) va farq o'lchovi mavjud bo'lishi zarur. Model bu aslini tushunish yoki o'zlashtirishni osonlashtirish yoki bo'lmasa bunday imkoniyatni hosil qilish yoxud uni almashtirish uchun murakkab aslini tasvirlovchi sifatida uchinchi tizim tomonidan qo'llaniladigan, tanlanadigan yoki yaratiladigan tizim bo'lishi zarur.

Model har doim haqiqiy ob'ekt bilan solishtirganda mohiyatan soddaroq bo'ladi. Tadqiqotchi modellashtirilayotgan tizimdagi ba'zi jihatlar, xususiyatlar va hatto munosabatlardan ongli ravishda chetlashadi. Bu bilan model va modellashtirilayotgan ob'ekt o'rtasida to'liq o'xshashlik oldindan ma'lum bo'ladi.

Umumiy holda modelda ikki yoqlama bilimlar mujassamlashgan bo'ladi:

- modelning o'zini qandaydir ob'ektning takrorlash maqsadida yaratilgan tizim sifatida

bilish (uning tuzilmasini, undagi jarayonlarni, vazifalarini);

- modelni yaratish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlarni bilish.

Keng ma'noda model – bu voqelikning bir qismini soddalashgan holda takrorlovchi aqliy yoki real tuzilma.

Biz ushbu tadqiqotimizda modellashtirishni axborotni o'zgartirish jarayoni sifatida ko'rib chiqamiz va real hamda ideal ob'ektlarni modellashtirishda aynan bunday yondoshuvni to'g'ri deb hisoblaymiz. Birinchi holatda ob'ektning asli bo'yicha fizik modellashtirish, ikkinchi holatda esa - axborotli modellashtirish nazarda tutilmoqda. Aerodinamik trubada sinash uchun mo'ljallangan avtomobilning kichiklashtirilgan nusxasi bu ob'ektning asli bo'yicha modeli, ushbu avtomobilning chizmasi esa grafik shaklda (grafik model) taqdim etilgan axborotli model hisoblanadi (1-rasm).

Zamonaviy sharoitda axborotli modellar kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Axborotli model kompyuter modelini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, buning uchun u ma'lum shaklga keltirilishi kerak. Kompyuter modelini yaratish uchun ma'lum shaklga keltirilgan axborot modeli talab qilinadi.

Ma'lum bir shaklga keltirish - bu ilmiy nazariyaning mantiqiy xususiyatlarini, deduktiv va ekspressiv imkoniyatlarini tadqiq qilish maqsadida tushunchalarning ahamiyati va ifodalarining ma'nosidan chalg'itishni ta'minlaydigan kognitiv operatsiyalar majmui.

Boshqacha aytganda, ma'lum bir shaklga keltirish bu, bilimlar majmuasining mazmunini ma'lum shakl – sun'iy til belgilari orqali ifodalash usulidir. Ma'lum shaklga keltirishning eng muhim turi mantiqiy shaklga keltirish bo'lib, u aqliy mazmunni mantiqiy shakllar orqali ifodalashni anglatadi.

Shuni alohida ta'kidlaymizki, model faqat o'rganilayotgan ob'ektning cheklangan (asosiy) xususiyatlari to'plamini takrorlaydi. Modelning cheklanganligi uni gnoseologik jihatdan, xususan, muhandislik fanlari uchun qimmatli qiladi. Modelning bilish vositasi sifatidagi ahamiyati, modelning asl nusxaga qaraganda oddiyliigi, soddaligi va shuning uchun uni o'rganish va tadqiq qilish osonroq ekanligi bilan belgilanadi. Ko'rinib turibdiki, modeldagi primitivizm, cheklanganlik ixtiyoriy, asoslanmagan bo'lishi mumkin emas.

Shunday qilib, o'rganish ob'ektining virtual modeli o'zining bazasida modelning umummetodologik tushunchalariga ega bo'lib axborot mazmuni, hajmi va darajasining ilmiy asoslangan holda saralanishini, talabalarining bilish imkoniyatlari, bilim darajasi, ixtisosligiga mos holda ta'limning vazifalari bilan o'zaro munosabatlarini ko'zda tutadi. Bunday model asliga adekvat bo'lishi, pedagogika va psixologiyaning talablarini to'la darajada hisobga olishi zarur.

Transport vositalarining esluatatsion xususiyatlari ko'rsatkichlari: tortish va tormozlanishdinamikasi, boshqariluvchanligi, buriluvchanligi, o'tuvchanligi, turg'unligi, yurish ravonligi va h.k., uni harakatga keltiruvchi va harakatiga qarshilik qiluvchi kuchlar, dinamik, kinematik va aerodinamik parametrlarini aniqlash o'ta murakkab va qimmatbaho uskunalar talab qiladi, ushbu jihozlarning yetishmovchiligi yoki ishdan chiqishi talabalarining o'zlashtirish darajasiga keskin ta'sir qiladi, ularni talabalarga asli bo'yicha tushuntirilsa, bunda ta'lim samaradorligi nafaqat minimal bo'ladi, balki teskari natijalarga olib kelishi mumkin. Bunda transport vositalarining modeli intuitiv (ichki hissiyot orqali) yoki ongli ravishda ham ilmiy, ham psixologik-pedagogik xarakterdagi bir qancha vaziyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi ya'ni ob'ektning virtual

modeli yaratiladi.

Shunday qilib turli dinamik qurilmalar, stendlar, o'quv mnemosxemalari, maketlar va h.k. uchun o'rganish ob'ektining virtual modeli ko'rinishida muhim umumiy asoslarni aniqlash ushbu ilmiy tadqiqot ishiga yetarli darajada mustahkam boshlang'ich holatni ta'minlab berdi. Natijada o'qitish texnik vositalarining ayni guruhini jiddiy pedagogik tadqiq qilish ta'rif va tasnifni ishlab chiqish, o'quv yurtining o'quv jarayonida virtual laboratoriya komplekslarini ishlab chiqish va qo'llashga talablar tizimini aniqlash hamda asoslash imkoniyati yuzaga keldi.

Virtual laboratoriya kompleksi - bu haqiqiy o'rganish ob'ekti bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan yoki ular bo'lmaganda tajriba o'tkazish imkonini beruvchi dasturiy-apparat majmuasidir. Virtual laboratoriya - bu talabaga amaliy bilim, ko'nikma va malakalar beradigan, o'rganish ob'ektlari va jarayonlarini modellashtirish imkonini beruvchi axborot manbai.

Virtual laboratoriya kompleksining tarkibiy asosi, o'rganish ob'ektining virtual modeli hisoblanadi, demak ularning tasnifini ishlabchiqish uchun avvalomodellarni turlarga ajratishning mavjud umummetodologik tamoyillarini qarab chiqish va ayni hollarda ularni qo'llash imkoniyatlarini baholab olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Virtual laboratoriya komplekslarini o'quv, ilmiy dasturiy mahsulotlarda, taqdim etilgan virtual laboratoriyalarning bir qator mezonlarga ko'ra quyidagicha tasniflaymiz:


- modellar yaratilgan dasturiy ta'minot muhiti;
- virtual laboratoriyalarning amaliyligi;
- model bilan o'zaro ta'sirlashish usuli (interaktivlik xususiyati);
- ob'ekt yoki hodisani modellashtirishning matematik (fizik va boshqalar) asosning aniqligi;
- olingan natijalarni avtomatik

tekshirishning mavjudligi va boshqalar.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha xususiyatlar bo‘yicha tasniflash uchun virtual laboratoriyalar komplekslarining ikkita tubdan farqli sinflarini taklif etamiz (1-rasm).

Virtual laboratoriya komplekslarining qisqacha tavsifi. Virtual laboratoriya komplekslarining tasnifiga asosan va 2020-2023 yillar davomida oliy ta’lim tizimida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va maqsadli kuzatuvlarimiz, Jizzax shahridagi oliy o‘quv yurtlarining (JizPI, JDPU, O‘zMU Jizzax filiali) o‘qituvchilari bilan

o‘tkazilgan suhbat va munozaralar, ilmiy-pedagogik adabiyotlarning tahlili va shaxsiy tajribalarimiz turli xildagi model qurilmalariga umumlashgan tavsif berish, ularning “Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)” yo‘nalishi o‘quv rejasiga kiritilgan umumkasbiy fanlar blokidagi asosiy mutaxassislik fanlaridan biri hisoblangan “Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi” fanini o‘qitish jarayonidagi asosiy didaktik imkoniyatlarini aniqlash imkonini berdi.



Virtual laboratoriya komplekslarini turlarga bo‘lish, ular orasida sifat jihatidan mavjud bo‘lgan farqlar va dastur taqdim etgan imkoniyatlar asosida amalga oshirildi.

Dasturiy virtual laboratoriyalarda barcha eksperimentlar va tajribalar hech qanday fizik qurilmalar yoki asboblardan foydalanmasdan faqat kompyuter shaklida amalga oshiriladi. Dasturiy virtual laboratoriyalar tarkibiga kirgan modellarni batafsil tavsiflaymiz.

Interaktiv namoyishlar. Ko‘pincha hollarda

namoyishli (ko‘rgazmali) dasturlar kompyuter laboratoriyalari hisoblanmaydi, chunki ular yetarli darajada interaktiv elementlarni o‘z ichiga olmaydi, lekin ular eksperimentlarni o‘tkazish jarayonlarini ko‘rgazmali namoyish etish vazifasini muvaffaqiyatli bajarishlari mumkin. Ko‘pincha bunday dasturlar o‘quv materialini o‘zlashtirishga yordam berish yoki eksperimentni vizual ravishda namoyish qilish vositasi sifatida elektron darsliklarning bir qismi sifatida qo‘llaniladi.

Sodda modellar. Sodda model (eng keng tarqalgan turi) bu, bitta laboratoriya ishining yoki biron bir ilmiy tajribaning modeli. Bir qancha xususiyatlari bo'yicha birlashtirilgan oddiy modellar laboratoriya ishlari to'plamidan iborat bo'lib, bu to'laqonli virtual kompyuter laboratoriyasi hisoblanadi. Ushbu turdagi laboratoriyalarning keng tarqalganligi ularni yaratishning nisbatan soddaligi bilan asoslanadi, chunki bir yoki ikkita matematik formulalar bilan tavsiflangan bitta oddiy jarayon qaraladi, turli xil laboratoriya ishlari esa mustaqil ravishda turli dasturchilar tomonidan yaratilishi mumkin. Universal tizimni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lmagan hollarda laboratoriya ishlarining katta bo'lmagan kurslarini yaratish uchun ushbu yondashuvni tavsiya qilish mumkin. Bunda shuni e'tiborga olish zarurki, quyidagilar ushbu yondashuvning kamchiliklari hisoblanadi:

- masshtablashtirishning murakkabligi (kursga yangi laboratoriya ishini kiritish uchun dasturchini jalb qilish, yangi modelni amalda noldan yaratish kerak);

- modellarni kombinatsiyalashning (birlashtirishning) imkonsizligi (turli laboratoriya ishlaridan olingan ikkita model bir-biriga butunlay bog'liq emas va yangi hodisani tavsiflashda o'zaro ta'sirlasha olmaydi);

- bunday turdagi dasturlar, odatda, o'quvchiga to'liq harakatlar erkinligini bera olmaydi.

Hodisalar turkumi uchun universal laboratoriyalar. Universal kompyuter laboratoriyalari kuchli matematik apparatga asoslangan murakkab modellashtirish tizimlaridir. Bunday tizimlarning universalligi modellashtirishga va modellarni ishlab chiqishga tizimli yondashuv orqali ta'minlanadi. Bunday virtual kompyuter laboratoriyalari o'z imkoniyatlariga ko'ra haqiqiy ilmiy yoki ishlab chiqarish hisob-

kitoblarida foydalaniladigan dasturlarga yaqin bo'lishi mumkin. Universal laboratoriyalarning o'ziga xos xususiyati - bu aniq ifodalangan komponentli yondashuvdir.

Laboratoriyalarning murakkabligi va imkoniyatlari juda keng miqyosli bo'lib, bitta dasturchi tomonidan bunday laboratoriyalarning oddiy versiyalarini yaratish imkonini beradi.

Odatda, bitta laboratoriyada hodisalarning faqat bitta turkumini, masalan, optika, elektr zanjirlari, harakat qonunlari, kimyoviy jarayonlarni qamrab olish kifoya qiladi.

Hodisalar turkumi uchun universal laboratoriyalarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- masshtablashtirishning soddaligi (universal laboratoriyalar tarkibida yangi komponentlarni qo'shish uchun vositalar mavjud bo'ladi);

- turli eksperimentlarning ko'p sonli modellarini yaratish uchun komponentlarni birlashtirish imkoniyatining mavjudligi.

Universal laboratoriyalar. Bitta eksperiment jarayonida turli tabiatli hodisalarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan kompyuter laboratoriyalari haqiqatdan ham universal hisoblanadi.

Muayyan fan sohasini qamrab oluvchi virtual laboratoriyalar qurish uchun mos bo'lgan universal dasturiy ta'minot komplekslariga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- MathCAD – mutaxassislar orasida keng e'tirof etilgan matematik va muhandislik hisob-kitoblari uchun universal paket;

- MATLAB with SIMULINK (MathWorks Inc.) avtomatik boshqaruv tizimlarini modellashtirish va tahlil qilish uchun funksional va interfeys imkoniyatlari jihatidan eng ilg'or dasturiy kompleks hisoblanadi;

- LabVIEW Base Package - grafik

dasturlash muhiti;

- FlowLab – muhandislik ta’lim yo‘nalishlari uchun oqimlarni virtual modellashtirish laboratoriyasi;

- BridgeView, LookOut (National Instruments) – texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarini, shu jumladan murakkab texnik tizimlarni yaratish uchun mo‘ljallangan.

Imitatsiyalash laboratoriyalari. Imitatsiyalash laboratoriyalari mutlaqo har qanday jarayon yoki hodisalarni modellashtirish imkonini beradi va real hayotda amalga oshirish xarajatlari yuqori bo‘lgan yoki tajriba o‘tkazish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishning iloji yo‘qligi sababli haqiqiy hayotda amalga oshirib bo‘lmaydigan tajribalarni amalga oshirish imkonini beradi. Bunday laboratoriyalarning imkoniyati bir tajribada turli tabiatli hodisa va jarayonlardan foydalanish va tajribani optimallashtirish metodlaridan foydalanishga asoslangan.

Bu texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, o‘rganilishi yoki sifat o‘zgarishlariga duchor bo‘lishi kerak bo‘lgan tizim, dasturiy vositalar majmuasi yordamida to‘liq imitatsiya qilinadi. Ushbu to‘plam kamida qaysidir imitatsiyali modellashtirish tilini (masalan, CSL, Simula, GPSS, Simskript va boshqalar), modellarni vizual taqdim etish vositalarini, tuzilgan modelni optimallashtirish vositalarini, modellashtirish va optimallashtirish natijalarini qulay taqdim etish vositalarini o‘z ichiga olishi kerak.

Masofaviy eksperimentlarni o‘tkazish virtual laboratoriyalarida eksperimentlarni o‘tkazish bevosita maxsus jihozlar, datchiklar, o‘lchagichlar, boshqaruv elementlari va boshqalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Eksperimentni o‘tkazish, foydalanuvchini jihozga ulash va ushbu jihozni boshqarish va eksperiment natijasida olingan barcha ma’lumotlarni ro‘yxatga

olish uchun maxsus dasturiy ta’minotdan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Masofaviy eksperimentlarni o‘tkazish virtual laboratoriyalari tarkibiga kirgan modellarni batafsil tavsiflaymiz.

Noyob jihozlarga ega laboratoriyalar. Bunday turdagi virtual laboratoriyalar noyob qurilma yoki uskunada eksperimentlarni o‘tkazishni tashkil etuvchi internet portallari yordamida taqdim qilinadi, bunda foydalanuvchi faqatgina o‘ziga kerak bo‘lgan tajriba parametrlarini ko‘rsatishi kerak bo‘ladi. Misol tariqasida Suffa RT-70 radioteleskopini keltirish mumkin, unga internet orqali kirish mumkin.

Taqsimlangan asbob-uskunalar bilan jihozlangan laboratoriyalar. Bunday turdagi laboratoriyalar sirasiga bir-biri bilan yagona tizim sifatida o‘zaro bog‘langan, fizik jihatdan turli xil geografik mintaqalarda joylashgan turli xil qurilmalar va maxsus jihozlarni ko‘rish imkonini beruvchi dasturiy komplekslar kiradi.

Bunday virtual uskunalar texnologiyalaridan foydalanishning afzalligi shundaki, deyarli har qanday ishlash va murakkablikdagi turli maqsadlarda o‘lchash, nazorat qilish va diagnostika qilish tizimlarini yaratish imkoniyatining mavjudligi hisoblanadi. Bunda, asboblardan va tizimlarning o‘lchash va boshqaruv qismi maxsus qurilmalar asosida amalga oshiriladi (analogli va raqamli signallar uchun kirish/chiqish qurilmalari), ularning funksional qismi va foydalanuvchi interfeysi dasturli usullar yordamida amalga oshiriladi.

Misol sifatida quyidagi laboratoriyalarni keltirish mumkin:

- “Elektronika” kursi uchun avtomatlashtirilgan masofaviy laboratoriya;
- muhandislik masofaviy ta’lim tizimi uchun laboratoriya ishlari to‘plami.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar va ishlab

TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ASOSLARI

NURBEK IMANKULOV

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: STEAM texnologiyasi bugungi zamonaviy ta'limning porloq metodlaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalarni turli fanlar doirasida qo'llash yuqori natija ko'rsatib kelmoqda. Mazkur maqolada STEAM texnologiyasini qo'llash bo'yicha nazariy ma'lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, STEAM fanlar, modellashtirish, model komponenti, fundamental fanlar.

Аннотация: Технология STEAM является одним из ярких методов современного образования на сегодняшний день. Применение этих технологий в различных дисциплинах показывает высокие результаты. В данной статье анализируются теоретические данные по использованию технологии STEAM.

Ключевые слова: STEAM-образование, STEAM-науки, моделирование, модельный компонент, фундаментальные науки.

Abstract: STEAM technology is one of the bright methods of today's modern education. Application of these technologies in various disciplines has been showing high results. This article analyzes theoretical data on the use of STEAM technology.

Keywords: STEAM education, STEAM sciences, modeling, model component, fundamental sciences.

KIRISH

STEAM-ta'lim tizimi butun dunyo tan olayotgan tizimlardan biri hisoblanadi. Uning bir qator afzalliklari mavjud [2]:

1. Ta'lim berishni o'quv fanlari bo'yicha emas, balki " mavzu" lar bo'yicha integratsiyalab olib borish

STEM –ta'limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog'liq kasblarga bo'lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

2. Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash

STEAM ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida bolalarga ilmiy –texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o'quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelini rivojlantiradi. Ular aniq loyihani o'rganadi, natijada real

mahsulotning prototipini yaratadilar.

3. Tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish

STEM –dasturi, bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig'adilar, so'ngra uni sinovdan o'tkazadilar.

4. O'z kuchiga ishonish hissining ortishi

Bolalar ko'prik qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlasha boradilar. Har bir sinovdan so'ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o'z kuchlari bilan yengib maqsadiga erishadilar.

5. Faol kommunikatsiya va komandada ishlash

STEM –dasturi faol kommunikatsiya va komandada ishlash bilan farqlanadi. Muloqat davrida o'z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin

muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot o'tkazishga o'rganadilar. Bolalar doimo o'qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqatda bo'ladilar. Bolalar jarayonda faol qatnashsalar, mashg'ulotni yaxshi eslab qoladilar.

ADABIYOTLAR SHARHI

STEM so'zini harflab izohlansa:

S - science (tabiiy fanlar)


T - technology (texnologiya)

E - engineering (muhandislik ishi)

M - mathematics (matematika)

Bundan ko'rinadiki matematika STEM ta'limi texnologiyasining asosini tashkil etadi.

Shunday qilib nazariy olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashda birinchi va ikkinchi holatlarning o'zaro bog'liqligini tushuntirishda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish muhim sanaladi hamda bu ta'limni amalga oshirishdan STEAM fanlar ta'limi va integratsiyasi yuzaga keladi (1-rasm) [4].



vositalarini tanlash va shunga o'xshash boshqa sabablar mummolarning yechimini topish imkonini beradi [5].

Integratsiyalashgan ta'lim bu- ikki va undan ortiq fanlarning ilmiy aloqadorligi asosida bir fanni o'rganishda ikkinchi

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

STEAM ta'limini amalga oshirish yuqoridagi ikkita holatdan kilib chiqib, raqamlashtirish, modellashtirish va modellar orqali amalga oshiriladi. Masalan STEAM fanlarini o'zaro integratsiyasini, fan formulalarini grafiklarini, chizmalarini, vertual tasvirlarini, hodisalardagi jarayonlarni modellashtirish va raqamlashtirish orqali tushuntirib bersa, STEAM fanlari ta'limini amalga oshirishda modellar jarayonlar aspektlarini sodda ko'rinishda ifodalaydi va oddiy kontseptual eskizlar hamda murakkab prototiplardan tortib, so'ngi matematik modellargacha bo'lgan oraliqlarni o'z ichiga oladi. Muhandislikdagi modellar asosan funksional nuqtai nazardan aniqlanadi. Modellashtirish hamda modellardan muammolarni hal qilish, yechimga olib boruvchi yo'llarni tahmin qilish, turli yechimlarni tanlashda to'g'ri qarorni qabul qilish, muammoni yechishda qulay ta'lim

fandan foydalanib o'qitilishidan paydo bo'ladi. Matematika-fizika, kimyo-matematika, fizika-kimyo, biologiya-kimyo, va boshqalar. STEAM yondashuvli STEAM fanlar ta'limi integratsiyalashgan ta'limdan anchagina katta tushuncha bo'lib,

u kamida to'rtta fanning fanlararo bog'liq integratsiyasi asosida o'tiladigan ta'limdir. Bu yondashuvli ta'limni ko'pchilik o'qituvchilar istashmaganini, xohlamasligini anketa so'rovlari orqali bilib olishimiz mumkin. Buning sababi oddiy yuqorida aytib o'tilgan, STEAM fanlar ta'limini amalga oshirishda o'qituvchilardan kamida ikki va undan ortiq fanlar integratsiyalarini o'zlari o'tadigan fanning mavzulariga integratsiyalashni va STEAM fanlardan nazariy bilimlarni bilishi talab etiladi.

STEAM fanlar ta'limi va integratsiyasini yuzaga keltiruvchi toifa sifatida quyidagi 5 ta holatni keltirib o'tishimiz mumkin.

1. Fan mavzulari o'zluksiz va tartiblangan ketma-ketlikni o'zida mujassam qilishi, bir mavzu keyingi mavzuni tushuntirishda xizmat qilishi. Bir mavzu boshqasiga asoslanishi uchun mavzularni tartiblash. STEAM mavzulari ketma-ket o'qitiladi, biri ikkinchisidan oldin keladi, shunda bir mavzu keyingisini to'ldiradi. Misol uchun matematika darsida vektor o'rgatiladi va keyin bu tushunchani fizika fani darsida kuchlar haqidagi mavzuni tushuntirishda o'rganish uchun qo'llaniladi.

2. STEAM fanlari va ularning mavzularini parallel ravishda bir vaqtda o'qitish. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, hozirgi ishlab chiqarish- texnika sohalarining o'quv rejalarida fanlar parallel ravishda qo'yilgan ammo fan dasturlari mazmuni va mavzularining o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratilmagan. Mavzular ketma-ketligiga va mavzularni o'rganishda bir mavzu ikkinchi mavzuga yordam berishiga ahamiyat berilmagan. O'quv rejalaridagi fanlarni parallel joylashishi bu albatta yaxshi ta'limni yangi bosqichga chiqarishda fan dasturlari mavzularini ketma ketligini ko'rib chiqish hamda o'zviylikini ta'minlash talab qilinadi.

3. Fanlarni o'zaro bog'liqligini ko'rsatish uchun STEAM fanlarini vaqti-vaqti bilan turli

fan o'qituvchilari mavzularni birga o'tishi yoki qisman birga o'qitishi. STEAM fanlari ba'zan alohida sohalar sifatida o'qitiladigan ko'rinsada, ushbu fanlarning o'zaro aloqadorligini ko'rsatish uchun ba'zan bir-biri bilan birgalikda o'rgatilishi talabalarga o'zlarining noyob ob'ektivlarini qanday qilib bir-biriga mos kelishini tushunishga yordam berishi mumkin.

4. STEAM fanlarining bir fan mavzusini boshqa fan mavzularidan foydalanib mustahkamlash, bunda birinchisi mavzularni o'tilgan mavzular yordamida mustahkamlashda ustunlikka ega bo'lsa, ikkinchisi o'qitish jarayonida ustunlikka ega bo'lishi.

STEAM fanlari komponentlarga ega bo'lgani kabi modellar ham komponentlariga ega va ular quyidagilardan iborat:

-aqliy modellar (kognitiv taqdimotli modellar);

-ifodalangan modellar (boshqalar izohlashi mumkin bo'lgan modellar);

-konsensus modellari (hozirda mavjud va foydalanib kelinayotgan modellar);

-ilmiy modellar (bashorat vositalariga aylanadigan sinovdan o'tgan va hozirda foydalanilib kelinayotgan modellar);

-tarixiy modellar (rivojlangan modellarning dastlabki holatidagi modellar);

-o'quv modellari (o'quv jarayonlarida foydalanib kelinayotgan oldindan mavjud modellar);

- o'qitish modellari (tarixiy va o'quv modellari sharhlashda yordam beradigan modellar).

XULOSA VA MUNOZARA

STEAM ta'limi yondashuvni amalga oshirish fundamental va amaliy bilimlar, zamonaviy texnologiyalarning kombinatsiyalari va, eng asosiysi, ulardan amaliy maqsadlarda samarali foydalanish muhandislik innovatsion faoliyatining asosiy mezoniga aylanmoqda. Buning

natijasi sifatida muhandislik ta'limiga yangi yondashuv shakllanadi [1]. Modellar komponentlarini o'rganish va ulardan to'g'ri foydalana olish STEAM fanlari ta'limini amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. G'aniyeva, H. (2022). INCREASING LESSON EFFICIENCY FOR PRESCHOOL AND PRIMARY EDUCATIONAL CHILDREN USING INTERACHED ENGLISH METHODS AND TECHNOLOGIES . Maktabgacha ta'lim jurnali, 1(Preschool education journal). Retrieved from <https://journal.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/4867>
2. G'aniyeva, H. (2021). COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING APPROACH IN EFL CONTEXT. Maktabgacha ta'lim jurnali, 4(Preschool education journal). Retrieved
3. Aliev A. (2021). About the features of the perspective of simple geometric shapes and problems in its training. Zbirnik naukovix pras SCIENTIA.
4. Jabbarov R., & Rasulov M. (2021). further formation of students' creative abilities by drawing landscapes in painting. Zbirnik naukovix pras AOGOS.
5. Avazbayev A., Jo'rayev Y., & Tursunxo'jayeva Z. (2021). Usloviya organizatsii protsessa texnologicheskogo obrazovaniya na osnove kreditno-modulnoy sistema. Obshchestvo i innovatsii, 2(4/S),
6. Critical Review of STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) Page 18 of 22 printed from the oxford research encyclopedia, education (oxfordre.com/education).

BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINI METODIK TAYYORLASHDA PEDAGOGIK INNOVATSION JARAYON MOHIYATI

**MARDONKULOV JASUR AMIRDDINOVICH – Jizzax viloyati pedagoglarni
yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi**

Annotatsiya. Yuz bergan ijtimoiy o‘zgarishlar, respublikamizda so‘ngi yillarda sezilarlik darajada umumiy o‘rta ta‘lim bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablarni o‘zgartirdi. Bitiruvchidan bugungi kunda bu nafaqat ma‘lum bilimlarga ega bo‘lish, balki ko‘nikmalar shakllanganligi eng muhim omil sifatida qarash kerakligini anglatmoqda. Shu ma‘noda maqolada bo‘ljak informatika o‘qituvchilarini metodik tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: informatika, metodika, o‘qitish texnologiyasi, metodik tayyorgarlik.

Аннотация. Социальные изменения, произошедшие в нашей стране за последние годы, существенно изменили требования к выпускникам общего среднего образования. Сегодня для выпускника это означает не только наличие определенных знаний, но и рассмотрение формирования навыков как наиболее важного фактора. В этом смысле в статье анализируется специфика методической подготовки будущих учителей информатики.

Ключевые слова: информатика, методика, технология обучения, методическая подготовка.

Annotation. The social changes that have occurred in our country in recent years have significantly changed the requirements for graduates of general secondary education. Today, for a graduate, this means not only having certain knowledge, but also considering the formation of skills as the most important factor. In this sense, the article analyzes the specifics of the methodological training of future informatics teachers.

Key words: informatiss, methodology, training teshnology, methodisal preparation.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashga intilish yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o‘rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta‘minlamoqda. Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning

ko‘zga tashlanayotganligidir. Globallashuv o‘z-o‘zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo‘lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o‘z sohasining bilimdoni bo‘lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo‘ladilar. Shunday ekan, oliy ta‘lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy ta‘limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o‘tgan

asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmuni yoritilgan[4].

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi[1].

Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, sub'ektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi.

Xususiy yangilik munosabat, ob'ekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi.

Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ektning o'zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi.

Mahalliy yangilik alohida olingan ob'ekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

Shartli yangilik esa munosabat, ob'ekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi[3].

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar kuzatiladi. Ular:

1.Gnostik-dinamik yondashuv-unga ko'ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limiy) innovatsiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni izchil o'zlashtiradilar, o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar.

2.Individual faoliyatli yondashuv-bunda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan hola amaliyo faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar.

3.Ko'p sub'ektli (dialogik) yondashuv-mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro, xususan, ko'p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta'lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo'llashga doir tavsiya hamda ko'rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi.

4.Insonparvarlik yondashuvi-ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga

muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi.

5. Individual-ijodiy yondashuv-unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat. [5]

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida bilim, ko'nikma va malakani egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

M. Jumaniyozovanning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi:

ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;

- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;

- mualliflik kontsepsiyalarini yaratish qobiliyati;

- tajriba -sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;

- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;

- hamkasblar bilan hamkorlik;

- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;

- ziddiyatlarning oldini olish va barta raf etish;

- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish

Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o'zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo'llaniladi. Bu turdagi innovatsiyalarni asoslash muayyan bosqichlarda kechadi. Bu bosqichlar, yangi g'oyaning tug'ilishi yoki yangilik mohiyatini yorituvchi kontsepsiyaning ishlab chiqilishi (kashfiyot bosqichi), yangi g'oyaga tayangan holda yangilikning asoslanishi, asoslangan yangilikning amaliyotda qo'llanilishi, yangilikning yoyilishi va keng ko'lamda amaliyotga tadbiiq etilishi, yangilikning tegishli sohada hukmronlik qilishi yangilik mohiyatini yo'qotadi, izlanishlar natijasidauning yanada samarali muqobili yaratiladi, muqobillik, almashtirish orqali sohada yangilikni qo'llash doirasini qisqartirish[4].

Sohada namoyon bo'layotgan yangilikni ajratib ko'rsatuvchi blok unda pedagogikadagi yangi g'oyalar, pedagogik yangiliklarning tasnifi, ularni asoslashga xizmat qiladigan shart-sharoitlar, yangilik darajasini belgilovchi me'yorlar, pedagoglarning yangiliklarni o'zlashtirish va unan amaliyotda samarali foydalanishga tayyorliklari, an'analar va novatorlik tashabbuslari, sohada yangiliklarni yaratish bosqichlari aks etadi.

1. Pedagoglar tomonidan yangilikning idrok qilinishi, o'zlashtirilishi va baholanishi

ifodalovchi blok (unda pedagogik jamoalar tomonidan yangiliklarning baholanishi va o'zlashtirilishi – turli innovatsion jarayonlar, konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamoalarning yangilikni idrok etish va baholashga tayyorliklari aks etadi.

2. Yangilikdan foydalanish va uni joriy etish bloki unda yangilikni amaliyotga tatbiq etish va ulardan samarali foydalanish hodisasi ro'y beradi.

Mazkur talqinga ko'ra innovatsion jarayon quyidagi tuzilmalar faoliyat tuzilmasi, sub'ektiv tuzilma, darajali tuzilma, g'oyaviy tuzilma, davriylik tuzilmasi, boshqaruv tuzilmasi, tashkiliy tuzilmalarga ega.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'lish bilan birga muayyan qonuniyatlarga ham bo'ysunadi. Mazkur jarayon uchun quyidagi to'rtta qonuniyat xarakterli sanaladi[6].

Pedagogik innovatsion muhitining keskin beqarorlik qonuniyati, Amalga oshish qonuniyati, Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuniyati, Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishi va qaytarilishi qonuniyati keskin beqarorlik qonuniyatiga ko'ra pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar o'zgaradi, shakllangan pedagogik yangilik baholanadi va bu yangilikning ahamiyati, qiymati e'tirof etiladi.

Amalga oshish qonuniyati yangilikning hayotiyligini ifodalaydi, unga ko'ra yangi pedagogik innovatsiyalar stixiyali yoki ongli ravishda o'ta tezkor yoki tezkor ravisha amaliyotga tatbiq etiladi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuniyati aksariyat pedagoglarda yangicha tafakkurning qaror topganligini va ularning innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'lida faollik ko'rsatishlarini tavsiflaydi. Bu jarayonda dastlab innovatsion xarakter kasb etgan g'oyalar yanada ilg'or yangiliklarni

amalga oshirish yo'lida to'siq bo'la boshlaydi.

Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishi va qaytarilishi qonuniyati yangiliklarning yangi, yanada qulay sharoitlarda qayta tiklanishini ifodalaydi.

Odatda pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi ikki xil kechadi:

Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, innovatsion jarayonda pedagogik yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, ularni amaliyotga tatbiq etishda mavjud shart-sharoitlar, usul va yo'llariga ongli munosabat bildirilmaydi.

Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, pedagogik yangiliklar innovatsion jarayonda ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsuli sifatida amaliyotga joriy etiladi[5].

Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir necha bosqichlarda kechadi. Ular quyidagilardir: muammoni tahlil asosida aniqlash bosqichi, mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash bosqichi, o'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish bosqichi, o'zgarishlarni amalga oshirish bosqichi[4].

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi.

Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi

ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi.

Ta'lim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi[2].

Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko'ra ta'lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lim jarayonining

sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur. Ta'lim innovatsiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha keys topshiriqlaridan foydalanish o'qituvchilarda ta'lim sifatini oshirishga undovchi g'oyalarni tug'uladi.

Keys bayoni. Ta'lim innovatsiyalaridan samarali foydalanishda pedagoglarning kasbiy mahorati, kompetentligi, iqtidori va ish tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagog qanchalik darajada kasbiy mahorat, kompetentlik, iqtidor va ish tajribasiga ega bo'lsa, u ta'lim innovatsiyalarini o'z faoliyatida shunchalik faol qo'llaydi va samarali natijalarga erishadi.

Keys topshirig'i. Pedagoglarning innovatsion salohiyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

O'qituvchining yechimi

Pedagoglarning innovatsion salohiyatini baholash mezonlari

Holat	Mezonlar
Pedagogning innovatsion salohiyati	1. Yangicha fikrlash qobiliyatiga egaligi. 2. O'zini turli, ayniqsa, yangiliklar bilan bog'liq vaziyatlarda sinab ko'rishga intilishi. 3. Ijodiy faollik ko'rsata olishi. 4. Izchil ravishda innovatsion g'oyalarni ilgari surish mahoratiga egaligi



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Albert R. S., Runco M.A. A History of Research on Creativity. – Cambridge: Cambridge University press, 1999. Pp. 16-31.
2. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. – СПб.: СПб-ГУТД, 2006.
3. Innovation ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovation texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari / O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakul'teti tinglovchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.
5. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 169-bet.

EKOLOGIK KOMPITENTLIK: KENG DUNYOQARASH VA TOZA HAYOT SARI YO'L

SH. SH. BO'RONOV

Qo'qon DPI Tabiiy fanlar fakulteti Tyutori

Anotatsiya: Bugungi ta'lim tizimining yangilanish jarayonlari davrida talabalarda ekologik dunyoqarashini shakllantirishning zarurligi davr talabi bo'lmoqda. Ushbu maqolada mazkur talabni jamiyat, davlat va ta'lim muassasalari orqali amalga oshirishning imkoniyatlari o'z ifodasini topgan. Shu bilan birgalikda ekologik dunyoqarashni shakllantirishning sharq mutafakkirlarining qarashlari, diniy manbaalarda keltirilgan qarashlardan namunalar keltirib o'tilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: ekologik madaniyat, huquqiy asoslar, ekologik me'yorlar, ijtimoiy munosabatlar, ekologik faoliyat.

Abstract: During the modern education system renewal process, the necessity of forming an ecological worldview among students is becoming a demand of the time. This article describes the possibilities of implementing this demand through society, state and educational institutions. At the same time, examples of views of eastern thinkers and religious sources on the formation of an ecological worldview are given.

Basic words and concepts: ecological culture, legal bases, ecological standards, social relations, ecological activities.

Bugungi kunda kuzatilayotgan ekologik muammolar nafaqat ekologik muammo balki bu, aslida, insoniyat taraqqiyotini ishlab chiqarish va tasavvur qilishning ma'lum bir yo'lining muammosi va shuning uchun u qadriyatlar muammosidir. U kuch va bilimning ma'lum shakllariga asoslangan degradatsiyaning ijtimoiy-ekologik jarayonlarida kelib chiqadi. Bir necha o'n yilliklar davomida mamlakatimizda ham, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida ham ta'lim tizimidagi islohotlar ekologik ta'limni turli darajadagi o'quv dasturlariga ekologik muammolarni o'rgatishning muhim mazmuni sifatida kiritdi. Hozir kunda ekologik ta'lim sayyoradagi barcha odamlarga ta'sir qiladi. Garchi ta'lim tizimida uzoq vaqtdan beri o'z darslariga bugungi kunda ekologik ta'lim doirasida tuzilgan mavzularni o'rgatishni boshlagan bo'lsalar ham, ushbu material ushbu bilim sohasida yangi nazariy nuqtai nazarni

tarqatish va qabul qilishni rag'batlantirishni maqsad qilgan, ammo bugungi kunda ekologik dunyoqarashni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki ekologik dunyoqarash bugun paydo bo'lib qolgan narsa emas. Bu jarayon uzoq davrlar mobaynida shakllanib kelganligi barchamizga ma'lum. Insoniyat tamadduniga o'zining ulkan xissasini qo'shgan g'arb va sharq mutafakkirlarining bu boradagi ishlarini yodga olib o'tish lozimdir.

Har qaysi tarixiy davrlarda ham insonlarning tabiatga bo'lgan munosabatlari mavjud bo'lgan. Sharq mutafakkirlari asarlarida halollik, poklik, atrof-muhitning tozaligi va tabiatni sevish xislatlariga ahamiyat berilgan. Vatandoshimiz ibn Sino «Tabiatda g'ubor bo'lmaganda insonlar umri yanada uzayishi» haqidagi nazariyani ilgari

surgan. Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy XVII asrda ta'lim jarayonining mohiyatini ilmiy asoslashga urindi. Alloma bolaning aqliy, jismoniy o'sishini tabiat qonuniyatiga muvofiq kelishi g'oyasini asoslagan. XVIII asrda fransuz olimi Jan Jak Russo ham insonning tabiat va jamiyatdagi o'rni haqidagi falsafiy g'oyalar asosida ta'lim mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Uning fikricha, ta'lim jarayonining mohiyati bolaning atrof-muhitni bilishiga asoslanadi.

Ekologik va nafosat tarbiyasining vositalari o'quvchilarni go'zallikni sevish

ruhida tarbiyalash maqsadida turmush, tabiat, san'at go'zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda qo'llaniluvchi omillar sanaladi. Tabiat, mehnat, insoniy munosabatlar ekologik tarbiya vositasidir. Tabiat ekologik tarbiyaning muhim manbaidir. K.D.Ushinskiy tabiatni yosh avlod estetik tuyg'ularining rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan ajoyib tarbiyachidir, degan edi. Sayohat, sayr, tabiatga bag'ishlangan san'at asarlarini o'rganish mazkur yo'nalishdagi an'anaviy faoliyatlardir. Biroq tabiat ichida bo'lishning o'zi etarli emas. Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilish, his etish lozim. Bunday qobiliyat asta-sekin rivojlanib boradi. Sayr, ekskursiya hamda maktab tajribaviy yer maydonchasida ishlash paytida o'qituvchilar e'tiborni tabiat boyliklariga, uning shaklidagi mukammalliklarga qaratish nafosat, tabiatni sevish ehtiyojigina bo'lmay, shuningdek, uni ehtiyotlashdan ham iboratligini o'quvchilarga tushuntirib borishlari lozim [2].

Ekologik dunyoqarash bugungi kunda shunday bir qadrli sifat bo'lib bormoqdaki mamlakat aholisining, mentalitetining bir ko'rinishi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Albatta bu ekologik dunyoqarashni dastlabki tamal toshi ta'lim

jarayonidan boshlanadi. Ta'lim jarayonida atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni nafaqat o'rgatish balki, bunga ta'lim beruvchilar ham amaliy jihatdan namuna bo'lishlari lozimdir.

Ekologik dunyoqarashimizni o'zgartirishimiz yoki oldingidek «Tabiatdagi barcha narsalar inson uchun xizmat qiladi» degan fikrdan voz kechib, endilikda «Tabiat bizning uyimiz, biz uning bir bo'lagimiz, tabiatni asrab avaylashimiz lozim» degan shiorni, doimo dilimizda va tilimizda takrorlab unga amal qilishimiz kerak. Inson o'zini tabiatni bir bo'lagi va unga xamoxang ekanligini, tabiiy jarayonlarga aralashmasligi va tabiat qonunlarini buzmasligi, agarda bu qonunlar buzilsa misli ko'rilmagan og'ir oqibatlarga olib kelishini tushinib etishi kerak.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek «Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz axolisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga maxkum etish bilan barobardir» [3]. Shuning uchun ekologik madaniyat, ekologik bilimlar va tushunchalar xar bir insonga faqatgina uning turmush tarzi yaxshilanishi uchun emas, balki uning tabiat bilan xamoxang bo'lishi uchun xam kerakdir. Ekologik madaniyat, bilim va ma'lumotga ega inson xech kachon tabiatga nisbatan salbiy munosabatda bo'lmaydi.

Tabiatning ekologik barqarorligi, turg'unligi va uning tabiiy qonunlari buzilishiga insonda ekologik bilimlar yetishmasligi, kelajakda ekologik xolat qanday bo'lishini oldindan ko'ra bilmasligi sabab bo'ldi. Ekologik bilim tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzodlarning xolati, ularni bir-birlari va atrof-muxit o'rtasida bo'lib turadigan munosabatlarini,

tabiiy boyliklarning son va sifatini, xajmini, xillarini xamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iborat. Ekologik ta'lim va tarbiyaning tub ma'nosi - bu tabiat va jamiyat urtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bog'lovchi tabiiy xamda ijtimoiy qonunlarni o'rganish, xayotga tatbiq, qilish yo'li bilan tabiiy barqarorlikni saqlashdan iborat [4].

NATIJALAR

Bugungi kunda barchamizning qulog'imizga eshitilayotgan, ommaviy axborot vositalarida tinimsiz bong urayotgan "Toza shaxar", "Ekologik toza hudud", "Ekologik toza maxsulot" kabi shu va shunga o'xshash jummalarni tinimsiz eshitmoqdamiz. Bu jumjalarning zamirida olam-olam ma'no yotganligini ko'rishimiz mumkin. Tozalik, tabiiylik bugungi kunda insonga uchun suv va havodek zarur bo'lmoqda. Buni rivojlantirish uchun esa har birimiz ta'lim jarayonida bo'ladimi, jamiyat orasida bo'ladimi ekologik bilimni targ'ib qilishimiz va o'zimiz ham shunga amal qilishimiz lozimdir. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyoti shaxsning xar tomonlama kamol topishi bilan bog'lik. Xususan ona tabiatning bir zarrasi bo'lgan inson barkamolligi uning tabiatga munosabati, o'z oilaviy muxiti, butun borliqqa mexr-muxabbati asosida shakllanishi xam tabiiy xol, albatta. Shaxsda ekologik dunyoqarashni boyitishga xizmat qiluvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlar moxiyatini o'rganib chiqib quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

- ekologik dunyoqarashning shakllanish evolyutsiyasi insonning yashash tarzi, qadriyatlar bilan mushtarak xolda xar bir davr mazmuni, xususiyatlarini o'zida aks ettirish bilan bir vaqtda tabiat va borliqqa tegishli yangi tushuncha xamda kontseptsiyalar bilan mazmunan boyib

boradi;

- dunyoqarashning barcha shakllari kabi ekologik dunyoqarash xam millat va xalq merosi, qadriyatlar bilan aloqadorlikda takomillashadi, boyiydi va ijtimoiy amaliyotga singadi;

- sivilizatsiyalararo muloqot asri bo'lgan XXI asrda tabiiy va ijtimoiy muxitdagi global o'zgarishlar shaxs ekologik dunyoqarashiga individual va ijtimoiy ma'noda o'z ta'sirini o'tkazib xar bir aloxida kishini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga extiyojmandligini yanada oshiradi [1].

MUHOKAMA

Ekologik axloqiy qarashlar va madaniyatni shakllantirishda dinimizning muqaddas kitobi bo'lmish Quroni Karim, xadislardan foydalanmog'imiz zarur. Bugungi kunda ekologik madaniyatni shakllantirish masalasiga turlicha yondoshuv va qarashlar mavjud. Tarixda ulamolimizdan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, al-Moturudiy, Abu Nasr Forobiy, G'azzoliy, Husayn Voiz Koshifiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Jaloliddin Rumiylarning asarlarida Quroni Karim va Xadisi shariflardan foydalangan xolda komil inson tarbiyasiga qo'yiladigan talablar bayon qilingan. Tabiat, borliqni asrashga undash, tabiiy omillardan tejamkorlik bilan foydalanish masalalari nafaqat ekolog yoki pedagoglarni, balki din peshvolarining ham diqqat markazida turganligi bizni quvontiradi [5].

Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): "Din (Islom) poklik ustiga qurilgandir", deydilar. Demak, poklik-ozodalik yo'lida qilingan har bir ish yuqori baholanadi. Shu yo'lda amal qilgan kishiga yuqori martaba va ulkan ajr-savoblar beriladi. Islom dini insonni turar joyini pok-ozoda tutishga buyurarkan, bu uning ibodati qabul bo'lishiga xizmat qilishni uqtiradi.

Ibodot paytida makon pokligiga alohida diqqat qilinishi lozimligini ko'rsatadi. Hadisda: “Albatta, Alloh taolo pokdir, poklik va ozodalikni yoqtiradi. Saxiydir, saxovatni xush ko'radi. Poklaninglar, yon-atroflaringni ozoda, hovli, uy-joylaringizni toza tutinglar”, deyiladi (Imom Termiziy rivoyati). Shu talabga javoban turar joylarimizni saranjom-sarishta, ozoda tutishimiz lozim [6].

Aytib o'tilgan hikmatlarga amal qilish uchu avvalo undan habardor bo'lishimiz lozimdir. Bu esa o'z navbatida ma'naviyatimiz ham yuksaltirishga xizmat qiladi.

Albatta, bu dunyoda halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aynan ana shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug' olamda ma'naviyat hamisha barqaror bo'lib keladi. Lekin, bunday olijanob fazilatlardan butunlay uzoq bo'lib yashaydigan, hayotning ma'no-mazmunini o'zicha talqin qiladigan shaxslar ham oz emas. Ming afsuski, ular o'zini xuddiki dunyoning haqiqiy egasidek, bekamu ko'st, boshqalarning havasini tortadigan umr kechirayotgandek, baxt qushi boshiga qo'ngandek his qilishga urinadi [7].

Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) odamlarni ko'cha va yo'llarni ham ozoda tutishga targ'ib qilganlar. U zot bunday marhamat qiladilar: “Odamlar yo'lidagi ozor beruvchi narsalarni olib tashlanglar”. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) yana: “Imon yetmish nechta qismdir. Uning eng yuqorisi tavhid bo'lsa, eng quyisi yo'lda ozor beradigan narsani olib tashlashdir”, deya ta'lim berganlar.

Inson o'zi yashayotgan joylarni ozoda tutsa, odamlarga zarar beradigan narsalarni yo'ldan olib tashlasa, Alloh taolo buning evaziga uning gunohlarini mag'firat qiladi. Bu haqda Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi

va sallam): “Bir kishi yo'lda ketayotib, ko'zi tikanli bir shox-shabbaga tushdi. U yo'ldan odamlarga zarar beradigan o'sha shox-shabbani olib tashladi. Alloh taolo bu ish uchun u kishining gunohlarini kechirdi”, deganlar. Yo'llar, ish joylari va ibodat joylarini ham ozoda saqlashga undagan Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam):

– Har bir insonda uch yuz oltmishta bo'g'im bor. Har bir bo'g'imi uchun sadaqa qilib turish lozim, – dedilar. Odamlar so'rashdi:

– Yo Rasululloh, uch yuz oltmish bo'g'imga sadaqa qilishga kimning toqati etadi?

Shunda Payg'ambarimiz (alayhisalom):

– Agar ikki rakat zuho namozini o'qiy olmasanglar yo masjidagi balg'amni ketkazing yoki yo'lda zarar beradigan narsani chetga surib qo'yinglar, – deb javob

berdilar. Islom dinida ko'cha, yo'lga, ariqlar va ulardagi suvlarga har xil chiqindi-axlatlarni tashlab nopok Poklik va ozodalik dini qilish qattiq qoralanadi [6. 73-b].

XULOSA

Ekologik dunyoqarash ta'lim muassasalari uchun inson madaniyati va inson hayoti o'rtasidagi munosabatlarni, atrof-muhitga nisbatan individual mas'uliyatni va jamiyatni, shaxsiy xatti harakatlarning ijtimoiy harakatini tushunishga hissa qo'shishga harakat qilish imkoniyatidir. O'quv yurtlari o'quvchilarda ko'nikma va laboratoriya mashg'ulotlaridan foydalangan holda ekologik ta'limga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otish uchun o'quv dasturlarini moslashtirib, yangi turdagi ta'limni

rivojlantirishlari, tabiatda xizmat va amaliy mashg'ulotlarini rivojlantirishlari, kerak. Jamiyatning xulq-atvori bog'larda, daryolarda, tozalash tadbirlarida, turistik yo'llardagi chiqindilarni qayta ishlash,

o'simliklar amaliy saboq sifatida va turli xil tashqi ta'sir omillarining ta'sirida namoyon bo'ladi. Ularni to'g'ri yo'naltirish orqali ijodkorlik sifatini rivojlantirib chiqindidan zamonaviy moda, badiiy rasm yoki dizayn arxitekturasi yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Ekologik ta'limning tayanchi va tayanchi bo'lgan talabalar universitetlarini rag'batlantirish, yangi fuqaroni turli harakatlarga undash zarurdir. Xulos qilib

aytganda diniy va dunyoviy manbaalardan foydalanib jamiyatimizning har bir a'zosini ekologik dunyoqarashini yuksaltirishga undashimiz lozimdir. Chunki tabiiy muhitni asrar ekanim bu esa o'z navbatida iqtisodiyotimizga, tabiiy boyliklarimizga, mamlakatning kelajagi va yoshlarimizning farovon hayot kechirishi uchun o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.



Adabiyotlar ro'yxati:



1. Ochilova B. Ekologiya va dunyoqarash (o'quv qo'llanma) / B.Ochilova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi; — Toshkent: «Tafakkur» nashriyoti, 2013. - 152 b.
2. Azimova S.T., Toshkent davlat pedagogika universiteti «Umumiy pedagogika» kafedrasida o'qituvchisi. Talabalarda ekologik madaniyatni shakillantirishning muhim xususiyatlari, ilmiy maqola Zamonaviy ta'lim 2014-yil 6 b.
3. I.A. Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, Barkarorlik Shartlari Va Taraqqiyot Kafolatlari» T.: Uzbekiston. 1997.
4. A.E.Ergashev, A.Sh.Sheraliev, X.A.Suvonov, T.A.Ergashev «Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish» T.: «Fan» nashriyoti 2009.
5. Abdunazarov L.M.-pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Qo'qon DPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida mudiri. Ilmiy maqola, Diniy adabiyotlardan ekologik madaniyatni shakillantirish vositasi sifatida foydalanishning ahamiyati.
6. Usmonov, Rahmatillo «Poklik va ozodalik dini» mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur: — Toshkent: «Movarounnahr», 2013. – 80 b.
7. Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» T.: «Ma'naviyat» 2009, 108 b.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA SAVODXONLIK DARAJASINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

XO'JAMQULOVA NAFISA RO'ZIQULOVNA
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya. Maqolada xalqaro tadqiqotlar doirasida o'qish savodxonligi tekshiruvlarini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda savodxonlik darajasining rivojlanish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, darslikdagi matn turlariga ko'ra o'quvchilar bilan ishlash hamda o'zlashtirish ko'rsatkichlarini rivojlantirishga oid topshiriqlarni tayyorlash, aynan o'qishning boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilar savodxonligining yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam berishi aytilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, PIRLS va EGRA tadqiqotlari, xalqaro baholash dasturlari, matn.

Аннотация. В статье цель проведения проверки грамотности чтения в рамках международного исследования и определение особенностей процесса развития уровня грамотности учащихся, работы со школьниками по типам текстов в учебнике, подготовки заданий В отношении развития показателей мастерства говорится, что в системе начального обучения чтению учащиеся должны иметь высокий уровень чтения, сформировать у них способность к получению знаний в дальнейшем обучении и тем самым помочь им успешно адаптироваться к современности.

Ключевые слова: грамотность чтения, исследования PIRLS и EGRA, международные оценочные программы, текст.

Abstract. In the article, the purpose of conducting reading literacy tests within the framework of international research and determining the specific features of the process of developing the level of literacy among students, working with students according to the types of texts in the textbook, and preparing tasks related to the development of mastery indicators, it is said that in the primary education system of reading, students should have a high level of reading, form their ability to acquire knowledge in further education, and thereby help them successfully adapt to the present time.

Key words: reading literacy, PIRLS and EGRA studies, international assessment programs, text.

Boshlang'ich sinflarda xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarda savodxonlik darajasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilar ekanmiz, quyidagi mulohazalar o'qish savodxonligiga berilgan ta'riflarni ko'rib o'tamiz. PIRLS tadqiqoti tomonidan o'qish savodxonligiga berilgan ta'rif IEA (Ta'lim yutuqlarini baholash) xalqaro assotsiatsiyasining 2001-yildagi tadqiqotiga asoslangan bo'lib, unda o'qish savodxonligi "tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan, jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyati" deb izohlangan.[8] Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich ta'lim o'qish

savodxonligiga nisbatan yuqoridagi qarashlar o'quvchilarning savodxonlik darajasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari qo'llanilishi mumkinligini, hozirgi zamon ta'lim tizimida oshib borayotgan matnli ma'lumotlarni qabul qilish, maktablarda va ta'lim tizimida o'qib tushunish qobiliyatini yosh o'quvchilarning o'qish ko'nikmasi va tajribalarining o'ziga xos jihatlarini yoritib berishni ta'minlash maqsadida PIRLS, EGRA uchun topshiriqlarni ishlab chiqilishini taqazo etadi. Endilikda, PIRLS xalqaro tadqiqoti tomonidan o'qish savodxonligiga nisbatan qo'llanilgan ta'rif quyidagicha: Matn mazmuni muayyan o'qish tarzi asosida

o'quvchi va matn o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali hosil qilinadi [9, 10]. O'quvchi matndan anglashilgan ma'noni tez ilg'ab oladigan, matn ustida mulohaza yuritadigan, samarali o'qish strategiyasidan xabardor va o'qish ustida tafakkur qiladigan shaxs sifatida gavdalanadi. [11,12] O'quvchi o'zini o'rab turgan dunyo va o'zi haqida tasavvurga ega bo'lishi uchun u turli matnlarni o'qib o'rganishi mumkin. Har bir turdagi matn o'quvchiga matnni talqin qilishiga imkon beruvchi sodda shakllar va qoidalardan iboratdir.[14] Hozirgi kundagi boshlang'ich sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida matn turi bir qancha shakllar va shakllar jamlanmasi ko'rinishida berilgan. Boshlang'ich sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida an'anaviy yozma shakllar, masalan, kitoblar, jurnallar, ilmiy ma'lumotlar va gazetalar, internet, veb sahifalari bilan bog'lanishning ko'plab usullarini qamrab olgan turli ko'rinishlari mavjud, manbalar va matn xilma-xil multimedia ko'rinishlari bilan umumlashtirilgan.[15,16] Boshlang'ich ta'limda "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklaridagi matnlar va manbalarni internet orqali o'qish, ta'lim dargohlaridagi asosiy ta'lim ko'rinishi sanalanadi. Boshlang'ich ta'limda raqamli savodxonlik ma'lumotlarni internet orqali, AKT vositalari orqali o'qish muhim sanalib, unda o'quvchi o'ziga kerakli ma'lumotni qidirib topib, uni tushunish orqali o'qishdan ko'zlangan maqsadga erishadi. [17] Internet orqali ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik darajalarini aniqlashimiz mumkin bo'ladi, bunda PIRLS, EGRA topshiriqlariga oid ma'lumotlarni AKT vositalari orqali aniqlashtirishimiz mumkin. Hozirgi davrda internetdan boshlang Boshlang'ich ta'limga oid ma'lumotlar olish va bu manbalarni dars jarayonida o'rganish mazkur murakkab ma'lumotlar ichidan keraklilarini tanlash, tushunib olish o'qituvchining vazifasi sanaladi. An'anaviy yozma matnli ma'lumotlar odatda ma'lum miqdorni tashkil qilsa, onlayn

o'qish esa o'qituvchidan ta'lim jarayoniga mos yo'nalishini topishni talab etiladigan chegarasiz qator matnlar tarmog'i ichidan kerakli ma'lumotlarni topishdan iboratdir. Demak, yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasini matnlar orqali, raqamli savodxonlik ma'lumotlarini internet orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligini aniqlash va oshirishimiz mumkin.

Aslini olganda, internetdan biror ma'lumotni o'qish uchun foydalanish an'anaviy yozma matnlarni o'qish uchun kerakli bo'lgan barcha ko'nikma va strategiyalarni ishlatishni taqozo etadi, ammo bunda o'quvchi ko'proq ma'lumotlardan iborat sharoitda ishlaydi. [19] Internetning murakkabligidan kelib chiqib, onlayn o'qishda an'anaviy yozma matnlarni o'qishda talab etiladiganidan farqli ko'nikmalar va strategiyalari ishga solinadi.[18] Onlayn tarzda yoki yozma matnlarni o'qishni olasizmi o'quvchilarning nimalarni o'qiyotganini muhokama qilinishi ularga turli kontekstlarda matn mazmunini shakllantirishga imkon beradi.[19] Alohida tartibda yoki guruh bo'lib o'qish borasidagi ijtimoiy munosabatlar o'quvchilarga matnlarni va boshqa ma'lumotlarni tushunish va talqin qilishda yordam beradi[19] Sinfxonasi yoki maktab kutubxonasida yaratilgan ijtimoiy muhit boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish jarayoni ularning o'qituvchilari va sinfdoshlari bilan bilim va tajriba almashishda o'z dunyoqarashlarini kengaytirish imkoniyatini beradi.[20] O'quvchilar o'z oila a'zolari va tengqurlari bilan o'qishdan olgan ma'lumotlar va g'oyalari haqida suhbatlashar ekan bu muhit chegarasi maktabdan tashqarida ham davom etadi.

Xalqaro tadqiqotlar doirasida o'qish savodxonligi tekshiruvlarini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va o'quvchilarda savodxonlik darajasini rivojlanish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari aniqlash, darslikdagi

matn turlariga ko'ra o'quvchilar bilan ishlash va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini rivojlantirishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida savodxonlik darajasini rivojlantirishimizda darsliklarimiz dasturil amal bo'lib xizmat qiladi. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida o'quvchilarimizning savodxonlik darajasini oshirishimizda matnlar o'ziga xos o'rin tutadi, matnlarni biz bilim berish toifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lib, o'quvchilarga o'rgatgan holda birgalikda ishlanadi. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklaridagi matnlar mazmun va bilim berish xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi;

Badiiy adabiyot, badiiy fikrlarni rivojlantiruvchi matnlar

Ma'lumot beruvchi, olgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llashga o'rgatuvchi matnlar

Boshlang'ich ta'lim o'qish savodxonligi o'quvchilarning ta'lim olishdan ko'zlangan maqsadlari bilan aloqadordir. Masalaga yanada kengroq yondashadigan bo'lsak, mazkur sabab yoki maqsadlarga zavqlanish uchun, shaxsiy qiziqish tufayli o'rganish va jamiyatda ishtirok etish kabilar kiradi. Ko'pgina yosh o'quvchilar endigina o'qishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblar) yoki o'quvchilarga o'zlarini o'rab turgan dunyo haqida axborot beruvchi va savollariga javob beruvchi ma'lumotlarga boy matnlarni o'qiydilar. Yosh o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirib, tadqiqotga ko'ra mazkur savodxonlik o'quvchilarning o'rganishlari uchun o'qishlari kerakligini talab qilgani tufayli kitob va manbalardan ma'lumot olish uchun o'qish muhim ahamiyat kasb etmoqda.[20]

O'qishdan ko'zlangan maqsad bilan bir qatorda PIRLS tadqiqoti o'quvchilardan o'zlarining badiiy savodxonliklarini oshirish va ma'lumot olish, undan foydalanishlari uchun o'qib tushunish ko'nikmalarini

rivojlantirishlari kerakligiga e'tibor qaratadi. O'qishdan ko'zlangan har ikkala maqsad ham boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun birdek muhim bo'lgani bois, PIRLS tadqiqoti har bir maqsadni baholovchi, bir xil miqdordagi materiallardan tashkil topadi. Xalqaro PIRLS tadqiqoti o'tkazilish tartibi va mazmuniga ko'ra ikki turga bo'lingan holatda amalga oshiriladi;(PIRLS va ePIRLS) Keyingi yillarda ta'lim tizimida bo'layotgan o'zgarishlar xalqaro baholash dasturlarining internet tarmoqlari orqali o'tkazish, maqsadga muvofiqligini ko'rsatib turibdi. Boshlang'ich sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida raqamli matnlarni ham o'chratishimiz mumkin. Bunday matnlar bilan ishlashda, ePIRLS orqali topshiriqlarni o'quvchilarga berishimiz mumkin.

ePIRLS(onlayn o'qish savodxonligini aniqlash)- bunda onlayn tarzda o'qish asosan ma'lumot olish maqsadida amalga oshirilishi uchun, tadqiqoti topshiriqlari ma'lumot olish va ulardan foydalanish maqsadidagi o'qishga qaratiladi. ePIRLS tadqiqoti topshiriqlari ma'lumotlar uchun o'qish ko'nikmasini baholaydi. Berilgan topshiriqlar o'quvchilarning matnlar va tasvirli ma'lumotlar bilan ishlashlari va maktabda berilgan topshiriqlarni bajarishlari uchun link va tablardan foydalanib, ma'lumot yig'ishi mumkin bo'lgan internet tarmog'idan olingan veb sahifalarga yaqinlashtiriladi. Bunday yondashuv o'quvchilarga tabiiy yoki ijtimoiy fanlar bo'yicha maktabda berilgan topshiriqlarni bajarishda va ulardan maktab o'quv jarayonlarida berilishi mumkin bo'lgan qator loyihalar yoki hisobotlarni tayyorlashda yopiq internet muhitini yaratish uchun asos sifatida haqiqiy internet tarmog'idagi veb sahifalardan foydalanishga asos bo'ladi. PIRLS matnlari o'zining asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda tasniflanadi va ular asosida berilgan savollar o'qishdan ko'zlangan maqsadlarda o'z aksini topadi. Ya'ni, badiiy turkumga mansub matnlar mavzu, voqea

syujetlari, voqea personajlari va voqea joyiga taalluqli savollardan, ma'lumotlarga boy matnlar esa matnlarda berilgan ma'lumotlarga oid savollardan iborat bo'ladi. Garchi matnlar o'qishdan ko'zlangan maqsadidan kelib chiqib farqlansa-da, tushunish jarayoni har ikkala maqsad uchun farqli jihatga ega bo'lmay, balki o'xshashlikka ega bo'ladi. Shuning uchun, o'quvchilarning tushunish jarayoni barcha matnlar, jumladan, PIRLS tadqiqotida internetdagiga yaqinlashtirilgan topshiriqlar orqali baholanadi. Odatda o'qishdan ko'zlangan har qanday maqsad ma'lum turdagi matnlar bilan bog'liqlikka ega. Masalan, badiiy tajriba orttirish uchun o'qish odatda fantastik asarlarni mutolaa qilish bilan bog'langan, vaholanki axborotni olish va undan foydalanish ma'lumotga boy maqolalar va ko'rsatmaga oid matnlarni o'qish bilan amalga oshiriladi. Shunga qaramasdan, o'qishdan ko'zlangan maqsadlar alohida matn turi bilan cheklanib qolmaydi. Masalan, tarjimai hollar odatda axborot beruvchi yoki badiiy turkumga mansub material hisoblanadi, ammo ular o'qishdan ko'zlangan har ikkala maqsad xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Matnlar odatda, ulardan anglashilgan mazmuni turli usulda shakllantirish yordamida, ularda aks etgan fikr-mulohazalarni qay tartibda tashkillashtirilgani va taqdim etilganiga qarab farqlanadi.[21] Matnlar tuzilishi va shakliga ko'ra, yozma materiallari tartib bilan joylashtirilgan matnlardan to tasvirli va jadvalli ma'lumotlar bilan to'ldirilgan qisqa so'zlar va iborali matnlargacha bo'lib, ular bir-biridan keskin farq qiladi. Ma'lum matn janriga xos bo'lgan mazmun, tarkib va uslub o'quvchiga matnni o'qib tushunishiga yaqindan yordam beradi. [22]

Aytib o'tilganidek, o'quvchi va matn o'rtasidagi o'zaro munosabat o'rnatilsagina matnning mazmuni anglashiladi va o'qishdan ko'zlangan maqsadga erishiladi. PIRLS tadqiqoti uchun matnlarni saralab olinishidagi asosiy maqsad, o'qishdan ko'zlangan

maqsadlardan kelib chiqib bir necha matn turlarini taqdim etishdir. Bunda, asosiy maqsad o'quvchilar bilan ham maktabda ham maktabdan tashqarida olib boriladigan o'qish mashg'ulotlariga o'xshash muhit yaratishdan iboratdir.

Badiiy adabiyot, badiiy fikrlarni rivojlantiruvchi matnlar

Badiiy kitoblarni o'qishda o'quvchilar voqealar, voqea joylari, obrazlar, oqibatlar, personajlar, asar muhiti, hissiyotlar va g'oyalar bilan yo'g'rilgan matnni o'qiydi va matn tilidan huzurlanadi. Adabiyotni tushunish va uni qadrlash uchun, har bir o'quvchi matnda (asarda) sodir bo'ladigan voqealar, hissiyotlar, tildan foydalanish san'ati hamda badiiy shakl haqida bilimni o'z hayolidan o'tkazishi kerak. Adabiyot yosh o'quvchilar uchun o'zlari hali boshidan kechirmagan holatlar va hissiyotlarni kashf etish imkoniyatini beradi.

Badiiy asarda tasvirlangan voqealar, harakatlar va xayoliy voqealar bo'lsa-da, o'quvchiga ular real hayotda sodir bo'layotgandek tasavvur uyg'otadi va o'quvchiga ularni xayolan boshidan kechirish imkonini beradi. Matn (yoki badiiy asar) hikoya qilib beruvchi yoki uning asosiy qahramonini kelajakda nima qilmoqchi ekanini bildirib turishi mumkin. Murakkabroq matnlar esa undanda ko'proq dunyoqarashni talab etishi yoki keskinliklarga ega bo'lishi mumkin. Matnning g'oyasi, undagi ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri yoki dialoglar va voqealar ko'rinishida tasvirlanadi. Qisqa hikoyalar, asarlarda odatda voqealar xronologik tartibda bayon qilinadi. Asar voqealariga qaytish hamda vaqtni avvalga qaytarish orqali bayon qilinadi.

PIRLS xalqaro tadqiqotida qo'llanilgan badiiy matnlarning asosiy shakli badiiy janrga mansub bo'ladi. Ishtirokchi mamlakatlardagi o'quv dasturlari va madaniy jihatdan yuzaga keladigan farqlaridan kelib chiqib, PIRLS xalqaro tadqiqoti doirasida ayrim badiiy matnlarni topshiriq sifatida olish qo'shimcha

murakkablik tug'diradi. Masalan, she'riy matnlarni tarjima qilish o'quvchilar uchun qiyinlik tug'dirgani bois, ular topshiriq sifatida berish mushkul. Asosan, hikoya ko'rinishidagi matnlar o'quvchilar uchun maqsadga muvofiqdir. Biz bu jarayonni 4-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi Ashurali Jo'rayevning "Kichik Vatan" matni orqali ko'rib o'tamiz. Matn bilan o'quvchilar tanishtirib olinadi. Hikoya quyidagicha davom etadi;

O'shanda uchinchi sinfda o'qirdim. Biz oilamiz bilan boshqa qishloqqa ko'chadigan bo'ldik. Ko'chishimizdan bir kun oldin akam bilan otam mollarni haydab, yangi uyimizga ketishdi. Ularga itimiz ham ergashdi. Ko'chamiz, degan kundan buyon bobomda qandaydir bezovtalik boshlandi. U kishining ranglari o'zgarib, birozg'amgin bo'lib qoldilar. Ertaga ko'chamiz, degan kuni bobomda umuman halovat bo'lmadi. Buvimning aytishlaricha, tuni bilan bezovta bo'lib, uxlamay chiqibdilar. Uydagi qolgan-qutgan narsalarni yig'ishtirib, tugunlarga bog'lab, kichik qutilarga joylagach, bobom fotihaga qo'shib tilovat qildilar. Bobomdagi xomushlik fotihadan so'ng bir lahza hammamizni chulg'agandek bo'ldi. Birozdan so'ng bobom aytgan Shoyim tog'a mashinasida yetib keldi. Bobom mendan boshqa hammani mashinaga chiqishga taklif qildi. Yuklarni ortib bo'lganimizdan so'ng buvim bilan eng kichik ukam kabinaga joylashdi. Qolganlar mashinaning kuzoviga chiqishdi.

-Yaratgan egam hamrohlaring bo'lsin. Sog'-omon yetib olinglar!-bobom fotiha berdilar.

Bobom bilan huvullagan hovlida yana birpas qoldik. Bobom bog'imizdagi daraxtlarga, ishkonga, hovli etagidagi shiyponchaga, molxona va bostirma tomonlarga qarab yana bir bor xo'rsindi.

Bu orada uyimizni sotib olgan Erdon tog'a ko'ch-ko'roni bilan kelib qoldi. Bobom bilan salom-alik qilishdi. Bobom qo'lidagi

kalitlarni unga topshirib duo qildi:

—Iloyo, bu uyda to'ylar qiling, xonadoningizda yaxshi va baxtli kunlar ko'p bo'lsin.

—Keyingi haftada uy to'yi qilamiz. Xabar beramiz, kelasiz-da, Jo'ra bobo, - dedi Erdon aka.

—Albatta kelaman, Erdonboy,-dedi bobom ko'zlari kulib. Uyning yangi egalari ko'chlarini tushirish va kiritish bilan mashg'ul edi.

Bu manzarani kuzatib turgan bobomning ko'zlari yoshlanganini ko'rib, mening ham ko'nglim buzildi. Buni sezgan Erdon tog'a bobomni bir piyola choyga taklif qildi. Agar xohlasa, qolib mehmon bo'lib ketishini ham alohida ta'kidladi. Bizning eski chorpoyamizga yangi dasturxon yozildi. Non, choy, qand-qurs qo'yishdi.

—Bu hovli-joy otamdan qolgan edi,-deb hikoyasini boshladi bobom hazin ovozda. - Bolaligim mana shu hovlida o'tdi. Shu hovlida uylanib, bola-chaqalik bo'ldim. Shu hovlida soch-soqolim oqardi. Hayotimdagi eng yaxshi va yomon kunlarim ham shu hovlida o'tdi.

Rahmatli ota-onam va bir farzandimni ham shu hovlidan chiqardim. Tug'ilib o'sgan uying kichik Vatan ekan, Erdonboy. Endi bu Vatanni sizga topshiraman.

—Bobojon, kichik Vatan ham bo'ladimi? - beixtiyor so'radim.

—Bo'ladi, bolam, bo'ladi. Odamning yashaydigan uyi, hovli-joyi-kichik Vatani. Ana shu kichik Vatanlar yig'ilib-yig'ilib, birlashib O'zbekiston degan ulug' Vatanga aylanadi...

Bobom bilan katta yo'lga chiqqanimizda, hamon shu kichik Vatan - uyimiz va do'stlarim bilan bog'liq shirin xotiralar og'ushida edim.

Matn yuzasidan PIRLS topshiriqlari

1. Asardagi voqea kim tomonidan hikoya qilingan?

A] Erdon tog'a

B] Jo'ra bobo

C] Erdon tog'aning o'g'li

Javob] Jo'ra bobonig nabirasi

2. Hikoyaning boshida ko'chamiz degan kundan boshlab Jo'ra boboda qandaydir bezovtalik boshlanishining sababi nimada edi? Bezovta deganda nimani tushunasiz?

3. Jo'ra boboning boshqa uyga ko'chib o'tishi uchun kimning mashinasi aytilgan edi?

A] Jo'ra bobo

B] Erdon tog'a

C] Shoyim tog'a

D] Erdon tog'aning o'g'li

4. Nima sababdan Jo'ra bobo nabirasidan tashqari hammani narsalarni olib ketish uchun kelgan mashinaga taklif qildi? Fikringizni izohlang;

5. Yuklar ortib bo'lingandan so'ng Jo'ra boboning rafiqasi bilan eng kichik nabirasi mashinaning qayeriga joylashishdi?

A] Mashinag oldi o'rindig'iga

B] Mashinag kabinasiga

C] Mashinag orqa o'rindig'iga

D] Mashinag kuzoviga

6. Nima sababdan bolaning bobosi bog'dagi daraxtlarga, ishkonga, hovli etagidagi shiponchaga, molxona va bostirma tomonlarga qarab xo'rsindi?

7. Jo'ra boboning uyini kim sotib olgan edi?

A] Erdon tog'a

B] Jo'ra boboning oshnasi

C] Jo'ra boboni o'g'lining oshnasi

D] Shoyim tog'a

8. Jo'ra boboning kuzlari yoshlanganligini ko'rgandan so'ng uyning yangi sohibi qanday yo'l tutdi?

9. Hikoyada ta'kidlanishicha qayerga yangi dasturxon yoziladi?

A] Hovli to'ridagi katta uyda

B] Bog'da

C] Eski chorpoyada

D] Ayvonda

10. Bo'ladi, bolam, bo'ladi. Odamning yashaydigan uyi, hovli-joyi kichik Vatani. Ana shu kichik Vatani yig'ilb-yig'ilb birlashib O'zbekiston degan ulug' Vatanga aylanadi. Degan so'zlarni Jo'ra bobo nima sababdan nabirasiga aytdi?

PIRLS topshiriqlariga o'quvchilar quyidagicha javob berishlari kerak.

Javoblar tasnifi

1.D

2. Hikoyaning boshida ko'chamiz degan kundan boshlab Jo'ra boboda qandaydir bezovtalik boshlanishining sababi nimada edi*?

Hikoyadan o'quvchi bu uy Jo'ra bobo uchun juda qadimli ekanligini, bu uy-joy unga ota-onasidan qolganligini, shu hovlida yoshligi o'tganligini, ota-onasi va bir farzandini shu uyda yo'qotib Tuproqqa qo'yganligini bilib olishi mumkin.

O'quvchi shunday javoblardan birini keltirishi mumkin.

To'liq tushungan holda;

Masalan; A] Jo'ra boboning yoshligi, ota-onasi bilan bog'liq yorqin xotiralari shu uydaligi uchun boboda bezovtalik boshlandi.

B] Jo'ra bobo to'g'ilib o'sgan uyining kichik Vatani deb hisoblagani uchun Vatani ketish bobo uchun og'ir edi.

Qisqacha tushungan holda;

A]U uyini yaxshi ko'rar edi. Shuning

uchun uni tark etishni xohlamadi.

3. C

4. Nima sababdan Jo'ra bobo nabirasidan tashqari hammani narsalarni olib ketish uchun kelgan mashinaga taklif qildi.

To'liq tushungan holda;

Hikoyani o'qib, fikr qilib, mantiqan o'yab ko'rgan o'quvchi Jo'ra bobo uchun Nabirasi qanchalik suyuqli ekanligi va Jo'ra bobo xonadonida Jora bobo suyanadigan yagona inson nabirasi ekanligini anglab oladi.

Va shunday javoblardan birini keltirishi mumkin.

Masalan; A] Jo'ra bobo nabirasini haqiqiy erkak va mas'uliyatli qilib tarbiyalash maqsadida nabirasini olib qoldi.

B] Jo'ra bobo nabirasida Vatanga bo'lgan muhabbat hissini tarbiyalamoqchi edi.

5. B

6. Nima sababdan bolaning bobosi bog'dagi daraxtlarga, ishkonga,

Hovli etagidagi shiyponchaga, molxona va bostirma tomonlarga qarab xo'rsindi.

To'liq tushungan holda;

Matndan anglashilib turibdiki, Jo'ra bobo bu ishlarga qancha vaqt sarflaganligi, nafaqat vaqt sarflagan balki, qancha ter to'kkanligi va bu narsalarga qanchalik mehr berganligi namoyon buladi. Balki Jo'ra bobo bu bog'larni, ishkamlarni, molxona va bostirmaning barpo qilayotgan vaqtda o'g'li va ota-onasi yonida bulganligi, ular bilan bog'liq yorqin xotiralar ham shu narsalar orqali ifodalaniib turganligi uchun bu uyga Jo'ra boboning mehri boshqacha bo'lishi mumkin. O'quvchi shunday javoblardan birini keltirishi mumkin.

Masalan; A] Jo'ra boboning yorqin xotiralari, ya'ni yoshligi, yigitligi va hozirgi keksalik davri shu xonadonda o'tganligi, bu xonadonda ko'plab yaxshi-yomon kunlarni boshdan kechirganligi uchun xonadon Jo'ra boboga juda qadirli edi.

B] Jo'ra bobo molxonaga, bostirmaga, ishkonga va bog'ga o'zgacha mehr qo'yganligi sababli ulardan ko'ngil uzishi qiyin bo'ldi.

7. A

8. Jo'ra boboning ko'zlari yoshlanganligini ko'rgandan so'ng uyning yangi sohibi qanday yo'l tutdi.

To'liq tushungan holda;

Matnni to'liq tinglab tushungan o'quvchi Erdon tog'ani oila a'zolari olib kelgan ko'chlarini mashinadan tushirayotganligini ko'rgandan so'ng Jo'ra boboning ko'zlari yoshlanganligini ko'radi.

Buni sezgan Erdon tog'a Jo'ra boboni bir payola choyga taklif qiladi. O'quvchi shunday javob berishi mumkin.

Masalan; Erdon tog'a Jo'ra boboni choyga taklif qildi. Agar xohlasa,

Qolib mehmon bulib ketishini ham alohida ta'kidladi. Shundan so'ng

Eski chorpoyaga yangi dasturxon yozildi. Non, choy, qand-qurs qo'yishdi.

9. C

10. Bo'ladi, bolam, bo'ladi. Odamning yashaydigan uyi, hovli-joyi kichik Vatani. Ana shu kichik Vatanlar yig'ilb-yig'ilb birlashib O'zbekiston degan ulug' Vatanga aylanadi. Degani so'zlarni Jo'ra bobo nima sababdan nabirasiga aytdi*

To'liq tushungan holda;

Jo'ra bobo nafaqat nabirasiga, balki, matnni o'qigan har bir o'quvchiga, Ona Vatanni qiymatini, uni naqadar azizligini, Vatanimiz kichik-kichik oilalardan iboratligini tushuntirish bilan birga o'quvchiga, Vatanga, uning har qarich tuprog'iga bo'lgan mehr hiisisiini uyg'otadi. O'quvchi shunday javob berishi mumkin.

Masalan; Jo'ra bobo nabirasida Vatanga bo'lgan muhabbat hissini shakilllantirish maqsadida, shu bilan birga har bir o'quvchini o'zining yashab turgan joyini qadrlashga undaydi.

PIRLS xalqaro baholash dasturida

o'quvchilarning matni o'qib tushunish darajalarini baholash bo'yicha 4-sinf O'qish kitobidagi topshiriqlardan biri „Kichik Vatan” matni yuzasidan fikrlashdik. Ko'rib turganingizdek, ushbu jarayonda o'quvchilarning xulosa chiqarish, diqqatini jamlash, axborotlarni talqin qilish hamda uyg'unlashtirish kabi ko'nikma hamda malakalari rivojlantirib boriladi. Bu dars o'tish jarayoni O'zbekistonning ham PIRLS xalqaro baholash dasturi bo'yicha yetakchi mamlakatlardan biriga aylanish uchun yaxshi dars o'tish usuli bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumot beruvchi, olgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llashga o'rgatuvchi matnlar

Ma'lumot beruvchi, olgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llashga o'rgatuvchi matnlar odatda qator vazifalardan kelib chiqib yaratiladi va o'qiladi. Ma'lumot beruvchi, olgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llashga o'rgatuvchi matnlarning asosiy vazifasi ma'lumot berishdan iboratligi tufayli, yozuvchilar o'zlari yozmoqchi bo'lgan mavzuga bir qancha sabablar bilan yaratadilar. Ma'lumot beruvchi, olgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llashga o'rgatuvchi matnlarda faktlar biror topshiriqni bajarish bosqichlari yoki biografik tafsilotlar kabi to'g'ridan-to'g'ri bayon etiladi. Shunga qaramasdan, ayrim ma'lumot beruvchi, olgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llashga o'rgatuvchi matnlar subyektiv xususiyatga ega. Masalan, mualliflar izohlovchi mulohazalar, undash xususiyatli insholar toki puxta o'ylab chiqilgan mulohazalar orqali izohlar va faktlarni o'quvchiga yetkazib berishi mumkin. O'quvchi o'z dunyoqarashini shakllantirish uchun mazkur matnlarga tanqidiy yondashishi kerak.

O'quvchi matnlarning maqsad va vazifalariga yaxshiroq tushunishi uchun undagi ma'lumotlar boshqacha tartibda, ya'ni uning mazmuni, tuzilishi va shakli o'zgartirilgan

holda taqdim etilishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari turli mavzularni qamrab olgan ma'lumot beruvchi, olgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llashga o'rgatuvchi matnlarni, jumladan, ilmiy, tarixiy, geografik va ijtimoiy matnlarni o'qishlari mumkin. Matnlar ham undagi ta'lim oluvchiga o'zlashtirishi berilishi kerak bo'lgan ma'lumotni ochiq berilishi jihatidan ajratilishi mumkin. Matndagi tarixiy ma'lumotlar izchil tartibda, ko'rsatmalar va yo'riqnomalar ketma-ket tartibda va fikrlar esa mantiqiy tartibda berilishi mumkin (masalan, sabab va natija yoki taqqoslash va zidlash).

Hozirgi boshlang'ich sinf “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsliklarida manbalar turli ko'rinishlarda bayon etilmoqda. Matn ko'rinishida berilgan manbalarni asoslashda jadvallar, darslikdagi manbalarni ochib beruvchi suratlardan iborat bo'lishi mumkin. Qayholatdabo'lsahamdarslikdagima'lumotlar (masalan, qo'lyozmalar va gazetalar) va elektron manzillar, sxemalar, grafalar va diagrammalar asosida manbalar berib boriladi. Murakkab topshiriqli matnlar ularda aks etgan mazmunni ta'lim oluvchi o'qib tushunishi uchun murakkab topshiriqli, aloqaga kirishish usullardan foydalanadi va keyin bu jarayonlar umumiy tarzda jamlanadi. Audio va video matnlarda taqdim etilgan ma'lumotlar odatda o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun unda ishlatiladigan tasvirlar yoki ko'rgazmali vositalardan iborat quyidagi turli rang-barang (dinamik) vositalarni o'zida mujassamlashtiradi: videolar va audio kliplar, animatsion tasvirlar, tugmachani bosgandagina ko'rinadigan ma'lumotli, ochilib namoyon bo'ladigan oynachalar, ekrandagi oynachalarni ekran bo'ylab “yuqoriga” yoki “pastga” tushiradigan yordamchi applikatsiyalar hamda ma'lumotlari paydo bo'lib, yo'qolib qoladigan, aylanib turadigan yoki rangi o'zgaradigan turli kodlashtirilgan qo'shimcha imkoniyatlar. Bosma matnlar ham odatda ko'p vazifali va yozma matn bo'ylab joylashtirilgan fotosuratlar, diagrammalar, chizmalar yoki

boshqa ko'rgazmali vositalardan iborat bo'ladi.[23]

Bunday ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish, tahlil qilish qiyinlik to'g'irdimaydi, ammo hozirgi "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklaridagi manbalar turli ko'rinishlarda bo'lganligi sababli, ma'lumot beruvchi, olgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llashga o'rgatuvchi matnlar o'quvchilarning tushunib yetishi, idrok qilishi uchun qiyinlik tug'diradi, ayniqsa bu jarayonni biz 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklaridagi matnlar bilan ishlashda ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham o'quvchilarning o'qish savodxonlik darajasini aniqlab beruvchi EGRA xalqaro tadqiqoti doirasidagi topshiriqlar asosida matnlarni o'rganishda, o'quvchilar bilan birgalikda ishlash savodxonlik darajasini oshirish bilan birgalikda, boshlang'ich ta'lim tizimining xalqaro dasturlar reytingida yuqori o'rin egallashiga hissa qo'shadi.

EGRA xalqaro dasturlarida qo'llanilgan ma'lumot beruvchi, olgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llashga o'rgatuvchi matnlar talim oluvchining maktabda va jamiyatda ma'lumot beruvchi, matnlarni o'qib tushunish ko'nikmasini aks ettiradi. Bu kabi matnlar mualliflar tomonidan yaratiladi hamda o'quvchilari bilim oladigan manbalariga asoslanadi.

Masalan, "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida tanish so'zni o'qish bosqichida faqat u o'quvchiga o'z sinf darajasida o'qishi mumkin bo'lgan va ilgari duch kelgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" 2-sinf darsliklarida tanishib o'tgan matnlarni o'z ichiga olgan ma'lumotni taqdim etadi. O'quvchilarga 1 daqiqada imkon qadar ko'p so'zni ovoz chiqarib o'qish topshiriladi. O'qituvchi o'quvchi so'zlarni ovoz chiqarib o'qish texnikasidagi yo'l qo'ygan xatolarini qayd qilib, o'quvchining vaqtini kuzatadi. Bir daqiqada o'tgandan so'ng qancha to'g'ri so'z o'qilgani xabar qilinadi. "Qora oltin" matni mos holatda quyidagi savollarni ham

o'quvchilarga berishimiz va natijani kuzatib borishimiz mumkin.

Qora oltin

Qadim zamonda odamlar suv qidirib quduq qazishgan. Bir gal ana shunday quduq tubidan suv emas, qop-qora moy chiqib qolibdi. Bu g'alati suyuqlikning nima ekanini bilmagan odamlar unga "qora moy" deb nom berishibdi. Keyinchalik, quruvchilar uni loy va toshga aralashtirsa, mustahkam qorishma yuzaga kelishini bilib olishgan. Qadimda hozirgiday elektr chiroqlari bo'lmagani uchun ko'chalar mash'alalar yordamida yoritilgan. Bunda ham juda yaxshi yonadigan "qora moy"dan foydalanilgan.

1. Qadimda odamlar nima qazishgan? _____ 82%

2. Quduq tubidan nima chiqib di? _____ 72,3%

3. Qadimda "Qora moy" qanday vazifalarni bajaribdi? _____ 64,7%

4. Hozirgi kunda bu mahsulotning nomi nima sanoatda qaysi sohalarda qo'llaniladi? _____ 28%

To'g'ri javob bergan o'quvchilar foiz hisobida

Xulosa: O'quvchilarning xulosa chiqarish, tahlil qilish ko'nikmasi yaxshi rivojlanmagan

Demak, dars jarayonida o'qituvchilar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish jihatlariga e'tibor qaratilmog'i lozim.

EGRA boshlang'ich sinflarda o'quvchilarini baholashda bu kabi vazifalar orqali savodxonlikni aniqlash uchun zarur bo'lgan ba'zi ko'nikmalarni baholaydi. EGRA tadqiqoti topshiriqlariga qarab, o'quvchilarning fan bo'yicha ma'lumotlarini tushuntirish, yangi fikrlarni o'rgatish kiritilgan. EGRA tadqiqotining nazariy asoslari o'qishni o'zlashtirishni o'lchash, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini aniqlashni amalga oshiradi. Ushbu jarayon, dastlab o'quvchilarning o'z ona tillarini

TALABALARDA TADQIQOT BILAN BOG‘LIQ KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI

USMONOV ABDULLA ABDUMANNOPOVICH

Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta‘lim muassasalari talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, rivojlantirish va natijada talabalarining ma‘lum hajmdagi bilim olishlari, mustaqil izlanishlari, olingan bilimlarni takomillashtirishlari hamda tadqiqot usullarining puxta o‘zlashtirishi natijasida ilmiy muammolarni hal qilishning nostandart usullari va turli xil ma‘lumotlar oqimini tahlil qilish va umumshtirishga o‘rgatilishi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: talabalar ilmiy tadqiqot ishining maqsadi, professor-o‘qituvchilarning motivatsiyasi, talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari tizimi, talabalar tomonidan tadqiqot faoliyatini amalga oshirish, talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish.

Аннотация. В данной статье рассмотрены нестандартные методы решения научных задач и разные виды методов исследования в результате организации и развития научно-исследовательской работы студентов высших учебных заведений и, как следствие, приобретения студентами определенного объема знаний, самостоятельное исследование, совершенствование полученных знаний и глубокое освоение методов исследования.

Ключевые слова: цель научно-исследовательской работы студентов, мотивация профессорско-преподавательского состава, система научно-исследовательской работы студентов, осуществление студентами научно-исследовательской деятельности, развитие научно-исследовательской работы студентов.

Annotation. In this article, non-standard methods of solving scientific problems and different types of research methods as a result of the organization and development of scientific and research work of students of higher educational institutions and, as a result, students' acquisition of a certain amount of knowledge, independent research, improvement of acquired knowledge and thorough mastering of research methods It is stated that it will be taught to analyze and generalize the flow of information.

Key words: the purpose of students' research work, motivation of professors and teachers, system of students' research work, implementation of research activities by students, development of students' research work.

*Ilmiy g‘oyaning buyuklik o‘lchovi –
bu fikrni qanchalik rag‘batlantirishi
va tadqiqotning yangi yo‘nalishlarini
ochishidir.*

Pol Dirak [6]

Kirish. Jahonda rivojlangan mamlakatlarning Boloniya deklaratsiyasiga qo‘shilishidan keyin ta‘lim dasturlariga qo‘yiladigan talablar o‘zgartirildi. Zamonaviy talabalar keng ko‘lamli ishlarni bajarishda faol bo‘lishlari, hayot davomida o‘rganishlari, rivojlanish va o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan doimiy shug‘ullanishlari, madaniy xilma-xillikni tushunishlari va o‘zgalarni hurmat qilishlari lozim sanaladi.

Boshqacha aytganda, ta‘lim jarayoni mamlakatning moddiy va intellektual salohiyatini qayta ishlab chiqarish va rivojlantirish, xalqaro mehnat bozorida ishlashga qodir mutaxassislarini tayyorlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

So‘nggi yillarda respublikamizda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta‘minlashni ustuvor vazifa etib belgilangani, shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta‘lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga

harakat qilinayotgani quvonarli hol. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir." [1] Buning uchun, ta'lim muassasalarida sifatini oshirish, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlarini rivojlantirish dolzarflik kasb etadi.

Asosiy qism. Zamonaviy ta'limning samarali rivojlanishini oliy ta'lim muassasalari talabalarining ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish orqali erishish mumkindir. Bugungi kunda talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u butun o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismiga aylanmoqda. Binobarin, uni shunday tashkil etish kerakki, natijada talabalar nafaqat ma'lum hajmdagi bilim olishlari, balki ularda mustaqil izlanishga intilish hosil bo'lishi, olingan bilimlarni takomillashtirishi, tadqiqot usullarini puxta o'zlashtira olishi; ilmiy muammolarni hal qilishning nostandart usullari, turli xil ma'lumotlar oqimini tahlil qilish va umumlashtirishga o'rgatilishi bilan ahamiyatlidir.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy tadqiqot ishi maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

maxsus va ilmiy adabiyotlar bilan ishlashda mustaqillikni rivojlantirish;

talabaning mavhum tafakkurini rivojlantirish;

talabalarda mustaqil fikrni shakllantirish va uni himoya qila olish qobiliyatini rivojlantirish;

talabalarning auditoriyada muloqot qilish, anjumanlarda nutq so'zlash qobiliyatini rivojlantirish;

talabalarda topshirilgan vazifani mas'uliyat bilan ado etish hissini shakllantirish;

talabalarining o'ziga ishonchini oshirish, bajarilgan ishning ahamiyatini anglash;

talabalarda tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishni davom ettirish istagini rivojlantirish.

Ilmiy tadqiqot olib borish uchun birlamchi shart – chuqur bilim sohibi bo'lish. Bilim odatda o'qish-o'rganish orqali egallanadi. Talaba maktab, litsey yoki kollejda olgan bilimni oliy ta'lim muassasasida o'zi tanlagan fanlar bo'yicha chuqurlashtiradi. Yosh tadqiqotchilarning bilimni oliy ta'lim muassasasida majburiy hamda tanlov fanlar hisobiga o'zlashtirgan bilimlari tashkil qiladi. Talaba ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanuvchi ana shu bilim poydevorini o'z mustaqil mehnati, o'qib-o'rganishi bilan boyitadi. Buning uchun o'zi tanlagan soha, mavzu bo'yicha mavjud ilmiy-metodik adabiyotni chuhur o'rganishi zarur.

Tadqiqot faoliyatini tashkil etishda professor-o'qituvchilarning asosiy vazifasi talabalarni hamkorlikdagi faoliyatga jalb qilish uchun motivatsiyani to'g'ri qo'ya bilishidir. O'qituvchi talabalar ijodiy faoliyatining asosiy tashkilotchisi va muvofiqlashtiruvchisi hisoblanadi. O'qituvchilarning yuqori kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati talabaning ilmiy tadqiqot ishda ishtirok etishiga qiziqish va ishtiyoqini shakllantiradi, buning natijasida ularda kognitiv faollik keskin oshadi.


Kasbiy faoliyat bo'yicha bilim va tajriba talaba tomonidan sekin astalik bilan to'planib boradi. Talabalar oliy ta'lim muassasasida o'qishning

dastlabki kunlaridanoq o‘zlarining ijodiy qobiliyatlaridan foydalanishlari lozim, chunki har bir shaxsning ijodiy salohiyati uning hayotiy faoliyatiga qarab rivojlanadi va agar u yangilanmasa, ijodkorlik faqat ijodiy faoliyat uchun zarur shart bo‘lib qoladi.

Ijodkorlik o‘zgaruvchidir, bu borada K.Rojers shunday deydi: “Inson – bu xususiyatlarning muzlatilgan yig‘indisi emas, balki doimiy o‘zgaruvchan imkoniyatlar gulzoridir”.[4]

Oliy ta‘lim muassasalarida sifatli kadrlar tayyorlash muhitida bo‘lajak pedagoglarni shakllantirish jarayoni yaxlit tizim bo‘lganligi sababli, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari birinchi darajali ahamiyatga egadir. Birinchidan, fundamental fanlarni o‘rganish talabalardan

o‘zlashtirish ko‘nikmalari sifatida ilmiy bilim va tadqiqot usullarini o‘rganishni talab qiladi. Ikkinchidan, ilmiy-tadqiqot ishlari individuallikni, ijodiy qobiliyatlarni va dunyoni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq ochib berishga imkon beradi. Uchinchidan, tadqiqot faoliyatida talaba shaxsining ratsionalligi ham, emotsionalligi ham uyg‘un holda amalga oshiriladi. To‘rtinchidan, oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash ularning kasbiy tayyorgarligining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Yuqorida aytilganlarning barchasi tadqiqot ishlari tizimi talaba shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam berishini ko‘rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari tizimi.

R.L.Akoffning ta‘kidlashicha, agar talabalar butun o‘quv vaqtida ma‘lum vazifaga yo‘naltirilgan bo‘lsa va ular buni bajarish qobiliyatiga qarab baholansa, keyinchalik ular kasbiy faoliyatida ham vazifalar qo‘yilishini kutishadi. Biroq, bu vazifalar oliy ta‘lim muassasasida o‘qitilmaydigan real vaziyatlardan olinishi kerak.[2]

V.K.Sidorenko va P.V.Dmitrenkoning

ta‘kidlashicha, talabalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish ularning ijodiy kuchlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini yaratadi, shuningdek, talaba o‘z tajribasini, o‘z fikrini, dunyoqarashini shakllantirish, (shaxsiy) bilimlarini rivojlantiradi.[5]

V.I.Andreyevning fikricha, tadqiqot faoliyati faol kognitiv faoliyat bo‘lib, kognitiv faoliyatning har qanday asosi aks

ettirish faoliyatidir.[3]

Shunday qilib, bo'lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini amalga oshirish va rivojlantirish vositalaridan biri oliy ta'lim muassasalari talabalari tomonidan tadqiqot faoliyatini amalga oshirishdir va unga quyidagilarni kiritish mumkin:

o'qitish, chunki u maxsus yaratilgan sharoitlarda yangi tajribani o'zlashtirishga qaratiladi;

bilim berish, buning natijasida dunyo haqida yangi bilimlar paydo bo'ladi;

kasbiy faoliyat tajribasini shakllantiradigan amaliyot;

hamkorlik – biznes, jamoaviy, shaxsiy.

Muhokama va natijalar. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda o'quv jarayoni va amaliyotning muvaffaqiyatli uyg'unligi xarakterlidir. Tadqiqot doirasida talaba birinchi navbatda tadqiqot ishining asosiy ko'nikmalarini egallaydi, so'ngra amaliyot bilan bog'liq bo'lgan nazariy bilimlarni tadqiqotda o'zlashtira boshlaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizning oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarga jalb etilishi darajasi past bo'lib, bu o'z navbatida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun real imkoniyatlarni pasaytiradi. Talabalarning ilmiy ishlarga qiziqishining pastligini va ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashmasligining umumiy sabablari sifatida ta'lim maydonining barcha subyektlari faoliyatini integratsiyalashuviga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatish mumkin. Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish sharti uni rejalashtirish va tashkil etishga kompleks yondashuvni talab etadi.

Fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari tizimining mazmuni va tuzilishini takomillashtirish;

ta'lim jarayoniga ilmiy-tadqiqot ishlarini keng va sifatli joriy etish;

o'quv rejalaridan tashqari bajariladigan talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

talabalarning ilmiy izlanish darajasini oshirish va ularni amaliyotga joriy etish;

ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va natijalarini umumlashtirishni takomillashtirish bo'yicha tashkiliy-ommaviy tadbirlarni o'tkazish;

ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkil etish tajribasini o'rganish, umumlashtirish va tarqatish bo'yicha ishlarni kuchaytirish;

oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari muammolari bo'yicha ilmiy mavzular ishlab chiqish;

ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirok etayotgan talabalar va o'qituvchilarni samarali rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatida asosiy talab ularning mustaqil qaror qabul qilishi, qiyinchiliklarni yenga olishi, yangiliklarni o'rganishiga erishishdir. Natijada, talaba shaxsining keyingi rivojlanish bosqichiga sifat jihatidan, ya'ni kasbiy o'sishi kafolatlanadi.

Yana shuni ishonch bilan aytish lozimki, oliy ta'lim muassasasida talabalar tadqiqot ishlarini tashkil etish:

OLIV TA'LIMDA TALABALAR DARSLARINI TA'LIMIV DASTURLAR ORQALI TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI

MURATOV XUSAN XOLMURATOVICH
CHDPU, Tasviriy san'at kafedrasi dotsent v.b.
ISOMETOVA GAVHAR DILMUROD QIZI
CHDPU, Tasviriy va amaliy san'at ta'lim yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ta'limda fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish. Ta'limiy dasturlar orqali mustaqil va masofaviy ta'limni samarali tashkil etish. Axborot texnologiyalari asosida elektron ta'limdan foydalangan holda talabalar o'qishini individuallashtirish. O'quv jarayonini elektron ta'lim asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet texnologiyalari, elektron ta'lim, elektron ta'lim resurslar, multimedia, multimediali o'qitish.

Аннотация. Разработка основных механизмов интеграции науки и производства в образовании и их реализация. Эффективная организация самостоятельного и дистанционного обучения через образовательные программы. Индивидуализация обучения студентов с помощью электронного образования на основе информационных технологий. Речь идет о внесении определенных изменений в принципы организации учебного процесса на основе электронного образования, в том числе об улучшении подачи учебных материалов.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, интернет-технологии, электронное обучение, электронные образовательные ресурсы, мультимедиа, мультимедийное обучение.

Abstract. Development of basic mechanisms of integration of science and production in education and its implementation. Effective organization of independent and distance education through educational programs. Individualization of student learning using electronic education based on information technologies. It is about making certain changes to the principles of organizing the educational process on the basis of electronic education, including improving the presentation of educational materials.

Key words: information and communication technologies, Internet technologies, electronic education, electronic educational resources, multimedia, multimedia teaching.

Raqamlashtirish nafaqat ta'lim tizimi mexanizmiga kirib keldi, balki mazkur mexanizmni, ta'limning mazmun va mohiyatini o'zgartirdi. Talabalar o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar tizimini axborot texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ta'lim shaxsni ijtimoiylashtirishda ham, jamiyat taraqqiyotida ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat hayotida ta'lim tizimi axborot kommunikatsiyalari bilan chambarchas o'sishda davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham mamlakatimizda

raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bo'yicha quyidagilarni aytib o'tdi: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida men yurtimizda 2020-yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb nom berishni taklif etaman"¹. Shu bilan

¹ <https://daryo.uz/2020/01/24/video-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi/>

birga yurtboshimiz najot ta'limda ekanligini va davlatimizni rivojlantirishning eng qisqa yo'li barcha sohani raqamlashtirish zarurligini ta'kidladi.

Mamlakatlar taraqqiyotini ta'lim tizimimiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Rivojlangan mamlakatlarga e'tibor qaratsak, har bir rivojlanish cho'qqisiga chiqqan millat, avvalo, ilmga, ta'limga e'tibor berganligiga guvoh bo'lamiz. Shu sababli bugun mamlakatimizda ham ta'limga, shu jumladan, oliy ta'limga ham alohida e'tibor berilmoqda. Albatta, ta'lim olish ham zamon bilan hamnafas tarzda rivojlanib bormoqda. Ya'ni shu kungacha ta'lim shakli sifatida faqat an'anaviy ta'limni tushungan bo'lsak, COVID-19 pandemiyasi davrida onlayn ta'lim ta'lim tizimimizga jadallik bilan kirib keldi. Bugungi kunda onlayn ta'lim, ta'lim tizimimizning ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda. Bu borada bir qancha hukumat va vazirliklarning OTMda masofaviy ta'limni tashkil etish bo'yicha qarorlari, dasturlari ishlab chiqildi.

Bugun dunyoda mustaqil elektron ta'lim kurslari masofadan ta'limiy dasturlar vositasida tashkil etilgan va undan keng foydalanilmoqda.

Ta'limiy dasturlar nima? Ta'lim dasturlari yoki ta'limiy dasturlar - bu o'qitish yoki o'rganish uchun maxsus ishlab chiqilgan kompyuter dasturi. Ushbu dasturiy ta'minot dasturlari oddiy o'quv o'yinlaridan tortib, interaktiv simulyatsiyalar va virtual haqiqat ilovalarigacha bo'lgan majmuani o'z ichiga qamrab oladi. Bu dasturlar o'rganishni yanada qiziqarli qilish uchun interfaol ko'rgazmali qurollar va interaktiv kontentdan foydalanadi. Siz talaba yoki professor-o'qituvchi bo'lishingizdan qat'iy nazar, ta'lim dasturlari ma'lum bir fan bo'yicha ko'nikma va bilimingizni oshirishga yordam beradigan qimmatli vosita bo'lishi mumkin.

Ta'lim dasturi so'nggi bir necha yil ichida juda mashhur bo'lgan o'rganish uchun dinamik vositadir. Texnologiyaning rivojlanishi bilan ushbu dasturlar foydalanuvchilarga qulayroq bo'ldi. Ular turli xil fanlarni taklif qiladi va

barcha yoshdagi talabalarning individual ta'lim uslublariga mos keladi. Ta'limiy dasturlar fanlarni o'qitish usulini tubdan o'zgartirib, o'rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qildi. Bundan tashqari, ular zudlik bilan fikr-mulohazalarni taqdim etadilar va talabalarga real vaqt rejimida ularning muvaffaqiyatlarini kuzatishga imkon beradi. Matematik tenglamalarni mashq qilish yoki yangi tilni o'rganish bo'ladimi, ta'lim dasturi insonning ko'nikmalarini rivojlantirish va oshirishning samarali usuli hisoblanadi. Texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, bu dasturlar yanada murakkab va foydali bo'lib, talabalar va professor-o'qituvchilarga bilim va ta'limni oshirish uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi.

Ta'lim dasturlari o'quvchilarga kontent bilan shug'ullanish, imtihon savollarini mashq qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirish uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib berdi. Ta'lim dasturlari yordamida talabalar murakkab matematik va ilmiy muammolarni osongina echishlari va o'rganishni qiziqarli va oson qiladigan interfaol o'quv platformalaridan foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari, ushbu dasturlar barcha yoshdagi talabalarning o'rganish uslublariga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, ular moslashtirilgan ta'lim tajribasini olishlarini ta'minlaydi. Texnologiyaning rivojlanishi davom etar ekan, ta'lim dasturlari yanada murakkablashadi va talabalar va o'qituvchilarning o'zgaruvchan talablariga javob beradi. Bundan tashqari, davomat, ishlash va o'quvchilarning xatti-harakatlarini kuzatish uchun foydalanish mumkin, bu esa ta'lim muassasalari uchun muhim vositaga aylanadi.

Ta'lim dasturlarining afzalliklari nafaqat talabalar uchun. O'qituvchilar, shuningdek, bunday dasturiy ta'minotni sinfga kiritish orqali foyda olishlari mumkin. Ta'lim dasturlari professor-o'qituvchilarga darsni rejalashtirish, loyihalash, baholash va muvaffaqiyatni kuzatishni soddalashtirishga yordam beradi. Bir qator vositalarga ega bo'lgan holda,

professor-o'qituvchilar osonlik bilan qiziqarli taqdimotlar, viktorinalar va interaktiv tadbirlarni yaratishi mumkin, bu nafaqat vaqtini tejash, balki talabalar uchun o'rganishni yanada qiziqarli qiladi. Bundan tashqari, ta'lim dasturlari professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi muloqotni osonlashtirishi, so'rovlar va fikr-mulohazalar uchun platformani taqdim etishi mumkin. Bu barcha afzalliklarni hisobga olgan holda, o'quv dasturlarini sinflarga integratsiyalashuvi an'anaviy ta'lim tizimini zamonaviy, raqamlashtirilgan tizimga aylantirish yo'lidagi fundamental qadam ekanligi ayon.

O'quv dasturlaridan foydalanish o'qituvchilarga hujjatlarni yuritish va hisobotlarni yaratish kabi ma'muriy vazifalarni bajarishda vaqt va kuchni tejashga yordam beradi. Dasturiy ta'minotning ma'lumotlarni saqlash va avtomatik ravishda hisobotlarni yaratish qobiliyati bilan o'qituvchilar sifatli ta'limni ishlab chiqish va etkazib

berishga ko'proq e'tibor berishlari mumkin. Bundan tashqari, ta'lim dasturlari videolar, animatsiyalar va o'yinga asoslangan modullar kabi mavzularni turli shakllarda taqdim etish orqali talabalar uchun o'rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qilishi mumkin. Bu o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish, ma'lumotni yaxshiroq saqlashga olib keladi. Natijada, ta'lim dasturiy ta'minotidan foydalanish o'quv faoliyatini yaxshilashga va talabalarni kelajakdagi muvaffaqiyatga tayyorlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Ta'limiy dasturlar samarali, qiziqarli va moslashuvchan vosita bo'lib, har qanday yoshdagi va malaka darajasidagi talabalar uchun o'quv jarayonida ilm olishlari uchun muvaffaqiyat kalitidir. Ta'lim dasturlari an'anaviy o'qitish usullariga qimmatli qo'shimcha bo'lib, uning zamonaviy texnologiyalar davridagi afzalliklarini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Novak, P. The Growing Digital Divide: Implications for an Open Research Agenda. Understanding the Digital Economy: Data, Tools and Research. Ed. B. Kahin and E. Brynjolfsson. Cambridge, MA: The MIT Press., 2000.
2. Measuring the Information Society (MIS). Executive Summary. ITU edition, 2015.
3. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
4. Portal Internet-obucheniya E-education.ru – <http://www.e-education.ru>.
5. Muratov Xusan Holmuratovich. Implementation of independent educational activities of students. European journal of research and reflection in educational sciences. vol. 7 no. 12, 2019. issn 2056-5852. 25-25.
6. Muratov Xusan Kholmuratovich; Abdulkhamidov Sardor Mardanaqulovich; Jabbarov Rustam Ravshanovich; Khudaynazarova Ugiylov Sharifovna and Baymurzayeva Oyqaram Shodiyevna. Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). International Journal of Psychosocial Rehabilitation ISSN:1475-7192. March 2020. Volume 24 – Issue 5. –pp. 2043-2048.
7. Gavhar Dilmurod kizi Isometova. Ta'lim tizimidagi muammolar va ulaning yechimlari. Academic research in educational sciences. Volume 2. Special issue 3. 2021. ISSN: 2181-1385. 149-151.
8. X.Muratov. Tasviriy san'at fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish va boshqarishda "ISPRING" dasturiy ta'minotining ahamiyati. Academic Research in Educational Sciences. 2020. Vol. 1 No. 2, 2020.
9. X.X.Muratov, Sh.A.Yusupova. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars mashg'ulotlarini autoplay media studio dasturi orqali integratsiyalash. Academic Research in Educational Sciences . Volume 1 | Issue 3 | 2020.
10. Seyyed Ali Delbari, Siew Imm Ng, Yuhanis Abdul Aziz, Jo Ann Ho. Measuring the influence and impact of competitiveness research: a Web of Science approach. Scientometrics. Springer Niderlandiya. 2015/11. 105. 773-788. European Online Journal of Natural and Social Sciences 2015; Vol.4, No.1 Special Issue on New Dimensions in Economics, Accounting and Management www.european-science.com ISSN 1805.
11. Ш.Расулов. Э.Мойлиев. Олий таълимни ривожлантиришда электрон таълимнинг роли [Матн] : методик қўлланма / – Тошкент: "Sano-Standart", 2023. — 32 б.

ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNING ESHITISH IDROKI XUSUSIYATLARI

LAZIZBEK XAYITOV,

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Maxsus pedagogika kafedrasini mudiri, PhD

MUNOSIB QURBONOVA,

Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning eshitish idroki xususiyatlari, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning eshitish idrokini rivojlantirishning samarali shakl va usullarini izlab topish, yaratish, ularning samaradorligini, kerakli bilim va ko‘nikmalar egallashda ahamiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘z va iboralar: adabiyotlar tahlili, eshituv idroki, rang, motiv, suhbat, sezgi, imo-ishora.

Абстрактный. В данной статье показаны особенности слухового восприятия слабослышащих детей, важность поиска и создания эффективных форм и методов развития слухового восприятия слабослышащих детей, их результативность, приобретение необходимых знаний и умений.

Ключевые слова и фразы: анализ литературы, слуховое восприятие, цвет, мотив, разговор, интуиция, жест.

Abstract. This article shows the characteristics of hearing perception of hearing impaired children, the importance of finding and creating effective forms and methods of developing hearing perception of hearing impaired children, their effectiveness, and acquiring the necessary knowledge and skills.

Key words and phrases: literature analysis, auditory perception, color, motive, conversation, intuition, gesture.

Kirish. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida pedagogik jarayonda eshituv qoldig‘idan foydalanish imkonini beruvchi tovush kuchaytiruvchi apparatlar bilan jihozlangan maxsus eshituv xonalari mavjud bo‘ladi. Tadqiqotlar natijalari ko‘rsatishicha, eshituv qoldig‘i mavjud bolalar nutqining umumiy ritmi, so‘zli va mantiqiy o‘rg‘ularni oson egallaydilar, bu ular nutqini tushunarli va yaxlit bo‘lishga sabab bo‘ladi. Davomiy mashg‘ulotlar mashqlar jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar eshituv idroki faollashtiriladi. Bunda eshituv idrokining rivojlanishi anotomo-fiziologik mexanizmining tiklanishi evaziga emas, balki eshituv idrokini faollash yo‘li bilan amalga oshadi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolada eshituv sezgisi va idrokini yo‘qolishi sababli ko‘ruv sezgisi va idroki asosiy o‘rin

tuta boshlaydi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolaning ko‘ruv analizatori atrofdagi olamni anglashda asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Yangi okustik apparatlar yordamida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari ko‘rsatishicha, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning 40 %da eshituv sezgisi qoldiqlari mavjudligini ko‘rsatdi. Ulardan ta‘lim-tarbiya jarayonida foydalanish mumkin. XIX asrda I.I.Fleri, so‘ng N.M. Lagovskiy va boshqa tadqiqotchilar ham eshitishda nuqsoni bo‘lganlar eshituv qoldig‘i mavjudligini e‘tirof etadilar. N.M.Lagovskiy ta‘kidlashicha, bu eshituv qoldig‘ini faollashtirish, rivojlantirish mumkin. N.M. Lagovskiy eshituv idroki darajasiga ko‘ra bir necha guruhlarni tasniflaydi. Bu guruhlardan biriga kiruvchi bolalarda eshituv idroki ma‘lum darajada mavjud bo‘lib, u nonutqiy tovushlarni

farqlash imkonini beradi. Boshqa bolalarda eshituv idrokining darajasi balandroq bo'lib, u unli tovush, bo'g'in, so'zlarni farqlash imkonini beradi¹.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalardagi ko'ruv sezgi va idroki eshituvchi bolalar darajasida bo'lish L.V.Zankov, I.M. Solovev, K.I. Veresotskoy, tadqiqotlarida dalillangan². Xattoki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv sezgisi va idroki faollashtirilishi haqida ma'lumot berilgan. Shu sababli eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bola ahamiyat bermaydigan tashqi olam xususiyatlari va nozikliklariga ahamiyat beradi. Eshituvchi bolalar eshitishda nuqsoni bo'lganlarga nisbatan yashil, siyohrang, qizil, sabzi ranglar ko'p almashtiradilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ranglarni nozik farqlaydilar. L.V.Zankov va I.M. Solovev ta'kidlashicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar chizgan rasmlarda, eshituvchi bolalar chizgan rasmlarga nisbatan ko'p detal va qismlarni qamrab olgan bo'ladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan va eshituvchi bolalar rasmlari taqqoslanganda eshituvchi bolalar rasmlarida predmetlarning muhim qismlarini tasvirlarda mavjud emasligi ko'rinadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rasmlarida bunday kamchiliklar kam bo'ladi, lekin ular fazoviy munosabatlar ifodalangan rasmlarni qiyinchilik bilan chizadilar. L.V.Zankov va I.M. Soloviv ta'kidlashicha ko'ruv idroki jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchilarga nisbatan predmetning qo'shimcha detallariga ko'p ahamiyat beradilar³. Shu sababli, eshitishda

¹ Fayziyeva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994.-23.b.

² Alimxo'jayeva F.J. Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss...avtoref. –M., 1992.-12.b.

³ Fayziyeva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994.-23.b.

nuqsoni bo'lgan bolalarda idrokning analitik tipii sintetik tipidan ustun turadi, deb ko'rsatish mumkin. I.M.Soloviv bu holat eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituvchi bolalarga nisbatan ko'ruv sezgisi ustun degan xulosaga olib kelmaydi, deb e'tirof etadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi shakllanishida ko'ruv idroki katta ahamiyatga egadir. Eshituvchi bola eshituv va ko'ruv sezgisi va idrokiga tayanib, gapirishni o'rganadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv idroki va sezgisi atrof-olamni anglashda katta ahamiyatga ega ekan. Eshituv sezgisini yo'qotish bilan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv sezgisi faollashadi, o'tkirlanadi. Ko'ruv idrokidan tashqari, anglash jarayonida hidlash va xarakat sezgilari ham muhim o'ringa egadir. Xarakat sezgilari inson badani, qismlari, nutqiy organlar xarakati haqida signal beradi. Eshituv analizatori funksiyasini buzilishda nutqiy xarakatlar aniqligi, differensiallanganligi buziladi. I.M.Solovyov va boshqa olimlar eshituvning yo'qolishini nafaqat artikul apparat sezgisi, balki nafas olish apparatining xarakat sezgisiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, mimika, daktilologiya kabi nutq shakllari harkat va ko'ruv sezgilari asosida shakllanadi. Teri sezgilari taktil va temperatura sezgilarini qamrab oladi. Ular birligi premet, uning shakli, kattaligini ifodalovchi materialni anglash imkonini beradi. Bu sezgilar reseptorlari bormoq uchlarida, til uchida joylashgan bo'ladi. Sezgilar faol faoliyatni talab etadi va reseptorlarni ta'sirlovchilar bilan kontakti davomida yuzaga keladi. Teri sezgilari, idrok boshqalar bilan birga predmetni to'liq idrok etishga yordam beradi. Teri sezgilari predmetni ko'rish orqali idrok etishni to'ldiradi. Asosan

predmetlarni hajmi va fazoviy joylashuvida idrok etishda, predmetlarni tashqi qatlamini sezishda teri sezgilarining ahamiyati kattadir. N.M. Logovskiy, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshitish idrokini faollashtirish va rivojlantirish mumkinligini e'tirof etadi. Ushbu olim eshitishda nuqsoni bo'lganlikda ruhiy rivojlanish buzilishini kompensatsiyasida ko'ruv idrokining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi⁴. XX asrning 20 yillariga kelib L.S. Vigotskiy boshchiligida maxsus psixologiyaning dolzarb muammolarini tizimli tadqiq etish jarayoni amalga oshirildi. Olim o'z ilmiy foliyatida turli nuqsonlari mavjud eshitishda nuqsoni bo'lgan, ko'r, aqli zaif bolalar hamda ularning ta'limi muammolarini o'rganadi. 1924-1926 yillarda bu muammoga bag'ishlangan dastlabki ilmiy ishlar chop etiladi. F.F.Rau, N.F.Slezina, I.G. Bagrova, V.I. Bel'tyukova, K.A. Volkova, S.A. Zikov, T.S. Zikova, Ye.P. Kuz'micheva, E.I. Leongard, L.P. Noskova, T.V. Pelimskaya, N.I. Shelgunova, N.D. Shmatko, Ye.Z. Yaxnina va boshqalar, eshituv idrokini shakllantirish muammolari har tomonlama o'rgangan. F.F.Rau e'tiroficha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshitish idrokini faollashtirish va rivojlantirish bosqichlarining ajratilishi yana bir omil – eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tilning har xil tur va shakllarini egallash imkoniyatlariga bog'liqdir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshitish idrokini faollashtirish va rivojlantirishning har xil bosqichlarida nutqning turi va shakllarini har xil miqdor va nisbatda ishlatilishi hamda dastlabki va yetakchi nutq shakllarini tanlash talab etiladi. Eshitish qobiliyatini rivojlantirishda so'z, so'z birikmalari, gap

va matnlardan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Eshituv qoldiqlarini rivojlantirish ishlarining mazmuniga:

- nutqiy material: tovushlar, so'z va so'z birikmalari, gaplar (topshiriq, savollar, darak gaplar) ni, matnlarni eshitib idrok etishga o'rgatish;

- tovush manbaalaridan maosfani uzaytirgan holda nutqiy va nonutqiy (doira, surnay) tovushlarini sezishga o'rgatish;

- nutqiy va nonutqiy tovushlarni farqlashga o'rgatish: musiqiy o'yinchoqlar p tovushlarining manbaini, kuchini, davomiyligini, ritmini ajratish kiradi.

N.F.Slezina eshitib idrok etiladigan va talaffuz etiladigan nutqiy material quyidagi talablarga rioya etishi kerak, deb ta'kidlaydi⁵.

1. Nutqiy material bolalarga nutq o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, tasviriy faoliyat va boshqa mashg'ulotlardan tanish bo'lmog'i kerak. Dastlabki 1-2 yil davomida yozuvli jadvalchalar tegishli predmet, rasm, harakat bilan solishtirilishi; keyingi yillarda talaffuz qilish va farqlash uchun berilayotgan so'z va gaplardagi harflar tarkibi va ketma-ketligini bilmog'i, so'zlarni daktillashi, yozishi, qirqma alifbo harflaridan tuzishi lozim.

2. Muloqot uchun zarur bo'lgan material, kattalar bilan va o'zaro muloqotda ko'p ishlatiladigan so'zlar olinishi kerak.

3. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish ishining muayyan bosqichdagi vazifalariga mos kelishi, tanish bo'lgan va zarur nutqiy materialning tanlanishi kerak:

- ta'limning dastlabki yillarida eshituv qoldiqlarini rivojlantirish uchun akustik jihatdan, bo'g'in tarkibi va ritmik tuzilishi

⁴ Alimxo'jayeva F.J. Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss...avtoref. –M., 1992.-13.b

⁵ Alimxo'jayeva F.J. Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss...avtoref. –M., 1992.-16b.

har xil bo‘gan, shuningdek, talaffuz etilishi osonroq so‘zlar olinadi;

- ta‘limning barcha yillarida fonetik mavzuga (o‘rganilayotgan tovush) ga oid nutqiy material olinadi. Masalan tovushlarni yo‘lga qo‘yish va farqlash uchun ushbu tovush ko‘p uchraydigan so‘z va gaplar olinadi.

So‘z, gaplarni ko‘rib-eshitib va ko‘rib farqlashga o‘rgatgandan so‘ng, nutqiy materialni taniy olishga o‘rgatiladi. Bunda nutqiy materialning o‘zi taqdim etiladi. Tanib farqlash uchun nutqiy tovushlar, so‘z va gaplar taqdim etilganda rasm, predmet, o‘yinchoqlar ko‘rsatilmaydi. Bola topshiriqni bajaradi. Bolaning javobi to‘g‘ri bo‘lsa, pedagog tegishli rasm yoki jadvalchani ko‘rsatadi. Ta‘limning 1 va 2 yilida dasturda belgilangan material farqlanadigan va tanib farqlanadigan bo‘lganidan so‘ng, 3-yilning ikkinchi yarimdan notanish so‘z va gaplar farqlash uchun beriladi. So‘z va gaplar eshitib (ko‘rib-eshitib emas) farqlanishi va tanib olinishi kerak. Bola eshitgan so‘zni takrorlaydi. Uning talaffuzi bo‘g‘in, so‘z konturi yoki to‘liq so‘z ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Agarda so‘z va gaplar eshitib idrok etilmasa, material ko‘rib eshitib qabul qilish uchun beriladi. So‘zlar takrorlangach, yana bir bor eshitish uchun beriladi. Agarda bola har bir so‘zni noto‘g‘ri bo‘lsa ham takrorlashgi harakat qilsa, pedagog uni rag‘batlantiradi.

Maqsadli, izchil ravishda tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijasida bolalarning nutq va nonutqiy tovushlarni idrok etish qobiliyati rivojlanadi. Natijada eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolaning eshitish qobiliyatini audiometrik tekshirishda eshituv darajasini, eshituv pasayishini tabiatini aniq bilib olish imkoniyati tug‘iladi.

Nutqiy material (notanish bo‘lgan so‘z, so‘z birikmalari gap va matnlar)

ni eshitib idrok etilishi uchun beriladi. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish asosida nutqiy muomala amalga oshiriladi. Nutqiy muomalaning asosiy birligi gap hisoblanganligi sababli, nutqni idrok etishda gap asosiy nutq birligi sifatida olinishi kerak. Surdopedagogika ilmi va amaliyotining rivojlanishi va taraqqiyoti eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar eshituv qobiliyatini rivojlantirish tizimini takomillashuvi uchun zamin yaratadi. Zamonaviy tizimning taraqqiy etish uchun eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta‘lim – tarbiyasini hayotning dastlabki oylaridanoq amalga oshirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish asosida kommunikativ tizimi sharoitida nutq o‘stirishning yangi samarali yondashuvlarni ishlab chiqish talab etiladi. Kar bolada umumiy rivojlanish bilan bog‘liq holda nutqning shakllanishi ham o‘ziga xos kechadi. Sog‘lom bolada nutq shakllanishining ilk davridagi kabi, kar bolada ham ovoz, un chiqarishlar sodir bo‘ladi. Tug‘ma kar bo‘lgan bolalarda ham gu-gulash, yig‘lash xususiyatlari bo‘lib, bular xuddi sog‘lom bolalardagidek tashqi yoki ichki muhitdan keladigan signallar–ochlik, tashnalik, sovuq, issiqqa bog‘liq bo‘ladi. Kar bolada eshitish idrokining nuqsonliligi tufayli o‘z-o‘zidan tashqi muhit bilan bog‘lanish vazifasini uning teri, ta‘m, hid bilish, ko‘rish orqali sezish imkoniyati bajara boshlaydi.

Xulosa. Agar nuqson qanchalik erta aniqlanib, to‘g‘ri tashxis qo‘yilib, kar bolaga e‘tibor maxsus tashkil etilsa, nuqsonni bartaraf etish, bilinmaydigan holatga keltirish imkoniyati keng bo‘ladi. Aksincha bo‘lsa, ruhiy, jismoniy va ular bilan bog‘liq holda aqliy rivojlanishi orqada qoladi, ya‘ni bola ijtimoiy muhitdan cheklangan holda rivojlanadi. Bunda ota–ona va yaqinlarining e‘tibori qanchalik kuchli bo‘lmasin, maxsus

OLIV HARBIY BILIM YURTIDA ELEKTROTEXNIKA VA ELEKTRONIKA ASOSLARINI O'QITISHNING ZAMONOVIIY SHAKLLARI VA O'QITISH METODIKASI

RAMONOVA SADOQAT KOMILOVNA
Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

Annatsiya: Mazkur maqolada oliy harbiy bilim yurtida elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o'qitishni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida takomillashtirish metodikasi haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: elektrotexnika, fizika, matematika, oliy harbiy ta'lim, kursant, kasbiy kompetentlik, axborot texnologiyalari.

Annotation: This article provides information on the methodology of improving the teaching of the basics of electrical engineering and electronics in a higher military educational institution with the help of information and communication technologies.

Key words: electrical engineering, physics, mathematics, higher military education, cadet, professional competence, information technologies.

Аннотация: В данной статье представлена информация о методике совершенствования преподавания основ электротехники и электроники в высшем военном учебном заведении с помощью информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: электротехника, физика, математика, высшее военное образование, курсант, профессиональная компетентность, информационные технологии.

KIRISH.

Kursantlarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish jarayonini pedagogik qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning boshlang'ich bosqichida (mazkur jarayonni pedagogik qo'llab-quvvatlashning birinchi komponenti sifatida qarash mumkin) ta'lim oluvchining shaxsi, ularning mustaqil ta'lim olishi va o'zini o'zi tarbiyalash tajribalari o'rganiladi. Dastlab, bilish faoliyatida o'z imkoniyatlarini boshqalarniki bilan taqqoslaydi, bu esa ularning bilish faolligini oshiradi. Bularning barchasi kursantlarda kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonini pedagogik qo'llab-quvvatlashga amaliy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bular: amaliylik, pedagogik jarayonning yaxlitligi bo'lib, ushbu jarayon tashkil etuvchilarining birligi va mustaqilligi (ya'ni tarbiya, ta'lim, rivojlanish); o'quv-tarbiya jarayonining barcha komponentlariga xos bo'lgan umumiylikning mavjudligi, ularning o'ziga

xos xususiyatlarining saqlanishi, pedagogik jarayonning yaxlitligidan iborat bo'ladi.

Kompetensiyalarni rivojlantirishda suhbat, maxsus tayyorlangan muammoli vaziyatlar, savollar yordamida elektrotexnikaga oid bilimlarini faollashtirishga undaydigan, mustaqil fikrlash, xulosalash va umumlashtirish orqali yanada muvaffaqiyatli shakllantirishga imkon beradigan yangi bilimlarni chuqur o'zlashtirishga erishish kabi usullarini to'g'ri tanlay bilish muhim ahamiyatga ega.

Tashkiliy-jarayon komponentida kongnitiv bosqich o'z ichiga tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun foydalanadigan mavjud bilimlar majmuasi sifatida qaraladi. Unga quyidagi sifatlar tegishli: savollar berish, ko'rilayotgan savolni tushunganligini yoki tushunmaganligini bildirish, hodisalarning sababi va oqibatini aniqlash va h.k. Shuningdek, kongnitiv bosqichida o'z ichiga yuqorida keltirilgan xarakteristikalariga qo'shimcha ravishda sintez

qilish darajasi (turli manbalardan to'plagan bilimlarni umumlashtirish ko'nikmasi), tahlil qilish (mustaqil ravishda amaliy faoliyat yuritish uchun bilim va ko'nikmalar to'plash), baholash (ma'lum darajada bilimlarni ijodiy ravishda egallash hamda qo'yilgan o'quv masalalarini bajarishda uning ahamiyatini baholash qobiliyati)ni oladi.

Kursantlarda AKT dan foydalanish kompetensiyalari shakllanganlik darajalarini baholashda kursantlar o'zini-o'zi rivojlantirish asosida kasbiy kompetensiyasi shakllantirish yuzasidan amaliy mashg'ulot (masalan, kasbga yo'naltirilgan topshiriq)lar laboratoriya (elektrotexnika va elektronika oid) ishlari, loyiha (kasbiy-amaliy loyihalar, kuzatish va tadqiqotchilikga yo'naltirilgan loyiha) ishlarining hamda mustaqil (kurs ishlari, hayotiy-kasbiy kompetentlikga oid topshiriqlar, internet ma'lumotlari tahlili) ishlarni bajarishadi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyaning shakllanganlik ko'rsatkich darajalari, erishilgan natijalarni baholash kabi komponentlaridan iborat bo'lib, kursantda AKT kompetentligi shakllanish darajasi "kognitiv", "faoliyatli" va "motivatsion", darajalari bilan baholanadi.

Tinglovchida shakllangan tayanch kompetensiyalarni ballik tizimda baholab bo'lmaydi. Sababi bu kompetensiyalar o'quvchilarning insoniy sifatlari, hayot faoliyati davomida olgan bilim va ko'nikmalar in'kosi, o'zida genetik va orttirilgan moyilliklarni namoyon qila olish qobiliyati kabi bir qator komponentlarni o'z ichiga oladi. Oltita tayanch kompetensiyadan ixtiyoriy bittasi shakllanganligi jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatishiga yetarli bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, tayanch kompetensiyalarni past, o'rta va yuqori daraja bo'yicha (o'quvchilar xulqini baholagani kabi) baholash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Kompetensiyalar shakllanganligining past darajasida o'quvchilarda mustaqillik, o'rganilayotgan elektrotexnika va elektronika asoslari faniga nisbatan qiziqish, ijodiy faollik yo'q; motivatsiya past darajada xarakterlanadi; o'z-o'zini tahlil va nazorat qila olmaydi; ular mashg'ulotlarda faollik ko'rsatmaydilar. Motivatsiya bosqichi bunday darajada tinglovchi tomonidan o'rganilayotgan fanga qiziqishning yo'qligi bilan ifodalanadi. Elektrotexnika va elektronika asoslariga oid kompetensiyalarning kognitiv bosqichi elektrotexnika va elektronika asoslari fani bo'yicha umumiy bilimlar darajasida (fizik, elektrotexnik, qonuniyatlar va ularning formulalarini eslab qolish, qayta aks ettirish) bo'ladi; tinglovchilarda bilimlarning tayanch tavsifi kuchsiz namoyon bo'ladi. Faoliyatli bosqich axborotni oddiy fikran qabul qilish darajasida amalga oshiriladi, ko'rsatilgan faoliyatga kuchsiz emotsional kayfiyatda bo'ladi. Natijaviy-baholash bosqichi yo'nalishi bo'yicha qaralsa, fanni tushunish past darajada bo'ladi.

Kompetensiyalar shakllanganligining o'rta darajasida tinglovchining faoliyat yuritishida mustaqillik mavjud ekanligi, o'zlashtirish darajasida ijodiy faol emasligi; bilishga bo'lgan qiziqishi, va o'qishga bo'lgan motivatsiyaning o'rtacha darajasi bilan xarakterlanadi. Motivatsiya bosqichida o'quvchilar faqat ayrim masalalar bo'yicha qiziqishlarini namoyon qiladilar; kamdankam holda o'qituvchining yordamisiz (masalan, laboratoriya ishlarini bajarishda) mustaqil ravishda tashabbus ko'rsatadilar. Fanga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirishning kognitiv bosqichi bilimlar, tushunchalar (o'zaro aloqa yuzaga chiqadi, to'plangan axborotni interpretatsiya qiladi) mavjudligi bilan xarakterlanadi va qo'llaniladi (o'tkazilgan tajribani tahlil qilish va tushuntirish qobiliyatlari namoyon bo'ladi); bilimlarini namoyon qilish intensivligi

oʻrtacha darajada boʻladi. Faoliyatli bosqich, oʻquv faoliyatini idrok qilish darajasida boʻladi. Koʻnikmalarga oid operatsiyalar toʻla hajmda bajariladi, lekin oʻquvchilardan oʻz harakatlarining toʻgʻriligini tasdiqlash talab qilinadi; uning harakatlari yetarli darajada mustaqil va anglab yetgan holda, amalga oshirgan operatsiyalarining ketma-ketligi yetarli darajada chuqur oʻylanmagan boʻladi. Natijaviy-baholash bosqichi, murakkab boʻlmagan axborotni qidirib topish bilan xarakterlanadi. Tajribalarni toʻgʻri oʻtkazganligi, olingan natijalarning haqqoniyligini qoniqarli baholay oladi.

Kompetensiyalar shakllanganligining yuqori darajasida tinglovchida ijodiy faolligining yuqori ekanligi, mustaqilligi, kommunikativligi, bilishga boʻlgan qiziqishining yuqori darajada ekanligi; oʻz-oʻzini tahlil qilish va nazorat qilish koʻnikmasiga ega ekanligi; taʼlim jarayonida motivatsiya yuqori darajada boʻlishi bilan xarakterlanadi. Oʻquv faoliyatida ichki motivlar bosh boʻladi. Motivatsiya bosqichida oʻquvchilar fanga nisbatan maksimal qiziqish bilan qaraydilar; yuqori foydali ish koeffitsienti bilan ishlaydilar; ijodiy faollik koʻrsatadilar. Umumiy kompetensiyalarni shakllantirishning kognitiv bosqichi oʻz ichiga yuqorida keltirilgan xarakteristikalariga qoʻshimcha ravishda sintez qilish darajasi, tahlil qilish, baholashni oladi. Bilimlarning yuqorida keltirilgan barcha xarakteristikalari stabil ravishda namoyon boʻladi. Elektrotexnika va elektronika asoslari fani mohiyatini anglash maqsadida, faoliyat bosqichi koʻnikmalarini kompleks va ijodiy darajada qoʻllash; bajariladigan operatsiyalar ratsional ketma-ketlikda va toʻla anglagan holda bajariladi.

Amaliy mashgʻulotlarning tashkiliy-metodik taʼminotini zamonaviy axborot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalar yordamida takomillashtirishning innovatsion

yondashuvi kursantlarda elektrotexnika va elektronika asoslari faniga qiziqishlarining yanada kuchayishi, fanga doir bilimlarni yanada toʻliq va chuqur egallashlarini hamda egallagan bilimlarni kasbiy faoliyatda mustaqil qoʻllay olish koʻnikmalarini rivojlantirishga eʼtibor qaratilgan. Mazkur modelning yaratilishi va oliy harbiy bilim yurtlarida joriy etilishi, fanning amaliy mashgʻulotlarini oʻtkazish hamda mustaqil taʼlimda kursantlarni ijodiy faollikka yoʻnaltirib, erishilgan bilim, koʻnikma va malakalaridan yangi vaziyatlarda qoʻllay olish, fizik hodisa va jarayonlari orasidagi oʻzaro bogʻlanish qonuniyatlarini bilishi, ularda loyiha va konstruktorlik ishlarini bajarishda eng maqbul usullarni taklif qilish koʻnikmalarining shakllanishiga imkon beradi. Bu yerda boʻlajak ofitserlarning kompetensiyalari deyilganda, tinglovchilarni kasbiy faoliyat davrida foydalanishi zarur boʻladigan, zamonaviy texnika va texnologiyalar, ularni boshqaruv texnikaviy jihatlariga tez moslashuvchanlik (mobillik) sifatleri nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimiz olimlari tomonidan Oliy taʼlim muassasalarida elektrotexnika va elektronika asoslari fanini oʻqitish metodikasini takomillashtirish, fanni oʻqitishning zamonaviy muammolari va didaktik taʼminotiga doir ishlar A.I.Xonboboev, N.A.Xalilov, A.S.Karimov, M.Ibadullaev, V.Abdullaev, X.K.Aripov, M.M.Mirhaydarov, Sh.A.Pazilova, T.A.Maxmudov kompetensiyaviy yondashuv asosida fanni oʻqitish hamda taʼlim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalarida U.I.Inoyatov, N.Sh.Turdiev, J.E.Usarov, G.O.Ernazarova, B.Boboev fanni oʻqitishda axborot-taʼlim resurslarini qoʻllash masalalari A.A.Abuqodirov, U.Sh.Begimqulov, F.M.Zakirova, O.X.Turakulov, M.M.Aripov, N.I.Taylaqov kabi olimlarning

ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlari A.S.Kasatkin, V.V.Afonin, S.A.Borminskiy, N.A.Makenova, L.V.Ravichev, A.E.Kaplyanskiy, D.D.Dondokov, O.V.Filimonova, A.I.Shimarov, V.Sapenko tomonidan elektrotexnika va elektronika asoslari fanining o'qitish metodikasini rivojlantirishga doir ishlar tadqiq etilgan. I.V.Robert, Ye.S.Polat, S.S.Velikanova, Yu.Serousov, I.Jeleznyak va boshqa olimlar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlari tadqiq qilingan.

Shuningdek, xorijda Don Johnson, B.L.Theraja, K.Charles, A.Matthew kabi olimlar tomonidan elektrotexnika va elektronika asoslari fanining nazariy-metodologik asoslari o'rganilgan.

Muammoni o'rganish bo'yicha olib borilgan tahlillarga ko'ra, oliy harbiy bilim yurti elektrotexnika va elektronika asoslari dasr mashg'ulotlarida kursantlarning o'quv faoliyatini jadallashtirishga imkon beruvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o'qitishning zamonaviy yondashuvlarini pedagogik muammo sifatida o'rganish zarurati mavjud.

TADQIQOTLAR METODALOGIYASI

Elektrotexnika va elektronika asoslarini o'qitish metodikasini takomillashtirishda amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi, amaliy mashg'ulotning texnologik modelini samarali qo'llay olish muhim hisoblanadi. Quyida "Mustaqil manbali o'zgarmas tok elektr zanjirlarini hisoblash" mavzusini o'qitish metodikasini keltirib o'tamiz

Dastlab mashg'ulot rejasi tuzib olinadi: 1. Mustaqil o'zgarmas tok elektr zanjirlarini kontur toklar usulida hisoblashni o'rgatish. 2. Amaliy olingan natijalarni dasturiy vosita yordamida tahlil qilishni o'rgatish.

Ishdan maqsad:

mustaqil manbali o'zgarmas tok elektr zanjirlarini hisoblash usullarini o'rganish va kursantlarning kasbiy-amaliy bilimini oshirish.

Bunda pedagogik vazifa sifatida mustaqil manbali o'zgarmas tok konturlari bo'yicha umumiy ma'lumotlar berish; mustaqil manbali o'zgarmas tok konturlarida kontur toklar usuli bo'yicha bilimlarini oshirish; mustaqil manbali o'zgarmas tok konturlarida dasturiy vositalar yordamida natijalarni tahlil qilish; hamda AKT dan foydalana olish kompetensiyasini shakllantirishlarni olish mumkin.

darajasi bo'lajak chizmachilik o'qituvchisining grafik bilimlarning kengligi va mustahkamligi bilan boshqa sohasidagi bilimlarni o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchisi uchun bu mezon geometrik shakllar, ulardan foydalanish usullari va xususiyatlari, kompozitsion bilimlari, shuningdek, amaliy san'at haqidagi nazariy bilimlarning chuqurligi va mustahkamligi bilan ifodalanadi.

Bilm darajasi bo'lajak chizmachilik o'qituvchisining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, geometrik shakllar yasash, geometrik shakllardan naqsh kompozitsiyasini yarata olish, murakkab naqsh kompozitsiyalardan foydalanish bilan bog'liq. Ya'ni, ijodiy ishda vizual bilimlardan faol foydalanish.

Shaxsiy daraja badiiy did, estetik his-tuyg'ular, qarashlar, bo'lajak chizmachilik o'qituvchisining qadriyat-semantik sohasini rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Bu mezon ijodiy ishlarni taqdim etish madaniyati va uning dizaynida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak chizmachilik o'qituvchisining estetik ko'nikmaini shakllantirish samaradorligining mezonlari estetik ko'nikma va uning aniqlangan tarkibiy qismlarini tizimli tushunish asosida belgilanadi. Shu bois bo'lajak chizmachilik o'qituvchisining estetik ko'nikmaining shakllanish darajasini quyidagi

bosqichlarda o'rganish maqsadga muvofiq ko'rinadi:

past daraja. Kasbiy faoliyatga tanlab qiziqish ko'rsatadi, u haqida to'liq tasavvur hosil bo'lmaydi. Mutaxassislikni o'rganish motivlari o'rtacha darajadan past, o'qishga tashabbus ko'rsatmaydi;

o'rta daraja. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchisi bilim, malaka, kasbiy mahorat va shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi, chizmachilik fanidan bilimga ega bo'lishi, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi jarayonida tashabbuskorlikning sustligi;

yuqori daraja. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchisi kasbiy mahorat va shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi, chizmachilik fanidan bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi.

XULOSA

Yaratuvchanlik xususiyatining namoyon bo'lishi. Estetik ko'nikmaning asosiy vazifasi inson va uning atrofidagi dunyoning ideal qiyofasini tarbiyalash, yaratishdir. Ta'lim sohasidagi faoliyat, yaratilish yo'nalishlari o'zlashtirilishi va takomillashtirilishi mumkin bo'lgan o'z texnologiyalariga ega bo'lgan ijodiy transformatsion faoliyatga tegishli. Shunday qilib, yuqori darajadagi estetik ko'nikmaga ega bo'lgan Bo'lajak chizmachilik o'qituvchisining asosiy xususiyatlari ijodiy, konstruktiv faoliyat qobiliyatidir 1-jadval.

1-jadval.

Bo'lajak chizmachilik o'qituvchisining estetik ko'nikmaini shakllantirish ko'rsatkichlari

Mezonl	Yuqori daraja	O'rta daraja	Past daraja
Kognitiv	San'at markazlari, mahalliy va jahon san'ati merosi haqidagi vizual bilim va bilimlar chuqurligi va doimiyliigi bilan ajralib turadi.	Badiiy bilim vaziyatga bog'liq badiiy eskiz, tugallanmagan madaniyat maydoni	Estetik ko'nikma merosi sohasida ham, tasviriy san'at sohasida ham xabardorlikning yo'qligi.

MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI DARSLARIDA 3D PRINTER YORDAMIDA TA'LIM OLUVCHILARNING FAZOVIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH

GULOMOVA NOZIMA XOTAMOVNA

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti «Muhandislik va kompyuter grafikasi» kafedrasida dotsenti

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada zamonaviy innovatsion usullar va texnologiyalardan foydalangan holda chizmalar yaratish va ularni o'qish bo'yicha tavsiyalar mavjud bo'lib, 3D printer yordamida muhandislik va kompyuter grafikasi darslarida talabalarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish amalga oshiriladi.

АННОТАЦИЯ. Данная статья содержит рекомендации по выполнению чертежей и их чтение с применением современных инновационных методов и технологий, где с помощью 3D принтера, осуществляется развитие пространственного воображения студентов на занятиях по инженерной компьютерной графике.

ANNOTATION. This article contains recommendations for making drawings and reading those using modern innovative methods and technologies, where, with the help of a 3D printer, the development of students' spatial imagination in engineering and computer graphics classes is carried out.

Kalit so'zlar: Chizmachilik, talaba, kompyuter, samarali dars, tushuncha, zaruriyat, standart, mashg'ulot, 3D printer, ketma-ketlik, uzviylik.

Ключевые слова: Черчение, студент, компьютер, продуктивность урока, понятия, стандарт, занятие, 3D принтер, по очередности, продолжительность.

Key words: Fine art, spatial thinking, student, a computer, 3D printer, lesson reproduction, rules, alternation.

Ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassislariga hamda sohalaridagi mavjud talabga alohida e'tibor bergan holda, o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasidagi moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, undan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, davlat standartlari, o'quvdasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish, pedagogik, innovatsion, axborot texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb muammolaridir. Hozirgi kunga kelib qator rivojlangan mamlakatlarda o'quv va ijodiy faollikni oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi ta'lim texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Bunda talabalarga kompyuter grafikasi AutoCAD dasturidan foydalanib qo'llash o'rgatiladi.

Ya'ni, fandagi integratsion jarayonlar (bir davr bilan ikkinchi davr, bir mamlakat bilan ikkinchi mamlakat, bir soha bilan ikkinchi soha o'rtasidagi) qanchalik chuqur bo'lsa, uning taraqqiyoti shunchalik nufuzli bo'ladi. Bu jarayonning tub mohiyati aslida uzviylikdan iborat.

Shu tariqa jahon ilm fani tarixida buyuk daholar va ularning ta'limotlari kashf etilgan (Arestotel, Al-Fargoniy, Motrudiy, Al Buxoriy, Beruniy, Forobiy, ibn Sino, Zamaxshariy, Xorazmiy, Ulug'bek va boshqalar). Shu nuqtai nazardan boshqa mamlakatlarning ta'limda uzviylikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil etish foydadan holi emas. Taraqqiyot jarayonida ilk mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlarini mukammallashtirish bilan birga, insonda ilk bor shakllar, ularning go'zalligi haqida fikrlash xususiyati hamda ularga bo'lgan

extiyoj va talablar rivojlana bordi. U qanday sohada bo'lishidan qat'iy nazar bu fikrlar umumiydir. Keyinchalik ilmiy texnika taraqqiyoti natijasida kompyuterlar kashf etilib badiiy loyihalash dizayn sohasini rivojlanishining yuqoricho'qqilargako'tarish imkoniyati paydo bo'ldi. Chizmachilik darslarida pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xussusiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. I.P.Pavlovning takidlashicha chizmachilikdan o'quv materiallarini takrorlash metodikasi bir xil bo'lmasligi kerak, aks holda takrorlash tormozlashga o'tadi deb fikr bergan. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida izlanishi, turli xil metodlardan unumli foydalana olish va ijodiy mehnati davomida tashkil topadi va rivojlanadi.

Kompyuter grafikasi fanidagi materiallarni o'rganish natijasida quyidagilarni bajara olish mumkin¹:


- rasmlar bilan ishlash;
- ko'p bo'g'inli statik rasmlar bilan ishlash;
- grafik muharrirlar imkoniyatlaridan foydalanish;

- turli maqsadlardagi grafik paketlarni qo'llagan holda rang-barang grafik ob'ektlarni yaratish;


- nashrga tasvirlarni tayyorlash.

Kompyuter grafikasi fani asosan elektron rasm va tasvirlar bilan ishlashni o'rgatadi. Hozir kunda grafik dasturlar soni juda ko'p bo'lib ular ishlash printsipiga ko'ra har xil grafikada ishlashi mumkin

Darhaqiqat, bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish uchun AutoCAD grafik dasturidan keng foydalanish, chizmalarni 3D printer orqali va pedagog kadrlarning imkoniyatlarini oshirishga katta talablar qo'yilgan. Uzluksiz ta'lim tizimini va AutoCAD grafik dasturi vositasida chizmachilik dars samaradorligini amalga oshirish jarayonida ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g'oya murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka hamda pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta'kidlash lozim. 3D printerda tayyor mahsulot ya'ni detalni ko'rishini ko'rish uchun AutoCAD grafik dasturida berilgan chizma 2D dan 3D o'lchamda chizilishi kerak (1-chizma)




¹ S.Q.Tursunov va boshqalar. Kompyuter grafikasi va web-dizayn. Pedagogika OTMlari talabalar uchun darslik. T. Cho'lpon. 2013 y. 377-bet.



1-chizma

AutoCAD dasturida chizilgandan keyin 3D printeriga o'tkazish uchun "ideaMaker" dasturida grammi, soati, darajasi belgilangandan so'ng 3D printeriga buyruq beriladi. 205o darajada qizdirilgan sim plitaga detal uzunligi 100 mm, eni 50mm balandligi 20 mm plita berilgan. Ularning

chap va ong tomonlaridan radiusi R25mm ga teng yarim silindrlar qilib o'yib olingan, ustiga $\varnothing 40$ aylanaga markaziy o'qi bo'yicha balandligi 40mmli gumbaz o'rnatiladi va 3D printerda setka ko'rinishida to'qiladi (2-chizma).




2-chizma

3-4 soatda vaqtdan so'ng detal 3D ko'rinishda tayyor bo'ladi asosi sal sovugangan so'ng ko'chirilib, keraksiz joyi pichoqchada o'yib olib tashlanadi (3-chizma).

O'qituvchi AutoCAD grafik dasturi vositasida

chizmachilik dars samaradorligini oshirish, asosan, sinfda, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida o'zaro muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va



3-chizma

asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik qilish lozim. Shu sababli, darslarni shunday tashkil qilish kerakki, ularning taʼsirida talabalarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va eʼtiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi kerak. Zamon talablari chizmachilik fanidan taʼlim beruvchi professor-oʻqituvchilarning oʻzlarida mavjud boʻlgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan oʻrganib, magʻzini chaqib, undan keyin oʻz talabalariga saboq berishlari zarurligini taqozo qiladi. AutoCAD grafik dasturidan foydalanib chizmachilik mashgʻulotlarni tashkil etish dolzarb masala boʻlib, darslarni qiziqarli oʻtishi uchun juda qulay. Chunki taʼlim texnologiyalarining asosiy maqsadi oʻquv jarayonini faollashtirish, talabalar tomonidan oʻquv materialini oʻzlashtirishning yuqori darajasiga erishish va ularni mustaqil fikirlashga hamda oʻz fikrini bayon etishga oʻrgatishdir. AutoCAD grafik dasturini chizmachilik darslarida qoʻllash muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga etkazib berish, ularda grafikaviy faoliyat yuzasidan koʻnikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, koʻnikma hamda malakalar darajasini baholash

oʻqituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda taʼlim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Texnologiyalarini majburan qoʻllash orqali maqsadga erishib boʻlmaydi. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qoʻllanilayotgan ilgʻor texnologiyalardan foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Kompyuter grafikasi va uning tarkibiy qismi boʻlgan grafik va turli tasvirlar axborot texnologiyasida muhim oʻrinni egallaydi. Kompyuter grafikasi fani asosan elektron rasm va tasvirlar bilan ishlashni oʻrgatadi. Hozir kunda grafik dasturlar soni juda koʻp boʻlib ular ishlash printsipiga koʻra har xil grafikada ishlashi mumkin².

Chizmalarni dars jarayonida AutoCAD grafik dasturidan foydalanib bajarilishini boʻyicha taʼlim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonga ijodiy yondashib oʻzining ijodiy faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlariga ham ega boʻladi. Xorijda va mamlakatimizda muhandislik grafikasi fanlaridan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili shuni koʻrsatadiki, uzluksiz taʼlim tizimida bu fanlarni, chizma geometriya,

² S.Q.Tursunov va boshqalar. Kompyuter grafikasi va web-dizayn. Pedagogika OTMLari talabalar uchun darslik. -T.. Choʻlpon. 2013 y. 377-bet.

chizmachilik va kompyuter grafikasi fanlarini o'qitish metodikasi etarli darajada tadbqiq etilmagan. Bu fanlarni rivojlantirishga bir qator olimlar samarali hissa qo'shganlar. Ular bu fanlarni o'qitish metodikasini rivojlantirish sohasida o'quvchilarning fazoviy tafakkurini-fazoviy tasavvur qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, fazoviy ob'ektlarni fikrlash, tarkibiy qismlarga ajratish, jismlar va ularning tuzilishini o'quvchi, talabalarning oson va qulay o'zlashtirishlarining samaradorligini oshirish kabi muammolar bo'yicha bir qator olimlar S.A.Alekseev, T.V.Andryushina, A.M.Vasilevskaya, B.F.Lomov, I.P.Pavlov, I.S.Yakimanskaya va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan.

Chizmachilik fanlarining o'qitish metodologiyasi va an'anaviy ta'lim metodikasini takomillashtirishga ilmiy va metodik tadqiqotchi olimlarimizdan Yu.Qirgizboyev, R.Xorunov, E.Sobitov, I.Raxmonov, Sh.Murodov, P.Adilov, R.Ismatullayev, M.Jumayev, A.Umarov, A.To'xtayev, A.Umronxo'jaev, K.M.Qobiljonov, M.Isayeva, U.Abdullayev, J.Yodgorov, R.Yaxyayeva,

Sh.Abduraxmonov, B.Nig'monov, A.Ashirboyev, A.Valiyev, S.Saydaliyev, N.Gulomova, M.Xalimov, K.Malikov, Sh.Dilshodbekov, Sh.Muslimov kabi ko'plab yurtdoshlarimiz ulkan hissa qo'shganlar va hozirda ham bir qancha metodik ishlarni bajarib kelmoqdalar. Chizmachilik fanlarining o'qitish metodikasini takomillashtirish muammolari bo'yicha keyingi yillarda respublikamizning qator olimlari Sh.Abduraxmonov, K.Madumarov, N.Xurboev, E.Ruziev, D.Kuchkorova, U.Rixsiboyev, N.Yodgorov, Ch.Shokirova, A.Damrakulov, S.Saydaliev va izlanuvchi tadqiqotchilari xamda fan fidoyilari B.Nigmonov, D.Saidaxmedova, A.Abduraxmonov, M.Dolimov, N.Tashimov, F.Alimovlar kabilar o'quv adabiyotlarni yaratish bilan bir qatorda ilmiy va metodik tadqiqot ishlarini ham o'tkazib kelishmoqda Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy grafik dasturlarni mukammal o'zlashtirish uning maqbul bo'lgan usullarni topish yosh avlodga chizmachilik darslarida AutoCAD grafik dasturi, 3D printerdan foydalanish qulayliklarini o'rgatish va ishlab chiqish imkoniyatlarini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. A.N.Valiyev, D.J.Tulanova, N.X.Gulomova, Современные педагогические и инновационные технологии обучения на занятиях по черчению // Молодой ученый 2018. №3. S. 183-189 ctr.
2. Saydaliyev, S., & Gulomova, N. (2019). Development of Spatial Thinking of Students Based on the Traditions of Eastern Architecture. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 14(2), 210-214.
3. Gulomova, N., & Saidaliyev, S. (2020). Development of Emergency Image in Students Psychological-Pedagogical Problems. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 18(2), 181-186.
4. Adilov, P., Tashimov, N., Esbog'anova, B. (2016). AutoCAD chizma dasturi orqali chizmachilikni o'qitish va ularning istiqboli. *вестник каракалпакского государственного университета имени бердаха*, 32(3), 53-55. извлечено от <https://science.karsu.uz/index.php/science/article/view/851>
5. Saidaliyev, S. S., Gulomova, N. X., & Tulanova, D. J. (2017). Методы эффективного использования законов перспективы при обучении изобразительному искусству. *Молодой ученый*, (7), 462-469.
6. Saydaliyev, S. S., & Gulomova, N. K. (2015). Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at darslarini sifat va samaradorligining oshirish. *форматион а султуре оф индепендент тхинкинг ин тхе эдусатионал процесс*, 161
7. T.Rixsiboyev, X.Rixsiboyeva, S.Tursunov, F.Alimov, U.Hodjayeva "Kompyuter grafikasi" darslik Toshkent 2017
8. Gulomova, N. (2021). Use of interactive methods for students in teaching drawing lessons (on the example of views). *Academica: an international multidisciplinary research journal*, 11(1), 1637-1642.
9. Гуломова, Н. Х., & Туланова, Д. Ж. (2017). Использование законов перспективы при обучении изобразительному искусству: Материалы науч.-практ. конф. Какандский государственный педагогический институт (Республика илмий амалий конференция мақолалари тўплами. Кулон Давлат педагогика институти). In *Какандский государственный педагогический институт (Республика илмий амалий конференция мақолалари тўплами. Кулон Давлат педагогика институти)*.
10. Аширбаев, А. (2021). Chizmalarga o'Icham qo'yishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tipik xatolar va ularning oldini olish omillari. *Общество и инновации*, 2(3), 7-15.

BIOLOGIYA TA'LIMI JARAYONIDA TALABALARNI KREATIVLIGINI OSHIRISHNI O'RNINI

ATAQULOVA MANZURA NE'MATOVNA
Navoiy davlat pedagogika instituti p.f.f.d.(PhD)
RASULOVA MAXLIYO G'ULAMOVNA
2-kurs magistr
TOG'AYEVA SHAXNOZA TOTLIBOY QIZI

Anotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanlarini o'qitishda talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье рассказывается о современных подходах к развитию творческого мышления учащихся при обучении биологическим наукам.

Annotation: This article describes modern approaches to the development of students' creative thinking in teaching biological sciences.

Kalit so'zlar: talabala, kreativlik, ijodkorlik, fikr, ilmiy tadqiqot, innovatsiya, faoliyat, vazifa, tahlil, dars, tadqiqot, tadqiqot-konkurinsiya, tajriba, ijod, vosita, metod, g'oya, eksperiment.

Ключевые слова: student, tvorchestvo, tvorchestvo, мысл, научное исследование, новаторство, деятельность, задача, анализ, урок, исследование, исследование-конкурс, опыт, творчество, инструмент, метод, идея, эксперимент.

Keywords: student, creativity, creativity, thought, scientific research, innovation, activity, task, analysis, lesson, research, research-competition, experience, creativity, tool, method, idea, experiment.

Respublikamizda jamiyatdagi barcha sohalari kabi ta'lim tizimini ham modemizatsiyalash bugungi kunning eng muhim dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu vazifani hal etishda, shubhasiz yangicha pedagogik ta'lim tizimini joriy etish muhim sanaladi. Ya'ni ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quvchi-talabalarni tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli dars jarayonlarini tashkil etish lozim.

Hozirgi kunda "Pedagogik kreativlik" fanda erishilgan eng so'nggi yutuqlar nuqtai nazaridan yondashadigan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun uning ilmiy - nazariy va amaliy metodik asoslari yildan yilga o'z xususiyatlarini boyitib bormoqda. Dars jarayonlarida pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining nazariy va metodologik asoslariga, mazmuni, funktsiyasi, tarkibiy qismlariga, ularning vazifalariga jiddiy e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga o'quv-tarbiyaviy jarayonni

boshqarishda o'qituvchi va tarbiyachining o'z kasbiga milliy-ma'naviy jihatdan munosabati qanday bo'lishi kerakligi aniqlash ham muhim sanaladi.

Biologiya ta'limi jarayonida talabalarni ijodiy tafakkurni o'stirish orqali tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish masalalari ham tadqiqotchilik metodlarini samarali tarzda tashkil etishni taqozo etadi. Yani o'quvchi – talabalarni ijodiy tafakkurini oshirishga qaratilgan kreativ topshiriqlar berish nihoyatda muhim sanaladi. Kashf etish quvonchini his etgan talaba keyingi yangi vazifalarni hal etishdan cho'chimaydi. Ular izlanish qiyinchiliklaridan keyin kashf etish quvonchiga erishishlarini biladilar. Tadqiqot metodining o'quvchini tarbiyalash va komillashtirishdagi ahamiyati ham aynan shundadir[4].

Oliy ta'lim tizimida ta'lim olayotgan talabalarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni

yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlikka toqat qilolmaslikka yordam beradi. Kreativ sifatlarga ega talaba kelajakda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek o'rtog'lari bilan fikr almashinish ko'nikmalariga ega bo'ladilar[2;]. Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va hokazo) va samarali (amaliy, natijaviy, tejimli, optimal va hokazo) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.

Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalari duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsulidir. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan.

G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tan olish kerakki, haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni

umumiylashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan xolos[3].

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "Tasavvur — bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Tomas Edison "Kreativlik — g'ayriixtiyoriy jarayon", deydi. Lekin har kuni ko'plab mutaxassislar muammolarga noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g'ayriixtiyoriy jarayonni ixtiyoriylashtirishi mumkinmi? Tabiatdagi yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi "sehrli tayoqcha" yo'q, biroq har qanday mutaxassisning kreativ o'ylashiga ko'maklashadigan ko'plab usullar mavjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim.

Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishga yordam beradi. PISA tadqiqotlarida o'quvchidan kreativ fikrlashni baholash modeliga ko'ra ilmiy muammolarni yoki ijtimoiy muammolarni hal qilish, o'z g'oyalarini yozma yoki vizual ifodalash talab etiladi[6].

Shuni ta'kidlash kerakki hattoki oliy ta'lim muassasalari talabalarida ham izlanuvchanlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik kabi xususiyatlari doimo ham yuqori darajada deb bulmaydi, shu jihatlarni hisobga olgan

holda o'quvchi – talabalarni kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish pedagogik jarayonda mo'him hisoblanadi. Xususan, o'qituvchilar kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida talabalarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe'llarning bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Masalan, bu holat misollar bilan tushuntirilsa, talabalardan “bir hujayrali va ko'p hujayrali hayvonlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflab bering” mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi “ta'riflab bering” tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra “mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o'ting” deyish bilan teng. Nazorat savollarini berishda talabalarni fikrlashga undovchi so'z (fe'l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. SHu sababli shaxsda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo'liga ko'ra pedagoglar turli, antiqa, noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan: “bog'liqlikni toping”, “yarating”, “bashorat qiling”, “fikrni mantiqan bayon eting”, “tasavvur qiling” kabi so'z (fe'l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Biologiya ta'limida ham kreativ fikrlash yo'nalishiga oid topshiriqlar berish talabalar tasavvurini boyitishda, fikrlash qobiliyatini oshirishda, diqqatini jamlashda muhim sanaladi. Bunda biologiya faniga oid turlicha noodatiy rasmlarni nomlash, chizish, tasvirlash kabi, bundan tashqari qiziqarli savollar berish orqali ham tashkil etish mumkin: masalan, Dunyoda yo'q hayvonni rasmini chizib keling., o'zingizni qaysi gulga yoki daraxtga uxshatasiz va nima uchun? o'zingizni qaysi gulga uxshatsangiz usha gulni rasmini chizib keling., Siz gumbak ichidagi qurtsiz, his hayajoningizni yozib keling., Siz bir kunlik kapalaksiz, tasavvuringizni yozib keling kabi topshiriqlar beriladi.

Bunday kreativ topshiriqlar talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish, unga nisbatan motivatsiyani kuchaytirish uchun oliy ta'lim tizimida talaba-yoshlarni mustaqil va ijodiy faoliyatining tarkib toptirgan holda

mustaqil ta'limni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali ilmiy-tadqiqotchilik ishlariga yo'naltirish hamda bu boradagi ishlarni tizimli tarzda tashkil etish, uzluksizligini ta'minlash hamda nazorat va monitoringni yo'lga qo'yishda muhim sanaladi.

• Namuna sifatida quyidagi topshiriq bilan ham tanishtirib o'tamiz. Qo'yidagi rasmdagi bog'liqlikni toping)



Ko'rinib turibdiki topshiriqdagi rasmlar bir qarashda umuman bog'liqligi yuq, ammo mantiqiy fikrlab uylab ko'riladigan bo'lsa, rasmdagi xarita topshiriqni javobini topishdagi kalit hisoblanadi, ya'ni xaritada dunyo miqiyosida joylashgan alyuminiy zavodlari tasvirlangan, qolgan rasmlarda esa, alyuminiy zavodidan chiqadigan zaharli moddalarni inson organizmiga va tabiatga bo'lgan ta'siri natijalari aks ettirilgan.

Biologiya (zoologiya) fanlarini o'qitishda talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan bir qator noananaviy metodlardan, masalan – tashxislash, empatik tasavvur metodi, dalillar metodidan foydalanish tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda qaratilgan muhim pedagogik usullardan hisoblanadi. Bunday metodlar talabalarni kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari yordam beradi. Masalan:

- Nima uchun? Nimaga? So'zlaridan foydalanib amyoba (bir hujayrali hayvon) haqida 10 savol o'ylab toping?

- O'ylab ko'ring, barcha xivchinlilar (bir hujayrali xivchinli hayvonlar) yo'q bo'lib ketsa nima sodir bo'ladi? (Tashhislash metodi)

- O'ylab ko'ring, dunyoda barcha hasharotlar yo'q bo'lib ketsa nima sodir bo'ladi? (Tashhislash metodi)

- Ninachi nomidan kichik insho yozing (Empatiya tasavvur metodi)

- Kanalarni -“O`ta xavfli jinoyatchilar” sifatida ta`riflang (Dalillar metodi asosida)

Shunday qilib, biologiya ta`limi jarayonida talabalar tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda turli metod shakl va vositalardan foydalaniladi. SHu bilan birga biologiya ta`limi jarayonida talabalar tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari ham ularni mazkur soha bo`yicha etarli tajribaga ega bo`lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida aytib o`tganimizdek, talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga pedagogik vaziyatlar ham muhim hisoblanadi. Dars jarayonida talaba o`z fikrini bildira olishi, himoya qilishi va uni himoya qilishga doir ko`rsatmalar, dalillar keltirishi, o`zaro savol-javob

qilishga undaydigan bilim va tajriba orttirish usullaridan foydalanishi, tushunmagan qismlarini aniqlashtirishi va bilimlarni chuqur anglashi kerak bo`lgan vaziyatlardan foydalanadilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko`rsatadiki, talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan kreativ topshiriqlardan foydalanish o`quv jarayonini hamda darsdan tashqari mashg`ulotlarni samarasini tashkil etishda muhim hisoblanadi va talabalarning tadqiqotchilik ko`nikmalarini va faoliyatini rivojlantirishda ma`lum maqsadlarga erishishga yordam beradi, talabalarning bilim olishga bo`lgan qiziqishlarini oshirish, ularni yanada yaxshi natijalarga erishishga yo`naltiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Elmuratova D., Misirova N. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O`quv qo`llanma.- Guliston, 2021.
2. Amirov Nurbek Islamovich Karshi muhandislik-iqtisodiyot iqtisodiyot instituti "Kasb ta`limi" kafedrasida katta o`qituvchisi Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlanishning muammolari va samarali yo`llari. Oliy ta`lim jurnal, maqola 2019 y, 4/77
3. TDPU huzuridagi tarmoq markazi dotsenti, p.f.n., M.Usmonboeva, katta o`qituvchi A.To`raev "Kreativ pedagogika asoslari"moduli bo`yicha O`quv – uslubiy qo`llanma 2016 yil.
4. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: Oliy pedagogika instituti, 2003
5. Pedagogika oliy ta`lim muassasalari talabalarida tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (biologiya o`qitish metodikasi ta`lim yo`nalishi misolida). Dissertasiya ishi.M.N.Ataqulova., Samarqand-2021.
6. Internet ma`lumotlari.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI O'QITISH BO'YICHA PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISH YO'LLARI

TILAKOVA MAVJUDA ASHUROVNA

Jizzax viloyat Pedagoglarni Yangi Metodikalarga O'rgatish Milliy Markazi
“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasini mudiri p.f.d(PhD)

ANNOTATSIYA: Maqolada shaxsni har tomonlama mukammal va barkamol qilib shakllantirish vazifasi eng dolzarb masalalardan biri ekanligi, umumta’lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o’qitish bo’yicha pedagogik jarayonni tashkil etish yo’llari hamda imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog’lom bolalar bilan teng sharoitda o’qitilishi imkoniyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Inklyuziv ta’lim, individual yondashuv, aqliy rivojlanish darajasi, tahlil, umumlashtirish, ommalashtirish, zamonaviy texnologiya, shakl va usul, korreksion tarbiya, artikulyatsiya, tyutor, diqqat yetishmasligi, giperaktivlik sindromi, autizm, disleksiya.

Аннотация: В статье представлена информация о том, что задача всестороннего совершенного и гармоничного формирования личности является одной из самых актуальных, о путях организации педагогического процесса обучения детей с ограниченными возможностями здоровья в общеобразовательных школах, а также о возможности обучения детей с ограниченными возможностями здоровья наравне с другими здоровыми детьми.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, индивидуальный подход, уровень психического развития, анализ, обобщение, популяризация, современные технологии, форма и методика, коррекционное воспитание, артикуляция, тьюторство, дефицит внимания, синдром гиперактивности, аутизм, дислексия.

Annotation: The article provides information on the fact that the task of forming an individual in a comprehensive perfect and harmonious way is one of the most pressing issues, ways to organize a pedagogical process for teaching children with disabilities in secondary schools, and the possibility of teaching children with disabilities on an equal footing with other healthy children.

Keywords: inclusive education, individual approach, level of mental development, analysis, generalization, popularization, modern technology, form and method, correctional education, articulation, tyutor, Attention Deficit Hyperactivity syndrome, autism, dyslexia.

Bugungi jamiyatning ta’limga oid talablaridan biri shaxsni har tomonlama mukammal va barkamol qilib shakllantirish vazifasi eng dolzarb masala sanaladi. Ta’lim sohasida xilma-xil va murakkab muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish, islohotlar o’tkazish ana shu masalada yechim topishiga xizmat qiladi. Ta’lim tizimida islohotlar o’tkazish va pedagoglarning psixologik bilimdonlik hamda amaliy ko’nikmalarni tobora oshira borishni taqozo etadi. Shu bilan birga ta’lim-jarayonlariga yangicha yondoshish, uslub va mazmunan takomillashgan vositalardan unumli hamda o’rinli foydalanish zarurdir. Yangi pedagogik texnologiyani

amalda qo’llash murakkab jarayon bo’lib o’qituvchidan katta mahorat va malaka talab qiladi. Xususan, o’quvchining tarbiyalanganlik darajasi va ruhiy holatini bilish, o’quvchilar jamoasi yosh xususiyatlariga mos tarzda rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida diagnostika qilish lozim. Pedagogning kasb qobiliyati, faoliyatining o’ziga xos xususiyatlari shu jarayonda to’la namoyon bo’ladi. Ta’lim individual yondashuvda bolaning xatti harakatini ko’rinishlarini tushunish qobiliyatini talab qiladi. Individual ta’lim yondashuv - bu pedagogik jarayonning bir qismidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Prezident qarori bilan 2025 yilgacha inklyuziv umumta'limni bosqichma-bosqich joriy etish masalasi qo'yilgan. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarning maktablarga kelishi uchun to'siqsiz muhit yaratish, yangi quriladigan maktablarni xuddi shunday sharoitlar bilan qurish, pedagog kadrlar tayyorlash, o'quv bazasini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Keyingi o'quv yilida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish, tayanch korreksion sinf ochish reja qilingan. Ayni paytda ixtisoslashtirilgan maktablarda dars berayotgan o'qituvchilar O'zbekistonda maktablarda hali to'laqonli inklyuziv ta'lim muhiti, kerakli sharoit, o'quv qo'llanmalar, kadrlar bo'lmasdan turib, 5 yilda inklyuziv ta'limga o'tilishi reja qilinayotganidan xavotirda. Ularning aytishicha, ixtisoslashtirilgan maktablarning o'zida nogironligi bor shaxslarning harakatlanishi uchun sharoit yaratilganiga ko'p bo'lmadi, darsliklarda muammolar bor. Bundan tashqari, o'qituvchilarni ham ruhan tayyorlab olish kerak. Maktablarda o'qituvchilar qo'pincha lider o'quvchilar bilan ishlashga o'rgangan. Ular o'qituvchini tez ilg'aydi, tushunadi va yaxshi natijalar ko'rsata oladi. Sog'lom bolalar bilan bir maktabga boradigan imkoniyati cheklangan bolaning esa lider bo'la olish ehtimoli kam, sababi ular eshitishga, ko'rishga va tushunishga boshqalardan ko'ra ko'proq kuch sarflashi kerak bo'ladi. Shu narsalarni o'qituvchilar to'g'ri qabul qila olishi va ular bilan yaxshi munosabatni yo'lga qo'ya olishi zarur. Buning uchun esa avvalo ularning o'zi tayyor bo'lishi kerak. Agar umuman imkoniyati cheklangan bolaga dars o'tmagan o'qituvchining sinfiga shunday bolalar borsa, u dastlab bola tilini tushunmasligi, uning qiyin o'zlashtirishini qabul qila olmasligi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan ham ishlashga o'rgatish lozim».

METODOLOGIYA


Bolaning o'ziga xos shaxsiyatiga murojaat

barcha yoshdagi bolalar bilan ta'lim va ma'rifiy ishlar har bir bosqichida mavjud bo'lishi kerak. Bunday individual yondashuv mohiyati nima bo'ladi? Bu individual ta'lim yondashuv, shuningdek, ta'lim tamoyili pedagogik amaliyotiga markaziy, deb aytish uchun xavfsiz hisoblanadi. Shu bilan birga, u har doim kattalar qo'llab-quvvatlash kerak bo'ladi. Individual ta'lim yondashuv, shuningdek, ta'limni amalga oshirish psixo-jismoniy jihatlarini hisobga olgan holda faoliyat olib borilishi maqsadga muvofiq. Bu jarayonda:

- bilish va o'quvchilarni tushunish;
- o'z bolalaridek sevish;
- tahlil qilish;
- puxta nazariy muvozanatga rioya qilish lozim.

O'qituvchi bola aqliy rivojlanish darajasini tekshirib kerak. Bola tarbiyasi va uning eng yaqin ta'sir zonasi tan ruhiy rivojlantirish bo'lib, o'qituvchi darajasiga asoslangan aqliy ta'limga e'tibor bermog'i darkor.

Asab tizimining turi – bu bolaga individual yondashuvni amalga oshirish hisobga olinishi kerakligining ikkinchi jihati hisoblanadi, zamonaviy tadqiqotchilar fikriga ko'ra, inson asab tizimida xos xususiyatlari bor.



Fikrlash turi - bu turni o'qituvchi, hisobga olish kerak bo'lsa ta'lim uchun individual yondashuvni amalga oshiradi, uchinchi va asosan muhim jihati hisoblanadi. Bolalar, kattalar kabi, turli xil yo'llar bilan o'z vazifalarini hal qiladilar. Bu og'zaki-mantiqiy mavhum fikrlashda o'z ifodasini topadi. Misol uchun, badiiy turdagi aql bilan bolalar faqat hissiy fikrlash yoqilgandan keyin barcha moddiy idrok boshlaydi. Avvaliga, ular tasvirlar va g'oyalar asosida, barcha elementlarini tahlil

qilish va ular o'zlari xulosalarini chiqarishga haraat qilishlarini talab etiladi. Idrok usuli – bu to'rtinchi va shuningdek, bolalarga individual yondashuv bilan hisobga olinadi muhim jihati hisoblanadi. Bolaning xatti-harakati kuzatilib, ta'lim, jismoniy rivojlanish va taraqqiyot bilan moslashish uning darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi, deb ko'rish mumkin. Axborotli idrok vizual eshituv va kinestetik bo'lishi mumkin. Avvaliga, bolaning ta'limini axborot vizual idrok tufayli amalga oshirilishiga e'tibor berilishi lozim. Eshituv turi barcha materiallar muhokamasida eslash bildirmoqda. Ba'zi bolalar faqat o'z faoliyati natijasida ma'lumot sezmagani. Bunday hollarda, dunyoning kinestetik idrok turi haqida gapirish mumkin.

Salomatlik holati- ta'lim va somatik rivojlanishi jismoniy nuqsonlari va kasalliklar bilan bolalarning ta'lim tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Lekin o'qituvchi har doim hisobga bunday qo'rquv va xavotir, fojialari va neuroses sifatida bolalar, psixologik xususiyatlarini olishi kerak. O'quvchilarning ruhiy-jismoniy xususiyatlarini yetarlicha baho bera olmaslik, o'z salomatligi uchun katta zarar.

O'qituvchi bolalarda aqliy buzilishi kabi omillar quyidagilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, deb bilish kerak:

somatik kasalliklar;

jismoniy rivojlanish nuqsonlari;

stress va hayot, ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liq turli salbiy omillar.

Jismoniy ta'lim - shaxsning, aqliy, jismoniy va ma'naviy rivojlanishi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri munosabatlar o'z aksini topadi. Jismoniy ta'lim shaxs xarakterini shakllantirish bo'yicha birinchi ta'sir desak to'g'ri bo'ladi. Jismoniy barkamollik eshitish va his etish organlar rivojlantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, u yaqindan ma'naviy va mehnat ta'lim bilan bog'liq. Bu bola salomatligi va holati bilan bog'liq. Bolalar bilan o'ynagan o'yinlari ularning irodasi, intizomini mustahkamlash yordam beradi shu ulan birga boshqa ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Jismoniy ta'lim estetik tarbiyalash bilan

bog'liq. Har bir mashq tana chiroyli qilish amalga oshirish. Inson harakatlari chaqqon bo'ladi. Holat va yurish - o'ngli ravishda boshqarish ko'nikmalari shakllanadi. Bolalarda jismoniy tarbiya uchun individual yondashuv madaniy va gigiena tabiat ko'nikmalarini uchun toza havoda faol harakati qiziqish uyg'onadi. Insonning temperament turlari va xususiyatlari - temperament turlari biz tug'ilganimizdan beri amalda kuzatilishi mumkin.

Temperament - bu har bir inonning ruhiy tabiati, energiya darajasi, kayfiyat va stimulgiga nisbatan baholanadi



Oxirgi paytda inklyuziv ta'lim tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda, ko'pchilik bu tushunchani nogironligi bor bolalarning sog'lom bolalar bilan bir maktabda, bir sinfda o'qishi, bir partada o'tirishi deb tushunadi xolos. «Aslida, faqat bu emas. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak.





Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qiyotgani haqida maqtanib bo'lmaydi. Bu borada muammolar ko'p. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrda qabul qilingan «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida bu boradagi asosiy muammolar sanalgan:

alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarida zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti;

pedagogika yo'nalishidagi OTMLar o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

pedagogika va metodika fanlariga

oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday vaziyatda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 21,2 mingdan ortiq, sanatoriya turdagi maktab-internatlarda 6,1 mingdan ortiq, uy sharoitida esa 13,3 ming nafar o'quvchi uyda ta'lim oladi. 2020 yil statistikasiga ko'ra, O'zbekistonda 3,2 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

«Bolaning inklyuziv muhitda boshqalardan o'zini kam his qilmasligi, jismoniy imkoniyati cheklanganidan siqilmasligi uchun sharoit yaratish muhim. Stadionda boshqalar bilan yugurayotgan zaif ko'ruvchi bola kimgadir turtilib ketsa, boshqa bolalar uning ustidan kulishlari kerak emas. Agar kimdir masxara qiladigan bo'lsa, bola battar qobig'iga o'ralib oladi. Umumta'lim maktabiga boradigan imkoniyati cheklangan bolalarga o'qituvchi alohida yondashishi kerak bo'ladi. Kichik sinf o'quvchilari nogironligi bor bolalar haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmaydi. Ularning ustidan kulmaslik kerakligini, ular ham boshqalar qatori oddiy odam ekanini, faqat sal kuchsizroq ekanini tushunishmaydi.

Yangi tahrirdan o'tgan «Ta'lim to'g'risidagi» qonunida tarixda birinchi marta inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritilgan edi. Qonunning 20-moddasida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi, deb yozilgan, lekin hanuzgacha bunday tartib ishlab chiqilmagan va psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarning xulosasi ko'pincha majburiy tavsiya sifatida ko'riladi. Misol uchun, ota-ona nogironligi bo'lgan bolasini umumta'lim maktabida o'qitmoqchi yoki maxsus maktab-internatdan o'tkazmoqchi bo'lsa, tibbiy mutaxassislarining xulosasi bunga yo'l qo'ymasligi mumkin.

Ammo bunday tartib Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga zid, chunki barcha bolalar ta'lim turini tanlash huquqiga ega. Shuningdek, biz jamiyatimizning ongini tubdan o'zgartirishimiz kerak, chunki sog'lom bolalarning ota-onalari va umumiy maktab o'qituvchilari aksar hollarda nogironligi bo'lgan bolalar barcha bolalar bilan birga o'qishga rozi bo'lmayapti.

Yana bir muhim masala bu o'qituvchilar tayyorgarligi, mutaxassislar yetishmasligi hamda umumta'lim maktablari binolarida kerakli sharoitlar yaratilmagani bilan bog'liq. Bu muammolar hal etilmasdan turib, nogironligi bo'lgan bolalar sharoitsiz va salbiy munosabatli maktablarga o'tkazilishi ularning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi». Inklyuziv ta'limni tatbiq etishda yangi velosipedni ixtiro qilish shart emas, chunki sovet hududida bizdan ko'proq tajriba va bu sohada muvaffaqiyatlarga erishgan davlatlar bor. Misol uchun, Rossiyaning «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida o'quvchilarga ta'lim muassasasi va ta'lim turini tanlashning akademik huquqi berilishi zarurligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, qonunga asosan, ta'lim muassasasi bolaning psixofizik rivojlanishi va sog'ligidan kelib chiqib, bepul ijtimoiy-pedagogik va psixologik yordam olishi, psixologik-tibbiy-pedagogik maslahatlar olishi uchun sharoit yaratib berishi belgilangan. Rossiyada alohida ehtiyojga ega (diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi yoki DeGS, autizm, disleksiya va boshqa holatli) o'quvchilarni individual qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etilgan. Bu tizimda asosiy rol yuqori malakali pedagog kadrlar, ya'ni tyutorlarda. Tyutorlar zaxiradagi pedagoglar bo'lib o'qishda imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik-pedagogik hamroh sifatida qo'llab-quvvatlaydi va umumiy sinfda doimo nogironligi bo'lgan bola bilan doimiy ishlaydi. 2021-2022 o'quv yilida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning 24 foizini inklyuziv ta'lim bilan qamrab olish rejalashtirilgan. 2025 yilga borib bu ko'rsatkich 40 foizga yetishi nazarda tutilgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston

Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan umumta'lim maktabida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch korreksion sinflari ochilishi belgilangan. Bunday sinflarga diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (DeGS), disleksiya va autizm tashxisi qo'yilgan bolalar qabul qilinadi.

Ta'lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etish bo'yicha pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarining o'quv rejalariga ta'lim-tarbiyaga oid maxsus o'quv mashg'ulotlarini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilgan. Bundan tashqari, umumta'lim maktablari psixologlari tomonidan o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida har qanday zo'ravonlik, tazyiq va kamsitishlarga qarshi treninglar o'tkazilib kelinmoqda. Bolani dinamikada o'rganish tamoyili. U bolalarning mavjud imkoniyatlarinigina emas, balki ularning kelgusida bilimlari va ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan. L.S.Vigotskiyning ta'lim va rivojlanish nisbatlari haqidagi konsepsiyasi shu tamoyilga asoslanadi. Unga ko'ra bola o'zi mustaqil hal qiladigan masalalar bilan belgilanadigan aktual rivojlanish zonasi va bola kattalar yordamida hal qiladigan masalalar belgilab beradigan eng yaqin rivojlanish zonasi farqlanadi. Individual va kollegial tekshirish shakllarini birga qo'shib olib borish tamoyili kam kuch sarflab, eng yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Tekshirishning kollegial shaklida bir mutaxassis ikkinchisining yordamchisi sifatida ish olib borishi va o'z o'rnida sinovdan o'tuvchining xatti-harakatlarini tashkil qilishi, ijobiy emotsional fon yaratishi va, ayniqsa, olingan diagnostika natijalarini tahlil qilishda faol qatnashishi mumkin. Bunda bir xil faktlarga har xil nuqtayi nazar bilan qarash va optim al xulosaga kelish imkoni bo'ladi. Rivojlanish tamoyili - ushbu tamoyilga ko'ra, nuqsonning yuzaga kelish jarayonini (sababini) tahlil qilish bilan birga, aynan shu nuqsonni bolaning rivojlanishiga qanday ta'sir etishini o'rganish nazarda tutiladi.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA SHAXMATNI O'RGATISH ORQALI SHAXSIY SIFATLAR VA MANTIQUIY FIKRLASH DARAJASINI BAHOLASH METODIKASI

XOLIQOV UMIDJON QO'CHQAROVICH

Guliston davlat pedagogika instituti «Pedagogika» kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada yosh avlodga ta'lim tarbiya berishda shaxmat o'yini orqalib oshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxsiy sifat va mantiqiy fikrlashlarini shakllantirish ko'p jihatdan o'yinchining individual xususiyatlariga bog'liq bo'lib, xotira, diqqat va fikrlash kabi ruhiy jarayonlarni dolzarb ilmiy-amaliy masala sifati o'rganilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxmatni o'rganish salohiyatini to'liq baholash uchun beshta yo'nalish bo'yicha shaxmat o'yiniga qobiliyatini baholash metodikasi taklif etiladi: psixologik sifatlar, jismoniy sifatlar, aqliy sifatlar, ijodiy va ma'naviy-axloqiy fazilatlar.

Kalitso'zlar: diqqati, idroki, tafakkuri, xotirasi, shaxmat, shaxsiy sifatlar, mantiqiy fikrlash, shaxmat, shaxmat o'yini.

Аннотация: В статье рассматривается формирование личностных качеств и логического мышления у младших школьников посредством игры в шахматы при воспитании подрастающего поколения, во многом зависящее от индивидуальных особенностей игрока, качество психических процессов, таких как память, внимание и мышление, как актуальный научно-практический вопрос. Для полной оценки потенциала изучения шахмат младшими школьниками предлагается методика оценки способностей к игре в шахматы по 5 направлениям: психологические качества, физические качества, умственные качества, творческие и духовно-нравственные качества. Ключевые слова: внимание, восприятие, мышление, память, шахматы, личностные качества, логическое мышление, шахматы, шахматный дом

Annotation: In the article, the formation of personal qualities and logical thinking of elementary school students through the game of chess in the education of the young generation depends to a large extent on the individual characteristics of the player, and mental processes such as memory, attention and thinking are studied as an actual scientific and practical issue. In order to fully assess the potential of elementary school students to learn chess, a methodology for assessing the ability to play chess in 5 areas is proposed: psychological qualities, physical qualities, mental qualities, creative and spiritual-moral qualities.

Key words: attention, perception, thinking, memory, personal qualities, logical thinking, chess, chess house

O'zbekistonda yorqin shaxmat yulduzlari, jahon chempionlari yetishib chiqayotganligi bejiz emas. Yurtdoshlarimizning dunyo shaxmat olamini tez-tez larzaga solayotganini ham tasodif deb bo'lmaydi. Zotan, Hindiston, Xitoy kabi davlatlar qatorida O'zbekiston ham shaxmat vatani degan sharafli nomga asosli ravishda da'vogarlik qila oladi. Afrosiyobda fil suyagidan yasalgan shaxmat haykalchalarining to'liq to'plamiga duch kelangani, qadimiy Dalvarzintepa hududida Kushon imperiyasi davriga oid ikkita noyob shaxmat haykalchasi topilgani zaminimizda shaxmat o'yini eramizdan oldingi purdardam

mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi.[7]

Ko'plab psixolog va pedagog olimlarning fikriga ko'ra, shaxmat o'quvchining shaxsiy sifatlarini shakllantirishga ham ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina ilg'or mamlakatlarda shaxmat o'yini maktab ta'limining boshlang'ich bosqichiga kiritilgan va o'quvchilarning ijodiy shakllanishi uchun eng faol vositalardan biri sifatida qo'llanilib kelmoqda. Ta'kidlash joizki, o'quvchilarni shaxmat bilan shug'ulanishi ularga boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishda ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida isbotlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida shaxmatni shakllantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3906-son va 2021-yil 14-yanvardagi «Shaxmatni yanada shakllantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4954-son Qarorlarida «... umumiy o'rta ta'lim maktablarida shaxmatga o'qitishni bosqichma-bosqich qamrab olish, yuqori malakali murabbiy kadrlarni tayyorlash, shaxmat klublari va umumiy o'rta ta'lim maktablari shaxmat sinflarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash», «... tegishli 1000 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida 2, 3 va 4-sinf o'quvchilarini «Jismoniy tarbiya» fani doirasida 18 soatlik reja asosida shaxmatga o'qitish yo'lga qo'yiladi hamda ularga metodik yordam» ko'rsatilishi nazarda tutilgan.[1]

Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, shaxmat bilan doimiy shug'ullanayotgan o'quvchilar maktabda, ayniqsa, tabiiy fanlar bo'yicha o'zlashtirishi yuqori bo'ladi, uning kelajakda maktabdagi yutuqlari yaxshi ko'rsatkichlaridan biri bo'lib:

-mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ko'p o'tishli o'yinlar mantiq, xotira va tasavvurni rivojlantiradi. O'yin davomida o'quvchiga qat'iyatlilik, maqsadga intilish, diqqatli bo'lish uqtiriladi;

-mantiqiy qaror qabul qilish shakllanadi. O'yin tushunchasikichik yoshdagi o'quvchida o'z vaqtida qaror qabul qilish va unga to'liq javobgar bo'lish hamda maqsadga qarab diqqatni tez jamlay olish va unga erishish yo'llarini topa olish kabi shaxsiy sifatlarni metodik jihatdan shakllantiradi;

-ular muvaffaqiyatsizliklarga oqilona yondashish shaxsiy sifatlarini shakllantiradi. Bu nafaqat to'g'ri xulosalar bilan xatolar ustida puxta ishlash, balki kelajakda ularni

maqsadga qarab qo'llash kabi shaxsiy sifatlarni ham anglatadi. Bularning barchasi aql-zakovatni va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek, ijodkorlikni kuchaytiradi;

-strategik va tizimli fikrlash chegaralarini kengaytirish. Shaxmat vaziyatni tahlil qilish va xayolda yutuqli mantiqiy zanjirlarni ishlab chiqishni o'rgatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda boshlang'ich ta'limning turli jihatlarini B.Abdullaeva, B.Adizov, G.Akramova, G.Boymurodova, N.Dilova, G.Najmiddinova, X.Nazarova, R.Nurjanova, R.Safarova, N.Tosheva, Z.Xolmatova, G.Hasanova, O.Karxonovava Sh.Toshpulatovalar tomonidan faol qo'llanilgan. Ta'limda shaxmat o'yinlarini tatbiq etishda M.Muxiddinov, A.Mazmudov, M.Xaylaev, R.Qosimjonov, Eson Ali, H.Turdialiyev, B.Xolmirzayev va boshqalarning shaxmat nazariyasi va amaliyotiga oid izdanishlarini ko'rsatib o'tish mumkin. [6]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlari, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatish muammolari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlari V.Averin, N.Belitskaya, V.Belich, V.Bibler, V.Gagay, B.Geydman, E.Gorlova, Dayana Xalperi, N.Dik, A.Zak, M.Kalugin, N.Novotortseva, I.Krotov, G.Levitas, N.Leonova, L.Lixtarnikov, A.Markova, M.Matyuxina, S.Spiridonova, M.Mauerman, G.Tsukerman [4] O.Tarasova. E.Revin, V.Knyazeva, Ya.Gabbazova, G.Nesis, G.Alekseev, G.Kasparov, A.Arrash, A.Kotov, N. Krogus, T. Petrosyan va boshqalar tomonidan o'rganilgan. [12] Shaxmat ta'limi jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini ishlab chiqilgan.

Chet el olimlari E.Fromm, M.Mauerman, A.Maslou, DjeniStil, KertMeredis, CharlzTempl, R.Zuzoueu, RobertFergyuson, FlorianVaulon. A.Bisno, ErnstBensh, UveBensh, Dj. BulA.Inizian, J.Kalmi, S.Frene, P.Kergomar, J.Piaje, S.Bendjamin kabilar tomonidan kichik yoshdagi o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, shaxmat o'qitish jarayonini takomillashtirish zarurati u yoki bu jihatdan o'rganilgan. [9]

Ko'plab mashhur shaxmatchilar shaxmat bilan ilk bor kichik yoshida tanishgan, xususan, X.Kapablanka, A.Karpov, P.Keres, S.Reshevskiy, M.Eyve qadimgi o'yin bilan ilk bor 4 yoshida, N.Gaprindashvili, G.Kasparov 5 yoshida, V.Smislov, B.Spasskiy, R.Fisher 6 yoshida, A.Alyoxin, M.Talesa 7 yoshida o'ynashga kirishgan. [11] Albatta, shaxmat o'yiniga jalb qilingan o'quvchilarning barchasi ham chempion bo'lavermaydi. Ammo shaxmatning barkamol shaxsni shakllantirishga qo'shgan hissasi juda ham katta ekanligini, albatta, ta'kidlash joiz.

Chet el va mahalliy olimlarning tadqiqotlari, shuningdek, shaxmatni o'qitish tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaxmat mashg'ulotlarini boshlash uchun 5-10 yosh oralig'i eng qulay davr hisoblanadi, chunki bu davrdan boshlab o'quvchilarda mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatleri shakllana boshlaydi. Rivojlanishning bu bosqichida shaxmat ideal model hisoblanadi. Boshlang'ich maktab yoshida o'quvchi aql-zakovatini jadal shakllantirish nafaqat inson ruhiyatida, balki umuman hayotida ham katta rol o'ynaydi. Agar shaxmat hammaga o'rgatilsa, shaxmat o'yinini o'ynashni davom etish yoki etmasligidan qat'iy nazar, barcha o'quvchilarga aynan nimani berishini tushunish bilan bog'liq bo'lgan "tarbiyaviy" ko'rsatma yetakchi bo'lib boradi

Eksperimental tarzda shaxmatni faol o'ynayotgan o'quvchilarda intellektual reaksiya tezligi o'yinni o'ynamaydigan

o'quvchilarga nisbatan 40% yuqori ekanligi aniqlandi. Bunda har bir o'quvchining aql xususiyatlari bitta ma'lumot bilan doimiy qotib qolgan bo'lmaydi, balki muayyan ta'lim sharoitida progressiv o'zgarishlarga uchrashini anglatadi. Bunday sharoitni ta'minlashda muhim o'rin shaxmatga tegishli ekanligini uqtirib o'tish mumkin. [3]

Shaxmat o'quvchining har tomonlama rivojlanish vositasi hisoblanadi. Bu umumiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan o'yin xarakteridagi umuminsoniy tarbiyadir. Shaxmat tashqi va ichki nutqning shakllantirishga, kombinator va mantiqiy fikrlash, iroda, hayotiy faollik, tanqidiylik, o'zini o'zi tahlil qilish va o'z-o'zini baholash, mustaqil ta'lim olish qobiliyatiga ta'sir qiladi.

Maktab ta'limining muammoli tomoni doimo bo'lib kelgan va qolaversa, olingan bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatini bermaydi. Shaxmat o'quvchilar uchun amaliy jihatdan rivojlangan va uzviy nazariyaga ega bo'lgan qiziqarli amaliy faoliyat turi hisoblanadi.

Shu sababli ham, barcha o'quvchilarga shaxmatni o'rgatish kerak va mutaxassislarining fikriga ko'ra, buni amalga oshirishning eng qulay vaqti boshlang'ich maktabda yoki hatto maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Shaxmatni yoqtiradigan o'quvchilarga esa o'qishni o'rta maktabda davom ettirish imkoniyati berilishi zarur.

Ko'pincha o'quvchining kelajakda shaxmat grossmeysteri bo'lish ichki salohiyati (iste'dodi) mavjud bo'lishi mumkin. Lekin uning yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra, u hali shaxmatga jalb qilinmaydi. Bunday hollarda uning yashirin iste'dodini hisobga olmasdan, faqat tashqi omillar asosida qaror qabul qilib bo'lmaydi. Afsuski, shaxmat didaktikasida tabiatning "yashirin" iste'dodini ko'rish, shaxmatda o'quvchining rivojlanish ko'rsatgichini aniqlash va baholash imkonini beruvchi

ob'ektiv vositalar yo'q.

M.Muhiddinovning fikricha: "Shaxmat orqali o'quvchining rivojlanish sifati va tezligini oshirish uchun o'quvchining bu o'yinni o'rganishdan oldin shaxmat o'yiniga qobiliyatini bilish muhimdir". [10] U har bir o'quvchining haqiqiy rivojlanish sohasini ko'rishga imkon beradigan psixologik metodlar tizimini ishlab chiqdi. Bu o'quv jarayonida o'quvchining imkoniyatiga qarab yuklaman ianiqlash imkonini beradi. Natijada o'quvchining mantiqiy fikrlash prognozi oshib boradi.

Shaxmat o'ynashda mantiqiy fikrlashni holisona baholash uchun shaxmatchilarga qo'yiladigan talablarni, ya'ni shaxmatchi qanday psixologik, fiziologik, aqliy, ijodiy, axloqiy sifatlarga ega bo'lishi lozimligini bilish kerak. Shunday qilib, shaxmat o'yini uchun o'quvchining salohiyatini har tomonlama baholash asosiy vazifa hisoblanadi. Bunda turli xil diagnostik vositalar va usullardan foydalanish mumkin. Shaxmatni o'rganish va shaxsni shakllantirishni tashxislashning bu usullari butun o'quv materialini qamrab olgan holda rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga shaxmat o'yinida mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarni aniqlash metodikasini ishlab chiqish murakkab bo'lib, u maxsus psixologik-pedagogik diagnostik usullarni talab etadi. Bizningcha, bunday usullar shaxmat o'yinining barcha tarkibiy qismlarini tizimli baholashga imkon beradi. Salohiyatni baholashga har tomonlama yondashish shaxmat olamining eng yaxshi vakillari ega bo'lgan shaxsiy fazilatlarni hisobga olgan holda va ularning yuqori darajadagi muvaffaqiyati uchun shart-sharoitlar nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxmat o'ynash mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarini aniqlash bo'yicha taklif

etilayotgan majmuaviy metodikasi iste'dodli shaxmatchilarga xos bo'lgan psixologik, jismoniy, aqliy, ijodiy va ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'z ichiga qamrab olgan.

Boshqa usullardan farqli ravishda taklif etilayotgan empirik ma'lumotlarga asoslangan murakkab metodika ilmiy va ixtisoslashtirilgan adabiyotlar tahlili, psixologik-pedagogik tajribalar, shaxmat darslarini o'qitish tajribasi hamda dunyoning yetakchi shaxmatchilarining tajribalari asosida ishlab chiqiladi. Tadqiqot jarayonida iste'dodli shaxmatchi uchun belgilangan talablarni beshta blok guruhga ajratdik: psixologik, jismoniy, intellektual, ijodiy va ma'naviy-axloqiy. Tabiiyki, ularning barchasi o'zaro bog'liq. Ushbu guruhlash shartli bo'lib, o'quvchi shaxmat yo'lining boshida kerakli rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu farqlanish ana shu sifatlarning qaysi biri tug'ma deb hisoblanishini hayot davomida shakllantirish mumkinligi hamda ularning qaysi biri faqat shaxmat o'yiniga taalluqli ekanligini aniqlashdan iborat.

Shaxmatchi shaxsiyatiga qo'yiladigan talablar :

Psixologik-xotira, diqqat, refleksiya, konsentratsiya, o'z-o'zini anglash, stressga qarshilik, vazminlik, o'ziga ishonch, qunt bilan ishlash, mobillik, hissiyotlarni nazorat qilish, diqqatini ko'chira olish va boshqalar.

Intellektual-umumilmiy bilimlar, shaxmat nazariyasi, asosiy ajratib olish ko'nikmasi, ma'lumotni tahlil qilishi, raqibning psixologiyasini o'rganish ko'nikmasi, tafakkur faolligi va boshqalar.

Kreativ-muammoni ko'ra olish, tafakkurning tizimliliigi, mantiqiyligi, tashabbuskorlik, tafakkurining divergentligi va boshqalar.

Jismoniy-iroda sifatlari, mehnatkashligi, o'zini o'zi tashkil qila olish, intizom, jangchiga xos sifatlari, o'zini o'zi nazorat

qila olish, charchog'ini nazorat qilishi va boshqalar.

Axloqiy-motivatsiya, muloqot madaniyati, axloqiy qadriyatlar yordam ko'rsatishga tayyor ekanligi, etik me'yorlar va boshqalar. [3]

Belgilangan talablar va ularning tarkibiy qismlari asosida o'quvchining shaxsiy sifatlari mosligini aniqlash uchun diagnostik vositalardan foydalanish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida qayd etilganidek, shaxmatni o'rganish mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarni shakllantirishni har tomonlama

baholash o'quvchi shaxsining psixologik, aqliy, ijodiy, jismoniy, ma'naviy va axloqiy sifatlarini aniqlashdan iborat. Quyida sinaluvchi shaxs xususiyatlari va tashxis vositalari hamda rivojlanish darajasi ko'rsatilgan jadval keltirilgan. Tavsiya etilgan vositalar (testlar, shaxmat o'yini, masalalar yechish) asosida sonli ko'rsatkichlar aniqlanadi va jadvalga kiritiladi. 2-4 sinf o'quvchilarida mantiqiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirish, takomillashtirib o'qitish samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari (foizda) (tajriba sinfi-960 nafar, nazorat sinfi-790 nafar o'quvchi)

№	Me'zonlar	Sinflar	O'zlashtirish darajalari					
			Tajriba boshida			Tajriba yakunida		
			yuqori	o'rta	past	yuqori	o'rta	past
1	Mantiqiy xotira	Tajriba	260	300	400	480	320	160
		Nazorat	230	245	315	195	275	320
2	Diqqatni jamlash	Tajriba	285	315	360	460	325	175
		Nazorat	145	270	375	285	270	235
3	Obraz tafakkur darajasi	Tajriba	295	290	375	470	325	165
		Nazorat	160	275	355	190	270	330
4	Intelektual bilish darajasi	Tajriba	260	345	355	475	330	155
		Nazorat	200	265	325	275	260	255
5	Kreativ fikrlash	Tajriba	310	335	315	575	230	155
		Nazorat	240	230	320	200	350	240
6	Qunt- matonat	Tajriba	300	255	405	490	300	170
		Nazorat	220	210	360	290	150	350
7	Qat'iyatlilik	Tajriba	245	220	495	495	305	160
		Nazorat	290	365	135	190	250	350
8	Bardoshlilik	Tajriba	310	290	360	465	325	170
		Nazorat	165	285	340	280	290	220
9	O'zini o'zi tahlil qilish	Tajriba	225	355	380	480	345	135
		Nazorat	160	275	355	175	285	330
10	Sabr-toqatlilik	Tajriba	210	295	455	510	295	155
		Nazorat	290	180	320	220	300	270
Jami:		Tajriba	2700	3000	3900	4900	3100	1600
		Nazorat	2100	2600	3200	2300	2700	2900
O'rtachasi:		Tajriba	270	300	390	490	310	160
		Nazorat	210	260	320	230	270	290

2-4 sinf o'quvchilarida mantiqiy aniqlash yuzasidan tajribadan oldingi va shaxsiy sifatlarini shakllantirishni o'zlashtirish natijalari: takomillashtirib o'qitish samaradorligini

Sinflar	2-4 sinf o'quvchilari soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba sinfi	960	270	300	390
Nazorat sinfi	790	210	260	320

Tajriba sinfidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va 2-4 sinf o'quvchilari sonini mos ravishda X_i lar va shu kabi nazorat sinfidagini esa $Y_{j m_j}$ lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion

qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 3 ball bilan, o'rta ko'rsatkichni esa 2 ball bilan va past ko'rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz


Tajriba sinfidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 3; 2; 1; \\ n_i & 270; 300; 390 \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^3 n_i = 960$$

Nazorat sinfidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_j & 3; 2; 1; \\ m_j & 210; 260; 320; \end{cases} \quad m = \sum_{j=1}^3 m_j = 790$$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko'rinishni oladi:



1-rasm. Tajriba boshida.

2-4 sinf o'quvchilarida mantiqiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirishni takomillashtirib o'qitish samaradorligini aniqlash yuzasidan tajribadan keyingi o'zlashtirish natijalar:

Sinflar	2-4 sinf o'quvchilar soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba sinfi	960	490	310	160
Nazorat sinfi	790	230	270	290

Tajriba sinfidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va 2-4 sinf o'quvchilari soni bo'yicha mos ravishda yuqoridagi kabi belgilashlar kiritamiz.


Tajriba sinfidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 3; 2; 1; \\ n_i & 490; 310; 160; \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^3 n_i = 960$$

Nazorat sinfidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_j & 3; 2; 1; \\ m_j & 230; 270; 290; \end{cases} \quad m = \sum_{j=1}^3 m_j = 790$$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko'rinish oladi:



2-rasm. Tajriba yakunida.

Yuqoridagi natijalarga asosanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatgichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum \bar{X} q2,34; \bar{Y} q1,94 $\Delta_x = 0,05$; $\Delta_y = 0,1$ gateng.

Bundan sifat ko'rsatgichlari:

$$K_{yso} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,34 - 0,05}{1,92 + 0,1} = \frac{2,29}{1,93} = 1,18 > 1;$$

$$K_{soo} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,34 - 0,05) - (1,92 - 0,1) = 2,29 - 1,91 = 0,38 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash me'zoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash me'zoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba sinfidagi o'zlashtirish nazorat sinfidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Demak, 2-4 sinf o'quvchilarida mantiqiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirishni o'qitish samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'quvchilarni shaxmat o'ynashga o'rgatish jarayoni ularda mantiqiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirishga ko'p jihatdan yordam beradi. Bu shaxmat o'ynovchi o'quvchining individual xususiyatlariga bog'liq bo'lib, bunda uning xotira, diqqat va fikrlash kabi ruhiy jarayonlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Shaxmat o'yini maktab o'quvchilarining

ko'rgazmali va obrazli tafakkurini rivojlantiradi, mantiqiy tafakkurning paydo bo'lishiga ko'maklashadi, qat'iyatli, diqqatli bo'lishni, fikrlashni va maqsadga intilishni o'stiradi. Bu o'yinni o'rgangan o'quvchi o'z-o'zini tanqid qiladi, mantiqiy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga, oxirigacha kurashishga, muvaffaqiyatsizliklardan tushkunlikka tushmaslikka odatlanadi.

Shaxmat faoliyati orqali o'quv jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarni shakllantirish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni ilgari surami:

1. O'quvchilarni mantiqiy fikrlash va izchil to'g'ri tartiblarga o'rgatish: taqqoslash, analiz, sintez, umumlashtirish, tasniflash, o'xshatishlarni qiyoslash.

2. O'quvchilarning mantiqiy ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirish.

3. O'quvchilarni o'z-o'zini mantiqiy xatolarini aniqlash va tanqidiy munosabatga

o'rgatish.

4. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasini diagnostika qilish.

5. O'quvchilar faoliyatini ularning mantiqiy tafakkurini shakllantirishni motivatsiyaviy o'rganish.

6. Shaxmatni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan mantiqiy vazifalar tizimini o'qituvchi tomonidan ishlab chiqish.

7. Shaxmat faoliyatini tashkil etish strukturasi mantiqiy tafakkurni shakllantirish vazifalariga optimal mosligini hisobga olgan holda dars materialini izchil tuzish.

8. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarini shakllantirish darajasini boshqarish va korrektsiyalash lozim bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada shakllantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4954-son qarori.
2. Анишева В.Е. Методические особенности индивидуализированного начального обучения шахматам детей младшего школьного возраста. Дисс. канд. пед. наук. РГАФК. - М., 2002. - 163 с.
3. Вершинин М. А. Теория проектирования системы формирования логического мышления шахматистов: дис.доктора педагогических наук, Волгогр. гос. акад. физ. культуры. – Волгоград, 2005. -506 с.
4. Габбазова А.Я. Интеллектуальное развитие детей младшего возраста в процессе обучения шахматной игре : Дисс.канд. псих. наук. 19.00.07: М., 2005 151 с. РГБ ОД, 61:05-19/671.
5. РаҳматовМ, Шукуров А , ЗариповБ «Тафаккурнинг 64 нуқтаси» рисола
Т : 2022 5-126
6. Зак А. Путешествие в Сообразилю или как помочь ребенку стать мысленным. НПО «Перспектива», - М., 1993.
7. Князева В. В. Структура и содержание учебного предмета шахматы в системе общеобразовательной школы России. - Дисс. на соиск. д.п.н., М.: 2000. -410 с.
8. У Холиқов Бoshlang'ich sinf o'quvchilarga shaxmat o'rgatish orqali mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarini baholashning innovatsion usullari . O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali 1 (2), 28-37
9. UK Khalikov PEDAGOGICAL VALUE OF DEVELOPING PLAYING CHESS AMONG PRIMARY SCHOOLCHILDREN Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), 17-23
10. Maxmudov X., Toshev A., Toshev M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning shaxmat o'yiniga qobiliyatlarini baholashning innovatsion usullari. Metodika qo'llanma.-T.: 2022.38b
11. Тарасова О. В. Педагогические условия формирования логической культуры младших школьников средствами шахматной деятельности: Дис. канд. пед. наук.- Казань, 2005. — 209 с.
12. Холиқов У "Shaxmat o'rgatish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida" OAK psixologiya ilmiy jurnal 2022-yil yanvar oyi 1-2 227b

TALABALARNGA RANGTASVIRDAN O'QUV MASHQ - VAZIFALARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

BAYMETOV BOTIR BOLTABAYEVICH

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori

UMATALIYEV MUXTORJON ABDURAXIMOVICH

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqola talabalarga rangtasvir mashg'ulotlarini o'tishda ranglar haqidagi ma'lumotlar, uning qisqa rivojlanish tarixi, talabalarga rangtasvirdan o'quv postanovkalarini ishlashga o'rgatishda rangshunoslik asoslari haqida boradi. Amaliy mashq sifatida natyurmortning bosqichli rangtasvir namunasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: rangtasvir, rangshunoslik, kompozitsiya, axromatik va xromatik ranglar, rang gammasi.

Annotatsiya. Статья посвящена актуальной проблеме изобразительного искусства методике его преподавания студентам о цветах и цветовых отношениях занятиях живописью, об его истории ее, и краткого развития, основах цветоведения при обучении студентов работе с учебными постановками по живописи. В качестве практического упражнения представлен поэтапный рисунок натюрморта.

Ключевые слова: живопись, колорит, композиция, ароматические и хроматические цвета, цветовая гамма.

Annotation. The article is devoted to the actual problem of fine art and the methodology of teaching it to students about colors and color relationships in painting, about its history, and a brief development, the basics of color science when teaching students to work with educational productions in painting. As a practical exercise, a step-by-step drawing of a still life is presented.

Key words: painting, coloring, composition, aromatic and chromatic colors, colors.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida tasviriy san'atdan malakali mutaxassislarni tayyorlash maxsus yo'nalishlari, bo'limlari yoki sinflari mavjud. Tabiiyki, mazkur yo'nalishlarning o'quv rejalarida tasviriy san'atning grafika, kompozitsiya va rangtasvir fanlari joy olgan. Quyida ushbu fanlarda tasviriy san'atning asosiy bo'g'ini bo'lgan rangtasvir mashg'ulotlari, uning nazariy qonunlari haqida so'z boradi.

Rang va yorug'liklarni o'zaro aloqadorligi, ularning tabiati haqidagi dastlabki nazariy asarlarni antik Yunonistonda uchramiz. Tabiat qonuniyatlari aniq o'rganilmagan bir davrda rang tushunchalari Yunon faylasuflarining dunyoviy tushunchalarida umumiy tarzda aks etgan edi. Qadimgi olimlar rang ta'limotida yorug'lik va qorongilikni, oq va

qorani qarama-qarshi qo'yib, ular o'rtasida hamma ranglar mavjudligini payqaganlar. Ammo bu xodisalarning sabablarini ular aniq ayta olmaganlar. Lekin Aristotel ko'z va jism oralig'idagi "shaffof" muhitning ahamiyatligi, haqida gapirgan edi.

Demokrit jismlar va ularning obrazlarini ko'zlarda shakllantiruvchi atomlar mavjudligi haqida uqdirib o'tgan. Evklid esa, ko'zlardan "Ko'rish nurlari" tarqalib tashqi dunyo jismlarni qamrab olib, obrazni aks etdiradi deb tushuntirgan edi.

Buyuk nemis shoiri, gumanist va olim IogannVolfgangGyote(1749-1832yy.)"Rang haqida ta'limot" asarini yaratdi. Rangni odam organizmiga ta'siri oqibatida sodir bo'ladigan ruxiy (emotsional) o'zgarishlar, har bir rangni o'ziga xos ruxiy holat qo'zg'ovchi kuchga egaligi asarda alohida o'ringa ega. Gyote – "rang yorug'lik maxsuli, emotsiya

qo'zg'ovchi maxsul, nur-rang-emotsiya bir zanjirning bo'laklari" degan edi. Gyote ranglar haqidagi ta'limotini aniq sistema tarzida izohlab berdi. Ammo Gyote ta'limoti Nyutonning fizikaviy qonuniyatlarga asoslanib, ko'plab tajriba va izlanishlar orqali yaratgan kashfiyotiga nisbatan ancha primitiv, ilmiy jihatdan asoslanmagan tarzda edi. Shunga qaramasdan, Gyotening rang haqidagi g'oyalari rassomlar uchun ma'lum miqdorda tayanch ta'limotlardan biri sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Nyuton birinchi marotiba optik prizma orqali hosil bo'lgan rang yo'laklarini yaratdi va uni ilmiy tarzda tushuntirib berdi. U rang haqidagi noilmiy tushunchalarga chek qo'yib uning ilmiy poydevorini yaratdi. Nyuton quyoshning oppoq yorug'ligi har xil sinuvchanlik kuchiga ega nurlar yig'indisidan iborat deb hisoblab, har bir yorug'lik nuri o'ziga xos rang chaqiruvchi xususiyatga ega deb ta'kidladi. U shisha prizmalar orqali yuborilgan yorug'lik rangli nurlarga ajratilganligi, agar o'sha rangli nurlarni yig'uvchi linzalar orqali o'tkazilsa, yana oq yorug'likka aylanishini, paydo bo'lgan oq yorug'likni, prizma linzadan o'tkazilsa, u holda rangli nurlar paydo bo'lmasligini, umuman yorug'likdan ranglar ajralib chaqmasligini aniqladi. Nyuton spektr ranglarini yetti bo'lakka bo'lib, uni doira shaklida joylashtirdi. Ranglarni belgilash uchun uning qo'llagan terminologiyasi juda aniq edi. Ya'ni qizil yoki yashil nurlar haqida emas balki yashil va qizil qizil rang sezgisi uyg'otuvchi yorug'lik nurlari haqida gapirgan edi. Shunday qilib Nyutonning bunday ixtirosi bizni ranglarning fizik tabiati haqida aniq tasavvurga ega qildi. Spektrning nurlari qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havorang, ko'k, binafshalardan iborat bo'lib, ularni spektr ranglari deb ataymiz. Tabiatdagi ranglar o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga: axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli)

xillarga bo'linadi. Axromatik ranglarga oq, kulrang va qora ranglar kiradi. Boshqa ranglar esa xromatik ranglarni tashkil qiladi. Ular o'zaro aralashtirilganda esa yana bir qancha tUSDagi ranglarni hosil qiladi. Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinmaganligi deganda kul rangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushunish kerak.

Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori, ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagi esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishga sabab qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatsa, havo rang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo'shib murakkab rang hosil bo'ladi. Qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tUSDagi pushti, to'q qizil, sapsar ranglarni hosil qiladi. Qo'shilganda oq rang beradigan spektrli ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki, ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havo rang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi. Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va havo rang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va havo rang bo'yoqlari qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo'shilishi natijasida oq rang hosil bo'ladi. Biroq sariq va havo rang bo'yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil bo'ladi.

Rang haqidagi qarashlar qadim - qadim zamonlardan buyon o'z rivojiga ega bo'lib kelgan. Ammo rang ta'limoti dastlab tabiat hodisalariga nisbatan aniq nazariy yondashilmagan holda qaralgan.

Keyingi xilma-xil fanlarning rivojlanishi jarayonida rang tushunchasi va uni ilmiy asoslanishiga talabning ortishi aniq nazariy tizimni yaratilishiga olib kelgan. Rang haqida ta'limotlar bilan tanishar ekansiz, uning tarixiy rivoji rang muammolarini, avvalambor insonning fiziologik xususiyatlarining yorug'lik va ranglar majmuasi bilan naqadar bog'liqligini, shuningdek insonning emotsional kayfiyatini o'zgarishida rang, nur hodisalari muhim rol o'ynashini ko'rish mumkin.

Rang muammolari bilan o'z vaqtida falsafa fani, keyinchalik - tabiiy va texnik fanlar shug'ullana boshladi. Ammo rang haqida gapirganda bizga ma'lumki, antik davrlardayok ranglarning o'zaro munosabatlari va'ni ularning uyg'unlashuvi

haqida juda nozik didga ega bo'lganlar. Jumladan, qadimgi Misr, Yunoniston, Rimning devoriy suratlari, har xil sopol idishlar, uy jihozlari qoldiqlari va hokazolar bundan dalolat beradi. Biz ularning kiyim kechaklaridagi rangli bezaklari, kosmetika sohasida rang tanlov ishlarida yuksak darajada rivojlanganligini ko'ramiz.

O'rta Osiyo devoriy suratlar qoldiqlari, haykallar, uy-ro'zg'or, sopol buyumlari, naqqoshlik san'atining xilma-xil namunalariga qaraganda bizning o'lkamizda ham ajdodlarimiz rang sohasida nihoyatda yuqori saviyaga ega bo'lganlar.

Umuman olganda, rangni tanlash borliq va kishilarning ijtimoiy hayotidagi ishtiroki juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun rang haqidagi ta'limot o'z doirasi jihatidan falsafiy, estetik, tabiiy - ilmiy muammolarni o'z ichiga oladi. Bu sohalarining har biri o'z muammolari, o'z kuzatish yo'li, terminologiyasiga, o'z tadqiqiy usuliga egaligi rangshunoslik



masalalarini o'rganishni murakkablashtiradi.

Yuqoridagi rangshunoslik asoslariga misol tariqasida milliy uslubda bajarilgan natyurmort postanovkasining bosqichli namunasini ko'rib chiqamiz. Akvarel bo'yog'ida dastlabki mashqlarni bajarish uchun postanovka postanovkani ishlashda talabalarning malakaviy tayyorgarligidan kelib chiqib, 3-5-tadan-12-15 va undan ortiq ham buyumlardan tashkil etilgan bo'lishi, rang va tus munosabatlari bir-biridan farq qilgan shakli bo'yicha uncha murakkab bo'lmagan buyumlar bo'lishi kerak. 1 rasm.

Sodda tarzda tuzilgan postanovkalarni astoydil ishlab ijobiy natijalarga erishmasdan turib, murakkab natura postanovkalarini bajarishga o'tish noto'g'ri. Akvarel bo'yog'ida mashqlarni muntazam ravishda bajarish va ularni asta-sekin murakkablashtirib borish maqsadga muvofiq. Ijodiy natyurmort tuzish uchun hayotiy voqealarga tayanish kerak. Bunday holda chiroyli va qiziqarli kompozitsiya tuzishda narsalar guruhini kundalik turmushda qo'llaniladigan narsa va buyumlardan olish maqsadga muvofiq. Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmliligi, materiallik va rangdorlik sifatlarini natura postanovkasidek aniq tasvirlash hamda postanovkani yaxlit tusda yakunlash maqsadga muvofiqdir.

Uzoq vaqtga mo'ljallangan har qanday vazifa oldidan dastlabki qisqa muddatli etyudlarni bajarish muhimdir. Shu tariqa bajarilgan ranglavhalar tasvirlanayotgan naturani katta hajmga ega bo'lgan matoda yoki qog'ozdagi kompozitsiyasini to'g'ri topishga ko'maklashadi va ishlash jarayonida naturadagi dastlabki taassurotlarni aniq yetkazishda va uning rang munosabatlariga xos xususiyatlarni aniq ko'rsatishda namuna bo'ladi.

O'quv natyurmort postanovkasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioya

qilish kerak. Har bir o'quv natyurmortning mazmunirangtasvirdasturidako'rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo'lishi kerak. Talabalar natura postanovkasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O'quv vazifalardan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak:

buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo'lishi;

shakllar mazmun jihatdan ma'noli va ta'sirchan bo'lishi;

postanovkada ma'lum bir g'oyani ilgari surishi kerak.

O'quv natyurmorti ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi, o'quv vazifa muvaffaqiyatli yechim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va shunday yoritiladiki, postanovka natijali yakunlanadi. O'quv natyurmortida bir oz bo'lsada shartli olinishiga imkon yaratiladi.

Natyurmort kompozitssiyasi ustida odatda narsalardan natura postanovkasini tuzmasdan ilgari fikrlar yurgiziladi. O'quv yoki ijodiy vazifalar asosida rassom ongida bo'lajak natura postanovkasining xomaki obrazi haqida tasavvur hosil bo'ladi. Masalan, N.Mashkov, «Nonlar» natyurmortini tasvirlash uchun navvoyga non mahsulotlarini tayyorlab berishga buyurtma bergan.

Natyurmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan, konstruksiyasi murakkab narsalarni ishlatmagan ma'qul. Murakkab buyumlarga burmali gazlamani kiritish mumkin. natyurmort postanovkasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rang-barang bo'lishi postanovkadagi rang munosabatlar mohiyatini tushunishga qiyinchilik

Natyurmort postanovkasini ufq chizig'iga nisbatan pastda joylashgani ma'qul chunki buyum va narsalarning ostki qismi

(ularning asosi) stol ustida aniq ko'rinib turishi kerak. Agar narsalarning asosi bir chiziq bo'yicha qo'yilsa, stol yuzining gorizontaal tekisligi ko'rinmay qoladi, bu esa natyurmortni fazoviy yechimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natyurmort tuzish vaqtida narsalarni balandligi, ularning surat tekisligida joylashuvi, rang bilan shaklini ham hisobga olish kerak. Narsalar guruhi bir tomonga yig'ilib qolishi noto'g'ri. Yirik buyumlar qisman bo'lsada boshqa buyumlarni biroz to'sib turgan bo'lishi mumkin. Postanovkadagi shakllar shunday joylashishi kerakki, ularni bir qarashda har-birini yaqqol ko'rish mumkin bo'lsin. Natura postanovkasidagi narsalarning ranglari ma'lum darajada bir-biriga yaqin va monand bo'lishi kerak.

O'quv postanovkalarda fon muhim ahamiyatga ega. U turli rang va och to'qligi bo'yicha, barobar kontrast kuchi bilan narsalarni idrok etishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Narsalarning yarimsoya va soyali tomonlari och fonda sezilarli ko'rinib turadi. Qoramtir fonda narsalar o'zining yorug'lik sifatlarini ko'proq namoyish etaoladi. Fonning tusi och va to'q narsalar orasida o'rtacha bo'lishi, rang jihatdan silliq va ko'zga yaqqol ko'rinmasligi naturaning muvaffaqiyatli tasvirlanishiga yordam beradi. Masalan, to'q qizil narsalarda fon neytral qizil tanlanadi, agarda narsalar to'yingan och yashil bo'lsa, fon kam to'yingan to'q yashil bo'lgani ma'qul. Iloji boricha, natyurmortning foni bilan tagligi (stolning gorizontaal tekisligi) tabiiy bo'lishi kerak. Xonaning devori, interer kengligi, yog'och uyning tashqi devorlari yoki uzoqdagi manzara kengligi ham fon o'rnida qo'llanilishi mumkin. Nima bo'lganda ham u postanovkada hayotiy haqiqatni aks ettira olishi kerak. O'quv natyurmortining kompozitsiyasi turlicha yechimga egadir.

Agar talaba postanovkadagi jismlarning

ranglarini va yorug'-soyalarini aniq ko'ra bilsa, demak u ranglavhani to'g'ri va mohirlik bilan bajara oladi degani emas. U bemalol alohida jismlarning yorug'-soyalarini, xajmlarini ham yuzaki ko'r-ko'rona ko'chirib tasvirlashi mumkin, ammo aks ettirishda eng muhim sifatlarni, ya'ni materiallikni, fazo va yoritilish holati kabilarni mukammal ko'rsata olmaydi. Xaqqoniy rangtasvirning sir - asrorlarini chuqur egallash uchun badiiy ta'limning boshidanoq uning asosiy ikkita xususiyatidagi maqsad va ma'nosini tushunib yetish zarurdir.

Faqat shundagina yosh rassom ta'lim yo'liga to'g'ri tusha oladi, uning har-bir yaratgan yangi mashq ishi rangtasvir sifatlari bo'yicha mukammallikka erishadi. Rassomning xususiyati shundan iboratki, naturadan rangtasvirni savodli tasvirlash, uning xajmdorlik, fazoviy va materiallik sifatlarini ko'rsatish, tabiatdagi rang munosabatlarini ko'rib idrok qilish orqali palitradagi chegaralangan bo'yoqlarga mutanosiblikda o'tkazish metodiga asoslanib tasvirlaydi. Ranglavhadagi rang munosabatlari mazmuni rassom nigoxi bilan qabul qilingan munosabatlar mohiyatidan kelib chiqadi. Biroq, ranglavhadagi rang munosabatlari qurilishi yoritilishning umumiy tusi va rangli holatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi (kuchga va yoritilishning spektr tarkibiga bog'liq holda yoritilish rangiga bo'ysunadi).

Xulosa o'rnida shularni keltirish mumkinki, shakllar orasidagi munosabatlar bilan ishlash metodi, rangshunoslik asoslari - rangtasvir savodxonligining asosiy qonunidir. Rassom - shunday insonki, u nafaqat nisbatlarni kuchli his etish qobiliyatiga, balki rang munosabatlarini ham sezishga qodir. Quyidagilar muhimki, natura postanovkasidagi narsalarning rang munosabatlarini idrok etish yaxlit taqqoslash bilan aniqlanadi. Aynan shu

ОТМДА ЗАМОНАВИЙ МОБИЛ МУТАХАССИС ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

ЭШНАЕВ НОРТОЖИ ЖУМАЕВИЧ
ЧДПУ ПСИХОЛГИЯ КАФЕДРАСИ ДОЦЕНТИ

Аннотация: Ушбу мақолада юқори даражада касбий малакага эга бўлган замонавий мобил мутахассис тайёрлаш билан боғлиқ ижтимоий-иқтисодий, педагогик-психологик омиллар контекстида ёндашиш, мобил ва профессионал мутахассис тайёрлаш инструментал омиллар ҳамда педагогик таълим инновацион кластерининг мобиллик асослари хусусида сўз юритилган.

Калит сўзлар: таълим, касбий малака, замонавий мобил мутахассис, ижтимоий педагогик-психологик, профессионал мутахассис, инструментал омиллар, педагогик таълим инновацион кластери, замонавий ёндашув, миллий ва умуминсоний қадрият, узлуксиз таълим, мотивацион йўналтириш.

Аннотация: В данной статье рассматривается подход в разрезе социально-экономических, педагогических и психологических факторов, связанных с современной мобильной подготовкой специалиста высокой профессиональной квалификации, инструментальные факторы мобильной и профессиональной подготовки и основы мобильности инновационного кластера педагогического образования.

Ключевые слова: образование, профессиональная квалификация, современный мобильный специалист, социально-педагогико-психологический, профессиональный специалист, инструментальные факторы, инновационный кластер педагогического образования, современный подход, национально-общечеловеческая ценность, непрерывное образование, мотивационная направленность.

Abstract: This article discusses the approach in the context of socio-economic, pedagogical and psychological factors associated with modern mobile training of a highly professional specialist, instrumental factors of mobile and vocational training and the basis of the mobility of an innovative cluster of teacher education.

Key words: education, professional qualification, modern mobile specialist, socio-pedagogical-psychological, professional specialist, instrumental factors, innovative cluster of teacher education, modern approach, national and universal value, continuous education, motivational orientation.

Бугунги кунда ҳар бир шахсининг маданий ривожланиши ва маънавий юксалиш концепциясини амалга оширилиши олий таълим тизими олдида янги мақсад, замонавий ёндашув ва аниқ йўналишларни белгилаб олишни тақозо этади. XXI аср таълимнинг мазмуни ва аҳамияти ўз мукамаллигига эга бўлиб, талаба шахсини шакллантириш, индивидуал ривожлантириш, миллий ва умуминсоний қадриятлар негизида камол топтириш, ҳамда креатив қобилиятларини шакллантириш орқали мобил хусусиятларни қарор топтиришдир. Бу жараён юқори даражада касбий малакага эга бўлган замонавий мобил мутахассис

тайёрлаш билан боғлиқ таълимнинг ривожланиш тенденцияларини таҳлил қилиш орқали, унинг ижобий ва салбий динамикасини аниқлашга имкон берди.

Методология

Бунда биринчи навбатда қуйидагиларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ:

- юқори даражада касбий малакага эга бўлган замонавий мобил мутахассис тайёрлаш билан боғлиқ амалий ва фундаментал билимларга зарар етказадиган таълим жараёни диагностикасини амалга ошириш;

- юқори даражада касбий малакага эга бўлган замонавий мобил мутахассис тайёрлаш билан боғлиқ ижтимоий-иқтисодий



контекст билан боғлиқ ва боғлиқ бўлмаган ёндашувларни прагматик таҳлил этиш;

- юқори даражада касбий малакага эга бўлган замонавий мобил мутахассис тайёрлаш билан боғлиқ мақсадларга тезда эришишга хизмат қилувчи профессионал ва инструментал омилларни амалиётга жорий этиш;

- юқори даражада касбий малакага эга бўлган замонавий мобил мутахассис тайёрлаш билан боғлиқ таълим мазмунини белгилаш ҳамда шахс ривожланишига хизмат қилувчи омилларни мувофиқлаштириш.

Ушбу илмий ёндашув доирасида юқори даражада касбий малакага эга бўлган замонавий мобил мутахассиснинг умуммаданий ривожланиш тизими маълум бир моделга мувофиқлашган бўлиб, у қуйидагилар билан асосланиши мақсадга мувофиқ:

- касбий маданиятни ижодий муаммосини аниқлаш ва уни услубий ривожлантириш омилларига эътибор қаратиш;

- миллий ва умуминсоний қадриятларга эътибор қаратиш ҳамда маънавий салоҳиятни мунтазам ошириб бориш жараёнининг узлуксизлигини таъминлаш;

- замонавий мобил мутахассис шахсни шаклланишига хизмат қилувчи ижтимоий координаталари тизимини мувофиқлаштириш;

- замонавий мобил мутахассис ижодий салоҳиятини ривожланишига хизмат қилувчи таълим технологияларини амалиётга жорий этиш;

- ўзини ўзи камол топтириш ва касбий юксалиш ҳамда мустақил фаолиятни ташкиллаштириш билан боғлиқ конструктив фаолият турига мотивацион йўналтириш

ва бошқалар.

Юқори даражада касбий малакага эга бўлган замонавий мобил мутахассиснинг умуммаданий ривожланиш тизимини моделининг яхлитлиги, унинг таркибига бўлажак мутахассисни касбий шаклланиши ва ижодий ривожланишининг маданий-маърифий маконини ташкил этувчи касбий таълим мазмуни, мутахассис шахсига қўйиладиган талаблар, таълим муассасининг ижтимоий муҳити, қўшимча таълим тизими, индивидуал таълимга бўлган қобилият, бўш вақтдан самарали фойдаланиш малакаси каби таркибий қисмларни мувофиқлаштириш орқали таъминланади.

Таҳлил ва тадқиқотлар

Юқори даражада касбий малакага эга бўлган замонавий мобил мутахассис шахсини ривожлантириш моделини амалга оширишда қуйидаги ташкилий-педагогик шартларга ҳамда педагогик таълим инновацион кластерининг мобилилик асосларига мувофиқ ташкил этилиши ижтимоий аҳамиятга эга бўлиб, юқори самарадорликни беради.

Биз томонимиздан тавсия этилган ОТМда замонавий мобил мутахассис тайёрлашнинг ижтимоий педагогик ва психологик таълим инновацион кластерининг модели юқори даражада касбий малакага эга бўлган замонавий мобил мутахассис шахсини ривожлантиришда бугунги кун замон талаблари нуқтаи назари асосида шакллантирилган.

Уни амалга ошириш қуйидагилар билан шартланиши мақсадга мувофиқ:

-биринчидан, замонавий мобил мутахассиснинг умуммаданий ва касбий ривожланиш жараёнини яхлитлиги ва узлуксизлигини таъминловчи асосий ва қўшимча таълим тизимлари фаолиятини таълим инновацион кластери билан мувофиқлаштиришни изчиллигини таъминлаш;

-иккинчидан, педагогик таълим инновацион кластери билан қўшимча таълим

тизимини ягона ташкилий тузилма сифатида ривожлантириш омилларига эътибор қаратиши ва такомиллаштиришнинг объектив зарурат эканлигини илмий-амалий жиҳатдан асослаш;

-учинчидан, замонавий мобил мутахассисларнинг тизимли малакасини ошириш, қайта тайёрлаш, таълим мазмуни доирасида инновацион характеридаги дастурлар ва лойиҳаларни ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга реализация этиш.

Т.Н.Панкова нуқтаи назарича педагогик таълим инновацион кластерининг мобиллик асослари таълим тизими ва фаолият мақсадлари бирлиги ҳамда шахсни касбий шаклланиши ва ривожланишининг барча босқичларида муҳим аҳамият касб этиб, унинг ҳаёт давомида комплекс ривожланишини таъминлайди ва узлуксиз таълимнинг янги интегратив фазилатлари мазмунини белгилайди.[5]

Бугунги кунда педагогик таълим инновацион кластерининг мобиллик асослари негизида таълим муассасасининг ижтимоий-маданий муҳитидаги мавжуд пассив ҳолатларини бартараф этиш ва таълим олувчиларни комплекс умуммаданий ривожланиш тузилмасини ташкил этиш замон талаби бўлиб қолмоқда. Шу нуқтаи назардан профессор-ўқитувчилар ва талабалар ўртасидаги "жонли" мулоқотни ўрнатиш, таълим субъектлари ўртасида мавжуд бўлган дискриминацион муносабатларга чек қўйиш, профессор-ўқитувчиларнинг шахсий ва касбий маданиятини ошириш, профессионал эътиқод ва ахлоқ нормалари замонавий тизимини ишлаб чиқиш, маънавий ва ҳиссий барқарорлигини таъминлаш омиллари билан боғлиқ масалалар илмий жиҳатдан тадқиқ этилиши лозим.

Бу жараён, таълим субъектлари маънавиятини шакллантиришнинг асоси бўлиб, таълим ва тарбия мақсадларини аниқлаштириш, мавжуд ностандарт тушунчаларни бартараф этишга хизмат қилган

TASVIRIY SAN'AT FANLARIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH, BOSHQARISH VA NAZORAT QILISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGIGA ERISHISH.

MURATOV XUSAN XOLMURATOVICH

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tasviriy san'at va dizayn kafedrası
dotsent v.b.

Annotatsiya. Tasviriy san'at fanlaridan talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va boshqarish mehanizmini ishlab chiqish. Elektron darsliklar, dasturiy maxsulotlar orqali tasviriy san'at fanlaridan talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish va boshqarish samaradorligiga erishish. Oliy ta'lim muassalarida tasviriy san'at ta'lim tizimidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, fan dasturlarini qayta ko'rib chiqish, o'quv dasturlari mazmuniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini singdirish, fanlararo aloqadorlikning nazariy-metodologik asoslarni rivojlantirish hamda ta'lim oluvchilar amaliy va mustaqil faoliyatlarini takomillashtirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompetensiya, elektron ta'lim, elektron ta'lim resurslari, multimedia, multimediali o'qitish, interaktiv.

Ta'lim sohasidagi islohotlar jamiyat ravnaqi va taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning intellektual salohiyatini oshirish davlat ta'limi standarti, malaka talablarida qo'yilgan talablarga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. O'qitish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining joriy qilinishi ta'limda istiqbolli vazifalar yechimini ta'minlashga nisbatan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro kongress markazida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida: "Yangi O'zbekiston — maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshiramiz. Birinchidan, yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz. Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan,

ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz,-deb ta'kidlab o'tdilar.

Ta'limda qanchalik murakkab bilish jarayonlarini ishtiroki talab etilishiga erishilsa, talaba shaxsini yashirish bo'lgan ichki imkoniyatlari, qobiliyat qirralari namoyon bo'ladi. Bevosita ta'lim jarayonida talaba o'zi ham ta'lim mazmunini yorituvchi sifatida faollik ko'rsatishi, muammoni ifodalashda izlanishi o'zlashtirish darajasini yuqori saviyaga ko'tarilishiga olib keladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tantanali marosimdagi nutqida: "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Buyuk yunon olimi Aristotelning «Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi», degan so'zlari bor".-deb aytib o'tganlar. Yosh mutaxassislarda kasbiy amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda mustaqil ishlar, ishlab chiqarish amaliyoti va ishbilarmon o'yinlar muhim o'rin tutadi.

Metodologik o'yinlar hayotiy voqelikka eng yaqin keluvchi metod bo'lib, katta amaliy ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ta'lim jarayonini texnologik yondashish asosida tashkil qilishi uchun pedagogik ko'nikma malakalarni mukammal egallagan bo'lishi lozim. Buning uchun talabalik davrida bo'lajak o'qituvchini pedagogik ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish talab etiladi. Ta'lim jarayonining yutuq va kamchiliklari, ta'lim natijasining sifat ko'rsatkichlari, ta'lim jarayoniga tatbiq qilinadigan pedagogik nazariyalar, zamonaviy texnologiyalarning ta'lim amaliyotini rivojlantira olish yoki ta'limning taraqqiyotiga to'sqinlik qilish darajasini aniqlashga yo'naltirilishi kerak.

Ta'lim-bu bilim, ko'nikma, qadriyatlar, axloq, e'tiqod va odatlarni egallash jarayoni. Ta'lim usullari oqitish, trening, hikoya qilish, muhokama qilish va maqsadli tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Trening ko'pincha o'qituvchilar rahbarligida olib boriladi, ammo talabalar o'z-o'zini o'qitish bilan ham shug'ullanishlari mumkin. Trening rasmiy yoki norasmiy sharoitda va har qanday tajriba bilan amalga oshirilishi mumkin shaxsning fikrlash, his qilish yoki harakat qilish uslubiga shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatadigan, ta'limiy deb hisoblanishi mumkin. O'qitish metodikasi pedagogika deb ataladi. Rasmiy ta'lim odatda maktabgacha ta'limi yoki bolalar bog'chasi, boshlang'ich ta'lim, o'rta maktab, so'ngra universitet yoki kasb hunar muassasalari kabi bosqichlarga bo'linadi. Ta'lim olish davrida o'quvchi talabalar ta'limning turli hil shakllaridan foydalangan holda bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkim. Ulardan biri mustaqil ta'lim shakli bo'lib, hozirgi kunda u o'zining samaraliligi bilan boshqa ananaviy ta'lim shakllaridan farq qilmoqda. Mustaqil ta'lim-bu ta'lim shakli bo'lib, u ko'plab o'rta maktablar boshqa ta'lim muassasalari tomonidan taklif etiladi. Ba'zan bu yo'naltirilgan o'rganish deb

ataladi va bu aksariyat hollarda nazoratsiz amalga oshiriladigan ta'lim faoliyati hisoblanadi. Odatda, talaba va o'qituvchi talaba tomonidan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan tadqiqotlar uchun mavzuni kelishilgan miqdordagi kreditlar bo'yicha kelishib olishadi. Mustaqil tadqiqotlar yaxshi motivatsiyaga ega bo'lgan talabalarga an'anaviy akademik dasturga mos kelishi shart bo'lmagan, lekin talabani qiziqtirgan mavzuni o'rganishiga imkon beradi. Bu talabalarga maxsus materiallarni o'rganish yoki tadqiqot tajribasini olish imkonini beradi. [Хендерсон, Юан. С. 1984].

Boshlang'ich va o'rta maktablar uchun mustaqil ta'lim ba'zan iqtidorli va iste'dodli talabalarga mo'ljallangan o'quv dasturi bo'lib, u erda talaba mavzuni o'rganishi va savollarni shakllantirishi va ularga javobni mustaqil topishi kerak. Oxiroqibat, ular xulosalarini ishlab chiqadilar va taqdim etadilar. Qo'shma shtatlardagi ko'plab maktablari turli formatlarda mustaqil va uyda ta'lim olish tizimini yo'lga qo'yanlar. Masalan: onlayn, shaxsiy yoki gibridd onlayn yuzma-yuz muloqot kabilar. Ushbu mustaqil o'quv dasturlari, ayniqsa, an'anaviy sinf muhitini qoniqarsiz deb biladiganlar uchun foydalidir. Masalan, mustaqil o'rganish sog'lig'i bilan bog'liq muammolari mavjud bo'lgan, intensiv ish jadvali yoki iqtidorli akademik qobiliyatlari bo'lgan o'quvchi talabalar uchun juda mos keladi. Ko'pincha, yuqori natijalarga erishgan talabalarga darsga bormasdan o'rganishlari uchun mustaqil ta'lim olish taklif etiladi. Mustaqil ta'lim o'z-o'zini o'rganish hamda mustaqil ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun foydalidir, shuningdek, talabaga mustaqil bo'lishga imkon beradi. [Кениг, Кэтрин; WJ McKeachie 1959].

Ta'lim sohasida bo'layotgan har bir o'zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishiga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lim


standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo‘lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish – talaba faoliyatining ta‘lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o‘qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Ta‘lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta‘lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida” kadrlar tayyorlashdagi mavjud muammolar qatorida “Talabalarda

tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirilmagan”i alohida ta‘kidlangan¹. Xalqaro talablar asosida yuqori malakali, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash strategik maqsad sifatida belgilab olindi. Talabalarni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo‘naltirish, ularni zarur bilim va ko‘nikmalarni egallashga bo‘lgan mas‘uliyatini oshirish, oliy ta‘limda belgilangan ma‘lum bir me‘yorlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Bu borada zarur qadamlar qo‘yildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son Qarori bilan

1-jadval

60111200– Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasidagi soatlar miqdorining o‘quv yillari kesimida o‘zgarishi



¹ S.Mamatqulov. Mustaqil ta‘lim: tadqiqot, xorijiy tajriba va tavsiyalar. Metodik qo‘llanma. Toshkent. “Sano-Standart” 2023. 3-bet.

tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida nizom”da mustaqil ishlarga ajratiladigan soatlar miqdori oshirilib, uning ulushi bakalavriatda umumiy o‘quv yuklamasining 50-60 foiz, magistraturada esa 60-70 foizni tashkil etishi belgilab qo‘yildi. Xususan, pedagogika oliy o‘quv yurtlarining 6011200-Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishida o‘quv auditoriya soatlari 1870 soatga qisqarib, mustaqil ta’lim soatlari 16,3% ga ortgan (1-jadval).

Belgilangan mazkur tartib oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish va nazorat qilish mexanizmini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy ta’lim muassasalarida innovatsion yondashuvlar asosida talabalarni mustaqil ta’lim olishga o‘rgatish, mustaqil ta’limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish zarurligi, mustaqil ta’limning amaldagi mexanizmlaridagi bo‘shliqlar, tizimdagi nomuvofiqlik kabi bir qancha muammolar bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu o‘z navbatida talabalarda mustaqil ta’lim olish faoliyati xususiatlari, uning mohiyati, tashkil qilish tamoyillari, mazmuni va metodlari bo‘yicha mavjud yondashuvlarni yanada chuqur tadqiq qilishni taqozo qiladi. Bunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali mustaqil ta’limni tashkil etish, boshqarish o‘qitish samaradorligini oshirish hamda bo‘lajak kadrlarni iste‘molchilar talabiga muvofiq maqsadli tayyorlash pedagogik jarayonning barcha subektlari kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini belgilamoqda.

Respublikamizda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga mos ravishda talaba shaxsini kompetensiyaviy imkoniyatlarini mustaqil ta’lim orqali yanada takomillashtirish, kompetentli kadrlarning innovatsion faoliyatini dasturiy maxsulotlar,

mediatalim, interaktiv ta’lim texnologiyalarida amalga oshirish zarurati kuchaymoqda. Bu esa, oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at ta’lim tizimidagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, fan dasturlarini qayta ko‘rib chiqishni, o‘quv dasturlari mazmuniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini singdirish, fanlararo aloqadorlikning nazariy-metodologik asoslarni rivojlantirish hamda ta’lim oluvchilar amaliy va mustaqil faoliyatlarini takomillashtirishda uning tatbig‘ini oshirish muammosini har tomonlama chuqur tadqiq qilishni taqozo qilmoqda.

Muammoga doir ko‘plab ilmiy va pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, talabalarining mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni jahon standartlariga javob beradigan mutaxassis kadr qilib tayyorlashda mustaqil ta’limni takomillashtirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda baholashga ahamiyat berilmagan, mexanizmlari ishlab chiqilmagan.

Tasviriy san’at fanlaridan talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etish va boshqarishga munosabatni aniqlash maqsadida turli hududlardagi uchta OTMning 6011200-Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi kunduzgi ta’lim shakli 2 va 3 kurs talabalari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazdik. Mazkur so‘rovnomada umumiy 402 nafar respondent ishtrok etdi. Mazkur so‘rovnomadan quyidagi xulosalarga keldik:

- Talabalar mustaqil ishini nazorat qilishga ijodiy asosda yondashilmayapti. O‘quv rejalarida auditoriya soatlariga nisbatan auditoriyadan tashqari mustaqil ta’limga ko‘proq vaqt ajratilayotganiga qaramasdan, ko‘pincha bu vaqt talabalar tomonidan o‘quv faoliyatidan tashqaridagi “bo‘sh vaqt” sifatida qabul qilinmoqda. Bunda auditoriyadan tashqari mustaqil ta’limning soatlari haftalik

kesimda rejalashtirilmayotgani va nazorat qilmasligi, rag'batlantirish choralarning yetarli emasligi asosiy o'rin tutyapti. So'rovda ishtirok etgan talabalarning aksariyati mustaqil ishlar bahosining umumiy bahoga qo'shilmayotgani, ba'zi o'qituvchilargina umumiy ballga qo'shayotganini ta'kidlagani ham mustaqil ishlarni rag'batlantirish sust darajada ekanini ko'rsatadi;

- auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni bajarishda talabalar tomonidan plagiat va o'zlashtirish holatlari keng tarqalgan hodisa bo'lib qolmoqda. Talabalar akademik halollik qoidasini buzishini tan olmoqda. Mazkur holat OTMlarda professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga akademik halollik borasida yetarlicha tushuntirish ishlari olib borilmayotgani hamda mustaqil ishlarni antiplagiat dasturlari orqali tekshirish amaliyotining mavjud emasligi bilan bog'liq. Mustaqil ishlarni hanuzgacha qo'lyozma shaklda qabul qilish amaliyotining saqlanib qolganligi ham mazkur muammoni yanada chuqurlashtirmoqda;

- talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini tashkil qilishda "oddiydan murakkabga" tamoyiliga amal qilinmayapti. Shu bilan birga, mustaqil ish mavzusi hamda usulini tanlashda talabaning qobiliyatlari va qiziqishlari hisobga olinmayapti;

- professor-o'qituvchilarning yarmidan ko'pi mustaqil ishlarni o'quv kursining faqat nazariy masalalari bilan cheklangan holda tashkil etmoqda. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, talabada real amaliy muammolar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish qoniqarli holatda emas;

- professor-o'qituvchilarning yangi ilmiy manbalar bilan ishlash faolligi past darajada qolmoqda. Bu ham, o'z navbatida, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda ilmiy va innovatsion bo'shliqlarni yuzaga keltiradi;

- Mustaqil ta'limni tashkil qilish,

boshqarish, nazorat qilish hamda baholashda deyarli innovatsion, interaktiv o'yinli dasturiy ta'minotlardan, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilmasligi ma'lum bo'ldi.

Rivojangan xorijiy OTMlarda Talaba bir hafta davomida o'rtacha 10-15 soat auditoriya darslarida, 25-30 soat auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar bilan band bo'ladi. Professor-o'qituvchilar faoliyatini "o'qitish"dan ko'ra ko'proq "o'rgatish"ga tomon yo'naltiradi, bu esa talabalarning kasbiy o'zini o'zi takomillashtirishga bo'lgan mas'uliyatining ortishiga turtki beradi. Talabalarning mustaqil ijodiy ishlari antiplagiat orqali originalligi tekshirilib undan so'ng baholanadi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari xususiyatiga ko'ra moslashuvchan bo'lib, ayrimlari onlayn tashkil etiladi hamda boshqariladi va bu yuqori samara beradi. Mustaqil ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish va baholashda o'yinli platformalar, raqamli va mediata'lim vositalaridan faol foydalanadi.

Uzoq yillar kuzatish va tajribalar hamda yuqoridagi so'rovnoma natijalari xulosalaridan kelib chiqib "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (Mustaqil ta'lim uchun)" nomli elektron qo'llanma tayyorladik. Mazkur elektron qo'llanma Tasviriy san'at fanlaridan mustaqil ta'limni qisman tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish va baholash imkoniyatlarini taqdim etadi. Bunda 30 ga yaqin o'quv adabiyotlari, interaktiv audio visual rassomlar katalogi, san'atning bir qancha tur va yo'nalishida ma'lumotlar ba'zalari, tasviriy san'atning tur va janrlari haqida bo'limlar, virtual muzey videolari, mahorat darslari, youtube tarmog'iga ulanish imkoniyati, dialog tarzida yaratilgan animatsion visual o'yinli sinovlar, krossvordlar, san'at asarlarini mustaqil badiiy tahlil qilish visual topshiriqlari, tafakkurini o'stiovchi interaktiv o'yinli testlar, professor-o'qituvchi bilan bog'lansh imkoniyatlari

yaratilgan. Dasturmoslashuvchan hususiyatga ega bo'lib, onlayn va oflayn rejimda mobil qurilmalarda ham ilova sifatida ishlatish mumkin. Ahamiyatli jihatlaridan yana biri shundaki topshiriqlarning bajarilishi natijalari avtomatik baholanadi hamda fan professor-o'qituvchilarining elektron pochtagariga onlayn vaqt rejimida uzatilib turiladi.

Bu kabi raqamli ta'lim texnologiyalarini talabalar mustaqil ta'limiga keng qo'llash albatta yuqori samara beradi. Bunda talaba va professor-o'qituvchining vaqti tejaladi, vaqt, makon tanlamaydi, mustaqil ta'limi tog'ri tashkillashtiriladi, boshqariladi, baholashda shaffoflikka erishiladi.

O'quvchilarda mustaqil ta'limning tashkil etish vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- 2) kerakli ma'lumotlarni izlab topish, o'rganishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- 3) axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- 4) o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- 5) elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- 6) internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- 7) berilgan topshiriqlarning ratsional yechimini belgilash;
- 8) ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- 9) topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- 10) o'quv xonalarida mustaqil holda ilmiy axborotlarni o'qib bilish; Amaliy mashg'ulotlarda mustaqil bajarish uchun berilgan amaliy topshiriq va mustaqil ishlarni mashg'ul o'qituvchi va guruh o'quvchilari o'rtasida himoya qila bilish hisoblanadi. Mustaqil ta'limni tashkil etishda o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga zamin tayyorlab, bu jarayonda tanqidiy va ijodiy

fikir yuritishni shakllantirish ustuvor yonalish sanaladi.

O'quvchilarning o'quv ijodiy tayyorgarlik tizimida mutaxassislik, ixtisoslik yoki umumkasbiy o'quv fanlaridan chuqur bilim va malakalarga ega bo'lishda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining shakllanganligi asosiy rol o'ynaydi. Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalariga ularning o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, mustaqil amaliy topshiriqlarni bajarish va bajargan mustaqil topshiriqni mas'ul o'qituvchi va guruh o'quvchilari oldida himoya qila bilish kabi bilim va malakalari kiradi. Mustaqil o'qishning asosiy maqsadi, talabaning o'qituvchining yordamisiz shug'ullanishi bilan emas, balki uning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Talabalarning mustaqil o'qish faoliyatining samaradorligi quyidagi faktorlar bilan aniqlanadi: a) talabalarning mustaqil o'qish faoliyatiga tayyorligi; b) mustaqil o'qish faoliyatini sifatli pedagogik ko'nikmalar bilan ta'minlanganligi. Talabalarning mustaqil o'qish faoliyatiga tayyorligi, quyidagi komponentalar orqali aniqlanadi: o'zida tasavvur etishni shakllantiruvchi qiymatli-motivatsion komponenta va kasbiy motivatsiya; - umumlashgan bilimlarni egallagan, kognitiv komponentalar (birinchi navbatda dunyoqarash g'oyalari va ilmiy tushunchalar) hamda umumta'lim ko'nikmalari va o'z-o'zini tashkil qilish: - shaxsning erkinlik sifatleri bilan aniqlanuvchi erkinlik komponentalari, bunda birinchi o'rinda tartib intizom, trishqoqlik, mustaqillik, talabchanlik va javobgarlikni his qilish turadi. Talabalarning mustaqil ishini pedagogik kuzatish-bu o'qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil o'qish jarayonini ilmiy-pedagogik jihatlarini ta'minlash va o'quv vazifalarini bajarishda talabalarga amaliy yordam berishdan iboratdir. Oliy ta'limda mustaqil ta'limni yuqori saviyada tashkil

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA AKMEOLOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

MUMINOVA GULNOZAXON SULTON QIZI,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbPFITI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada ta’limda akmeologik yondashuvni samarali amalga oshirish masalalari, akmeologik yondashuvning tashkiliy tuzilmasi va undan foydalanishning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, akmeologik yondashuv asosida pedagoglarning kasbiy mahoratini va individual metodlar tatbiq etish malakalarini rivojlantirish yo‘llari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Akmeologik yondashuv, pedagogika, kasbiy mahorat, metod, innovatsiya, tadqiqot.

Аннотация. В статье освещаются вопросы эффективной реализации акмеологического подхода в образовании, организационная структура акмеологического подхода и значение его использования. Также на основе акмеологического подхода раскрыты пути развития профессионального мастерства педагогов и навыков применения индивидуальных методов.

Ключевые слова. Акмеологический подход, педагогика, профессионализм, метод, инновации, исследования.

Annotation. The article highlights the importance of the effective implementation of the acmeological approach in education, the organizational structure of the acmeological approach and its use. Also, on the basis of the acmeological approach, the ways of developing the professional skills of teachers and the skills of applying individual methods are revealed.

Key words. Acmeological approach, pedagogy, professionalism, method, innovation, research.

Akmeologik yondashuvda eng yuqori kasbiy malakalar va natijalarga erishish muammolari tadqiq qilinadi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida akmeologik yondashuvning mohiyati kasbiy motivatsiyani oshirish, ijodiy potensialni rag‘batlantirish, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va unumli foydalanish, o‘zini-o‘zi rivojlantirishga intilish, ta’lim va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, mustaqil fikrlash va izlanish, ijodiy tafakkur qilish, tadqiqotchilik, modellashtirish, konstruksiyalash, intellektual, hissiy, irodaviy va amaliy o‘zini-o‘zi uzluksiz takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish bilan belgilanadi. Turli davrlarda olimlar tomonidan o‘qituvchilarni o‘z-o‘zini o‘qitishga motivatsion yondashuvni rivojlantirish muammosi batafsil muhokama qilingan.

Xususan, T.T.Shaymardonov uzluksiz ravishda o‘z-o‘zini mustaqil kasbiy

rivojlantirib borishda motivatsiyaning qaror topishi, A.V.Jarinov o‘z-o‘zini

rivojlantirish uchun motivatsiyani oshirish, S.V.Bajanova oliy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyati uchun motivatsiyani rivojlantirishning akmeologik omillari, V.E.Arutyunyan malaka oshirish tizimida o‘qituvchining kasbiy rivojlanishining motivatsiya xususiyatlari, R.J.Wlodkowski

kattalarning motivatsiyasini oshirishga doir keng qamrovli texnologiyalar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

T.T. Shaymardonovning fikriga ko‘ra, pedagogning kasbiy kompetentligi va mahoratining rivojlanishida ma’lum fan asoslari sohasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasining shakllanganligi hamda uzluksiz ravishda o‘z-o‘zini mustaqil kasbiy rivojlantirib borish motivatsiyasining qaror

topganligi ham muhim omillardan sanaladi.

O'qituvchilarning o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishi uchun o'qituvchiga xos

bo'lgan akmeologik pozitsiyaning mavjudligi (uning shaxsiy faoliyati),

moslashuvchanlik (atrofdagi voqelik shartlaridan shaxsiy rivojlanish uchun

foydalanish qobiliyati), jamiyatda o'z salohiyatini amalga oshirish istagi, o'zini

anglashi va shuningdek, o'zini o'zi boshqarish orqali o'z kasbiy faoliyatini yanada

takomillashtirishga tayyorligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish muammosining tadqiqotchilari (V.I.Andreyev, L.N.Kulikova va boshqalar) o'z-o'zini rivojlantirishning o'sib borayotgan shaxsning shaxsiy shakllanishining boshqa jarayonlari va hodisalari bilan o'zaro bog'liqligini qayd etishadi: o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi tartibga solish, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z-o'zini takomillashtirish, o'zini o'zi anglash va boshqalar. Shu bilan birga, bu jarayonlarning har biri mustaqil va bir butun sifatida insonning o'zini rivojlantirish jarayonining tarkibiy qismlari sifatida qarash mumkin.

O'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini boshqarish asosida insonning yangi muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyoji, takomillashish, faol hayot tarafdori bo'lish, ezgu fikrlash o'z imkoniyatlariga ishonish, hayot mazmunini tushunish yotadi. Shaxsning rivojlanishi uning ona bag'ri, maktabgacha bolalik davri, boshlang'ich sinf, o'smirlik va o'spirinlik davridagi shart-sharoitlar bilan uzviy bog'lik. Ushbu davrlarda uning salomatligi qanday bo'lishi, nimalar u uchun qadrli bo'lishi, uning xususiy baholashi, insonlarga va mehnatga munosabati, xatti-harakatlari va boshqalar uning kelajakda qanday sifatdagi kasb egasi bo'lishini aniqlab boradi.

Zamonaviy ta'lim muhiti o'quvchi

yuqori cho'qqilarga erishishi, o'z-o'zini takomillashtirishi, rivojlantirishi mumkin bo'lgan, akmeologik muhitni shakllantirish bilan to'ldirilishi lozim.

Akmeologik yondashuvdan foydalanishning asosiy maqsadi – mavjud har qanday qiyinchilik yoki muammolardan o'quvchining o'zi mustaqil ravishda chiqib keta olsin, unda ijodkorlik shunday rivojlansinki, hatto o'zi mustaqil ravishda yakka tadbirkor sifatida faoliyat yurita olsin.

Pedagogik akmeologiya – pedagogning mehnat faoliyatida professionallikka erishishning yo'llari haqidagi fandir. Uning mohiyati pedagog tomonidan boshqa kishilar shaxsini tarkib toptirishga insonparvar yo'naltirilgan yuksak darajadagi professionallikka erishish yo'llarini aniqlashdan iboratdir. Shaxs kamolotining barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, shaxsiy, faoliyat subyekti sifatida yetuklik bir-biri bilan bog'liq, ammo inson bir vaqtning o'zida barcha cho'qqilarga chiqa olmaydi. Tabiiyki, inson rivojlanishi u katta yoki kichik jamiyatlarning a'zosi sifatida harakat qilganda va albatta, ushbu holatlarga javob sifatida o'z harakatlaridan kelib chiqadigan o'ziga xos holatlarga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shu munosabat bilan, akmeologiya inson hayotining har bir bosqichida rivojlanish xususiyatlarini aniqlash bilan bog'liq qiyin muammolarni hal qilish uchun pedagogika bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kasbiy mahorat darajasi uning pedagogik ishning yuqori ko'rsatkichlari sari harakatining bosqichlarini ifodalaydi:

– kasbni egallash darajasi, unga moslashish, o'qituvchi tomonidan boshlang'ich normalarni, zarur texnika, texnologiyalarni o'zlashtirish;

– pedagogik mahorat darajasi, kasbda to'plangan ilg'or pedagogik tajribaning eng yaxshi namunalarini yaxshi darajada amalga oshirish;

– kasb-hunar bo'yicha mavjud bo'lgan tinglovchilarga individual yondashish uslublarini, bilimlarni uzatish usullarini egallash;

talabalarga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish va hk.;

– o'qituvchining kasb-hunar bo'yicha o'zini o'zi anglash darajasi, ongi o'qituvchilik kasbining shaxsini rivojlantirish, kasb yordamida o'zini rivojlantirish, ijobiy fazilatlarini ongli ravishda mustahkamlash va salbiy xususiyatlarini yumshatish, individual faoliyat uslubini mustahkamlash imkoniyatlari;

– o'qituvchining ijodkorlik darajasi, shaxsiy ijodiy hissa orqali o'z kasbining pedagogik tajribasini boyitish, mualliflik takliflarini kiritish va o'qitishning yangi usullarini yaratish;

Pedagogik faoliyatda akmeologik texnologiyalardan samarali foydalanish muhimdir. Akmeologik texnologiyalarning tuzilishi ularning rivojlanishi uchun umumiy bo'lgan lahzalarning batafsil tavsifini o'z ichiga olgan matritsa bilan ifodalanadi:

- texnologiyaning maqsadi va vazifalari;
- uslubiy asos;
- rivojlanish tamoyillari;
- jarayon shartlari;
- muayyan vaziyatni tahlil qilish;
- texnologiya predmeti va obyektining xususiyatlari, ayniqsa, ularning o'zaro ta'siri;
- maqsadga erishish bosqichlari, strategik, taktik usullari, natijalarni bashorat qilish usullari, amalga oshirish.

Akmeologik texnologiyalarning asosiy vazifasi – bu o'z-o'zini anglash, o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglashga bo'lgan talabchan shaxsiy ongida shakllantirish va birlashtirish, bu esa shaxsiy va professional "men" ni maxsus texnikalar yordamida o'z-o'zini namoyon qilishga imkon beradi.

Akmeologik texnologiyalar yordamida ongli ravishda faol rolni egallab, davlat

xizmatchisi ijtimoiy-madaniy muhitning tashqi sharoitlariga, hayotga va kasbiy maqsadlarga, kelajakka bo'lgan taxminlar va prognozlar tizimiga mustaqil ravishda ta'sir o'tkaza oladi, ularning yutuqlarini baholaydi va shu bilan o'z rivojlanishiga va o'zini o'zi amalga oshirish strategiyasiga ta'sir qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilar akmeologik texnologiyalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi uchun fan va amaliyotga oid akmeologik qonuniyatlarni, protseduralarni aniqlash usullarini va pedagoglarning psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy fazilatlarini va qobiliyatlarini o'rganishning maxsus usullarini bilishi kerak; moslashish usullari, bashorat qilish, potensial imkoniyatlar, shakllangan qobiliyatlar, texnologik qobiliyatlar diagnostikasi. Pedagogning kasbiy faoliyati natijalarini texnologiya va dizayn mahoratiga asoslangan shaxsiy fazilatlar, maxsus bilimlar va qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik aniq tasdiqlangan taqdirdagina qurilishi mumkin. Akmeologik texnologiyalar ko'pincha psixologik texnologiyalarga tenglashtiriladi, ammo ular faqat rasmiy va protsessual nuqtai nazardan yaqindir. Ha, haqiqatan ham akmeologik texnologiyaning mohiyati psixologik ta'sir, aniqrog'i, uning akmeologik ta'sir deb ataladigan maxsus shakli hisoblanadi. Bu ta'sir ta'sir mavzusining maxsus mahoratiga bog'liq. Ammo ularning asosiy farqi bu ta'sir yo'nalishi. Akmeologik texnologiyalar, asosan, insonparvarlik yo'nalishi bilan ajralib turadi, chunki ular shaxsning progressiv rivojlanishini amalga oshirishda yordam berish uchun yaratilgan, aksariyat psixologik ta'sirlar esa manipulyativdir. Akmeologik texnologiyalarning gumanistik yo'nalishi shaxsiyatning gumanitar va texnologik rivojlanishi uchun asos bo'ldi.

Akmeologiyada o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi rivojlantirishning gumanitar

texnologiyalari ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Akmeologik texnologiyalar har doim individual yo'naltirilgan bo'lib, ular ma'lum bir shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun ishlatiladi.

Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, o'z navbatida, bu bosqichlarning har biri o'ziga xos amallardan iborat bo'ladi. Amal – o'qituvchining sinfda mavzu bo'yicha o'quv elementlarini tushuntirish borasidagi bajargan ishlar yig'indisi bo'lib, o'qitish jarayonining shu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi.

Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya: ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, ilg'or pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyasi, yangi tajriba va ta'lim-tarbiya metodlari tushunchalarini qamrab oladi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo'li bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni jadal shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki boshqacha aytganda, o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin. Professor N.Saidahmedovning fikricha, "Texnologiya shaxsni o'qitish, ta'limlash va rivojlantirish qonunlarini o'zida mujassamlashtirgan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir".

Texnologiya tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi:

- samarador o'quv-bilish faoliyatining asoslarini topish;

- uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo'qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko'ra intensiv (jadal), mumkin qadar ilmiy asosda qurish;

- talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish;

- o'qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo'qotish;

- ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash;

- texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish va boshqalar.

Bitiruvchi bolajak o'qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorligining metodik darajasini aniqlash maqsadida ularda quyidagi ko'nikmalar mavjudligini aniqlashga intildik:

- o'quv fanning innovatsion imkoniyatlari, uning innovatsiya obyektlari bilan aloqalarini aniqlash;

- o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishning zaruriy sharti sifatida dars jarayonida ilmiylik prinsipini amalga oshirish;

- o'quvchilarning yangiliklarga moyilligi va qobiliyatini o'rganish, ularning qiziqishlarni rivojlantirish uchun adekvat metodik usullar va vositalarni tanlash;

- o'quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsiya obyektlarining moddiy asosiga mos ravishda ularning qidiruv faoliyatini tashkil qilish;

- yangiliklar kiritishning aniq shaklining tarbiyaviy imkoniyatlarini baholash; – innovatsion tajribani uzatishning mos metodi

YUQORI MALAKALI YENGIL ATLETIKACHI SPINTERLARNI MUSOBAQALARDAGI NATIJALARI TAHLILI

NIGINA ABDUVALIYEVA SHARIPOVA,

Sport menejmenti va iqtisodiyot kafedrası, o'qituvchisi, O'zDJT va SU
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Annotatsiya. Maqolada yuqori malakali yengil atletikachi sprinterlarni musobaqalardagi natijalari tahlili xalqaro toifadagi sport ustasi Nigina Abduvaliyeva (Sharipova) misolida tahlil qilingan. Sportchining musobaqalardagi ishtiroki va ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida sportda muvaffaqiyatlarga erishish jarayoni yoritilgan.

Abstract. In the article, the analysis of the results of highly qualified track and field sprinters in competitions is analyzed on the example of the international class master of sports Nigina Abduvaliyeva (Sharipova). The athlete's participation in competitions and the process of achieving success in sports during many years of preparation are highlighted.

Аннотация. В статье проводится анализ результатов легкоатлетов-спринтеров высокой квалификации в соревнованиях на примере мастера спорта международного класса Нигины Абдувалиевой (Шариповой). Освещается участие спортсмена в соревнованиях и процесс достижения спортивных успехов в ходе многолетней подготовки.

Kalit so'zlar: sprinter, tezkorlik, tezlik-kuch, jismoniy sifat, mashg'ulot, sport yutuqlari, ko'p yillik tayyorgarlik.

Key words: sprinter, speed, speed-strength, physical quality, training, sports achievements, long-term training.

Ключевые слова: спринтер, быстрота, скоростно-силовые качества, физические качества, подготовка, спортивные достижения, многолетняя подготовка.

Kirish. Sport taraqqiyotining bugungi bosqichi sport musobaqalarida erishilgan yutuqlarning natijalari tobora oshib borayotganligi sababli murabbiy va sportchilar oldiga yangidan-yangi murakkab vazifa va topshiriqlarni qo'ymoqda. Bu esa sportchi va murabbiylarni tayyorgarlik samaradorligini oshirish zahiralarni va mashq jarayonini tashkil qilishning zamonaviy uslub va vositalarini izlab topishga undaydi. Sportning yengil atletika turlarida ham sportchilarni tayyorlash tizimi va uslublarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni yaratish, ulardan keng foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Oxirgi yillarda yengil atletikaning aynan qisqa masofaga yugurish turlaridan jahon rekordlarni o'rnatilayotgan bir paytda O'zbekiston rekordining hali-xanuzgacha o'zgarmaganligi, respublikamizda

o'tkazilayotgan musobaqalarda sportchilarning natijalari qoniqarli emasligi, so'nggi yillarda xalqaro musobaqalarda faqat sanoqli sportchilarning ishtirok etib kelayotganligi ushbu turga alohida e'tibor qaratish lozimligini keltirib chiqaradi.

Shu boisdan, yengil atletika sport musobaqalarini tashkil etish, o'quv-yig'in mashg'ulotlari va o'quv-dars jarayonlarini yangi texnologiyalardan foydalanish asosida olib borish va boshqarish dolzarb masalalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yengil atletikaning qisqa masofaga yugurish turi ko'pgina olimlar, taniqli murabbiylar tomonidan jumladan, E.Maklennan (2016), V.A.Orinchuk (2012), I.Jilkin, V.S.Kuzmin, Ye.V.Sidorchuk (2003), Ye.D.Gagua (2001), N.T.To'xtaboev, K.T.Shakirjanova, I.R.Solievlar (2017) tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Qisqa

masofalarga yugurish (sprint) to'rtta shartli fazaga bo'linadi: yugurishning boshlanishi – start, startdan keyingi yugurish, masofa bo'ylab yugurish va marraga kelish. Start olish va masofa bo'ylab yugurish texnikasi – sprinterning tezlik-kuch imkoniyatlarini amalga oshirishda hal qiluvchi omildir. Sportchi startdan tezlik olishda mushaklar kuchidan hamda masofada o'zining energiya zahirasidan qanchalik oqilona, tejamkorona va samarali foydalansa, natija shunga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqotda qisqa masofaga yugurish bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi Nigina Abduvaliyeva (Sharipova)ning 2015-2022 yillardagi musobaqalardagi ishtiroki tahlil qilindi (1-jadval).

Nigina Shavkatovna Sharipova (Abduvaliyeva) 1995-yil 10-avgustda Buxoro viloyatida tug'ilgan. Yengil atletikaning sprint yugurish turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro toifadagi sport ustasi. 2014-yilda yengil atletika bo'yicha o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida 200 metrga yugurishda bronza medalini qo'lga kiritdi. Islom birdamlik o'yinlari sovrindori va 2016 yilgi yozgi Olimpiya o'yinlari ishtirokchisi. 2014-yilda Taypeyda (Tayvan) yengil atletika bo'yicha o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida u 200 metr masofaga 24,24 natija bilan bronza medalini qo'lga kiritdi. 2016 yil iyun oyida Bishkekda (Qirg'iziston) Olimpiya chempioni - Tatyana Kolpakova sovrinlari uchun o'tkazilgan xalqaro musobaqada 200 metrga yugurishda kumush medalni qo'lga kiritdi. Alma-ata shahrida o'tkazilgan yengil atletika bo'yicha Qozog'iston Respublikasi kubogida 100 metr masofaga 11,31 soniya natija bilan kumush, 200 metrga yugurishda esa bronza medalini qo'lga kiritdi. Bu natija bilan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish uchun talab me'yorni bajardi. Rio-de-Janeyroda (Braziliya) bo'lib o'tgan

XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida 100 metrga saralash bahslarida eng yaxshi natijasini (11,68 soniya) ko'rsata olmadi va finalga chiqa olmadi. 200 metr masofaga saralash bahslarida 23,33 soniya natija qayd etib, o'z chiqishlarini yakunladi. 2017-yilda Boku (Ozarbayjon) shahrida o'tkazilgan Islom birdamlik o'yinlarida u 100 metr masofaga 11,65 soniya natija bilan kumush, 200 metrga 23,66 soniya natija bilan bronza medalini qo'lga kiritdi. Shu yili Bhubanesvarda (Hindiston) o'tkazilgan yengil atletika bo'yicha Osiyo chempionatida u 100 metr masofaga 5 o'rinni egalladi. Ashxobodagi (Turkmaniston) Yopiq inshootlardagi Osiyo o'yinlarida ham u 60 metr masofaga yugurishda atigi beshinchi bo'ldi. 2018-yilda Tehronda (Eron) yengil atletika bo'yicha yopiq inshootlardagi Osiyo chempionatida 400 metr masofaga yugurish bo'yicha 56,29 soniya natija bilan to'rtinchi o'rinni egalladi. Iyun oyida Bishkekda (Qirg'iziston) Olimpiya chempioni - Tatyana Kolpakova sovrinlari uchun o'tkazilgan xalqaro musobaqada 100 va 200 metrga yugurishda oltin medalni qo'lga kiritdi. Shu yili Jakartada (Indoneziya) bo'lib o'tgan Yozgi Osiyo o'yinlarida 200 metr masofada to'rtinchi bo'lib marraga kirib keldi. 2019-yilda Dohada (Qatar) bo'lib o'tgan yengil atletika bo'yicha Osiyo chempionatida 100 metr masofaga 11,41 soniya natija bilan u yana xitoylik Vey Yongliga bronzani boy berib, to'rtinchi o'rinni egalladi.

Xulosa va takliflar. Qisqa masofaga yuguruvchilar ko'p yillar davomida qat'iyat bilan oqilona tashkil etilgan mashq qilishi natijasidagina yuqori sport natijalariga erishish mumkin. Ko'p yillik mashg'ulotlarning tuzilishi ko'pgina omillar bilan belgilanadi. Ular sirasiga quyidagilar kiradi: eng yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan muntazam mashg'ulot yillarining o'rtacha miqdori; sprinterning jismoniy sifatlari, odatda, eng to'liq ochiladigan va eng yuqori

1-jadval

**Qisqa masofaga yugurish bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi Nigina
Abduvaliyeva (Sharipova)ning 2015-2019 yillardagi musobaqalardagi ishtiroki
tahlil**

Musobaqa	O'tkazilgan joy	tur	Natija	O'rin	100m ga yil bo'yicha eng yaxshi natija, sek
2015 yil					
Jablonecka Hala-2015	Chexiya	60 M	7.92		12.07
Sprawdzian Kontrolny PZLA 2015	Polsha	60 M	7.80	1	
O'zbekiston ochiq chempionati	Toshkent sh.	60 M	7.68	2	
O'zbekiston shaharlararo kubogi	Buxoro sh.	100M.	13,00	1	
		200M.	27,48	1	
O'zbekiston ochiq chempionati	Toshkent sh.	100M.	12,07 12,26	2	
		200M.	25,27	2	
2016 yil					
O'zbekiston ochiq Kubogi	Toshkent sh.	60M.	7,67	2	11.31
O'zDJTI ochiq chempionati	Toshkent sh.	100M.	11,47 11,50	1	
		200M.	24,00 23,67	1	
OZK o'rtasida O'zbekiston Chempionati	Buxoro sh.	100M.	11,54	k/t	
Qozog'iston kubogi	Alma-ata sh.	100M.	11,36 11,31	2	
		200M.	23,55 23,51	3	
Universiada	Farg'ona ash.	100M.	11,69 11,96	1	
		200M.	24,26	1	
Tatyana Kolpakova xotirasiga bag'ishlangan turnir	Bishkek sh. Qirg'iziston	200M.	23,17 23,20	2	
XXXI yozgi Olimpiya o'yinlari	Braziliya	100M.	11,68	49	
		200M.	23,33	43	
2017 yil					
O'zbekiston Kubogi	Toshkent sh.	60M.	7,79 7,63 7,66	1	11.59
Olimpiada chempioni Olga Ripakova prizi uchun turnir	Ust-Komenogorsk (Qozog'iston)	60M.	7,61 7,58	4	
		100M.	11,85	1	
O'zDJTI ochiq chempionati	Toshkent sh.	200M.	24,49	1	
		100M.	11,74 11,71 11,65	2	
2017 Islom o'yinlari	Baku sh. (Azarbayjan)	200M.	24,04 24,05 23,66	3	
		100M.	11,59 11,78 11,71	5	
22 Osiyo Chempionati	Hindiston	200M.	23,97	10	

natijalarga erishiladigan optimal yosh chegaralari va uning sport mahorati o'rish sur'atlari; sport mashg'ulotlari boshlangan yosh, shuningdek, maxsus mashg'ulotlarga kirishgan yoshi hisoblanadi.

Ko'p yillik tayyorgarlikni oqilona rejalashtirish uchun, odatda, eng yuqori sport natijalari namoyish etiladigan optimal yosh chegaralarining aniq belgilanishi muhim hisoblanadi.

Odatda, ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida sportda muvaffaqiyatlarga erishishning uchta yosh zonasi ajratiladi:

- 1) dastlabki katta muvaffaqiyatlar zonasi;
- 2) optimal imkoniyatlar zonasi;
- 3) yuqori natijalar zonasi.

Quyidagi 2-jadvalda yengil atletikaning har xil turlarida sport yutuqlariga erishishning yosh chegaralari ko'rsatilgan.

2-jadval

Qisqa masofaga yuguruvchilarning sport muvaffaqiyatlariga erishishning yosh zonalari (ayollar) (N.G.Ozolin bo'yicha)

Yengil atletika turi	Dastlabki katta muvaffaqiyatlar zonasi	Optimal imkoniyatlar zonasi	Yuqori natijalar zonasi
60-100 m	18-20	21-24	25-27
200-400m	20-21	22-24	25-26

Odatda, yangi shug'ullanuvchidan xalqaro toifadagi sport ustasigacha bo'lgan yo'18-10 yilni qamrab oladi. Malakali sportchi Nigina Abduvaliyevada esa bu yo'l unchalik ko'p muddatga cho'zilmadi. U 5 yilda xalqaro toifadagi sport ustasi talab me'yorini bajardi. Nigina Abduvaliyeva 2016 yil Qozog'iston kubogi musobaqasida 100m masofaga 11.31

soniya natija ko'rsatib, o'zining eng yaxshi natijasini qayd etgan va Rio-de-Janeyroda (Braziliya) bo'lib o'tgan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritgan. Bundan tashqari 2016 yildan-2019 yilgacha 100m hamda 200m ga, 2018-2019 yillarda 400m masofalarga mavsum lideri sifatida e'tirof etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.J.Abdullaev, M.S.Olimov, N.T.To'xtaboyev "Yengil atletikani o'qitish metodikasi". Darslik, 2017 yil.
2. Soliev I.R., Kholbekova D.N., Davlatyorova L. B., Azamova G. E. / Improvement of technical training in short running athletics. // Academic Research in Educational Sciences. Volume2/Special issue 1/2021
3. Давлетярова Л.Б. /Фовлар оша югурувчиларнинг тезкор-куч қобилиятини ривожлантириш воситаларининг самарадорлиги. Фан-спортга журнал 2021/5. ISSN:21817804.
4. Davletyarova L.B, Yuqori malakali yengil atletikachi sprinterlarni texnikani takomillashtirishning zamonaviy vosita va uslublari. Ilmiy-amaliy anjuman to'plami materiallari,-B,125-128
5. <http://ru.sport-wiki.org/>
6. O'zbekiston yengil atletika federatsiyasi sayti- uzathletics.uz
5. <http://ru.sport-wiki.org/>
6. O'zbekiston yengil atletika federatsiyasi sayti- uzathletics.uz

DIVERGENT FIKRLASHGA OID ILMIY-NAZARIY TADQIQOTLAR MASALASIGA DOIR

ADIZOVA NIGORA BAXTIYOROVNA
Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: ushbu maqolada dunyo tajribasidan kelib chiqib, zamonaviy ta'lim tizimadagi divergent fikrlashga oid tadqiqotlar ilmiy nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: divergent, intellektual, kontseptsiya, identifikatsiya, diqqat, idrok, assotsiatsiyalar jarayoni, tafakkur, assotsiatsiya, motiv, faoliyat, konvergentsiya, reproduktiv, ijodiy fikrlash, mustaqil, evristik.

Аннотация: в данной статье на основе мирового опыта проводится научный анализ исследований дивергентного мышления в современной системе образования.

Ключевые слова: дивергентный, интеллектуальный, концепт, идентификация, внимание, восприятие, процесс ассоциаций, мышление, ассоциация, мотив, деятельность, конвергенция, репродуктивное, творческое мышление, самостоятельное, эвристическое.

Abstract: in this article, on the basis of world experience, a scientific analysis of the research on divergent thinking in the modern education system is carried out.

Key words: divergent, intellectual, concept, identification, attention, perception, association process, thinking, association, motive, activity, convergence, reproductive, creative thinking, independent, heuristic.

Dunyomamlakatlariqatorida O'zbekiston Respublikasi muhim globallashuv davrini boshidan kechirmoqda. Ushbu jarayonda ta'lim tizimini isloh qilish masalasi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, divergent fikrlashga oid ilmiy tadqiqotlar ta'lim tizimiga innovatsion yondashuv zarurligini taqozo etadi.

Tafakkurning mohiyatiga oid ilmiy qarashlarni yoritishda, avvalo, ayrim faylasuflarning qarashlarini qisqacha bayon qilib, misol tariqasida ushbu tushunchaning shakllanish tarixiga to'xtalib o'tish muhim ko'rinadi. Masalan, Platonning fikricha, fikrlash - eslash jarayoni [3; 228]. Dekart uchun fikrlash ruhning yagona atributi bo'lib, u fikrlash jarayonlarining doimiyligini, bilimning intellektual quvonchini belgilaydi [1; 208].

Falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarni har tomonlama tahlil qilish bizga ushbu kontseptsiyani tadqiq qilishning dastlabki davri uning mantiq bilan haqiqiy identifikatsiyalanishi bilan tavsiflanganligini

va o'rganilishi kerak bo'lgan yagona tur sifatida faqat kontseptual va nazariy fikrlash ekanligini ta'kidlash imkonini beradi. Fikrlash qobiliyatining o'zi tug'ma deb hisoblangan va shuning uchun, qoida tariqasida, inson psixikasining rivojlanishi muammosidan tashqarida ko'rib chiqilgan.

Tafakkurning shakllari va qonuniyatlari, shuningdek, falsafada ham mantiqning ko'rib chiqish predmeti hisoblanadi. Biz aniqladikki, bu fan nuqtai nazaridan "tafakkur keng ma'noda bilishning negizida yotgan psixik jarayonlar (diqqat, idrok, assotsiatsiyalar jarayoni, tushuncha va mulohazalarning shakllanishi) majmuidir. Aniqroq aytganda, u tushunchalarni tahlil qilish va sintez qilish orqali hukm va xulosalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi».

O'zbek tilining izohli lug'atlarida quyidagi ta'riflar mavjud: "fikrlash - bu shaxsning voqelik hodisalari mazmunini tushunish, ularni bog'lash, taqqoslash va undan xulosa chiqarish qobiliyati; hodisalarni shunday taqqoslash jarayonining

o'zi"; "Tafakkur – fikr yuritish, fikr yuritish qobiliyati insonning mulki" [4; 98].

Ayni paytda biologiya, tibbiyot, genetika, kibernetika va boshqa bir qator fanlarning vakillari ham tafakkur tadqiqotlari, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni kengaytirish va bir-birini to'ldirish bilan bog'liq. Ushbu fanlarning har birining o'ziga xos savollari bor, ular tufayli tafakkur muammolariga, o'zlarining tushunchalar tizimiga va shunga mos ravishda o'zlarining fikrlash nazariyalariga murojaat qilishadi. Inson tafakkuri g'oyasiga psixologiya va pedagogika kabi fanlar katta hissa qo'shmoqda.

Keling, tafakkur tushunchasini psixologiya fani nuqtai nazaridan ko'rib chiqaylik. G'arb psixologiyasidagi tafakkur nazariyalarining tahlilini o'tkazdik, u quyidagicha: assotsiativ empirik psixologiyada fikrlash o'zining barcha ko'rinishlarida assotsiatsiyalarga, o'tmish izlarining bog'lanishiga va hozirgi tajribadan olingan taassurotlarga qisqartiriladi (X.Gartli, D.Pristli). Tafakkur faoliyati, uning ijodiy tabiati, bizningcha, bu nazariya hal qila olmagan asosiy muammodir. Shuning uchun uning tarafdorlari aqliy ijodiy qobiliyatlarning apriori aqlning tug'ma qobiliyatlari bilan bog'liqligini va bog'liq emasligini taxmin qilishgan. Demak, assotsiativ nazariya tarafdorlari tafakkurni g'oyalarning bog'lanishi (assotsiatsiyasi) deb hisoblashlariga to'xtadilar.

Vyurtsburg maktabi vakillari A. Binet, F. Brentano, K. Byuler, E. Gusserl, O. Selts assotsiativ psixologiyaning subyektivizmidan farqli o'laroq, fikrning predmet yo'nalishi bo'yicha pozitsiyani ilgari surdilar va uning ahamiyatini ta'kidladilar. Ushbu maktab psixologlarining nazariy xulosalarining bizning tadqiqotimiz uchun ahamiyati shundaki, ular fikrlashning tartibli, yo'naltirilgan xususiyatini ko'rsatdi va fikrlash jarayonida vazifaning ahamiyatini

ochib berdi.

Psixozanaliz (3. Freyd) nuqtai nazaridan, ongning atributi bo'lgan ("Men") shaxsning tafakkuri ko'p yo'nalishli ta'sirlar quroli ostida bo'ladi: ongsiz ("u") va uning haqiqiy talablari. inson yashaydigan madaniyat ("super-I"). Bu holatlar tafakkurga ma'lum bir funktsiyani buyuradi: muayyan ijtimoiy-madaniy vaziyatni hisobga olgan holda ongsiz intilishlarni amalga oshirish yo'lini topishga qaratilgan jarayon sifatida harakat qilish. Boshqacha qilib aytganda, fikrlash maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan harakatlarni boshqarish mexanizmi sifatida ishlaydi.

D.Uotson gipotezasiga ko'ra, fikr ham, nutq ham bir xil harakat faoliyati natijasida hosil bo'ladi. Farqi shundaki, fikr ichki dialog, nutq esa ovoz chiqarib aytiladigan fikrdir. Xulq-atvor psixologlari ichki aqliy faoliyatni "rag'batlantirish-javob" sxemasi bo'yicha shakllanadigan ichki nutq qobiliyatlarining murakkab zanjirlari to'plami sifatida taqdim etadilar. Ushbu tafakkur nazariyasining kamchiligi shundaki, tafakkur har doim harakat faoliyati bilan birga bo'ladi, garchi "fikr hali ham nutqdan boyroq va har doim ham so'z bilan tuzilmaydi".

Mahalliy psixologiya fanida inson psixikasining faoliyat tabiati haqidagi ta'limotga asoslanib, tafakkur turlicha talqin qilinadi, u bilish faoliyatining alohida turi sifatida tushuniladi. Tafakkur psixologiyasiga faoliyat kategoriyasini kiritish orqali nazariy va amaliy intellekt, bilishning predmeti va obykti o'rtasidagi qarama-qarshilik bartaraf etildi. Shunday qilib, bizning tadqiqotimiz uchun faoliyat va fikrlash o'rtasida, shuningdek, fikrlashning har xil turlari o'rtasida mavjud bo'lgan yangi bog'liqlik ochildi, tafakkur genezisi, uning bolalarda shakllanishi va rivojlanishiga oid savollarni ko'tarish va hal qilish mumkin bo'ldi. maqsadli o'rganish natijasi. Shu munosabat bilan faoliyat nazariyasida

fikrlash deganda bevosita kuzatishdan uning yashirin tomonlarini ochishga qaratilgan turli muammolarni hal qilish va haqiqatni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirish qobiliyati tushuniladi.

S.L.Rubinshteyn fikrlash kontseptsiyasini faoliyat sifatida tushunishida ikkita jihatni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, tafakkurni vositachilik faoliyatining bir turi sifatida belgilash, ikkinchidan, determinizm tamoyiliga ko'ra, psixik faoliyatda tashqi sabablar faqat ichki sharoit orqali harakat qilishini ko'rsatish.

S.L.Rubinshteynning fikriga ko'ra, aqliy faoliyat obyekt tomonidan bilvosita, uning ichki o'ziga xos naqshlari (maqsadlari, motivlari) orqali belgilanadi. U yoki bu tashqi sabab insonga ma'lum bir psixik muammoni uning tafakkurining ichki sharoitlari shakllangan darajadagina, boshqacha aytganda, hal qilinayotgan muammoni tahlil qilishda qanchalik mustaqil ilgariylaniga qarab hal qilishga yordam beradi. Sharoitlarning roliga vositachilik yordami ichki barcha tashkilotlarga ta'sir qiladi (maqsadlar va fikrlash motivatsiyasi).

Bundan tashqari, A.N.Leontiyevning fikrlash faoliyati nazariyasiga murojaat qilish kerak ko'rinadi. Leontiev, inson tafakkurining yuqori shakllarining o'zboshimchalik xususiyatini, ularning madaniyatdan kelib chiqqanligini va ijtimoiy tajriba ta'sirida rivojlanish imkoniyatini ko'rsatdi.

A.N. Leontiyev tadqiqotining ahamiyati shundaki tashqi, tashkil etuvchi xulq-atvor va ichki, tashkil etuvchi fikrlash, faoliyat tuzilmalari o'rtasida mavjud analogiya munosabatlari mavjudligini aniqladi. Ichki, aqliy faoliyat tashqi, amaliy hosila bo'lib, unda individual almashtiriladigan elementlarni - harakatlar, operatsiyalarni ajratish mumkin.

Tafakkur insonning umumiy xususiyatini ta'minlovchi hodisa sifatida uning psixikasi tarkibida amaliy faoliyat asosida tashqi

olanmi aks ettiruvchi sezgi va idrok orqali hissiy bilishdan vujudga keladi. Fikrlashning mohiyati dunyoning ichki rasmidagi tasvirlar bilan ba'zi kognitiv operatsiyalarni bajarishdan iborat. Ushbu operatsiyalar sizga dunyoning o'zgaruvchan modelini bilvosita, xulosa chiqarish yoki fikrlash orqali qurish va yakunlash imkonini beradi.

Tafakkurning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini aniqlash muammosi hali ham zamonaviy jamiyatda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, ko'plab fanlar, jumladan, pedagogika va psixologiya tomonidan o'rganilmoqda. Xorijiy va mahalliy psixologik maktablarda fikrlashni tushunishga yondashuvlar sezilarli darajada farqlanadi (xorijiy psixologiyada fikrlash ko'pincha jarayon sifatida, mahalliy psixologiyada - faoliyat turi sifatida ko'rib chiqiladi). Nazariy qoidalarning ba'zilari, masalan, assotsiativ nazariya, yo izchil emas yoki etarli darajada isbotlanmagan, ishlab chiqilgan. Ichki, aqliy faoliyat tashqi, amaliy, ichki faoliyatning hosilasidir. Aqliy, nazariy faoliyatga tashqi, amaliy harakatlar va aksincha, amaliy faoliyat tarkibiga ichki, aqliy operatsiyalar va harakatlar kirishi mumkin.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ta'kidlashga imkon beradiki, ushbu bosqichda fikrlash turlarining quyidagi, bir oz shartli tasnifi qabul qilingan va turli asoslar bo'yicha taqsimlangan: rivojlanish genezisi, hal etilayotgan vazifalarning tabiati; joylashish darajasi, yangilik va o'ziga xoslik darajasi, fikrlash vositalari, fikrlash funktsiyalari o'rganildi va tahlil qilindi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni ayta olamizki, bundan keyin tafakkur haqida gapirganda, biz faoliyatning alohida turini, inson ijodiy faoliyatining eng yuqori shaklini tushunamiz, bu obyektlarning subyektiv tasvirlari, ma'nosi va ma'nosini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan in'ikosidir. Har qanday

faoliyat kabi, fikrlash ham obyekt tomonidan bilvosita, ichki o'ziga xos naqshlar, maqsadlar, motivlar orqali aniqlanadi va odamlar hayoti sharoitida haqiqiy qarama-qarshiliklarni hal qilish, uning yangi maqsadlarini shakllantirish, yangi vositalar va maqsadlarga erishish rejalarini ochish uchun ishlatiladi.

Tavsiya etilgan ilmiy asoslar bo'yicha tafakkur tasnifini o'rganish bizni fikrlashning mahsuldor turini (ijodiy tasavvur asosida yuzaga keladigan) batafsil tahlil qilish zarurligi haqidagi g'oyaga olib keldi, fikrimizcha, divergent fikrlashning mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi. Biz ushbu tahlilni divergentsiya hodisasining xususiyatlarini aniqlab, keyinchalik tur tushunchasi - divergent fikrlashni o'rganish uchun asoslarga ega bo'lish uchun taqdim etamiz.

Divergentsiya lotincha divergentsiyadan kelib chiqqan tushuncha bo'lib, zamonaviy lug'at va ensiklopediyalarda matematik, biologik yoki lingvistik va hokazo deb talqin qilinadi. Zamonaviy fanlarda bu hodisa haqida umumiy tushuncha yo'q. Masalan, S.I.Ozhegov tomonidan tahrirlangan "Rus tilining izohli lug'ati"da divergentsiyasi maxsus ilmiy hodisa sifatida talqin qilinadi va "turi (yoki navlari), alohida sifati, faoliyatining xususiyatlarini, har qanday turdagi obyektlarning mavjudligi va rivojlanishini, bo'linadigan integral obyektning xususiyatini yoki qobiliyatini bildiradi.

Divergentsiya va konvergentsiya jarayonlari biologik evolyutsiya jarayonida, antropogenezda, etnogenezda, jamiyat madaniyati, inson tili va tafakkuri, ijtimoiy hayot taraqqiyotida, bilim, fan va boshqalar rivojida cheksiz sodir bo'ladi. ilmiy tafakkur usullarining keyingi tarixida ma'lumotlar hodisalari va rivojlanishini tushuntiruvchi o'ziga xos mexanizmlar, birinchi navbatda, matematika, formal mantiq, mexanika, biologiya, sinergetika va boshqalarni ochib

beradi.

Divergentsiya klassik mexanikaning va kinematika deb ataladigan barcha fizikaning ushbu qismida muhim tushunchadir. U obyektlarning mavjudligi va dinamikasi sifatida talqin etiladi, tizimlar va tarmoq tuzilmalari, shuningdek, nuqtalardan birida kengaytmalarga ega bo'lgan qismlarga bo'lingan o'zgarishlar ko'rinishidagi turli xil oqimlar, ya'ni vaqt bo'yicha bo'linish va birgalikda yasash.

Matematiklarning tasvirida (divergentsiya atamasini U.Klifford kiritgan) biz o'rganayotgan tushunchamiz berilgan nuqtani o'rab turgan yopiq sirdan oqib o'tuvchi vektor maydoni oqimining u bilan chegaralangan hajmga nisbati chegarasidir[4; 120].

Biologiyada "divergentsiya" tushunchasining paydo bo'lishi Charlz Darvinga tegishli. Ushbu fan nuqtai nazaridan, divergentsiya, birinchidan, ilgari bir-biriga bog'liq bo'lgan organizmlarning yangi xususiyatlar va xususiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladigan evolyutsiya jarayonida ularning xususiyatlari va xususiyatlarining farqlanishi sifatida qaraladi.

Divergentsiya hodisasini tahlil qilar ekanmiz, keling, umumiy holatda uchta elementdan iborat har qanday turdagi ob'ektlarning aloqa va o'zaro ta'sirining taxminiy sxemasiga e'tibor qaratamiz. Turli xil sifat va xususiyatlarga ega bo'lgan barcha ob'ektlar ichki rivojlanishni boshdan kechiradi. Ular ichki sabablar va tashqi shart-sharoit tufayli birlik va yaxlitlikning qaysidir nuqtasida qismlarga bo'linishga, ya'ni boshqa sifat yoki jihatning paydo bo'lishiga keladi. Bu yangi sifat mohiyatdir; dastlab oddiy ajralish, hech bo'lmaganda ikkilik. Ikkinchi bosqichda bu sifat allaqachon o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yangi obyektlarning bir vaqtning o'zida, parallel ravishda birga yashash bosqichiga o'tadi. Rivojlanishning ushbu

bosqichida ushbu ob'ektlar o'zlarining suverenitetini, mustaqilligini, barqarorligini, o'zgarishlarning alohida yo'nalishini, yangi intensivlik va atrof-muhitga moslashishni ta'minlaydi. Keyingi bosqichda, qulay sharoitlarda, keyingi o'zgarish va rivojlanish jarayonida bu ob'ektlar yaqinlashadi. Biz alohida holatlardan tashqari divergensiya, konvergensiya va oraliq beqaror holat (bifurkatsiya) mavjudligi vaqt oraliqlarining davomiyligi har xil ekanligini ta'kidlaymiz.

Divergensiya fenomeni haqidagi g'oyalarni turli fanlar nuqtai nazaridan o'rganib chiqqandan so'ng, biz atamalarni va ularning o'zaro ta'sirini tushunish uchun zamonaviy pedagogik va psixologik tushunchalar g'oyalarni tahlil qilishga o'tishni mantiqiy deb hisoblaymiz: ijodiy va divergent fikrlash.

Ijodiy, samarali, ijodiy fikrlash tushunchasi bizning keyingi o'rganishimiz mavzusidir. Biz ushbu atamalarning sinonim sifatida keng va uzoq vaqt davomida ta'lim psixologiyasida qo'llanilganligini aniqladik. Ilmiy adabiyotlar tahliliga murojaat qilib, biz psixologik-pedagogik nazariyalarning eng yirik vakillari "ijodiy fikrlash" tushunchasini qanday aniqlaganliklarini, ular aqliy faoliyatning mahsuldor va reproduktiv tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlar masalasini qanday hal qilishlarini aniqlash vazifasini qo'ydik.

Ilmiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, har qanday holatda ham fikrlash haqida gap ketganda yangining paydo bo'lishi haqida aytiladi, lekin bu yangining tabiati turli nazariyalarda turlicha ko'rsatiladi. Reprodukativ fikrlash nazariyalarida "yangi" murakkablik yoki rekombinatsiya natijasida paydo bo'ladi, asosan o'tgan tajribaning mavjud elementlarining o'xshashligi, vazifa talablari va mavjud bo'lgan subyektiv jihatdan bir xil elementlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni amalga oshirish.

Muammoni hal qilishning o'zi mexanik sinov va xatolik asosida, so'ngra tasodifiy topilgan to'g'ri yechimni aniqlash yoki ilgari tuzilgan operatsiyalarning ma'lum tizimini yangilash asosida davom etadi.

Olimlarning fikriga ko'ra, fikrlash o'tmish tajribasiga tayanmasdan samarali bo'lolmaydi va shu bilan birga u undan tashqariga chiqishni, yangi bilimlarni kashf qilishni o'z ichiga oladi. Har doim yangi, yanada murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Tafakkurda dialektik ziddiyatli birlikda uning mahsuldor va reproduktiv komponentlari to'qiladi va ularning muayyan psixik faoliyatdagi o'ziga xos vazni har xil bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, mahalliy ilmiy adabiyotlarda fikrlashning ayrim turlarini ajratishga qarshi e'tirozlar mavjud: ishlab chiqarish va reproduktiv. Shu bilanbirga, tafakkurni o'rganuvchi olimlarning aksariyati bunday bo'linishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar. Adabiyotda aqliy faoliyatning bu turlari (tomonlari, tarkibiy qismlari) turlicha nomlanadi. "Fikrlash mahsuli" tushunchasining sinonimlari sifatida: ijodiy fikrlash, mustaqil, evristik, ijodiy, divergent kabi ifodalangan.

Demak, bizning fikrimizcha, divergent fikrlashda ijodkorlikning asosiy xususiyati ikki komponentni birlashtirgan intellektual faoliyat bo'ladi: kognitiv va motivatsion. Biroq, divergent fikrlashni shakllantirish muammosi kontekstida biz aqliy faoliyatga psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatishning adekvat vositalarini ishlab chiqishda o'ziga xos bo'lgan uning shaxsiy tomonini ajratib ko'rsatishni zarur deb hisoblaymiz. Bizning fikrimiz quyidagicha tuzilgan: agar shaxsiy-emotsional jihat fikrlash jarayonining zaruriy shartlari bilan bog'liq bo'lsa va subyekt tomonidan qabul qilingan vazifani qo'yishda ustunlik qilsa, u holda shaxsiy-refleksiv jihat aniq yechim topish va kashf qilish jarayonida ustunlik qiladi. Fikrlash

OLIIY HARBIY TA'LIM KURSANTLARIGA TIL O'RGATISHDA DUCH KELINADIGAN QIYINCHILIKLAR

SAMADOVA SVETLANA JONTOSHEVNA, mustaqil izlanuvchi
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti

Аннотация. Maqolada o'qituvchilar tomonidan xorijiy tilni o'rgatishda uchraydigan muammolar ko'rib chiqilishi bilan birga ularga yechimlar ham berib borilgan. Ta'limda uchraydigan qiyinchiliklar o'rganilishi jarayonida bir qancha olimlar fikrlari bayon etilgan. Chet tilini o'rgatish bo'yicha olimlarning yozgan fundamental ishlari til o'rgatishdagi muhim muammolarni hal qilishda nazariy asos bo'lib xizmat qilganligi yoritib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: nolingvistik, tinglab tushunish, gap strukturasi, leksik birlik, psixologik, pedagogik, qiyinchilik, ob'yektiv, sub'yektiv, ta'lim jarayoni.

Abstract. In the article, the problems faced by teachers in teaching a foreign language are considered, as well as solutions are given to them. In the process of studying the difficulties encountered in education, the opinions of several scientists were expressed. It is explained that the fundamental works written by scientists on foreign language teaching served as a theoretical basis for solving important problems in language teaching.

Key words: non-linguistic, listening, sentence structure, lexical unit, psychological, pedagogical, difficulties, objective, subjective, educational process.

Аннотация. В статье рассмотрены проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели при обучении иностранному языку, а также приведены пути их решения. В процессе изучения трудностей, возникающих в обучении, были приведены мнения ряда ученых. Объясняется, что фундаментальные работы, написанные учеными по преподаванию иностранных языков, послужили теоретической базой для решения важных проблем в обучении языкам.

Ключевые слова и словосочетания: нелингвистический, аудирование, структура предложения, лексическая единица, психологические, педагогические, трудности, объективный, субъективный, учебный процесс

XX asrning oxirgi yillarida ta'lim tizimiga bo'lgan talab va e'tibor butun dunyoda keskin o'zgardi. Chet tilini o'qitishdagi izlanishlar yangi ilmiy yo'nalishning ochilishiga sabab bo'ldi, ya'ni buning asoschisi hisoblangan T.S. Serova kasbiy yo'naltirilgan universitetlarda chet tilini o'rgatishning nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Oliy harbiy ta'lim kursantlariga chet tilini o'qitish muammolarining ayrim tomonlari L.P. Bichenok, T.A. Graboy, Yu.A. Panasenko, N.B. Frolova kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. G.I. Shemet yozgan dissertatsiya ishida leksik komponentni optimallashtirish asosida harbiy oliy o'quv yurtlari kursantlariga chet tilini o'qitishni takomillashtirish mezonlarini ishlab chiqishning asosiy pedagogik usullari va shartlarini aniqlash kabi masalalar

ko'rib chiqiladi. [3] O.P. Paronina o'zining dissertatsiyasida kursantlarning dialogik nutqlari, fikrlashlari va ularni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari haqida so'z yuritadi.[4] V.M. Ochkasova, A.D. Xotinskaya, L.I. Polyanskaya, E.A. Ryabuxina kabi olimlarning ishlarida muloqot paytida nutqni shakllantirish muammolari o'rganilgan. Yana boshqa tadqiqotlarda professional, jumladan harbiy nutqni o'rgatish usullari ko'rib chiqilgan. Ularga E. C. Bolshakova, E.V. Vekshin, L.V. Makar, L.P. Bichenok, R.G. Zaytseva, V.P. Menshikovlarning ishlari misol bo'ladi. I.N. Romanova o'z tadqiqot ishlarida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammolarini yoritib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA

METODOLOGIYASI

Kursantlarning til o'rganishlari bilan bog'liq muammoni o'rganish ularning ta'lim jarayonida bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlandi. Buning asosiylari esa quyidagilar:

- o'rganishda vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik, til o'rganuvchilar 70-80 % vaqtini nazariyani o'rganishga, amaliyotga esa 30-20% vaqtni sarflaydilar.

- ingliz tili nutqini eshitganda tushunmaslik, bu – eng ko'p tarqalgan muammolardan bo'lib, buning sababi kursantlarda tinglab tushunish qobiliyatining pastligidir. Yana boshqa sabab esa kursantlarning ingliz tilidagi leksik birliklarni yakka holda eshitishga odatlanganliklaridir. Muammoni hal qilish uchun ko'proq ingliz tilida audio va video materiallar tinglash va ko'rish lozim bo'ladi.

- yodlangan so'zlarni tezda unutilib ketishi;

- ingliz tilidagi zamon guruhlarini tushunmaslik;

- ingliz tilida gap strukturasi tuza olmaslik;

- ona tilining aralashuvi;

- tovushlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar.

Yodlangan so'zlar, zamon guruhlarini, gap strukturalari gapirish ko'nikmasi orqali mustahkamlanib borilishi maqsadga muvofiqdir. Ingliz tilini o'rganish, undagi fonetik, grammatik va leksik qiyinchiliklarni yengish har kuni tizimli ravishda shug'ullanishni talab qiladi.

Ilmiy manbalarni ko'rib chiqish chet tilini ona tilining aralashuvisiz o'rganish imkonsiz ekanidan dalolat beradi, biroq butunlay ona tiliga tayanib qolishlilik ingliz tili nutqini erkin o'rganishni qiyinlashtiradi. Chunki bu ikki til turli oilalarga tegishlidir. Birinchi tilni inson o'zi sezmaganda o'zlashtirsa, chet tili ongli ravishda o'rganiladi. O'zbek va

turkiy tillarda so'zlashuvchilar ingliz tilidagi aniq va noaniq artiklni, zamonlar tizimini, predlogli fe'llarni, gap strukturasi tuzilishini tushunishga qiynaladilar. O'zbek tilida "Biz har kuni yuguramiz va badan tarbiya mashqlarini bajaramiz" gapini ingliz tilida "We run and do morning exercises everyday" deb tarjima qilinadi. Misoldan gap qurilishi ikki tilda bir biridan keskin farq qilishini ko'rib turibmiz. Kursantlar tarjima qilganlarida ona tilida qanday bo'lsa shundayligicha ingliz tiliga o'giradilar va xatolikka yo'l qo'yadilar.

Nazariy jihatdan ta'kidlanganidek, ta'lim olishning murakkabligi pedagogik hodisadir, u to'rt elementning munosabati bilan tavsiflanadi: pedagog, kursant, vosita va harbiy tayyorgarlik muhiti. Ingliz tilini o'rganishdagi qiyinchiliklarga aniqlik kiritadigan bo'lsak, bundan ta'limdagi shaxsiy to'siqlarni o'z ichiga olgan ob'yektiv-sub'yektiv pedagogik hodisa tushuniladi. Shaxsiy to'siqlar fonetika, grammatika, og'zaki nutq va yozish ko'nikmasi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarni va kursantlarning o'quv faoliyatining yetarli darajada ruhlantirilmaganini o'z ichiga oladi.

Ta'lim qiyinchiliklarini bartaraf etish uchun aniqlangan keyingi yondashuv leksikani o'rganish bo'lib, bunda leksik birliklarning shakli, ma'nosi va qo'llanishini maqsadli o'zlashtirish tushuniladi. So'zlarning qo'llanishi deganda uning kommunikativ ahamiyati, shu bilan birga uning boshqa leksik birliklar bilan moslashishi tushuniladi. Leksik birliklarni kiritishda bir qancha usullar masalan, lug'atni tarjimasiz tushunish va tarjima orqali tushunish usullari mavjud. Ko'p vaqtlar tarjimali tushunish usuli yaxshi emas, uning o'rnida leksikani tarjimasiz, ya'ni ko'rgazmalar orqali, izohlar berish, antonym va sinonimlarni ishlatish, fahmlab topish kabi usullar bilan kiritish yo'llari haqida muhokamalar olib borilgan. Bu yondashuvni a'lo darajadagi yondashuv deb

hisoblash mumkin, biroq buni qo'llash uchun juda ko'p vaqt ketib qoladi, bundan tashqari ba'zi so'zlarni so'z tuzulishi o'zgacha bo'lganligidan ma'nosini to'liq ochib berish mumkin bo'lmay qoladi.

Kursantlar uchun keng tarqalgan qiyinchiliklarda yana biri savollarning leksik ma'nosini tushunishdir "What are you?" – "Nima ish qilasiz?" bu savolga javob berishda professiya yoki kasb nazarda tutilishi kerak "I am an officer/a cadet". Kursantlar bu savolni "Who are you?" savoli bilan chalkashtiradilar. Javobda o'zi haqida ya'ni ismi va familiyasi berilishi kerak. "What do you do?" savolining ma'nosi nima ish bilan shug'ullanishni nazarda tutadi va javobida "I am a cadet" "Men kursantman" bo'lishi kutiladi. Ular ko'p hollarda bu savolni "What are you doing?" "Hozir nima qilyapsan" manosida tushunib qoladilar. Ma'lumki kursant leksika va grammatikani yaxshi bilmasa muloqot jarayonida qiyinchilikka duch keladi. Bunga asosan ularning so'zlarni tushunmasdan yodlashlari va dialogik yoki monologik nutqda qo'llay olmasliklari; ma'nosiz tarjima qilishlari sabab bo'ladi.

Kursantlarning til o'rganishidagi muammoni faqat pedagogik jihatdan emas balki psixologik tomondan ham ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Sobiq maktab o'quvchisi uchun oliy harbiy ta'lim muassasasida o'qishi ularning hayotida va shaxsini shakllanishida yangi bir pog'ona bo'lib hisoblanadi. Ko'pgina birinchi bosqich kursantlari uchun bu maskanda tahsil olish va o'qish shakliga ko'nikish katta psixologik yuk deb tavsiflanadi. [2] A. A. Kamishev fikricha kasbiy moslashuv o'rganish ko'nikmalarini egallashni o'z ichiga oladi va birinchi bosqichda bu yetakchi hisoblanadi. Kursant shaxsidagi o'zgarishlar aynan shu ko'nikmalarining muvaffaqiyatiga bog'liq. Bu bosqichda moslashish bir qator harbiy fanlarni o'rganish bilan birga xizmat majburiyatlarini

bajarish shartini qo'yadi. [1] Ko'pgina kursantlar harbiy bilim yurtiga o'qishga qabul qilinganlaridan so'ng chinakam stressni boshlaridan kechiradilar. Harbiy ta'limning o'quv faoliyati umumta'lim maktablaridan o'zining yuqori talablari bilan farq qiladi. Ta'lim hajmining oshishi bilan yangi fanlarni o'zlashtirish va idrok etish jarayonida qiyinchiliklar paydo bo'ladi, shaxslararo munosabatlarning rivojlanishida murakkablik namoyon bo'ladi, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar yaratish zarurati ortib boradi, bo'ysunish va buyruqlarga rioya qilishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi, erkin harakatlanishlarda cheklovlar yuzaga keladi.

Kursantning ruhiy holati uning o'z harbiy vazifasini chuqur anglaganligiga bog'liq. Ular fuqarolik va harbiylik vazifalarini his qilsalargina ularda ijobiy holat yuzaga keladi. Harbiy bilim yurtidagi ta'lim xizmati bilan boshqa o'quv yurtlardan ajralib turadi, ba'zi cheklovlar zarurati ob'yektiv qiyinchiliklarga sabab bo'ladi, masalan ijtimoiy doiraning torayganligi, ota-onalar hamda yaqin qarindoshlar bilan muloqotning cheklanganligi, xizmatdagi vazifalar va talablarni bajarish uchun sevimli mashg'ulotlardan voz kechishga to'g'ri kelishi kabilar.

Yuqorida keltirilgan misollarni tahlil qilib aytish mumkinki, turli xil qarama qarshiliklar asosiy ta'lim qiyinchiliklari sifatida hisoblanib, kursantlarning til o'rganish natijalariga ta'sir qilishi mumkin. Ko'pgina kursantlar o'rganish uchun motivatsiyaning yetishmasligini aytdilar va qiyinchilikning paydo bo'lishiga ta'sir qiluvchi sabablarni quyidagicha deb hisoblaydilar:

- kelajakda harbiy kasb doirasida ingliz tilini bilish zarurligini anglamaslik;

- ta'lim faoliyatini harbiy vazifalarni bajarish bilan birga olib borish charchoq, asabiylashish va stressli vaziyatlarga olib kelishi;

- birinchi bosqich kursantlarini harbiy tayyorgarlikka moslashishlarining qiyin kechishi;

- o'z-o'zini nazorat qilishning yetishmasligi va mustaqil tayyorgarlik jarayonida ingliz tilini o'rganish uchun vaqt ajrata olmaslik;

- ingliz tilini o'rganish mobaynida duch kelinadigan qiyinchiliklarini bartaraf etish uchun psixologik jihatdan kuchsizlik;

Chet tilini o'rganishdagi qiyinchiliklarning sabablarini o'rganib chiqib, qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri – kursantlarda ingliz tilini o'rganish motivatsiyasining yetarli darajada shakllanmaganligidir, deyishimiz mumkin. Ko'pgina o'qituvchilarning qiziqarli vazifalarni ishlab chiqishlari va ingliz tilini o'rgatishning samarali usullarini qo'llash bo'yicha sa'y-harakatlari ham kursantlarning ushbu fanni o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yordam bermaydigan holatlar ro'y bermoqda. Zamonaviy psixologlar va pedagoglar o'quv faoliyati jarayonida vazifalarni bajarish o'quvchilarning motivlari va ehtiyojlarining darajasiga bog'liqligini aniqlaganlar. Biroq, kursantlarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishda o'qituvchilar psixologik to'siqlar va salbiy munosabatlar ko'rinishidagi qiyinchiliklarga duch keladilar. Oliy harbiy bilim yurtlari kursantlariga ingliz tilini o'rgatishning dastlabki bosqichida o'qituvchilarning vazifasi ularni o'z vaqtida tashxislash va tuzatishdan iboratdir.

Qiyinchiliklarni yengishda ichki motivatsiya tashqi motivatsiyadan yuqori turadi. Ichki motivatsiyaga ega kursantlar o'quv jarayonida ichki ziddiyatlarni boshdan kechirmaydilar va ularning barcha sa'y-harakatlari tashqi to'siqlarni, masalan, vaqt yetishmasligi, jismoniy charchash, o'quv fani yuklamalarining ortishi kabi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratiladi.

Ular ichki ziddiyatlarini yengish bilan vaqt ketkazmaydilar, aksincha ularning o'quv faoliyati bilimga qiziqish va chet tilini bilish darajasini oshirish istagi bilan boshqariladi.

Qiyinchiliklarni yengish uchun kursantlar auditoriyadan tashqari vaqtda ingliz tilini o'rganish bilan shug'ullanishi, eshitib tushunish mashqlarini bajarishi taklif qilinadi. Aytish joizki, o'qituvchining dars o'tish uslubi nafaqat ingliz tilini o'rganish jarayoniga balki natijaga va kursantlarning ingliz tilini o'qitishga bo'lgan ishtiyoqini oshishiga, ularning o'z o'zini baholay olishiga, o'qituvchi va guruh o'rtasidagi munosabatlarga ham sezilarli darajada ta'sir qiladi. Kursantlar ko'phollarda avtoritarta'lim uslubiga ega o'qituvchilarni yoqtirmaydilar. Bunday uslub kursantlarda motivatsiya yo'qolishiga, o'z bilimiga ishonmaslikka, g'ayratining pasayishiga va umidsizlikka tushishlariga olib keladi. Kursantlarni qiziqishlari, qiyinchiliklarni yengib o'tishlari uchun ingliz tilida so'zlashuvchi hafta kuni, davra suhbatlari, munozaralar, mavzuviy suhbat klublari, konferensiya, intellectual turnirlar, harbiy matnlar tarjimai konkursi, ma'lum bir mavzu bo'yicha prezentatsiya tayyorlash va taqdim qilish, mamlakat tarixi viktorinalarini tashkil etish foydadan xoli bo'lmaydi. Sanab o'tilgan mustaqil ishlar kursantlarning qiziqishlarini oshishiga, o'zaro bir-birlarini tushunishlariga, uyalish hissini yengishlariga, leksika va grammatika bo'yicha bilimlarini mustahkamlashlariga, ijobiy muhit yaratilishiga hamda ularda gapirish ko'nikmasini rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bunday muloqot usullari tufayli kursantlar tanqidiy fikrlashni rivojlantiradilar, mantiqiy fikrlaydilar, argumentlar keltirish, qarshi dalillar bilan isbotlashni o'rganadilar.

O'quv jarayonini tashkil qilishda o'qituvchilar chet tilini o'rganish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga erishish uchun o'quv

materialini kursantlarga eng to'liq, qiziqarli va tushunarli tarzda taqdim etishga intiladilar. O'qituvchilar jarayonning sub'yektlari sifatida ingliz tilini oliy harbiy ta'lim sharoitida o'rganish zaruratining sabablaridan biri ingliz tili hozirgi va kelajakdagi ofitserlarga boshqa mamlakatlar bilan bo'lib o'tadigan keng ko'lamli musobaqalar, konferensiyalar, seminarlar hamda o'zaro tajriba almashishlarda zarur ekanligini tushunishlari kerak.

Qiyinchilikni yengish sub'yekt va ob'yektning ya'ni o'qituvchilar va kursantlarning o'zaro uyushgan harakatini nazarda tutadi. Ingliz tilini o'rganishdagi qiyinchiliklarni aniqlash kursantlarning salbiy motivatsion munosabatlarini yaxshi tomonga o'zgartirishga; ingliz tilini o'rganishda ta'lim qiyinchiliklarining erta oldini olishga; ta'limdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishda uning darajasini hisobga olishga qaratilgan. Ingliz tilini turli darajadagi bilimga ega kursantlarga o'rgatish oson emas, ammo ularning kelajakdagi kasbi doirasida ingliz tilidan foydalanishga nisbatan salbiy munosabatini o'zgartirish hamda unga qiziqtirish yanada qiyinroq va mashaqatliroqdir. Agar ingliz tilini o'rganishdagi qiyinchiliklar uzoq va barqaror xarakterga ega bo'lmasa, ularni qo'shimcha darslar, individual maslahatlar, sekin o'zlashtirayotgan kursantlar uchun qo'shimcha topshiriqlar berish yordamida yengib o'tish mumkin.

Ta'limdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o'quv vazifalarini amalga oshirishni ta'minlaydigan quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

- ta'limni tarbiyalash va rivojlantirish tamoyili (maqsadlarga erishilgunga qadar to'xtamang).

- kommunikativ yo'nalish tamoyili (har kuni 5-10 ta so'z yodlang);

- ta'limni differentsiallashtirish va

individuallashtirish tamoyili (birga ta'lim oluvchi kursantlardan yordam so'rash va o'z-o'zini rag'batlantirishni shakllantirish);

- ona tilining nutq xususiyatlarini hisobga olish tamoyili (ona tiliga tayangan holda o'qitish);

- aktivlilik va onglilik tamoyili (yangi ma'lumotlarni o'rganish uchun mustaqil ravishda harakat qilish);

- qiyinchiliklarni yenga olish tamoyili (tez-tez, kam-kamdan o'rganish va kundalik rejimda ingliz tilini o'rganish uchun 20-30 daqiqa ajratish);

- mustahkamlash tamoyili (yangi bilimlarni nutq amaliyotida mustahkamlash, kunduz o'rganilganlarni kechqurunda bir bor eslash).

Ushbu tamoyillarni samarali amalga oshirish uchun quyidagi shart sharoitlar bo'lishi kerak:

- o'rganilayotgan ob'ektni to'g'ri belgilash, dars mazmunini sinchkovlik bilan tanlash;

- darsni tayyorlashda o'qituvchilarning yuqori kasbiy mahorati;

- kursantlarning mustasqil ta'lim olishi va o'zini o'zi nazorat qilishini o'quv jarayoniga kiritish;

- muammoli ta'lim usullaridan foydalanish, darsning barcha bosqichlarida aqliy faoliyatni faollashtirish;

- mashg'ulotlarda individual va guruhlarda ishlash;

- kursantlarning yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

- integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasini qo'llagan holda o'qituvchi tegishli uslublar, shakllar va vositalarni to'g'ri tanlashi.

XULOSA

Berilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, kursantlar o'rtasidagi ta'lim qiyinchiliklarini bartaraf etish jarayonining barcha tarkibiy va mantiqiy elementlari o'zaro

GEOMETRIYA KURSIDA BA'ZI YASASHGA DOIR MASALALARNI YECHISH USULLARI

SHARIPOVA SADOQAT FAZLIDDINOVNA
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali, O'zbekiston

Annotasiya. Odatda yasashga doir geometrik masalalarni yechishni yengillashtiruvchi va uning to'la yechilishini ta'minlovchi to'rtta bosqichga rioya qilinadi. Ular: analiz, yasash, isbotlash va tekshirish bosqichlaridir. Ushbu ishda yasashga doir masalalarni bosqichlab yechishga doir ba'zi masalalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: geometriya, yasash, analiz, sintez.

Аннотация. Как правило, выполняются четыре шага, чтобы облегчить решение задач геометрического проектирования и обеспечить их полное решение. Это этапы анализа, создания, доказательства и проверки. В данной работе представлены некоторые вопросы, связанные с поэтапным решением вопросов изготовления.

Ключевые слова: геометрия, построение, анализ, синтез.

Abstract. Generally, four steps are followed to facilitate the solving of geometrical design problems and ensure their complete solution. They are: analysis, creation, proof and verification stages. In this work, some issues related to the step-by-step solution of manufacturing issues are presented.

Key words: geometry, construction, analysis, synthesis.

Yasashga doir masalalarni quyidagi bosqichlarga bo'lib yechish bir muncha oson usullardan biri hisoblanadi:

1. Analiz (analysis) grekcha so'z bo'lib, biror jism yoki hodisani bo'laklarga ajratib tekshirish degan ma'noni bildiradi.

Yasashga doir masalani analiz qilish deb, bu masalani yechilishi oldindan ma'lum bo'lgan masalalarga ajratish va ularning yechilish tartibini aniqlashga aytiladi.

Analizda "izlangan figura topildi" deb faraz qilinib, uni masalaning talabiga mumkin qadar to'la javob beradigan tarzda taxminan chizib qo'yiladi. So'ngra bu taxminiy (ya'ni analiz chizmasi)da berilgan ma'lumotlarning bor yo'qligi aniqlanadi va yetishganlari masala shartiga muvofiq chizib qo'yiladi, bu figura asosida izlangan figura bilan masalada berilganlar orasidagi bog'lanishlar aniqlanadi. So'ngra bu figuraning qaysi elementlarini qay tartibda yasash mumkinligi belgilanadi.

Bu esa izlangan figurani yasash planining o'zginasi bo'ladi.

Analizda ko'pincha masalada

berilganlarga tayanib, shunday yordamchi figura topish nazarda tutiladiki, bu yordamchi figuradan izlangan figuraga o'tish mumkin bo'lsin.

Shuning uchun analiz –masala yechishning eng muhim (ijodiy) bosqichi yoki tayyorgarlik bosqichi deb ataladi.

2. Yasash –masala yechishning amaliy bosqichidir. Bu bosqichda analizda tuzilgan plan bo'yicha sirkul va chizg'ich yordamida izlangan figuraning ayrim elementlarini va butun figurani ustalik bilan chiza bilish talab etiladi.

3. Isbot (sintez). Bu bosqich masala yechishning sinash bosqichi bo'lib, unda masalaning to'g'ri yechilganligi, ya'ni yasalgan figuraning masala talablariga javob berishi isbot qilinadi. Yasashda bajarilgan ishlarga va tegishli teoremlarga tayanib isbotlanad

4. Tekshirish. Bu bosqich ham masala yechishning ijodiy bosqichi bo'lib, yasashga doir masalaning yechilishi umuman shu bosqichda yakunlanishi kerak.

Bu bosqichda masalada berilgan ma'lumotlarning o'zgarishi masala yechimiga qanday ta'sir etishi o'rganiladi, ya'ni qaysi hollarda yechimning bo'lishi va nechta bo'lishi, qanday hollarda yechimning bo'lmasligi aniqlanadi.

Yasashga doir masalalarni bosqichlab yechish, to'g'ri yechish garovidir. Lekin, shuni esda tutish lozimki, har qanday masalani yechishda ham bu to'rtala bosqichga qat'iy rioya qilish shart emas. Masalaning og'ir-yengilligiga, sodda-murakkabligiga qarab, bu bosqichlarning ba'zilarigagina to'xtalish mumkin. Masalan, yechilish yo'li masala shartidan anglashilib tursa, analizga hojat qolmaydi, yechishning to'g'riligi analiz va yasashdan ochiq ma'lum bo'lsa, isbot uchun ehtiyoj qolmaydi.


Yechish bosqichlarining mohiyatini turli qiyinlikdagi masalalarni yechish vaqtlarida ravshanroq ko'rish mumkin.

Kitobning bu paragrafini berishdan maqsad-turli qiyinlikdagi masalalar yechilishida yechish bosqichlarining ahamiyatini ko'rsatishdir.

Shu maqsadda analizsiz yechib bo'lmaydigan masalalardan misollar keltirib, bu ishni yordamchi chiziq o'tkazmasdan analiz qilish mumkin bo'lgan eng sodda masalani qarashdan boshlaymiz.

O'quvchi (yoki talaba)larning kuchiga qarab, bu masalalardan bir-ikkitasini tanlab ularga ko'rsatishni va qolganlarini esa to'garak mashg'ulotlarida ishlatishni tavsiya qilamiz.

1-masala. Bir kateti va ikkinchi katetiga o'tkazilgan medianasi berilgan to'g'ri burchakli uchburchak yasang.




Analiz. Izlangan uchburchak topildi deb faraz qilib, uni taxminan chizib qo'yaylik: 1-I chizmadagi $\triangle ABC$ -izlangan uchburchak va uning berilgan elementlari $AB=\alpha$, $BD=m_b$ va $\angle C=90^\circ$ bo'lsin. Bu uchburchakni yasash uchun uning A, B va C uchlarini topish kerak. $BC=\alpha$, tomoni berilgani uchun uning B va C uchlari ma'lum. A uchi uchburchak AC va AB tomonlarining kesishish nuqtasi bo'lsa ham bu tomonlar nama'lum bo'lgani uchun ular yordamida A nuqtani bevosita topib bo'lmaydi. Shuning uchun to'g'ri burchakli $\triangle BCD$ ni qaraymiz. Uning BC kateti, BD gipotenuzasi va $\angle C=90^\circ$ berilgani uchun uni yasash mumkin. Berilishiga ko'ra, BD kesma mediana bo'lgani uchun $AD=CD$. Shuning uchun $\triangle BCD$ ning CD kateti davomida unga teng kesa olib, A nuqtani topish mumkin. So'ngra A va B nuqtalarni tutashtirsak, $\triangle ABC$ hosil bo'ladi.

Demak, masala shartida berilganlar bo'yicha to'g'ri burchakli $\triangle BCD$ ni yasab, uning yordamida izlangan $\triangle ABC$ ga o'tish mumkin. Masala yechishda foydalanilgan $\triangle BCD$ yordamchi figura bo'ladi.

Yechishning yasash, isbotlash va tekshirish bosqichlari o'z-o'zodan ravshan bo'lgani uchun ular ustida to'xtashga ehtiyoj yo'q.

1-A masala. Bir burchagi va shu burchagi uchidan chiqqan balandligi hamda bissektrisasi berilgan uchburchak yasang.

Analiz. Izlangan uchburchakni topildi deb faraz qilib, uni taxminan chizib qo'yaylik: 1-II chizmadagi $\triangle ABC$ -izlangan uchburchak bo'lib, uning berilgan elementlari esa $\angle A$, $AD=h_a$ va $AE=l_A$ bo'lsin.



Izlangan $\triangle ABC$ ni yasash uchun A,B va C uchlarini topish kerak. Chizmaga ko'ra, $\triangle ABC$ ning A uchi undagi to'g'ri burchakli $\triangle ADE$ ning A uchidan iborat; B va C uchlari esa DE to'g'ri chiziqning berilgan $\angle B_1$ $\angle C_1 = \angle A$ burchak tomonlari bilan kesishish nuqtalaridan iborat.

Berilgan AD kateti va AE gipotenunazasi bo'yicha ma'lum yo'l bilan to'g'ri burchakli $\triangle ADE$ yasash mumkin.

Masalada berilganlarga ko'ra, $\triangle ADE$ ni yasash va undan izlangan $\triangle ABC$ ga o'tish mumkin bo'lgani uchun to'g'ri burchakli $\triangle ADE$ yordamchi figuradir.


Analizda tuzilgan plan bo'yicha izlangan $\triangle ABC$ ni yasang.

2-masala. Ikki to'g'ri chiziq va ularda yotmagan nuqta berilgan; bu nuqtadan berilgan; bu nuqtadan berilgan to'g'ri chiziqlar orasidagi kesmasi shu nuqtada teng ikkiga bo'linadigan to'g'ri chiziq o'tkazing.

Analiz. Masala yechildi deb faraz qilib, unga tegishli chizmani taxminan chizib qo'yamiz (2-I chizma). Izlangan chiziq, berilgan P nuqtadan o'tib, berilgan AB va CD to'g'ri chiziqlarni X va Q nuqtalarda kesuvchi MN to'g'ri chiziq bo'lsin. Unda masalaning shartiga binoan

$$PX=PQ(1)$$

tenglikni yoza olamiz.



Izlangan to'g'ri chiziqni topish uchun P nuqtasidan boshqa yana birorta

nuqtasini, masalan, izlangan chiziqning berilgan AB to'g'ri chiziq bilan kesishgan X nuqtasini topsak kifoya.

X nuqtani AB bilan yana birorta to'g'ri chiziqning kesishish nuqtasi sifatida aniqlashga intilamiz. Buning uchun X nuqtadan berilgan CD to'g'ri chiziqqa parallel KL to'g'ri chiziq o'tkazaylik:

$$PF \perp CD(3)$$

va bu perpendikulyar davomining CD to'g'ri chiziq bilan kesishish nuqtasini E bilan belgilaylik. (2) va (3) ga muvofiq:

$$EF \perp CD(KL). (3^{\wedge})$$

ga va vertikal burchaklar bo'lgan $\angle 1$ va $\angle 2$ larning tengligiga hamda (3[^]) ga asosan:

$$\triangle PFX = \triangle PEQ.(4)$$

Bundan:

$$PF = PE.(4^{\wedge})$$

Shunday qilib, KL to'g'ri chiziq berilgan CD to'g'ri chiziqdan 2PE masofada yetishi aniqlandi. Demak, KL to'g'ri chiziqni berilgan P nuqta va CD to'g'ri chiziqdan foydalanib yasash mumkin ekan.

KL va AB to'g'ri chiziqlar kesishib, izlangan yordamchi X nuqtani hosil qiladi.

Yasash yo'li aniqlangan X nuqta va berilgan P nuqtadan izlangan MN to'g'ri chiziq o'tkaziladi.

Yasash. Berilgan P nuqtadan berilgan to'g'ri chiziqlarning biriga, masalan, CD ga PE perpendikulyar o'tkazamiz (2-I chizma).

EP kesmaning davomiga PF=PE kesmani qo'yib, EF to'g'ri chiziqqa uning F nuqtasidan KL perpendikulyar o'tkazamiz.

KL va AB to'g'ri chiziqlarning kesishgan X nuqtasidan va berilgan P nuqtadan MN to'g'ri chiziq o'tkazamiz.

Isbot. Topilgan MN to'g'ri chiziqning masala talabiga javob berishini, ya'ni:

$$PX = PQ$$

tenglikning mavjudligini ko'rsatish kerak (2-I chizma). Buning uchun PFX va

PEQ uchburchaklarni solishtirib ko'ramiz.

Yasalishiga ko'ra: $\angle PFX = \angle PEQ = 90^\circ$,
 $\angle 1 = \angle 2$, $PF = PE$ bo'lgani uchun:

$$\Delta PFX = \Delta PEQ$$


Bundan:

$$PX = PQ.$$

Tekshirish. 1) Agar berilgan to'g'ri chiziqlar o'zaro parallel bo'lmasa, KL to'g'ri chiziq berilgan AB to'g'ri chiziq bilan kesishib, yordamchi X nuqtani hosil qiladi; bu holda masala yechiladi talabiga javob beruvchi bitta to'g'ri chiziq topiladi (2-I chizma).

2) Berilgan ikki to'g'ri chiziq o'zaro parallel bo'lib, berilgan P nuqta ulardan teng masofada yotmasa, masala yechilmaydi, chunki bu holda $KL \parallel AB$ bo'lib, yordamchi X nuqta hosil bo'lmaydi (2- II chizma).

3) Agar berilgan ikki to'g'ri chiziq o'zaro parallel bo'lib, berilgan P nuqta ulardan teng masofada yotsa, KL to'g'ri chiziq AB to'g'ri chiziq bilan ustma-ust tushadi. Bu holda ular cheksiz ko'p umumiy nuqtaga ega bo'lib, masalaning talabiga javob beruvchi to'g'ri chiziqlar cheksiz ko'p bo'ladi (2-III chizma).



3-masala. Uchburchakning asosiga parallel qilib, uchburchak yon tomonlarining asos tarafidagi kesmalari yig'indisiga teng bo'lgan to'g'ri chiziq o'tkazing.

Analiz. Masala yechildi deb faraz qilib, unga tegishli chizmani taxminan chizib olamiz (3-I chizma). ABC-berilgan uchburchak, MN-izlangan to'g'ri chiziq bo'lsin. Masala shartiga muvofiq:

a) $MN \parallel BC$ va b) $DE = BD + CE$.
 (1)

BD kesmani o'lchab, DE kesmaga qo'ysak, unda $DX = BD$ va $XE = CE$ bo'ladi. Bundan:

$$DE = DX + XE \quad (2)$$

Demak, X nuqtani topib, undan BC asosga parallel to'g'ri chiziq otkazsak, masala yechilar ekan.

Endi analiz chizmasidagi X nuqtani topib, undan B va C nuqtalar bilan tutashtirib, X nuqtaning yordamchi figura bo'la olishini isbot qilamiz.

Xaqiqatdan ham, $MN \parallel BC$ bo'lgani uchun $\angle 3 = \angle 2$. ΔBDX -teng yonli bo'lganidan $\angle 3 = \angle 1$. Bundan


$$\angle 1 = \angle 2 \quad (3)$$

Xuddi shu yo'l bilan CX to'g'ri chiziq - C burchak uchun bissektrisa ekanligini isbot qilish mumkin. Demak, X nuqtani B va C burchaklar bissektrisalarining kesishish nuqtasi sifatida topish mumkin ekan.

Endi izlangan to'g'ri chiziqni topish uchun X nuqtadan berilgan uchburchakning asosiga parallel to'g'ri chiziq o'tkazilsa kifoya.

Yasash. Berilgan uchburchak asosidagi B va C burchaklarning BK va CF bissektrisalarini chizamiz (3-II chizma).

So'ngra chizilgan ikki bissektrisaning kesishish nuqtasidan BC asosga parallel qilib izlangan MN to'g'ri chiziqni o'tkazamiz.



Isbot. BK-bissektrisa bo'lgani uchun:

$$\angle 1 = \angle 2.$$

MN \parallel BC bo'lgani uchun

$$\angle 3 = \angle 2.$$

Bundan:

$$\angle 1 = \angle 3.$$

Demak, BDX uchburchak teng yonli bo'lgani uchun $BD = DX$.

Shuningdek, $CE = EX$. Bu ikki tenglikni

hadlab qo'shib, (2) tenglikni hosil qilamiz.

Tekshirish. Berilgan uchburchak har qanday bo'lganda ham uning B va C burchaklarining bissektrisalarini va ularning kesishish nuqtasini topish mumkin. Bu nuqta bittagina bo'lgani uchun masalaning yechimi ham bitta MN to'g'ri chiziq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otajonov R. Yasashga doir masalalar.
2. А. Д. Блинков, Ю. А. Блинков. Геометрические задачи на построение. М.: МЦНМО, 2010.—152 с
3. Шарипов Х. и др. МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ОБУЧЕНИЮ РЕШЕНИЮ ЗАДАЧ НА ПОСТРОЕНИЕ. – 2023.
4. Шарипов Х. Ф., Шарипова С. Ф. РЕАЛИЗАЦИЯ ВИЗУАЛИЗАЦИИ ПРИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВЕ ТЕОРЕМЫ ЭЙЛЕРА В ПЛАНИМЕТРИИ И ЕЕ АНАЛОГ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 373-377.
5. Шарипова С. Ф., Олтмишев А. СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. – 2022.

